


21/506
7-53

Pirimqul Qodirov



SHOHRUX
VA
GAVHARSHOD

32(50)6
9-53

Pirimqul Qodirov

SHOHRUH
VA
GAZHARSHOD

Tarixiy roman

«Ona lochin vidosi» romanining
to'ldirilgan yangi nashri

TerDU AR₁₃
№ 396396

UO'K: 821.512.133-1

KBK 87(5O')6

Q 53

ISBN 978-9943-28-012-0

© «O'ZBEKİSTON» NMIU, 2014

TOG'LARGA TARMASHGAN BULUTLAR

Shohrux Mirzo suyukli malikasi Gavharshod begimga atab Hirotning ko'krakdor joyiga oq marmardan uch oshiyonlik qasr qurdirgan. Qasr atrofidagi bag'ri keng bog'da sarvlar, baland bo'yli va mayda bargli lisonut-tayr¹ va sanobar daraxtlari saf tortgan. Jiydaga o'xshagan kumushrang bargli bu azim daraxtlar quyoshda nuqraday oqish bo'lib ko'rinadi va oq marmar qasrga juda mos keladi. Shuning uchun bu boqqa Oydinbog' — Bog'i Safed deb nom bergenlar.

Qasrning yuqori qavatidagi naqshinkor ayvondan qorli Iskalja tog'lari ko'rini turadi.

Ayvonda kitob o'qib o'lirgan Gavharshod begin goho sahifalardan ko'zini olib, o'sha tog'lar atrofida o'ralashadigan bulutlarga o'ychan tikiladi. Baland tog' tizmasi ustidan oshib o'tolmaydigan og'ir qora bulutlar cho'qqilar boshiga shamol, bo'ron keltirishi, do'l yog'dirishi beginning qo'lidagi Yazdiy «Zafarnoma»sining tahlikali voqealariga o'xshab ketadi.

Gavharshod begin Amir Temur xonadoniga kelin bo'lib tushgandan buyon maylono Yazdiy qalamga olgan shiddatli tarixiy voqealarning naq ichida yurgan, iftixon qilsa arzigulik mas'ud kunlarni ham ko'rgan, iztirob va mashaqqat bilan o'tgan damlarni ham boshdan kechirgan.

Shuning uchun kitobda qisqacha yozib ketilgan voqealar ham beginning xotirasida bir dunyo his-tuyg'ular uyg'otadi, unutilmas tafsilotlar xayolida qayta tirilganday bo'ladi.

Yazdiy Shohrux Mirzoning ilk uylanish to'yi Samarqandning Bog'i Bihishtida bo'lganini birgina jumlada aytib o'tibdi.

¹ *Lisonut-tayr* — qush tili degani.

Shu birgina jumla Gavharshod beginning ko'zi oldida chindan ham jannatga o'xshaydigan Bog'i Bihishtni gavdalantiradi. Navro'z kunlarida shu bog'da boshiga oq harir ro'mol yopib, Sohibqiron qaynotasiga kelinsalom qilganlarini begin hayajon bilan eslaydi.

O'sha kuni u Amir Temurni birinchi marta yaqinginadan ko'rди. Uning otalarcha mehribon tovush bilan aytgan so'zlarini eshitdi:

— Bizning xonadonga qo'ygan poyi qadamiz qutlug' bo'lsin, bolam!

Salobatli nuroniy otaning «bolam!» degan so'zi haligacha Gavharshod beginning qulog'iga eshitilib turganday bo'ladi.

O'sha kuni Sohibqiron qaynotasi unga yirik-yirik la'llar qadal-gan bir juft oltin sirg'a in'om qildi.

Qaynonasi Bibixonim bu sirg'alarmi kelinining qulog'iga taqib qo'yar ekan:

— Bu in'omning teran ma'nosi bor, — dedi. — Endi hamisha xonadon sohibining gapiga qulq solgaysiz, aytganlarini so'zsiz ado etgaysiz!

— Jonim bilan, hazrat onajon! — deb shivirladi kelin.

Lekin xonadon egasining irodasiga bo'ysunib yashash oson kechmadi. Mudom tog'lar atrofida o'ralashgan bulutlarning shamol-bo'ronlarini eslatuvchi urush-yurishlarga chidash, ichkitashqi nizolarning girdoblaridan suzib o'tish juda qiyin bo'ldi. To'g'ri, beginning toleyiga Shohrux Mirzo faqat qilich choppadigan bahodir yigit emas, balki madrasa ko'rgan, kitobni sevadigan, oilaga astoydil mehr qo'ygan fozil inson bo'lib chiqdi. U bilan birga bo'lgan kunlarida Gavharshod begin o'zini baxtiyor his qiladi.

Ammo, bunday kunlar ham juda kamdan kam bo'ladi. Chunki Shohrux Mirzo Sohibqiron otasining uch yillik, besh yillik, yetti yillik yurishlarida minglab navkarlarga bosh bo'lib, ko'p vaqt oiladan yiroqlarda yurdi.

Begimning qo'lidagi kitobda bitilganidek, Sheruz shahri atrofidagi bog'ko'chalarda Shohmansur degan g'anim to'rt ming otliq askar bilan pistirmadan chiqib, Amir Temurga to'satdan hujum qiladi.

Bu xatarli voqeanning tafsilotlarini begim Shohrux Mirzoning o'zidan eshitgan.

Navro'z arafasi ekan, mevali daraxtlar qiyg'os gullagan. Amir Temurning o'ttiz ming kishilik qo'shini mevazorlarni ioptamaslik uchun bog'ko'chalarda bo'linib-bo'linib yo'l bosmoqda ekan.

Shohmansur shu atrofdagi pastqam bir joydan minglab qilich yalang'ochlagan suvoriylari bilan otilib chiqadi. Bog'ko'chaning torroq joyida Amir Temurni o'rta ga olib borayotgan yuztacha qo'riqchi askarlarni urib-yiqitib, sarkardaning o'ziga yetib boradi. Darg'azab g'animumning qilichi Amir Temurning qalqoniga bir emas, ikki marta uriladi. Uchinchi qilich zARBASINI Amir Temur chap qo'lda tutgan o'z qilichi bilan qaytaradi. Lekin Shohmansurning navkarlari ham qilich yalang'ochlab, Sohibqironga yaqinlashib bormoqda edilar.

Buni ko'rgan Shohrux Mirzo o'z yigitlari bilan bog'ko'cha devorlari ustidan ot sakratib o'tib, himoyaga yetib keldi. Shohmansur to'rtinchı marta qilich ko'targan paytda Shohrux unga orqa tomonidan yetib borib, bo'yniga shamshir urdi-yu, otdan yiqitdi. Shohruxning navkarlari Shohmansuring Amir Temur hamla qilib kelayotgan askarlari yo'lini to'sdilar. Shohmansuring yerga yiqilganini ko'rgan g'anum askarlari otlarini orqaga burib, tumtaraqay bo'lib qochdi. Shu tarzda dahshatli bir suiqasddan omon qolgan Amir Temur kenja o'g'lini bag'riga bosib, tasanno aytdi.

Toshkent yaqinidagi eski Binokent qal'asi yangidan qurib bitirilganda otasi Shohruxning o'sha jasoratini taqdirlab, bu joyga Shohruxiya deb nom qo'ydi.

Anqara yaqinida bo'lган hayot-mamot janglarida ham Shohrux o'z qo'shini bilan yov lashkarining markazini sindirib o'tib, Yildirim Boyazid turgan baland tepalikka birinchilar qatori yetib bordi. Qurshovda qolishini sezgan Rum qaysari tepalikning orqa tomonidan tushib qochishga majbur bo'ldi. O'sha tomonda pistirmada turgan Mahmud Sulton o'z askarlari bilan Yildirim Boyazidni quvib yetib, asir oldi.

Shohruxning bu ulkan jangda ko'rsatgan bahodirligi uchun Sohibqiron otasi unga sharqiy va g'arbiy viloyatlarning qoq belida turgan Xuroson o'lkasini inoyat qildi.

Gavharshod begin «Zafarnoma» sahifalarida mana shu ho-disalarning ta’rifini o‘qiganda o‘z umr yo‘ldoshidan astoydil iftixor qilib qo‘ydi. U Shohrux Mirzoni Amir Temurga munosib o‘g‘il deb hisoblardi.

Sohibqironning katta o‘g‘illari janglarda halok bo‘lgan, o‘rtancha o‘g‘il Mironshoh Ozarbayjonda gunoh ishlar qilib, hokimiyatdan chetlatilgan edi. «Endi Sohibqironning ishongan vorisi Shohrux Mirzo bo‘lur» degan so‘zlarni Gavharshod begin ko‘p odamlardan eshitardi.

Biroq vorislarning makkor dushmanlari bo‘larkan. Xo‘ja Heraviy degan keksa imom xatib Hirotning jome masjidida o‘qigan xutbalarida Amir Temurni bиринчи o‘ringa qo‘yib ulug‘lagan bo‘lsa ham, Shohruxning Hirotda obodonchilikka katta e’tibor berayotgani, bog‘lar barpo etgani, madrasa qurdirayotganini mislsiz zo‘r bunyodkorlik deb maqtaydi. Xo‘ja Heraviy bilan azaldan nizo qilib yurgan Xo‘ja Ahmad Tusiy nomli devonbegi buni Samarcandga chappa qilib yetkazadi. Go‘yo Xo‘ja Heraviy xutba o‘qiganda Shohruxni doimo otasidan baland qo‘yarmish. Uning maqtoviga uchgan Shohrux Xurosonda mustaqil davlat tuzib, otasining itoatidan chiqishi mumkin emish... Shu gaplar ta’sirida keksa xatib Xo‘ja Heraviy Hirotdan surgun bo‘lib, Turkistondan nari Sabron cho‘llariga ko‘chirma qilindi. Uning yaqinlaridan yana bir qanchasi Hirotdan badarg‘a bo‘ldi. Shohruxni otasi:

— Minba’d bunday xo‘jalarning qutqusiga uchmagin! — deb ogohlantirdi.

Lekin Shohrux Xo‘ja Ahmad Tusiy kabi makkor xushomadgo‘ylar pashshadan fil yasab, oraga ataylab g‘ubor solmoqchi bo‘lganini aytta boshlaganda otasi uning so‘zini kesdi:

— Hirotni qo‘rg‘on bilan o‘rab olmoqchi emishsen! Men qo‘rg‘on atrofidagi chohga tuproq soldirib tekislatgan edim. Uni qaytadan qazdirib, suv to‘ldirmoqchi bo‘libsen!

— Hazrat otajon, yozda afg‘on shamoli Hirotgа mudom chang-to‘zon keltirarkan, ko‘z ochirmay qo‘yarkан. Qo‘rg‘on bilan suv ana shu chang-to‘zonga qarshi bir chora!

— Heraviya o‘xshaganlar bu bahona bilan seni chalg‘itgan. Ahmad Tusiy ularni so‘roq qilib, ayblarini bo‘yinlariga qo‘ymishdir. Bir guruh fitnachilar Hirotni bizdan ajratib olish

uchun atrofiga choh qazdirib, qo'rg'on ko'tarmoqchi ekan.
Sen yoshlik qilib, ularning gapiga ishonib o'ltilibsen!

— Hazrat otajon, Ahmad Tusiyning gapiga ham ishonib bo'lmagay! Men iltijo qilurmen. Hirotga boshqa xolis taftishchilar yuborishingizni o'tinib so'raymen!

— Bitta Hirotni necha bor taftish qilaylik? Mening boshqa ishim yo'qmi? Xitoy yurishiga tayyorgarlik ketayotganidan xabaring bormi?

— Xabarim bor, lekin...

— Xabaring bo'lsa, gap tamom. Heraviylarga qarshii qattiq turishga o'rghan!

Qat'iy buyruq tarzida aytigan so'nggi gapni Shohrux Mirzo ta'zim bilan qabul qildi. Lekin ko'nning: «Men Xo'ja Ahmad Tusiya o'xshagan ig'vogarlarga ham qarshi turgaymen!» degan niyatni tugdi.

Shundan keyin Sohibqiron otaning butun xayoli Xitoy yurishi bilan band bo'ldi.

Yetti yillik yurishdan so'ng loaqlal biror yil dam olmasdan besh oy o'tar-o'tmas yana Xitoya yurish boshlash el-ulusga ham, xususan, sog'lig'ini ancha oldirib qo'ygan Sohibqironning o'ziga ham juda og'ir tushishini Shohrux Mirzo ich-ichidan sezar, lekin otasini bu niyatidan qaytarishga kuchi yetmas, faqat dardini Gavharshod begimga aytardi:

— Otam ancha kasalmand. Yoshi yetmishga yaqinlashdi. Shu ahvolda Xitoyday ulkan mamlakatga yurish qilish... Xushomadgo'ylar u kishiga: «Hali ham bahodir yigitdaysiz, Xitoy yurishidan yana bir olamshumul g'alaba bilan qaytishingiz aniq!» dermishlar... Men otamga to'y paytida yotig'i bilan aytdim. «Hazratim, biror yil dam olsangiz yaxshi bo'larmidi?» deb ko'rdim. Gapim yoqmadi. «Charchagan bo'lsang, mayli, sen dam ol, Xitoya men o'zim qo'shin tortaman!» dedilar. Ne qilay? Mening bu yurishga tarafdar emasligimni otamga xufiyalar ham yetkazgan bo'lsa kerak. Xitoy yurishidan oldin bo'lgan mashvaratga meni taklif qilmadilar. Shundan sezdimki, xushomadgo'ylar bilan hovhiqma beklarning so'zi o'tgan, bizniki o'tmagan. Sohibqironni yuzma-yuz olishuvlarda yengolmagan g'animlar endi behisob maqtov-u madhiyalar bilan uni borsa-

kelmas harbiy yurishning girdobiga tortmoqchilarmi?.. Bilmadim...

Shunday ulug‘ ota bilan sadoqatli o‘g‘ilning orasiga g‘ubor solgan makkor fitnachilar Gavharshod beginning tasavvurida tog‘larga tarmashgan qora bulutlarga o‘xshardi. Bu bulutlarni tarqatib yuborish va haqiqiy ahvolni ohib ko‘rsatish hozir hech kimning qo‘lidan kelmaydigandek tuyulardi. Gavharshod begin qaynotasi uchun ham, eri uchun ham kuyinar, ayniqsa, Xitoy yurishiga bobosi bilan birga ketayotgan o‘n bir yashar o‘g‘li Ulug‘bekning taqdiridan xavotirlanib iztirob chekardi.

Bu kuyinish va xavotirliklar bejiz emas ekan. Harbiy yurish qish kirganda boshlandi. Amir Temur bahorgacha Xitoy chegaralariga yetib borish va ko‘zlagan maqsadini yoz va kuz davomida amalga oshirib, yanagi qishgacha Samarqandga qaytish niyatida edi. Bunday reja Oltin O‘rdaga qarshi yurishda tajribadan o‘tkazilgan edi. Lekin aksiga olib o‘sha yilgi qish behad qattiq keldi. Qalin qor va qattiq sovuqlardan daryolar shu darajada muz bilan qoplandiki, Sirdaryodan O‘tror tomonga o‘tganlarida ot va tuyalardan tashqari og‘ir yuk ortilgan aravalari ham muz ustidan bemalol yurib bordi.

Qahraton qish chillasida Amir Temur mulozimlari va oila a’zolari bilan O‘tror hokimi Berdibekning muhtasham mehmonxonasiga kelib tushdi.

Hozir Gavharshod begin o‘qib o‘ltirgan kitobning guvohlik berishicha, mislsiz qattiq sovuq boshlangani uchun ot-ulovlardan katta bir qismi talafot ko‘radi, ko‘pgina navkarlarning qo‘l-oyoqlarini sovuq oladi, ba’zilarning burni va quloqlari sovuq urganidan uzilib tushadi.

Amir Temur, Bibixonim, Tuman oqo, nevaralardan Ulug‘bek va Ibrohim Mirzolar kelib tushgan Berdibekning mehmonxonasida kechasi birdan yong‘in chiqadi. Bu yong‘in maxfiy josuslarning ishimidi yoki qattiq sovuqlarda haddan tashqari ko‘p o‘t yoqqanlari ham sabab bo‘ldimi, buni aniqlashga ulgurisholmadi. Yong‘in paytida Amir Temur uchun bexatar joyda chodir o‘rnatgunlaricha tungi qattiq sovuq va izg‘irin shamol unga yomon ta’sir qildi. Isitmasi ko‘tarilib, qattiq xastalanib qoldi. Shundan keyin hammaning xayoli So-

hibqironni davolash bilan band bo'ldi. Ammo muolaja kor qilmadi.

Sohibqiron o'lim to'shabida yotganda donishmand xotini Saroymulkxonim va ishongan amirlaridan Shohmalik unga Shohruxni bir necha marta eslatdilar, ulkan mamlakatni idora qilish faqat shu o'g'ilning qo'lidan kelishini ishora qildilar.

Lekin qazo yaqinligini sezgan boshqa maslahatgo'ylar ham Amir Temur atrofida parvonaday aylanishmoqda edi. Ayniqsa, devonbegi Xo'ja Ahmad Tusiy, hakimi hoziq Fazlulloh Tabriziy, vazir Mas'ud Simmoniyalar Sohibqiron olamdan o'tgandan so'ng Xalil Sultonni taxtga chiqarish tarafdori edilar. Ularning bu boradagi maxfiy maslahatlariga turonlik amirlardan Xo'ja Yusuf va Samarqandda dorug'a bo'lib turgan Arg'unshoh ham qo'shilgan edi.

Voqeanning tafsilotlarini Gavharshod begim keyinchalik Xalil Sulton bilan Shodimulk beginning o'zlaridan eshitdi. Chunki chigal kalavaga o'xshaydigan bu yashirin ishning bir uchi Xalil Sulton bilan Shodimulk beginning ishq-muhabbatlari el orasida gap-so'z bo'lib, Sohibqironning qahriga uchraganiga bog'lanar ekan.

Oddiy hunarmand oilasida o'sgan Shodimulkning ta'rifga sig'maydigan go'zalligi bor edi. Uni Amir Temurning nufuzli amirlaridan Hoji Sayfiddin o'z haramiga kanizak qilib oladi. Lekin Shodimulk yoshi ellikdan oshgan to'rt xotini bor Amir Sayfiddinga ko'ngilsiz edi. Tabiatan sho'x va dadil qiz bo'lgan Shodimulk bog'ko'cha devoridan mo'ralab, yigirma bir yoshli bahodir shahzoda Xalil Sultonga o'z go'zalligini ko'rsatadi. Unga hatto bir qizil olma uzatadi. Xalil Sulton Shodimulkka mahliyo bo'lib qoladi. Keyin oraga vositachilarni qo'yib, u bilan yashirincha uchrashadi. Ikki orada kuchli muhabbat paydo bo'ladi.

Xalil Sulton ham uylangan, bitta o'g'il ko'rgan, lekin shariat bo'yicha uning yana uylanishga haqqi bor edi. Shuning uchun Shodimulkni o'z nikohiga olmoqchi bo'ladi.

Ammo Shodimulkni o'z haramida saqlab yurgan Amir Sayfiddin bu hodisadan xabardor bo'lib qoladi. Uning Amir Temur bilan eski qadrdonligi bor ekan. Shundan foydalanib, Sohibqironning qabuliga kiradi.

— Nevarangiz Xalil Sulton mening haramimdagi juvonni tortib olmoqchi! — deb shikoyat qiladi.

Amir Temur ishonzili odamlarini yuborib, taftish o'tkazganda, Shodimulk Xalil Sulton bilan yashirin bir joyda kechallari birga tunab yurgani ma'lum bo'ladi. Sohibqiron bunday nikohsiz birga tunashlarni «zino» deb yomon ko'rardi. Amir Sayfiddinga:

— Sizning haramingizdagagi juvon yengiltak ekan, bizning nevara bilan zino yo'liga kirmishdir, — deydi.

Shunda Amir Sayfiddin:

— Unday bo'lsa, bu juvонни о'limга buyursangиз ham men rozimen! — deydi.

Shodimulkni o'limga hukm qilishlari mumkinligidan xabar topgan Xalil Sulton o'zini tarbiyalab o'stirgan momosi Bibixonimga borib iltijo qiladi:

— Hazrat momo, Shodimulk pok ayol, men uni nikohimga o'tkazmoqchimen, siz guvoh bo'ling!

— Amir Sayfiddin uni nikohidan chiqarganmi, yo'qmi?

— E, u odam Shodimulkni nikohlab olmagan ekan. Nikohida to'rt xotini bo'lib, uni shunchaki kanizak qilib saqlar ekan.

Boshqa odamning nikohiga o'tmagan ayol boshi ochiq hisoblanardi. Shuning uchun Bibixonim Shodimulkni Xalil Sultonning nikohiga o'tkazishga yordamlashdi. Keyin Amir Temurning kayfiyati yaxshi paytini topib, uning huzuriga kirdi:

— Hazratim, Amir Sayfiddin Shodimulkni hali nikohlab olmagan ekan. Boshi ochiq bo'lgani uchun Xalil Sulton uni nikohlab olibdir. Men o'zim borib ko'rdim. Bo'yida bo'libdi. Hademay ona bo'lgay.

Amir Temur jahlidan tushdi.

— Mayli, qonidan kechdir. Ammo bu juvon el-yurt orasida shuncha noloyiq gap-so'zga sabab bo'ldi. Xalil Sulton Xitoy yurishida mening eng ishongan sarkardalarimdan bo'lg'ay. Bu xotini uvrusqa qo'shilib, harbiy yurishda erining ketidan ergashmasin, Samarqandda qolsin. Agar ergashsa, kuni bitgay! Ana shuni Xalil Sultonga ham aytib, qattiq ogohlantiring.

Sohibqironning so'zini ikki qilib bo'lmas edi. Oshiq-ma'shuqlar bir-birlaridan bir kun ham ajrashishni istamas-

lar da, farmoni oliyga binoan Xalil Sulton Shodimulkni Samarqandda qoldirib, o‘zi qo‘sish bilan Toshkentga kelib tushdi. Bu yerdan ham sevgilisiga muhabbat maktublari yozib, maxsus chopar orqali yuborib turdi.

Xalil Sulton Shodimulkni o‘limga buyurmoqchi bo‘lganlardan ranjib yurganini uning tarafдорлари yaxshi bilar edilar. Bu dovyurak yigit hech kimdan — hatto olamni titratgan bobosidan ham tap tortmay sevgilisini himoya qilgani Xo‘ja Ahmad Tusiy, Alaviddin Tabriziy, Mas’ud Simnoniy kabilarga juda yoqar edi.

Sohibqiron bilan doim shohmot o‘ynaydigan, goho unga atayin yutqizib berib, juda ustalik bilan xushomadlar qiladigan, qiziq-qiziq hangomalardan aytib, podshohni kuldira ola-digan Alaviddin Tabriziy ham shu guruhga kirar edi.

— Hazratim, siz hali bahodir yigitdaysiz, mana, hakimi xosingiz mavlono Fazlulloh ham aytisinlar, siz Xitoydan yana bir olamshumul g‘alabaga erishib, sog‘-salomat qaytgaysiz!

— Bo‘lajak g‘alabangiz faqirga tushimda ayon bo‘ldi! — dedi Xo‘ja Ahmad Tusiy. — Sizning oq fil minib Samarqandga qayt-ganizingizni tushimda ko‘ribmen!

Xos hakim Fazlulloh Tabriziy ham bu yashirin guruhning bashoratlarini tasdiqlab, keksa sarkardaning qahraton qish sovuqlarida harbiy yurishga chiqishiga tarafdar edilar.

Sohibqironning atrofida girdikapalak bo‘lib yurgan bu odamlarning ko‘ngillarida boshqa orzular bor edi. Bu yilgiday qattiq qishlarda tog‘-u cho‘llarda Amir Temurning harbiy yurishlariga qatnashib, mashaqqat chekkan paytlarida ular o‘zlarini tug‘ilib o‘sgan go‘zal Eron shaharlari — Tabriz, Tus va Simonlarni sog‘inishardi. Qachonlardir bir vaqt o‘z yurtlariga boylig-u martaba bilan qaytishni o‘ylashardi. Qadimiy madaniyat o‘chog‘i bo‘lgan Eronning temuriylar qaramog‘idan chiqishi-ni, yana mustaqil davlat bo‘lishini istashardi. Albatta, bu orzu va istaklar tabiiy edi. Lekin bu orzularning amalga oshishi uchun Temuriylar saltanati parchalanishi va o‘zaro urush-larda yana ko‘p qonlar to‘kilishi muqarrar edi. Shuning uchun bu orzular dil tubida pinhon saqlanar va ularni ro‘yobga chiqarish uchun Amir Temur vafotidan keyin Xalil Sultonni taxtga

chiqarish Xo'ja Ahmad Tusiylarning maqsadiga juda muvofiq kelardi.

Chunki Xalil Sulton yosh, birorta viloyatni ham boshqarib ko'rmagan tajribasiz yigit. Xalil Sulton faqat Turon va Turkistoniga podsho bo'lish bilan qanoatlanishi mumkin. Uzoqdagi Tabriz-u Sherozlarni Samarqand taxtida o'tirib boshqarish uning qo'lidan kelmasligi aniq.

Ammo Shohrux Mirzo Sohibqirondan keyin podsho bo'lsa, Turon bilan birga Xuroson va Eronni ham otasi kabi yaxlit bir saltanat doirasida ushlab turishga kuchi yetardi. Shuni yaxshi biladigan Xo'ja Ahmad Tusiy Amir Temur bergen vakolat bilan Hirotg'a borib, Shohrux Mirzoga yo'q joydagi ayblarni taqab kelgan va ota-bola orasiga ataylab sovuqlik solgan edi.

Mana endi O'trorda ham Xalil Sulton tarafdarlarining butun harakati Shohrux Mirzoni valiahd qilmaslikka qaratildi.

Suyukli nevarasi Muhammad Sulton bevaqt vafot etganda Sohibqiron bobosi juda qattiq musibat chekkan edi. Akasiga o'xshabroq ketadigan polvontaxlit Pirmuhammad Mirzoni bobosi bag'riga bosib yig'lagan edi:

— Endi sen akangning o'rnnini olgin, bolam! Akangni valiahd qilaman degan edim. Endi iloyo sen akangning o'rniغا valiahd bo'lgin!

Qulog'ini ding qilib bu so'zlarni eshitgan beglar begi¹ Ahmad Tusiy yonidagi xos hakim Habibulla Tabriziy va Mas'ud Simnoniya ma'nodor ko'z tashlab oldi. Shu uchovlari Sohibqironning bu so'zlarini dillariga mahkam tugdilar. Amir Temur O'trorda o'lim to'shabida yotganida ular Pirmuhammad Mirzoni Sohibqironga eng iliq so'zlar bilan eslata boshladilar.

Ularning asl maqsadlari Xalil Sultonni valiahd qilish edi. Lekin Shodimulk voqeasidan keyin «Xalil Sulton valiahd bo'lsin» degan gapni Sohibqironga mutlaqo aytib bo'lmasligini bilishardi. Shohruxni valiahd qilmaslik uchun Pirmuhammad Mirzo nomzodini qo'llab-quvvatlash vaqtdan yutish uchun qilinadigan bir chora edi.

¹ *Beglar begi* — bosh vazir sanalgan.

Bu katta va qaltis o'yinda Xalil Sulton tarafdorlari xuddi shoh-motdag'i keyingi yurishlarni ham oldindan ko'rib dona surmoqda etilar. Chunki Pirmuhammad Mirzo hozir Kobul va Haybar dovonidan naridagi uzoq va iliq bir maskanda qishlamoqda edi. O'trordan jo'nagan chopar qish kunida Hindikush tog'idan oshib, Pirmuhammad Mirzoga o'lim xabarini yetkazguncha kamida yigirma kun o'tadi. U yoqda Pirmuhammad Mirzo qo'l ostidagi viloyatlarni ishonchli odamlarga topshirib, Samarqandga yetib kelguncha undan ko'proq vaqt ketadi. Bu orada Xalil Sulton Samarqandda taxtni egallab, mustahkamlanib oladi.

Ahmad Tusiy va uning sheriklari Sohibqiron O'trorda o'lim to'shagida yotganda og'ir musibat paytida nevarasi Pirmuhammadga: «Endi sen qolding, bolam, marhum akangning o'rnnini sen olasan, valiahd sen bo'lasan», degan so'zlarini unga bir necha marta muloyim qilib eslatdi.

Tusiy Sohibqironning bir so'zlik odam ekanini yaxshi bilar-di. O'sha og'ir musibat paytida Pirmuhammadga aytgan so'zlarini Sohibqironning yodiga tushdi. Lekin Shohruxday azamat o'g'li turganda nevarani valiahd etib tayinlasa, adolatdan bo'lmasligini sezib, biroz ikkilandi. Shu payt Ahmad Tusiyning ishora-si bilan xos hakim mavlono Fazlulloh qo'lidagi sariq dori solingan oltin piyolani Sohibqironning labiga yaqinlashtirdi. Bir qo'li bilan bemorning bilagidagi tomiridan tutib, xavotirli to-vush bilan dedi:

— Hayajonlanmang, hazratim, yurak urishingiz tezlashib ketdi. Shu dorini iching, yaxshi bo'ladi! Iching!

Ahmad Tusiy ham:

— Iltimos, hazratim! O'tinamiz! Iching! — deb yalindi. Sohibqiron dorini ichayotganda sal yengil tortgandek bo'lidi. Lekin ko'p o'tmay bo'shashib ketdi. Hamma narsaga befarq bo'lib qoldi. Uning shu holatidan foydalanib, ikkovlashib dorini oxirigacha ichirishdi. Ahmad Tusiy ta'zim qilib:

— Aylanay hazratimdan! — dedi. — Bu ulug' zot hech qachon aytgan so'zidan qaytgan emaslar. Hozir ham qayt-maydilar! Baxt qushi Pirmuhammad Mirzoning boshiga qo'nadi! Shundaymi, hazratim?

Sohibqiron o'ng qo'lini sal ko'tarib, tutila-tutila dedi:

— Shunday... So‘zim bitta!..

Endi xos hakim ham quvonib, Sohibqironga uch marta ta’zim qildi.

Ko‘p o‘tmay eng nufuzli bek-u a’yonlarni bemor yotgan xonaga chaqirdilar. Ularning orasida Bibixonim va shahzoda Ulug‘bek bilan Ibrohim yo‘q edi.

Shunda Bibixonim Xo‘ja Ahmadga yuzlanib, yig‘lab gapirdi:

— Tepamizda Xudo bor, janob Tusiy! Shohruxday o‘g‘il-lari turganda nevarani valiahd qilish shariatga to‘g‘ri kelar-mikin?

— Buni Sohibqiron bizdan yaxshi bilurlar. Sizni shahzo-dalar bilan keyinroq chaqiradilar, o‘zлari aytdilar.

«Aytmagan bo‘lsa ham bu makkor o‘zi to‘qib chiqaryapti!» degan so‘zlar Bibixonimning ko‘nglidan o‘tdi.

Kechki payt nufuzli beklar va sarkardalardan o‘n chog‘li kishini Sohibqiron yotgan xonaga boshlab kirdilar. Xonaga boshqa hech kim yaqinlashmasligi uchun qilich taqqan va nayza tut-gan o‘ntacha soqchini maxfiy majlis bo‘layotgan xona atrofiga qorovul qilib qo‘ydilar.

Yig‘ilganlar uchun Sohibqiron o‘zining so‘nggi qarorini zaif, past tovush bilan aytdi. Qattiq bir yo‘taldan keyin ovozi sal ochilib, Pirmuhammadga sodiq bo‘lishni, bir yoqadan bosh chiqarib ish olib borishni tayinladi. «Shoyad davlatni men kabi adl-u ehson bilan boshqarsalar... mamlakat uzoq vaqt siz-larniki bo‘lg‘usidir...» — dedi.

Beklardan biri yig‘lab turib: «Sohibqiron hazratlari, jon kerak bo‘lsa biz o‘z jonimizni sizga bag‘ishlashga tayyormiz!» — dedi. Boshqalar ko‘zlariga yosh olib, bu so‘zlarga qo‘shildilar. Shoh-malik so‘zlashga ruxsat olib taklif kiritdiki, «Toshkent uzoq emas, hech bo‘lmasa Xalil Sulton kabi sarkardalarni chaqirsak, siz aytgan gavhar so‘zлarni o‘z quloqlari bilan eshitsalar» — dedi. Bu gapga Sohibqiron:

— Vaqt oz, — deb javob berdi. — Majol yo‘q! ... Ular ... yetib kelolmaslar. Ular bilan diydor ko‘rishish endi qiyomatga qoldi. Sizlar bilan hozir so‘nggi muloqot... Bihamdullo, diniy muloqotdan ko‘nglimga orzu qolmaydir. Magarkim farzand Shohruxnikim, hozir bu yerda ko‘rmadim...

Sohibqiron so‘nggi so‘zlarni armon bilan aytganini hamma sezdi. Uning Shohruxga aytadigan muhim gaplari bor edi. Shunday barkamol o‘g‘li turganda, uzoqda yurgan nevarani valiahd tayinlagani unga endi xiyol mavhum tuyulmoqda edi.

Bek-u a‘yonlar tarqagandan keyin Sohibqiron Ahmad Tusiyaga:

— Endi shahzodalarni chorlang, — dedi. — Hazrat Bibixonim boshlab kirsin.

«Siz boshlab kiring» deyilmagan bo‘lsa ham Ahmad Tusiy muhim bir narsadan quruq qoladigandek, Bibixonim bilan shahzodalarni o‘zi boshlab kirdi.

Bibixonim bemorning oyoq tomoniga cho‘kkalab, kuyinib yig‘lagan holda:

— Mendin rozi bo‘ling, hazratim! — dedi. Sohibqironning ko‘zida ham yosh yiltiradi.

— Iloj qancha, Bibijon... taqdir shu ekan... Men sendin mingdan ming rozimen. Sen bilan o‘tgan umrimga shukrona aytamen.

Bu so‘zlardan Bibixonim o‘zini tutolmay, o‘kirib yig‘ladi. Nevarasi Ibrohim uni ikki qo‘lidan olib:

— Buvijon, og‘ir bo‘ling, jon buvijon! — deb yalinib tinchitdi.

Hushyor turgan nevarasidan Sohibqiron mamnun bo‘lib, Ibrohimning boshini siladi:

— Ilohim baxtli bo‘l, umring uzoq bo‘lsin! — deb duo qildi.

Sohibqiron o‘ng yonidagi Ulug‘bekka yuzlandi:

— Endi meni Ulug‘bek bilan yolg‘iz qoldiringlar. Shu nevaramga aytadigan gapim bor...

Ulug‘bek bobosi bilan yolg‘iz qolganidan keyin uning o‘ng tomoniga o‘tib, qulog‘ini bobosiga yaqin tutdi.

— Otangga o‘xshaysan, Ulug‘bek. Shohruxni sog‘indim. Qani hozir yonimda bo‘lsa?!

— Otam ham sizni jondan aziz ko‘radilar, hazratim!

— Ahmad Tusiy menda yomon shubha uyg‘otgan edi. Karaxt qiladigan dori ham berdimi nima balo?! Endi sal xayolim tinganday bo‘lyapti. Men hozir bir gap aytaman. Yaxshi eslab qol. Bir so‘z qoldirmay otangga borib ayt.

— Jonim bilan aytamen!

— Agar Pirmuhammad valiahdlikni eplasa durust, eplolmasa, hokimiyatni Shohrux qo‘liga olsin. Ko‘pchilik bek-u sar-kardalar Shohruxga moyil. Men ham Shohruxga ishonaman, oq fotiha beraman. Faqat aql bilan, tadbir bilan qon to‘kmay ish ko‘rsin. Bu gaplarni otangdan boshqa hech kimga aytma. Xo‘pmi?

— Xo‘p, Hazrat bobojon!

Sohibqiron uning peshonasidan bir o‘pdi-da, so‘zida davom etdi:

— Shohrux menga «biror yil dam oling» deb to‘g‘ri aytgan ekan. Yetti yillik yurishdan keyin dam olmay, Xitoyga yurish boshlash... Buni menga otam rahmatli ham tushimga kirib eslatdi... Qalin o‘rmon orasida otim bog‘loqlik turgan ekan. Birdan otam paydo bo‘ldi. Indamay, men tomonga o‘girilib ham qaramay, egarlog‘lik otimning oldiga bordi. Ustidagi egar-jabdug‘ini yechib oldi-da, yo‘lning naryog‘iga eltib qo‘ydi. Keyin bir payt otam g‘oyib bo‘ldi. Cho‘chib uyg‘ondim.¹ Chodirda sovqotib yotibman. Tushundingmi? Otning egarini olib, yaydoq qilib ketgani «harbiy yurishga bormagin, yutqizasan!» deganlari ekan. O‘g‘lim Shohrux xuddi shu gapni menga muloyimroq qilib aytgan ekan. «Biror yil dam oling» deganda men unga piching qilgan edim. «Charchagan bo‘lsang, sen dam ol, Xitoyga men o‘zim qo‘sish tortaman» degan edim. Lekin Shohrux haq ekan! Haq! Sen buni otingga borib ayt. Har qalay, Shohrux o‘g‘lim oldida dilimni pokladim, buni ham borib ayt!

TAQDIR TAQOZOSI

Yo‘lda qattiq charchagan Ulug‘bek ota-onasi bilan Bog‘i Safedga kelib tushdi. Hammomda yuvinib, toza kiyimlarini kiy-gach, dasturxon ustida ota-onasiga bo‘lgan hodisalarini bir-bir aytib berdi.

— Hazrat bobom menga muhim bir gap aytganini mak-kor Ahmad Tusiy sezdi. Shuning uchun bittasi Samarqandga

¹ Ushbu tush lavhasi Bo‘riboy Ahmedovning «Amir Temur» kitobida keltirilgan.

kelgunimcha og‘zimni poylab keldi. Buxoroda bo‘lsa, «tutib olib hibs qilinsin» degan farmon bor ekan. Amu bo‘yigacha ta’qib etib kelishdi-ku! Xayriyat, niyatlariga yetishholmadi noinsoflar!

— Yaratganga shukur, — dedi Shohrux. — Panohida asrapti.

— Bobom menga qarab: «Temuriylar sulolasini iloyo otang bilan sen davom ettiringlar! Omin!» — deb yuzlariga fotiha tortdilar.

Bu gaplarni eshitganda Shohruxning ko‘zidan yosh oqib ketdi, yuziga fotiha tortganda kafti ho‘l bo‘ldi. O‘zini tutolmay, o‘kirib yig‘lay boshladi:

— Voy otajonim-ey! Shunchalik tanti, ulug‘ odam endi yo‘q! Yer ostida! Voy, bunga qanday chidab bo‘ladi?!

Ulug‘bek ham otasiga qo‘silib: «Voy bobojonim-ey!» deb yig‘lay boshladi. Ularning yig‘isiga Bibixonim qo‘sildi. Ular o‘sha kundan boshlab ko‘k kiyib, aza tutdilar. Yaqin-yiroqdan xesh-aqrabolar, yor-u birodarlar yig‘ilib, aza ochdilar.

Mahalla-ko‘ylarda, jome masjidlari oldida qo‘ylar so‘yilib, el-yurtga xudoyi oshlar tortildi.

* * *

Vaziyat juda noziklashib ketdi. Valiahd Pirmuhammad Mirzo Balxga yetib keldi-yu, Shohrux Mirzo bilan maslahatlashmay, achchiq ustida bir elchini quyidagi qisqa maktub bilan Samarqandga — Xalil Sultonga jo‘natdi:

— Janob Xalilbek! Ulug‘ bobomiz Amir Temur ixtiyoridagi valiahdlikni sizga kim berdi?

Albatta, bu achchiq so‘zlar Xalil Sultonning jon joyiga borib tegdi. U yanada achchiqroq bir javob yozib yubordi:

— Janob Pirmuhammadbek! Amir hazratlariga taxt-u mamlakatni bergen qodir egam endi menga ham inoyat qildi.

Bu javobni o‘qigan bek-u a’yonlar Xalil Sultonning juda katta ketganini, o‘zini Amir Temurdan ham baland qo‘yib, hatto bobosining nomi-yu Sohibqironligini ham qalamga olmaganini ko‘rgandan keyin, «endi qirg‘in urush bo‘ladi!» deb, bexatar joy izlab qoldilar.

Shohrux Mirzo podshohlarga xos bir bosiqlik bilan o‘z yerida salobat saqlab turar edi. Betaraf turgan tajribali sarkardalari eng bexatar joy deb Shohrux Mirzo mulkini tan oldilar va to‘p-to‘p bo‘lib, Hirotg'a kela boshladilar.

Vaqt — adolatli hakam — Xalil Sultonga qarshi ishlayotganini ko‘pchilik sezib turardi. Pirmuhammad Mirzo ham hozirgi temuriylar orasida eng munosib voris Shohrux Mirzo ekanini tan olmasdan, shoshqaloqlik qilmoqda edi. Undan boshqa odam bo‘lsa, avval yoshi katta Shohrux Mirzoning maslahatini olishi kerak edi, keyin Xalil Sulton bilan olishsa, biron natija bo‘lishi mumkin edi... Hozir u ham o‘z kuchiga ortiq darajada ishonib, darhol qilich yalang‘ochladi.

Ularning jangi qadimgi Nasaf yaqinida, daryo bo‘yida bo‘ldi. Ikkovining ham botir yigitlari ko‘p edi. Lekin Pirmuhammad Mirzoning yigitlaridan bir necha ming kishi g‘alabaga ishonmasligi tufayli urushmasdan, Xalil Sulton tomonga oq bayroq ko‘tarib o‘tib ketdi. Xalil Sulton iste’dodli sarkarda edi. Qo‘smini ko‘payganidan ustalik bilan foydalandi. Jang uning g‘alabasi bilan tugadi. Pirmuhammad Mirzo Balxga chekindi.

Uning yonida yurgan vaziri Pir Ali Toz Balxning Hinduvon qal’asida «G‘alaba bizniki bo‘ladi!» deb katta ziyofat tayyorlatgan, ajoyib xonandalar va Hindistondan olib kelingan raqqosalarni bazmga chaqirtirib qo‘yan edi.

Alamzadalikdan ichishga o‘rgangan Pirmuhammad Mirzo qal’aga qaytgandan keyin o‘tkir mayi nobdan bir kosa ko‘tardi. Shu bilan ziyofat va ichkilikbozlik tong otguncha davom etdi.

Bu voqeanning tafsilotlari Shohrux Mirzoning Balxdagi xufiyalari orqali o‘sha kuni kechgacha Hirotg'a ham yetib bordi.

Samarqandga g‘alaba bilan qaytgan Xalil Sulton Sohibqiron bobosi o‘nlab yillar davomida yiqqan eng katta oltin xazinalarini ochtirdi. Jangda g‘alaba keltirgan bek-u navkarlarga oltin tangalardan hovuchlab mukofot berdilar. Xazina juda katta ekan, shuncha oltin ulashsalar ham tagi ko‘rinmas edi. Shundan keyin Shodimulk begin oltin tangalarga to‘ldirilgan chelakkarni xizmatkorlarga ko‘tartirib, baland qal’a devorining ustiga chiqdi. Pastda turgan va olqish aytayotgan minglab odamlarga oltin tangalarni xazon yaproqlariga o‘xshatib socha boshladidi.

Bu uning g‘alaba shodiyonasiga atab el-yurtga ulashayotgan
yurtdosh edi.

Bu g‘alabadan keyin Xalil Sulton bosar-tusarini bilmay,
hujjat qurʼati, aysh-u ishratga berildi. Davlat ishlarini xotini
Shodimulk begim boshqardi, Bobo Turmush degan bir
qurʼadoshini vaziri a’zam qilib ko’tardi. Bobo Turmush Balxdagi
Pirmuhammad Mirzoning vaziri Pir Ali Toz bilan yashirin
shaxsi o’rnatdi. Bobo Turmushning qutqusi bilan Pir Ali Toz
Pirmuhammad Mirzoni Balx qal’asida kechasi uxbab yotgan
paytda xotinini ham unga qo’shib qilichdan o’tkazdi. Bu qotillik
siziga Samarqanddagi Bobo Turmush Xalil Sulton nomidan
Pir Ali Tozni Balx va Badaxshon hukmdori qilib ko’tardi.

Niyonatkorlarga bunchalik erk berib qo’yilsa, temuriylar
halokatga uchrashi mumkin edi. Shuni sezgan Shohrux
Mirzo Hirotdan Balxga Pir Ali Tozga qarshi qo’shin tortdi. Pir
Ali Toz Balxdan Badaxshonga qochdi. Shohrux Mirzo uni ta’qib
Badaxshonga kelayotganidan xabar topgach, qotil Sa-
marqandga borib, homiyalaridan ko’mak so’radi. Xalil Sulton
Pir Ali Tozni deb Shohrux bilan urushishni istamadi. Shundan
so’ng Pir Ali Toz Afg’onistonda yashaydigan hazoralar to-
moniga qochib o’tdi. Shohrux Mirzo uni ta’qib etib, hazoralar
tortiga qo’shin tortdi. Hazoralarga maxsus elchilar yuborib, Pir
Ali Tozni tutib berishni talab qildi. Shohruxdan hayiqadigan
hazoralar Pir Ali Tozning boshini kesib, terisiga somon tiqib,
Shohruxning elchisiga berib yubordilar.

Shu tarzda Pirmuhammad Mirzoning qasdini olgan Shohrux
Mirzo Balxga uning katta o‘g‘li Qaydu Mirzoni hokim qilib
o’mindadi. Endi Balx va uning atroflari ham Shohruxning qalamraviga
kindi.

Bu hodisa Shohruxning qudrati va nufuzini qanchalik oshir-
ib bo’lsa, Samarqandda turib Pir Ali Tozga yon bosgan Xalil
Sulton va Bobo Turmushlarning obro’siga shunchalik putur
qilib qildi. Xalil Sultonga toj-u taxtni olib bergen Amir Xudoydod
Xudoyniy va Amir Arg‘unshoh Bobo Turmushni hokimiyatdan
tashqatishga urinib ko’rdilar. Ammo Shodimulk begim bunga yo’l
bermadidi, aksincha, Xudoydod bilan Arg‘unshohning o’zlarini
chetga surib tashladi. Xalil Sultonga ona o’rnida tarbiya ber-

gan Saroymulkxonim sirli bir tarzda to'satdan vafot etdi. Unga Bobo Turmush zahar berib o'ldirgani haqida ovozalar tarqaldi. Ular yana Amir Temurning xotirasini behurmat qilib, uning sadoqatli bevasi Tuman oqoni Shayx Nuriddingga majburan nikohlab berib, Samarqanddan chiqarib yubordilar.

Noroziliklar tobora kuchayib, oxiri katta bir guruh amirlar va navkarlar Xalil Sultonga qarshi isyon ko'tardilar. Samarqandning kun chiqish tomonida Sheruz degan qishloq yonida Xudoydod Husayniy boshliq isyonchilar Xalil Sulton qo'shinini tor-mor qilib, o'zini asir oldilar.

Asl voqeadan bexabar odamlar: «Shohrux Mirzo Xalil Sultonni urushda yengdi. Samarqand taxtini undan tortib oldi», degan mish-mishlarga ishonadilar. Vaholanki, Shohrux Mirzo Xalil Sulton bilan biror marta qilich yalang'ochlab jang qilgan emas, Xalil Sultonni taxtga chiqargan amirlarning o'zi Xudoydod boshchiligidagi uni taxtdan tushirdilar. Uning xotini Shodimulq begimni ham kanizlari bilan asir olishib, Shahrisabzga yetib kelgan Shohrux Mirzo huzuriga jazolash uchun yubordilar.

Amir Xudoydod tojsiz podsho bo'lish niyatida edi. Buning uchun marhum Muhammad Sultonning o'g'li bo'lgan o'n ikki yoshli bo'shanggina Muhammad Jahongirga Samarqand taxtini berib, davlatni uning nomidan o'zi boshqarmoqchi edi.

Shohrux Mirzo otasining poytaxtini Xudoydodga osongina berib, qarab turadigan anoyilardan emas edi. U qat'iyat bilan Xudoydodga qarshi hamla qildi.

Amir Xudoydod Shohruxga bas kelolmasligini sezib, Samarqandni jangsiz tashlab chiqdi va Xo'jand orqali Andijonga qochdi. U yerdan Mo'g'uliston podshosi Muhammadxonning huzuriga borib, ko'mak so'radi.

Bundan oldinroq Shohrux Mirzo Muhammadxonga elchilar va nodir sovg'alar yuborib, ikki orada yaxshi munosabat o'rnatgan edi. Xudoydodga o'xshagan bitta qochqin tufayli Shohrux bilan orani buzish Muhammadxonning manfaatiga to'g'ri kelmas edi. «O'z valine'matlariga shuncha xiyonatlar qilgan Xudoydod bizga vafo qilarmidi?» deb, uning boshini kesdirib, Shohruxga jo'natib yubordi.

Xalil Sulton Xudoydodning asoratidan qutulganidan keyin Turkiston tomonga qochib ketdi. U Shohrux Mirzo huzuriga borishdan qo'rqardi. Chunki Shohrux Samarqandda ko'p yovuzliklar qilgan Bobo Turmush bilan Amir Arg'unshohni qatl ettirganini Xalil Sulton eshitgan edi.

Shodimulk begim Shohrux Mirzo dargohiga keltirilganda o'limga hukm qilinishidan qo'rqib dag'-dag' titrardi. Gavharshod begim oraga tushib, shafoat so'radi:

— Hazratim, bu ayol qilgan gunohlari uchun ming bor urz so'ramoqda! Bir lahza arzini eshiting!

Shohrux Mirzo Shodimulk beginni qabul qilganda bu chiroylı juvon yum-yum yig'lab, yergacha bosh egib iltimos qildi:

— Men gumrohlik qildim! Mayli, meni o'limga buyuring, podshohi olam! Lekin Xalil Sultonni qutqaring! Uning dushmani ko'p! Biron joyda o'ldirib ketmasin! Bechorani qutqaring!

Yosh ayol bosh egib shunday so'zlarni aytgandan keyin Shohrux Mirzo uni biron jazoga buyurishni o'ziga ep ko'rmadi.

Turkiston tomonlarda yurgan Xalil Sulton Dashti Qipchoq-dagi ko'chmanchi chingiziylarning quroliga aylanib qolish xavfi bor edi. O'sha tomonlarda yangi bir fitna qo'zg'alishiga yo'l qo'ymaslik uchun Shohrux Mirzo qo'shin tortib, Turkistonga bordi va Uzun Ota degan joyda Xalil Sulton bilan uchrashdi.

— Endi o'tgan ishga salavot, siz mening jigarimsiz! — deb, quchoq ochib Xalil Sulton bilan yarashdi.

O'zaro suhabatda Xalil Sulton otasi Mironshoh hukmronlik qilgan Isfahon va Ozarbayjon tomonlarga hokim bo'lib borish istagini bildirdi.

— Xoqoni Sa'id, Samarqandda biz elning nazaridan qoldik, bobomiz poytaxtiga Ulug'bek Mirzo munosibdirlar, — dedi.

Xalil Sultonning tantilik qilgani Shohrux Mirzoga yoqib tushdi. U Samarqand taxtini o'g'li Ulug'bek Mirzoga inoyat qildi-da, Xalil Sultonni xotini Shodimulk begin bilan Hirotga birga olib borib, bir necha kun mehmon qildi.

Podshoning iliq munosabatidan dillari yumshagan Xalil Sulton va Shodimulk begin Hirotning Bog'i Safedida

mehmon bo‘lib turgan kunlarida kimlarning qutqusiga uchib Sohibqiron bobolari vasiyatiga qarshi isyon qilganlarini batafsil so‘zlab berdilar.

— Biz, oshiq-ma’shuqlar, — deb Xalil Sulton o‘zlarini istehzo bilan tilga oldi: — Birimiz podsho, birimiz malika bo‘lib, juda katta ketgan ekanmiz. Keyin bilsak, hokimiyat uchun kurashgan qimorbozlar «gartkam!» deb, bizni oshiqqa o‘xshatib, o‘rtaga tashlagan ekanlar. O‘yin tugagandan keyin oshiq kerak bo‘lmay qolganda birimizni Xudoydod bandi qilib Xo‘jandga olib ketdi, birimizni Keshga, sizning huzuringizga asira qilib olib kelishibdi.

Xalil Sulton Shohrux Mirzodan yetti yosh kichik — endi yigirma oltiga kirgan edi. Lekin so‘nggi yillarda uning yuzi al-lanechuk so‘lib, qarimsiq bo‘lib qolgan, soch-soqoliga oq tushgan edi.

— Amirzodam, mardona lutf qildingiz, — deb Shohrux Mirzo oshiq-ma’shuqlik bilan qimorbozlar oshig‘i haqidagi so‘z o‘yinidan zavqlandi.

— Xayriyat, toleyimizga Xoqoni Sa’id, siz bilan, hazrat begin, siz bor ekansizlar, — deb Shodimulk begin erining so‘zlarini qo‘llab-quvvatladi. — Sizlarni parvardigor bizga na-jotkor qilib yuborgan ekan. Bo‘lmasa dushmanlarimiz bizni allaqachon o‘ldirib yuborishardi.

— Har bir ish Xudodan. Bobo Turmush bilan Arg‘unshohlar jazosini oldi-ku.

— Biroq sizga dushmanlik qilgan Xo‘ja Ahmad Tusiy yoni-dagi Tabriziylar bilan birga qochib qutulib ketdi,— dedi Xalil Sulton. Men asir tushganimda ular xazinada qolgan oltin-u javohirlarni o‘marib, Tabriz tomonlarda hukmron bo‘lgan Qora Yusuf huzuriga qochib o‘tibdir.

— Rayga¹ hokim bo‘lib borsangiz, balki ular huzuringizga qaytib kelishar? — dedi Gavharshod begin.

— Agar qaytib kelishsa, men ularni tuttirib Xoqoni Sa’id-ning hukmlariga topshirgaymen. Qora Yusuf bilan ham alohida hisob-kitobim bor. Ikki yil burun uning odamlari mening otam

¹ Ray — hozirgi Tehronga yaqin bo‘lgan qadimiy shahar.

Mironshoh bahodirni Sultoniya yaqinida qiy nab o'ldirganlar. Ularga qasos qaytmog'i kerak!

— Iloyo yaxshi niyatlar ingiz ro'yobga chiqsin! — deb Shohrux Mirzo suhbatni yakunladi.

Shundan keyin Shohrux Mirzo tajribali amirlaridan Po'latbek, Hamzabek, Said Hasan deganlarni o'n ming kishilik lashkar bilan Xalil Sul ton ixtiyoriga berib, uni Rayga hokim qilib jo'natdi.

Lekin Rayda ham Xalil Sul tonning ishi yurishmadi. Sohib-qiron bobosining arvo hini chirqiratgani, valiahd tayinlangan Pirmuhammad Mirzoning o'limiga sabab bo'lgani tufayli uning ruhida qandaydir sinish va yemirilish yuz bergen, sog'lig'i ham yomonlashgan edi. Rayda u og'ir xastalikka uchrab, uch kun to'shakdan turolmay yotdi-yu, yigirma yetti yoshida vafot etdi. «Bobosining arvo hi urdi» degan gaplar tarqaldi.

Yigirma to'rt yoshli Shodimulk begim sevgilisi Xalil Sul ton-siz yashashni istamay, zahar ichib olamdan o'tdi. Yolg'iz o'g'lining dog'ida kuygan Xonzoda begim ham Xalil Sul tonning qirqi o'tar-o'tmas bandalikni bajo keltirdi.

INTIHOSIZ OLISHUVLAR

Ko'pchilik taniydigan bu uch mashhur shaxsning birin ketin hayotdan ko'z yumgani shon-shuhrat va baland marta balarning o'tkinchi ekanini ko'rsatib turardi. Shunga qaramay, hokimiyat talashib olishishlarning hech oxiri ko'r inmasdi.

G'arbiy viloyatlar endi tinchiganda sharqdagi Turkiston va shimoldagi Dashti Qipchoqdan yana bir xatarli qo'shin tog' ko'chkisiday Samarqand ustiga bostirib keldi. Bir vaqtlar o'z valine'mati Amir Temur xotirasiga xiyonat qilib, Xalil Sul ton isyoniga qo'shilgan Shayx Nuriddin endi Dashti Qipchoq-dagi Chingiz O'g'lon bilan til biriktirib, Turonni yosh Ulug'-bekdan tortib olish harakatiga tushdi.

Kuchlar teng emas, yov qo'shini to'rt barobar ko'p edi. Samarqand yaqinidagi Qizil Rabot degan joyda jang bo'ldi. O'n besh yoshli Ulug'bek otalig'i Shohmalik bilan bu jangda mag'lubiyatga uchradi va Amudaryo tomonga chekindi.

Shayx Nuriddin bilan Chingiz O'g'lonning mo'ri-malax-day behisob qo'shini uni ayovsiz ta'qib etib kelardi. Ulug'bek daryodan o'tib ketishga tezda kema topolmagach, o'ng qirg'oqdag'i Kalif qo'rg'oniga kirib berkindi.

Yov qo'shini qo'rg'onni o'rabi oldi. Qamal boshlandi. Chingiz O'g'lonning odamlari qo'rg'on devorlarining nochorroq joyini topib, uni qulatish uchun tagini kovlay boshladilar.

O'g'lining hayoti xavf ostida qolganini Hirotda turib eshitgan Shohrux Mirzo darhol otlanib, Kalifga katta qo'shin bilan yetib keldi va Ulug'bekni yov changalidan qutqarib oldi.

Shayx Nuriddin bilan Chingiz O'g'lon Turkiston tomonga chekindi. Shohrux Mirzo Shayx Nuriddingga elchilar yuborib, u bilan yarashmoqchi bo'ldi. Lekin o'jar Shayx Nuriddin bunga ko'nmadi. Shundan keyin Xirqadoq degan bahodir bir navkar hiyla ishlatib, uni otdan tortib tushirdi-da, boshini qilich bilan kesib tashladi. Shayx Nuriddin asoratida azob tortib yurgan Tuman og'o (Sohibqironning kichik bevasi) shundan so'ng Samarqandga qaytib keldi. Ulug'bek uni e'zozlab kutib oldi, keyinroq ota-onasining oldiga — Hirotda kuzatib qo'ydi. Tuman og'o qolgan umrini Shohrux Mirzo qanoti ostida toat-ibodat bilan o'tkazdi.

Gavharshod beginning endigi orzusi — qonli urushlar boshqa bo'lmasa, Sohibqiron davrida soni ikki yuz mingdan oshib ketgan qo'shin uch-to'rt barobar qisqartirilsa, harbiy xarajatlardan ortib qolgan mablag'lar hisobiga maktab-u madrasalar, ko'pri va rabotlar qurilsa. Shohrux Mirzo ham bunyodkorlik ishlariga moyil edi. Biroq urush-yurishdan boshqa narsani bilmaydigan zo'ravon beklar va sipohilar qo'shinni qisqartirishga qarshilik ko'rsatib, isyonlar qilishdi.

Bu isyonlarni bostirish uchun yana qurol ishlatishga to'g'ri keldi.

Dehqon-u hunarmandlar, olim-u quruvchilar, mam-lakatning barcha madaniy kuchlari urushsiz yasholmaydigan jangarilarga qarshi kurashda Shohrux Mirzoni qo'llab-quvvatladilar. Shohrux Mirzo va Gavharshod begin o'z o'g'illarini ham bunyodkorlik ruhida tarbiyalagan, ularning har biriga yaxshi ko'rgan ilmiy-ijodiyligi ishini qilish uchun imkon yaratgan edilar.

Shu sababli o‘g‘illar ham doim ota-onam tomonida turdilar.

Ulug‘bek Mirzo Samarcanda madrasa va rasadxona qurib, olimligini qildi. Uning inisi Ibrohim Mirzo Sherodda ulkan shoir Sharafiddin Ali Yazdiya homiylik qilib, Sohibqiron bobosi haqida «Zafarnoma» kitobining yaratilishiga sababchi bo‘ldi. Uchinchi o‘g‘il Boysunqur Mirzo Hirotda bosh vazir. U otasi nomidan barcha rassomlarga bosh bo‘lib, Bog‘i Safedda qurilgan ulkan qasrning ichiga ajoyib suratlar chizdirdi. Hirotda Shohrux Mirzo nomiga bir madrasa, Gavharshod begim nomiga yana bir madrasa qurildi.

Shohrux Mirzo va Gavharshod begim bir yoqadan bosh chiqarib, hokimiyat jilovini mahkam tutganliklari, o‘g‘illarini insof va adolat ruhida tarbiyalaganliklari uchun to‘rt o‘g‘ildan birortasi — na Ulug‘bek, na Ibrohim, na Boysunqur, na Jo‘giy Mirzo bir-biri bilan yovlashgan emas, ota-onalariga qarshi bosh ko‘targanlari ham yo‘q.

Bu o‘g‘illar qiyinchilik ko‘rib o‘sgan, harbiy yurishlarda mashaqqat chekib chiniqqan, tinch ijodiy mehnatning afzalliklarini amalda ko‘rib bilgan edilar. Ammo farovon zamonlarda ko‘proq o‘yin-kulgi, aysh-u ishrat bilan o‘sgan Shohruxonning nevaralari noahil, bir-biri bilan qirpichoq. Bu yoshlarda sarflanmagan kuchlar ko‘p, ota-bobolari kabi katta g‘alabalarga erishib, tojdar bo‘lish ishtiyoqida yonishadi. Atroflaridagi amir-u beklari tog‘larga tarmashgan bulutlarga o‘xshab, ularning boshlariga taxparastlik balolarini yog‘dirishadi.

«Davlat mablag‘lari madrasa-yu rasadxona qurilishlariga emas, harbiy yurishlarga sarflanishi kerak! Qilichlarimizni zang bosib ketdi! Jangovar bekdani ko‘ra allaqayoqdagi mullabach-chalarning nufuzi baland!» deb vaysaydigan urushqoq amirlar ta’sirida yosh shahzodalar ham yangi harbiy yurishlarda qahramonlik ko‘rsatib, katta martabalarga erishishni istashadi.

Doim madaniy kuchlarga qarshi turadigan, bunyodkorlikdan ko‘ra buzg‘unchilikni afzal ko‘radigan, urushda qon to‘kib, boylig-u martaba orttirishga o‘rgangan jangari beklar nevaralarini yo‘ldan ozdirishi mumkinligini Shohrux Mirzo ham sezib qoldi. Kechqurun davlat ishidani bo‘saganda Bog‘i Safedga kelib, Gavharshod begimga dil yordi.

— Nevaralaringiz buzg‘unchi beklar bilan may bazmlari qilarmish, kayf ustida obro‘ talashib, hokimiyatga intilarmishlar. Bundan qo‘rqqulik, begim!

— Ne qilaylik, hazratim! Ma’rifat bilan jaholatning olishuvlari ming yillardan buyon hech poyoniga yetmaydir. Mamlakat himoyasi uchun lashkar kerak deb qo‘sish saqlamoqdamiz. Lekin ko‘pchilik sipohilar maktab-madrasa ko‘rmagan odamlardir. Ma’rifatli bunyodkor kishi igna bilan quduq qazigandek bir umr mehnat qilib erishadigan boylig-u martabaga jangda g‘olib chiqqan bek-u navkarlar goho bir kunda, bir soatda erishadigan paytlari bo‘ladir. Qimorga o‘xshagan bunday harbiy omad yosh nevaralarimizga yillar davomida kitob o‘qib bunyodkor bo‘lishdan ko‘ra maroqliroq tuyulsa kerak-da.

— Biroq jangdagi jasorat bilan hayotdagি bunyodkorlikni qo‘sib olib borish ham mumkin-ku. Sohibqiron otamiz doim shunday qilmaganmilar?

— Rost, siz ham shunday qilmoqdasiz, Ulug‘bek ham!

— Ana shu tajribani nevaralarimiz diliqa kim yetkazib bergay? Qur‘onning «Shuarо» surasida ikkita oyati karima bor. Shu oyatlarda Ibrohim alayhissalom Allohga iltijo qiladilar: «Ey, parvardigorim, menga ilm-u hikmat bergin, kelgusi avlodlarga haqiqatni so‘zlab berishga meni loyiq qilgin!» Biz ana shu oyatga amal qilsak bo‘lmaydimi? Xo‘p, davlat ishi-yu urush-yurishlar meni juda band qilib qo‘ymoqda. Ammo siz ko‘p kitob o‘qiysiz, Ulug‘bekni tarbiyalagan ma’rifatli onasiz. Nevaralarini mana shu Bog‘i Safedga olib kelib, ularning diliqa haqiqatni singdirsangiz bo‘lmaydimi? Yazdiy «Zafarnoma»si, Shomiy kitobi, Sohibqiron otamizning xotiralari, kutubxonamizdagи boshqa nodir bitiklar barchasi sizning ixtiyorингизда bo‘lsin. Siz-u biz ko‘rgan-bilgan juda ko‘p voqealar ham nevaralarimiz uchun katta bir maktab emasmi?

— Hazratim, siz bugun ulug‘ bir maqsadni mening ko‘zimga oftobday ravshan qilib ko‘rsatdingiz. Agar kuchim yetsa, men ham avlodlarga haqiqatni so‘zlab berishga zarracha loyiq bo‘lsam jon der edim!

— Men aminmen, bunday ish sizning ilkingizdan kelgay. Yodingizda bormi, Hazrat otam layoqatli nevaralar tarbiyasini kayvoni xotinlari Saroymulkxonimga topshirgan edilar. Rahmatli Bibixonimni otam «Ona lochin» deb ulug‘lar edilar. «Avlodlarimni lochinday yuksakka parvoz etadigan qilib tarbiyalang!» derdilar.

— Ha, ming afsus, Saroymulkxonim olamdan bevaqt ketdilar.

— Ammo siz ham Bibixonimning salaflaridansiz, begim. Bugungi temuriylar xonadonida siz kayvoni ona bo‘lib qoldingiz. Palapon lochinlarimizni endi siz uchirma qilmog‘ingiz kerak. Ularni amalparast bek-u a‘yonlarning qutqularidan omon saqlay olmasak, keyin pushaymon bo‘lurmiz!

Gavharshod begin o‘rnidan turib, Shohrux Mirzoning bu topshirig‘ini ta’zim bilan qabul qildi.

— Inoyatingizdan minnatdormen, hazratim!

Shundan keyin umidli shahzodalar Bog‘i Safedga ko‘chirib kelindi. Ular orasida Ulug‘bekning o‘g‘li Abdullatif, Boysunqur Mirzoning o‘g‘illari Alouddavla va Abulqosim Boburlar bor edi.

Gavharshod begin har haftaning uch kunida shahzodalar bilan ikki soatdan mashg‘ulot o‘tkazardi. Mashg‘ulot Bog‘i Safedda, beginning katta xonayi xosida o‘tar, miz ustida «Zafarnoma»ga o‘xshagan nodir qo‘lyozmalar turardi. Devor-ga xaritalar ham osib qo‘yilardi.

Gavharshod begin ko‘proq temuriylar tarixidan saboq berardi. Kitoblarda yozilgan voqealarni o‘zi boshidan kechirgan yorqin xotiralar bilan boyitib, juda maroqli hikoyalar so‘zlab berardi.

Uning so‘zlarini yoshi kichikroq bo‘lgan shoirtabiat nevarasi Abulqosim Bobur nihoyatda berilib tinglardi. Biroq Abdullatif bilan Alouddavla faqat toj-u taxtni egallash, jangda o‘lja olish va aysh-u ishrat qilish tafsilotlariga qiziqishar, momosi ilm-u ma’rifat va bunyodkorlik to‘g‘risida so‘zlaganda esnab o‘ltirishardi.

Ularni ota-bobolarining eng yaxshi an‘analariga sodiq qilib tarbiyalash behad mushkul ekanini Gavharshod begin shundan ham sezardi.

ABDULLATIFNING ILK ISYONI

Ulug‘bekning avvalgi o‘g‘illari yoshligida o‘lib ketishgan, ulardan keyin tug‘ilgan Abdullatif amakivachchasi Alouddavlaga nisbatan bir necha yosh kichikroq edi. Bir chekkasi shu sababdan Alouddavla o‘zini sal katta olardi. Uning otasi Boysunqur Mirzo o‘ttiz uch yoshida ichkilikni ko‘p ichishi oqibatida kasallanib vafot etganidan keyin, farzand dog‘ida kuygan ona Boysunqurga juda o‘xshaydigan Alouddavlaga ko‘proq e’tibor berardi.

To‘qqiz-o‘n yoshlarida ular yog‘ochdan yasalgan qilichlarini bir-biriga shaq-shuq urib mashq qilishgan bo‘lsa, balog‘atga yetib, yigit bo‘lib qolgan kezlarida haqiqiy qilich bilan kuch sinashadigan bo‘ldi. Abdullatifning yoshi kichik bo‘lsa ham bilagida kuchi ko‘p, otalig‘i uni «qilichbozlikda Sohibqiron bobokaloningizga tortgansiz» deb maqtaydi.

Bir kuni qilichbozlikdan mashq o‘tkazayotganlarida Alouddavlarning qo‘lidagi qilichini Abdullatif chapdastlik bilan urib, yerga tushirib yubordi. Qo‘li qattiq qayrilgan Alouddavla og‘riq zarbidan ingrab, o‘rtancha barmog‘ining qilich kesib ketgan joyini chap qo‘li bilan changalladi.

Shu voqeanning ustiga kelib qolgan Gavharshod beginm Alouddavlarning barmog‘idan qon oqayotganini ko‘rdi-yu, qilich tutgan Abdullatifni jerkidi:

- Amirzoda, bunchalik beshafqatsiz!
- Uzr, noxosdan tig‘ tekkanini bilmay qoldim!
- Noxosdan emas, ataylab tig‘ urdingiz! — dedi Alouddavla va momosiga yuzlandi. — Menga devonda katta lavozim berilgani uchun baxilligi kelib yurgan edi. Mana, alamini oldi!
- Baxil o‘zingiz! — dedi Abdullatif ham achchig‘lanib. — Mening otam Samarqand taxtida yigirma yildan buyon podshoh! Siz otangizning podshoh bo‘lolmay ketganidan armondasiz! «Endi taxt navbati meniki, bobom meni valiahd tayin etgay, siz mening xizmatimni qilgaysiz!» deb maqtanib yurib-siz!

— Voy, beandisha! — deb Gavharshod beginm Abdullatifning so‘zini kesdi. — Bu so‘zlar Xoqoni Sa’idning quloqlariga

yetib borsa ne bo‘lishini bilurmisiz? Halitdan toj-u taxt da’vosini qilishga uyalmaysizlarmi?!

— «Valiahd bo‘lurmen» deb da’vo qilgan erkatoyingiz-ku! — deb so‘z qaytardi Abdullatif.

— Avvalo, siz chaqimchilik qilishdan uyalning!.. Ilkiga qilich urib yarador qilganingiz ustiga, yana bunday beodob gaplar!.. Buning uchun Xoqoni Sa’id sizga jazo buyurmoqlari kerak!

Tug‘ilgan shahri Samarqandni sog‘inib, ota-ona mehrini qo‘msab yurgan, Hirotda o‘zini garovda ushlab turilganday sezadigan Abdullatif momosining so‘nggi gaplaridan qattiq xafa bo‘ldi va yig‘lamsirab, o‘z ko‘shkiga qarab ketdi.

O‘sha kuni kechasi Abdullatif bo‘lgan voqeani Junaid Bo‘ta degan sirdosh bekiga aytib berdi-yu:

— Xo‘rlik bas, Samarqandga ketgaymiz! — dedi.

— Shunday qahraton qishda... Amudaryodan qanday o‘tgaymiz?

— Bu yerda o‘gay bola bo‘lib yashash jonimga tegdi! Alouddavla o‘z tug‘ilgan shahrida, hamma unga mehribon. Samarqandga borsak, hazrat otam menga mehrini ko‘rsatib, bironta lavozim bermasmidi?! Axir Sohibqiron bobom otamni o‘n bir yoshida Toshkent-u Sayramlarga hokim qilib tayinlagan ekanlar-ku. Men o‘n yetti yoshdamen! Qachongacha momomga mute bo‘lib yurgaymen?

— Agar hazrat otangiz Toshkentnimi, Farg‘onanimi sizga bersalar... unda biz...

— Unda siz mening sohibixtiyor eshik og‘am, birinchi amirim bo‘lursiz!

Bunday katta lavozimlar oldida qish sovuqlari ham Junaid Bo‘taning ko‘ziga ko‘rinmay qoldi. Ikkovlari yo‘l tadorigini ko‘rib, sodiq navkarlaridan o‘ttiz kishini yetovdagي otlari bilan Hirotdan yashirinchcha olib chiqdilar-da, Samarqandga jo‘nab ketdilar.

Nevarasi Abdullatifning Samarqandga arazlab ketib qolganini eshitgan Shohrux Mirzo Gavharshod begimni Bog‘i Jahonorodagi xonayı xosga chaqirtirdi.

— Siz nechuk Abdullatifni xafa qildingiz, begin? — deb qahr bilan so‘radi.

— Ne qilay, hazratim, Abdullatif Alouddavlarning ilkiga tig‘ uribdilar!

— Siz nuqul Alouddavla deysiz! Ulug‘bek sizga o‘gaymi? O‘g‘li arazlab borsa, Ulug‘bek bilan oramiz buzilishi mumkinligini nechun o‘ylamaysiz? Alouddavla halitdan toj-u taxtga talpinarmish! Valiahd bo‘lmoqchi emish! Uni erka qilib hovliqtirgan siz emasmi?!

Xufiyalar allaqachon hamma gapni oqizmay-tomizmay Shohrux Mirzoga yetkazganini sezgan Gavharshod begin titroq qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib:

— Men, zaifangiz, ko‘ngli bo‘slik qilgan bo‘lsam afv eting, — dedi. — Bevaqt vafot etgan farzandimiz Boysunqur Mirzodan yodgor bo‘lib qolgan Alouddavлага mehr qo‘yganim rost. Lekin so‘zimga inoning, hazratim, Abdullatif bilan uning otasi Ulug‘bekka mening mehrim bundan ortiq bo‘lsa borki, kam emasdир!

— Kam emasligi... faqat og‘izdamni yoki... amalda isboti bormi?

Bugun havo sovuq bo‘lgani uchun er-xotin ikkovi ham po‘stin kiyishgan, tashqarida qor yog‘ib, izg‘irin shamol esmoqda edi.

— Agar... mening so‘zlarimga isbot talab qilinsa... Xo‘p, ijozat bering, hozir qish chillasi bo‘lsa ham, Samarqandga yo‘l olay. Onalik mehrim qandayligini Mirzo Ulug‘bek oldida isbot etay, Abdullatifni Hirotg‘a olib qaytay!

Hirotdan Samarqandga qish kunida otliq borib kelish uchun salkam bir oy vaqt ketar edi. Yoshi oltmishdan oshgan Gavharshod begin bunday mashaqqatli safarga bardosh bera olarmikan? Kelingchakligida uning qanchalik go‘zal va shijoatli ayol bo‘lgani Shohruxning esiga tushdi:

— Hali ham yigirma yoshdagи g‘ayratlariningizdan bor ekan-da, beginim?

— Farzand mehri yoshga qaramas ekan, hazratim. Men to‘ng‘ich o‘g‘limiz Ulug‘bekni juda sog‘inib yuribmen. Ammo nevaramiz Abdullatifning fe‘li yomon. Halitdan toj-u taxtga havasmand.

— Men ham buni sezib yuribmen. Ba’zi Samarqand beklari Ulug‘bekning madrasada mudarrislik qilib, ilmi nujumga berilib

ketganidan norozi. Ular Abdullatifni otasidan ko‘ra podsholikka munosibroq deb bilar emishlar. Maxfiy axborotlardan shuni bilganim uchun Ulug‘bek Mirzoning tinchini o‘ylab, Abdullatifni Hirotdan ketkazmay yurgan edim.

— Rost, Abdullatif Ulug‘bek uchun ham xatarli. Ruxsat bering, men borib uni qaytarib olib kelay! — dedi Gavharshod begin.

Xonayi xosda ikkovlari o‘ltirgan edilar. Yo‘g‘on gavdali Shohrux Mirzo ko‘zları allanechuk yaltirab, o‘rnidan turdi. Gavharshod begin ham joyidan ko‘tarildi. Mayin soqolmo‘ylovi silliq tarashlangan barvasta Shohrux Mirzo hali ham xipchabo‘y beginni mehr bilan bag‘riga bosdi-da, yuzidan, ko‘zidan o‘pdi:

— Mard ayolsiz, safaringiz bexatar bo‘lishi uchun neki zarur bo‘lsa muhayyo qilurmiz!

O‘sha kuni Shohruxning buyrug‘i bilan Samarqandga choper yuborildi va Gavharshod beginning yo‘lga chiqayotgani haqida Ulug‘bekka xabar qilindi.

Gavharshod begin qor bo‘ralab yog‘ayotgan sovuq kunda Hirotdan otliq jo‘nab ketdi. Shohrux Mirzo unga yuzdan ortiq qo‘riqchilar, xizmatchilar, kaniz-u navkarlar qo‘shib bergen edi. Begim ot ustida juda toliqsa yoki sovuqdan qiyalib qolsa, uni atrofi kigiz bilan o‘ralgan, ichi bir qadar iliq taxtiravonga olishardi. Sakkiz baquvvat yigit taxtiravonning to‘rt tomonidan uzun dastalarini yelkalariga qo‘yib, ehtiyyotlik bilan ko‘tarib borar edilar. Bunday holda tez yurib bo‘lmas, safar uzoqqa cho‘zilar, oxiri ko‘rinmaydigan poyonsiz yo‘llarda soatlar, kunlar juda sekinlik bilan o‘tar edi.

Taxtiravonda yolg‘iz o‘ltirgan Gavharshod begin xotiralariga beriladi. Ana, uning olovli yoshligi. Badavlat taxxonlar oilasida qazi-qarta yeb, qimiz ichib, chavandozlik mashqlarida chiniqib o‘sgan qiz juda tez voyaga yetadi. Unga Sohibqiron Amir Temurning nazari tushadi. O‘n olti yoshli Gavharshodni kenja o‘g‘li Shohrux Mirzoga munosib ko‘radi.

O‘shanda Shohrux Mirzo ham endi o‘n yetti yoshga kirgan, lekin harbiy yurishlarda toblanib erta ulg‘aygan, yigirma yoshli yigitlardek kuchga to‘lgan devqomat o‘g‘lon edi. Gavharshod u

bilan avvallari ham ko'rishgan, dilida olovli hislar uyg'ongan edi.

To'y bo'ldi-yu, oradan uch oy o'tmay Shohrux Mirzo ota-sining qo'shirlari safida Isfahon va Tabriz tomonlarga harbiy yurishga ketdi.

Homilador Gavharshod begin Samarqandda ekanida Kavkazning Qorabog'idan, Amir Temurdan farmon keldi. Uvrug deb ataladigan haram ahli barcha kelinlar bilan Saroymulkxonim boshchiligidagi ikki ming qo'riqchi askar himoyasida Samarqanddan Tabrizga yetib kelishi buyurildi.

Sohibqironning buyrug'i so'zsiz bajarilardi. Endi o'n yettiga kirgan kelin ikkiyat ahvolda minglab chaqirim masofani yomg'irli, qor-qirovli sovuq kunlarda bosib o'tib, hut oyida Tabriz yaqinidagi Sultoniyaga yetib borganini hozir eslasa, o'zining chidam-bardoshiga hayron qoladi. To'g'ri, mehribon qaynonasi Saroymulkxonim butun safar davomida unga g'amxo'rlik qilib bordi. Lekin telbalanib oqayotgan Jayhundan o'tayotganlarida kemaning lapanglab chayqalishidan Gavharshod beginning boshi aylanib, ko'zi tingani, Eronning Dashti Karbalo deb ataladigan sahrosida qum bo'ronlaridan azob tortgani, Isfahondan nari to Sultoniyaga yetguncha tog' yo'llarida, tik dovonlarda qor va yomg'irlar ostida shalabbo ho'l bo'lganlari... Shunday uzoq yo'lni bosib o'tgan yoshgina kelin Navro'z arafasida Sultoniyada ajoyib bir o'g'il tuqqandi. Yana qanday o'g'il — bo'lajak buyuk daho — Ulug'bek!

Bolaning chillasi chiqqandan keyin Sohibqiron bobosi uni qo'liga olib peshonasidan o'pgani, Gavharshod beginma qim-matbaho kiyimliklar va dur-u gavhar taqinchoqlar in'om qil-gani eng unutilmas voqeа tarzida beginning yodida qolgan.

Shohrux Mirzo janglarda jasorat ko'rsatganidan tashqari, o'n sakkiz yoshida ikki ajoyib o'g'ilning otasi bo'ldi. Uning To'tiniso begin degan ikkinchi xotinidan o'sha yili yana bir o'g'il tug'ildi. Unga bobosi Ibrohim deb ism qo'ydi.

Tug'ilish bor joyda o'lim ham bo'lar ekan. Kavkazning kurdilar yashaydigan bir qal'asi oldida Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayx bahodirga o'q tegib halok bo'ldi. Marhumning xotinlaridan biri Mulkat og'o sakkiz va o'n yoshli

ikki o‘g‘ilning onasi edi. Amir Temur yigirma olti yoshli bu kelini va ikki nevarasining begona oilaga tushishini istamadi. Mulkat og‘oni Shohrux Mirzoning nikohiga o‘tkazdilar.

Yosh vafot etgan akaning bevasini inisiga xotin qilib berish odati azaldan bor edi. Sohibqironning katta o‘g‘li Jahongir Mirzo yigirma yoshida vafot etganda, uning ikki o‘g‘liga ona bo‘lgan bevasi Xonzoda begin marhumning inisi Mironshoh nikohiga o‘tkazilgan edi. Keyin bu nikohdan Xalil Sulton tug‘ilgandi. Lekin Mironshoh Mirzo yoshi o‘zidan katta bo‘lgan sobiq kelin ayasi Xonzoda beginni suymas edi. Yaqin qarindoshga majburan uylantirishning oqibati yomon bo‘lishini Gavharshod begin mana shu er-u xotinning misolida ko‘rgan. Mironshoh Mirzo mast bo‘lib, Xonzoda beginni kaltaklagan paytlari ham bo‘lgan. Xonzoda begin Mironshoh Mirzo ustidan Sohibqiron qaynotasiga shikoyatlar qilib, uning hokimiyatdan chetlatilishiga sababchilardan biri bo‘lgani ham Gavharshod beginimga ma‘lum edi.

Shuning uchun o‘n sakkiz yoshli Shohrux Mirzoga yigirma olti yashar sobiq kelin ayasi Mulkat og‘oni majburan nikohlab bergenlarida Gavharshod begin juda qattiq iztirob chekdi, kundoshlik olovida kuyib o‘rtandi.

Ammo yoshlikda kelinsalom qilgan paytidayoq Sohibqiron qaynotasining irodasiga so‘zsiz bo‘ysunishini zimmasiga olgani uchun kundoshlik azoblariga ham chidab berdi.

Mulkat og‘o keyinchalik Shohrux Mirzodan bir o‘g‘il ko‘rdi. Otini Suyurg‘amish qo‘ydilar.

Gavharshod begin Shohrux Mirzoning ko‘z oolib ko‘rgan suyukli xotini ekanligi Mulkat og‘oga ma‘lum edi. Shuning uchun u Shohrux Mirzodan ortiqcha bir e’tibor talab qilmas, o‘g‘illari bilan goh Farg‘ona vodiyisida, goh Balxda Shohrux Mirzodan yiroqda yashashga ko‘nikkan edi.

Sohibqiron qaynotasi Tabrizda ekanida Gavharshod beginning kundoshlik azobini yengillatadigan ajib bir inoyat ham qildi. Besh yillik harbiy yurish hali davom etayotgani uchun Amir Temurning o‘zi Tabrizda qoldi-yu, o‘g‘li Shohrux Mirzoni Turonga hokim tayinlab, xotin-bolalari bilan Samarqandga jo‘natib yubordi.

Shohrux Mirzo yosh bo‘lsa ham tadbirli yigit edi. Katta xotini Mulkat og‘oni Umarshayx Mirzodan tug‘ilgan o‘g‘li Iskandar Mirzo bilan Farg‘ona vodiysini boshqarishga yubordi. Yana bir xotini To‘tiniso beginm o‘g‘li Ibrohim Mirzo bilan Buxoroda yashay boshladi.

Samarqandning mashhur Bog‘i Dilkushosi Ulug‘bek va Gavharshod beginm ixtiyorida qoldi. Samarqand poytaxt bo‘lgani uchun Shohrux Mirzo ham ko‘proq shu yerda bo‘lar va Gavharshod beginm bilan Bog‘i Dilkushoda yayrab istiqomat qilar edi.

Beginm hayotining shu vaqtgacha bo‘lgan eng farahli kunlari Samarqandda, Bog‘i Dilkushoda o‘tdi. Shohrux Mirzo Gavharshod beginmni davlat ishlariga yaxshi tushunadigan aqlli va ma’rifatli ayol sifatida ham yaxshi ko‘rar, ba’zi murakkab muammolarni hal qilishda beginning maslahatini olar edi.

Ana shunday maslahatlardan biri Samarqanddan Toshkentga borayotganlarida Jizzax bilan Sirdaryo oralig‘idagi qaqroq cho‘lga suv chiqarish borasida bo‘ldi. Amir Temir o‘g‘lini Tabrizdan Samarqandga jo‘natayotganda:

— El-yurtning mushkulini oson qilgin, adolatli yo‘l tutgin, savob ishlar qilib ko‘pchilikning duosini olgin! — deb nasihat qilgan edi. Shohrux Mirzo Sirdaryoning chap tomonidagi suvsiz cho‘lda qiynalib yashayotgan aholining arz-u dodini eshitganda shu nasihatlar uning yodiga tushdi.

— Sardoba qurdirsakmikin? — dedi u Gavharshod begimga.

Gavharshod beginm Zarafshon daryosidan chiqarilgan Darg‘om anhorini uning yodiga soldi.

— Sirdaryoning suvi Zarafshonnikidan ham ko‘p, amirzodam, — dedi. — Agar undan Darg‘omga o‘xshagan shoxariq chiqarilsa, qancha suvsiz joylar obod bo‘lg‘ay! Qancha odamlar sizni duo qilgay!

Toshkentga borganlarida Shohrux Mirzo muhandislar va miroblarni to‘plab, Sirdaryodan cho‘lga qarab shoxariq qazish bo‘yicha loyiha tuzishni buyurdi. Loyiha to‘rt oyda tayyor bo‘ldi. Kuz payti dala ishlari kamayganda daryo bo‘yida yashaydigan minglab odamlar loyihadagi shoxariqni qazishga safarbar etil-

di. Xalq o‘zi hashar qilib, ishni bir yilda bitirdi. Cho‘lga suv kelib, bog‘-rog‘lar, obod manzillar paydo bo‘lgandan keyin odamlar yangi shoxariqni «Mirzo ariq» deb atay boshladilar. Butun cho‘l esa Mirzacho‘l nomini oldi.

Shohrux Mirzo va Gavharshod beginning Turonda orttirgan bu tajribalari keyinchalik Xurosonda ham ish berdi.

Qadimgi Marv shahri Chingizzon davridan buyon qum-larga ko‘milib, inson zoti yasholmaydigan xarobazorga aylanib qolgan edi. Bir yuz-u sakson yil, ya’ni salkam ikki asr kimsasiz yotgan Marv shahrini qayta tiriltirish uchun Chingizzon buzdirib tashlagan Murg‘ob daryosidagi to‘g‘onni qayta tiklash, qumga ko‘milib qolgan ariqlarni ochib, obihayot keltirish zarur edi.

Shohrux Mirzo otasining sultanatini qayta tiklashga muyassar bo‘lgan milodiy 1410-yilda Gavharshod begin una Marvnii eslatdi:

— Mirzacho‘lda shoxariq qazdirganingiz uchun odamlar sizni haligacha duo qilar ekanlar. Mana hozir xudo sizga shunday ulug‘ saltanatni qaytarib berdi. Endi buyuk bir savob ish qilsangiz...

— Yana qanday ish?

— Hazratim, yana emas. Bu hali hech kim qilmagan betakror jasorat bo‘lur. Qadimgi Marv shahrini qayta tiklash...

— Butun bir shaharni-ya?

— Olim-u muhandislar tarhini chizib, menga ko‘rsatdilar. Mo‘ysafid yoshullilar ming-ming savobtalab odamlarni hasharga boshlab chiqmoqchilar. Murg‘ob daryosidagi buzilgan to‘g‘on qayta tiklansa, xalq o‘zi ariqlarni qumlardan tozalab olg‘ay. Suv borsa Marv qayta tirilgay!

Bu taklif Shohrux Mirzoni qiziqtirib qo‘ydi. Chindan ham buzib tashlangan to‘g‘onni qayta tiklash mumkin ekan. Bu ishga Xurosonning barcha savobtalab olim-u muhandislari, quruv-chi-yu miroblari jalb etildi. Davlat xazinasidan katta mablag‘lar ajratildi.

Hirotdagi filxonada o‘n bir yil burun Hindistondan keltilgan ulkan fillari bo‘lib, ularni o‘z filbonlari parvarish qilar edi. Endi shu fillar ham Murg‘ob bo‘yida ishga tushirildi. To‘g‘onga yotqiziladigan og‘ir toshlarni va ulkan sepoyalarni

fillar xartumlari bilan ko‘tarib kelib, odamni oqizadigan suvni to‘sishga yordam berdilar.

To‘g‘on bitguncha uzunligi o‘n ikki farsax¹, kengligi yigirma gaz², chuqurligi besh gaz keladigan ulkan o‘zan ham tayyor bo‘ldi. Bu ishda Turondan Ulug‘bek Mirzo boshlab kelgan minglab ustalar va yer qazuvchilarning xizmati ham katta bo‘ldi. Qazuv ishlariga usta bo‘lgan xorazmliklar ham yordamga keldilar. Juda ko‘p ishlarni Xuroson xalqi hashar yo‘li bilan amalga oshirdi.

Bu ulkan ishning boshida Shohrux Mirzoning o‘zi turdi. U yo‘q paytda Gavharshod begin o‘g‘li Ulug‘bek Mirzo bilan barcha ishlarni boshqarib turdilar. Nihoyat, bahorda Navro‘zning dastlabki kunlarida to‘g‘on ishga tushdi, barcha ariqlarga suv keldi.

O‘sha yiliyoq dehqonlar Marv atroflarida besh ming juft ho‘kiz bilan yer haydab ekin ekdilar, yangi bog‘larning tarhini chizib, behisob ko‘p ko‘chat o‘tqazdilar. Uy-joylar ham tez qad ko‘tara boshladi.

Ilgarigi obod shahar o‘rnida vayronalar, xarobalar yastanib yotar, faqat Sulton Sanjar maqbarasining devorlari so‘ppayib uzoqdan ko‘rinardi.

Mana bugun, oradan o‘ttiz yil o‘tgandan keyin Samarqandga borayotgan begin Marvga yana kelganda muhtasham binolar, masjid-u madrasalarni ko‘rib, astoydil quvondi. Sovuq qish kuni bo‘lishiga qaramay, shaharning eng nufuzli a‘yonlari va yoshullilari beginning sharafiga qo‘ylar so‘yib, minglab odamlarga osh berdilar. Marvni qayta tiklashda Gavharshod begin Shohrux Mirzoning yonida turib olivjanob ishlarni qilganini qayta-qayta eslashib, unga uzoq umr va oq yo‘l tilab qoldilar. Shahar dorug‘asi beginni Amudaryo bo‘yigacha kuzatib qo‘ydi.

Onasi kelayotgani haqidagi xabar Ulug‘bekka allaqachon yetib borgan edi. Qor-qirovli qish kunlarida keksa onasi yo‘llarda qanday azob tortishini ko‘z oldiga keltirgan Ulug‘bek barcha ishlarini tashlab, Samarqanddan Amudaryo bo‘yiga qarab

¹ *Farsax* — bir tosh, taxminan 6 kilometr.

² *Gaz* — taxminan 80—90 santimetr.

shoshildi. Gavharshod begin Marv tomonidan Amudaryoning chap qirg‘og‘iga yaqinlashguncha Ulug‘bek ham Buxoro va Qorako‘l orqali daryoning o‘ng qirg‘og‘iga yetib keldi.

U vaqtarda Amudaryoda birorta ko‘prik yo‘q edi. Qishda daryodan otliq o‘tib bo‘lmas, suvning sayoz joylari muzlagan, ahyon-ahyonda muzlar ko‘chib, bir-biriga zarb bilan urilardi. Bu asov daryodan qishda kemada o‘tish ham xatarli, katta muzlar kemani ag‘darib yuborishi mumkin. Shunday bo‘lsa ham Ulug‘bek mustahkam bir kemaga tushib, onasi turgan chap qirg‘oqqa o‘tib keldi. Gavharshod begin ko‘pdan beri ko‘rmagan o‘g‘lini bag‘riga bosganda ko‘zlarida quvonch yoshlari yiltiradi.

— Xush kelibsiz, hazrat onajon! Samarcand-u Buxoro sizga peshkash! Narigi qirg‘oqda Abdullatif yo‘lingizga poyondoz to‘sab turibdilar!

— Abdullatif ham keldimi?! Xayriyat!

Yana o‘sha kemaga tushib o‘ng qirg‘oqqa o‘tgunlaricha bebosh to‘lqinlar katta-katta muz parchalarini bir necha marta kemaga olib kelib urdi. Kema chayqalib silkinganida Gavharshod begin barra po‘stin kiygan Ulug‘bekning baquvvat yelkalaridan ushlab muvozanat saqlardi:

— Ulug‘ o‘g‘lim, to‘ng‘ich o‘g‘lim, suyangan tog‘imsiz! — deb Ulug‘bekni bolalik paytidagidek erklatib so‘zlardi. O‘ng qirg‘oqqa kema to‘xtagan joyga chindan ham qip-qizil gilam poyondozlar to‘shalgandi. Poyondoz chetida xipcha bo‘yli novcha Abdullatif momosini ta’zim-u tavozelar bilan kutib oldi. Gavharshod begin uning egilgan boshini qo‘llari orasiga olib:

— Momosi o‘rgilsin Latifjondan! — deb peshonasidan o‘pdi.

Daryodan o‘tib kelgunlaricha kun kech bo‘lgan edi. Shuning uchun daryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Kalif qo‘rg‘oniga tunagani kirdilar.

Ona, o‘g‘il, nevara shohona dasturxon atrofida xush-u xursand suhbatalshib o‘ltirganlarida Gavharshod begin Abdullatifga kulimsirab tikildi:

— Amirzoda, siz ham bu yerga kelganingizdan behad shodmen. Samarcandda shuncha kun ota-onha huzurida bo‘ldingiz. Endi shu yerdan to‘g‘ri Hirota qayta qolsak hazrat bobongizni ham quvontirgan bo‘lur edik...

Abdullatif boshini egib, uzr so‘radi:

— Hazrat momojon, men hali ota-onam diydoriga to‘yanim yo‘q.

— Shundaymi? — deb Gavharshod begin Ulug‘bekka qaradi.

— Albatta, qish sovuqlarida sizni yo‘l azobiga qo‘ymasak yaxshi bo‘lardi, — dedi Ulug‘bek. — Biroq butun Turon ahli sizni kutib olishga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Buxoroda, G‘ijduvonda yo‘lingizga ko‘z tikkanlar ko‘p. Xususan, Mirzo Abdullatifning onalari... keliningiz Husn Nigor begin Samarqandda sizni intizor bo‘lib kutmoqdalar.

Ulug‘bekning uchinchi xotini Husn Nigor xonim Sulton Xalilning qizi edi. Sulton Xalil Rayda sirli bir tarzda vafot etgan, bu judolik Xalil Sultonning onasi Xonzoda beginiga ham og‘ir zarba bo‘lib tushgan, Husn Nigor besh yoshligida su-yukli momosidan ham ayrilib, ko‘ngli cho‘kib o‘sgan edi. Ulug‘bek uning husniga mahliyo bo‘lib uylangan, ko‘ngli nozikligini hisobga olib, xafa qilmaslikka intilardi. Husn Nigor xonim Abdullatifni tuqqandan keyin nufuzi ancha ko‘tarilgan. Chunki hozir Ulug‘bekning katta o‘g‘li Abdullatif taxt vorisi sanalar, haramda uning onasiga alohida ehtirom ko‘rsatilardi.

Gavharshod begin shuning hammasini xayolidan bir-bir o‘tkazdi-da:

— Mayli, men o‘zim ham Buxoro-yu Samarqandni sog‘inib yuribmen, — dedi. — Qadamjolarni ziyyarat qilib, kelinlarimni ko‘rib qaytgaymen!

Bu so‘zlardan yengil tortgan Abdullatif qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, momosiga minnatdorchilik bildirdi.

Ular ertasi kuni Buxoroga tomon yo‘l oldilar. Bu yerda bir kun to‘xtab, Chashmayi Ayyubdan suv ichdilar, Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyyarat qildilar.

Buxoro va G‘ijduvonda Ulug‘bek qurdirgan muhtasham madrasalar onasiga juda ma’qul bo‘ldi. Gavharshod begin bundan besh yil oldin Hirotdan kelganda G‘ijduvonda bir kecha tunab o‘tgan, Abduholiq G‘ijduvoniya e’tiqodi borligini aytgan:

— Bolam, Abduholiq G‘ijduvoniya Xizr alayhissalom o‘zları ta’lim bergen ekanlar! — degan edi. — Uning ustozı

avliyo Yusuf Hamadoniy bo‘lgan. Abduholiq G‘ijduvoniyning maqbaralarini obod qilsangiz boshingizga savob yog‘ilg‘ay!

Ulug‘bekning o‘zi ham Abduholiq G‘ijduvoniyni buyuk avliyo deb bilardi. Shuning uchun G‘ijduvonda uning nomi bilan ulkan bir madrasa va maqbara qurdirdi. Gavharshod beginm bu gal G‘ijduvonga kelganda madrasani ko‘rib behad quvondi. Ulug‘bek Abduholiq G‘ijduvoniy maqbarasi oldida onasi sharafiga jonliq so‘ydirdi, doshqozonlarda osh damlatib, minglab odamlarga xudoyi oshi torttirdi.

Buning hammasi uchun Gavharshod beginm o‘g‘lidan astoydil minnatdor bo‘ldi. Ayollar odatiga binoan azonda oftob chiqmasdan oldin Abduholiq G‘ijduvoniy maqbarasiga ziyoratga kelib, tilovat qildi:

— Ilohim shu maqbarani qurdirgan o‘g‘lim Ulug‘bekni parvardigor panohida asrasin, hazrat Abduholiq G‘ijduvoniyning arvochlari doim unga madadkor bo‘lsin, nevaram Abdullatifaga xudo insof-u qanoat bersin, ota-bola doim bir-biriga mehr-u oqibatli bo‘lsin! — deb yuziga fotiha tortdi.

Samarqandga borguncha yana necha marta to‘xtagan bo‘lsalar, hamma joyda Gavharshod beginmni «Mahdi Ulyo» — «Avliyo ona» deb e’zozlashar, xususan, ayollar uning duosini olishga intilishar, beginmning kiyimlariga tegib qolgan qo‘llarini ko‘zlariga surtib o‘pishar edi. Samarqanddagagi izzat-ikromlar bundan o‘n chandon baland bo‘ldi. Ulug‘bek va unga yaqin odamlarning issiq mehri tufayli qish sovuqlari ham Gavharshod beginmning xayolidan uzoqlashib ketdi. Ulug‘bek Ko‘hak tog‘i etagidagi Bog‘i Maydonda go‘zal Xitoy chinnilar bilan ziynatlangan ikki qavatli ko‘shkda onasi sharafiga katta qabul marosimi o‘tkazdi. Marosimda Gavharshod beginmning barcha kelinlari, shaharning aslzoda ayollari ham ishtirok etdilar. Ziyofatdan so‘ng hammalariga sarupolar ulashildi. Gavharshod beginmning o‘ziga olmos ko‘zli uzuklar, xitoyi chinnilar, zardo‘zi qabolar taqdim etildi.

Mehmonlar tarqagandan so‘ng yuqori oshiyonning ochiq sahnida Ulug‘bek bilan Gavharshod beginm birpas osmondagি yulduzlarni tomosha qilib, so‘zlashib turdilar.

Osmon ochiq, ayozli tunda yulduzlar charaqlab ko‘rinardi.

— Hazrat onajon, yodingizdami? — dedi Ulug‘bek. — Men uch-to‘rt yoshli bola ekanimda Hamza Ibn Ali degan qissaxonim bor edi.

— Ha, ha, uzoq Sultoniyada, Tabriz tomonda Hamzani Sohibqiron bobongiz sizga qissaxon qilib tayinlagan edilar.

— O‘sha Hamza Ibn Ali menga osmondagи yulduzlar haqida g‘aroyib rivoyatlar aytib bergani hanuz yodimdan chiqmaydi. Men hozir Abdullatifga ilm-u nujumdan saboq bermoqdamen. Farzandlar osmon jismlaridagi sobitlikdan, tartib-u muvozanatdan ibrat olmoqlari kerak.

— Ulug‘ kashfiyotlar qilibsiz, bolam, xudoyim sizni yomon ko‘zdan asrasin. Osmonda Allohning pardoyi asrori bor. Siz bu pardani ochaman deb urinmang, parvardigorning qahri kelgay. Ehtiyot bo‘ling!

— Xo‘p, hazrat onajon! Siz xavotir bo‘lmang.

— Hirotda bizga Xoqoni Sa‘id muntazirlar. Endi Abdullatifni olib qaytishim zarur.

Ammo Abdullatif Hirotda qaytishni istamasdi. Gavharshod beginday mashhur momo arazlab ketgan nevarasining ketidan shuncha yo‘l bosib kelgani Samarqanddagи bek-u a’yonlarning ko‘zi oldida Abdullatifning obro‘sini oshirgan, nufuzli amirlar uning sharafiga har kuni ziyofatlar berishmoqda edi.

Abdullatifning onasi esa yolg‘iz o‘g‘lini o‘zidan uzoqlashtirishni istamas, goh Gavharshod beginma, goh Ulug‘bekka iltijolar qilib, Abdullatifni Samarqandda qoldirishni so‘rardi.

Gavharshod begin Ulug‘bek bilan yakkama-yakka suhbatlashganda ovozini pasaytirib dedi:

— Hazrat otangiz aytib yubordilar, «Abdullatif Samarqand beklarining qutqusiga uchib, otasining taxtiga tajovuz qilishi mumkin», — dedilar.

— Nahotki? — Ulug‘bek bu so‘zlarga uncha ishonmadi.

— Shoh o‘g‘lim, Abdullatifni men yoshlidan bilurmen. Uning tabiatida yomon bir beqarorlik bor. Ko‘zlarida burgutning ko‘zlarini eslatadigan qattiqlik sezamen. Men sizning bolaligingizni ham yaxshi eslaymen. Sizda ulug‘ iste’dodlarda bo‘ladigan nekbinlik, mayinlik ustun edi. Ammo o‘g‘lingiz boshqacha...

— Ya’ni, qandoq... boshqacha?

— To‘g‘ri, Abdullatif juda botir yigit. Uning dovyurakligi menga Xalil Sultonni eslatadir. Onasi Husn Nigor xonim Xalil Sultonning qizi emasmi? Irsiy xislatlar ona tomondan ham o‘tar ekan-da. Botirligi yaxshi. Lekin botirlilik ham aql-u iroda bilan idora etilmasa bo‘lmas ekan. Xalil Sultonning fojiasiga botirligini o‘z aqli bilan idora etolmagani sabab bo‘ldi.

Ulug‘bek onasining bu fikriga qo‘schildi:

— Botirlilik aql bilan yo‘lga solinmasa, odamni hovliqma qilib qo‘yishi mumkin, — dedi Ulug‘bek. — Men ham o‘g‘limiz Abdullatifda hovliqmalik, dovdirlikka o‘xhash bir xislat borligini sezamen. Ilohim Xalil Sulton fojiasidan xudo bizni asrasin!

— Xudoyi taolo ehtiyyotni unutmagan bandalarini asragay, shoh o‘g‘lim! Abdullatif o‘zini tutib olguncha uni yomonbek-larning qutqularidan ehtiyyot qilaylik. Samarqandda qolsa, uni sizga qarshi biron fitnaning girdobiga tutishlari mumkin. Shuning uchun hazrat otangiz Abdullatifni Hirotda o‘z yonlarida tarbiya qilmoqchilar. Harbiy vazoratda unga kattaroq lavozim bermoqchilar. «Balki panjhazora¹ lavozimini berurmiz», dedilar.

Bu gaplardan keyin Ulug‘bek Abdullatifni Hirotda qaytarishga rozi bo‘ldi va xotini bilan o‘g‘lini shunga ko‘ndirdi. Qish chillas-i hali chiqmagan edi. Ulug‘bek onasi bilan o‘g‘lini yana Amudaryo bo‘yigacha kuzatib keldi. So‘ng uchovlari kemaga chiqishdi. Daryoda muzlar harakati yanada xatarli tus olgan. Ulug‘bek onasi bilan o‘g‘lini Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘iga o‘tkazib, Hirotda kuzatgandan so‘ng yana ko‘chma muzlar zarbasiidan silkinib lapanglab borayotgan kemada o‘ng qirg‘oqqa qaytiq ketdi.

Bu hodisaning guvohi bo‘lgan odamlar podshoh o‘g‘il bilan malika onaning bir-birlariga talpinib, arazchi Abdullatif uchun jon kuydirib, qahraton sovuqlarda shuncha uzoq yo‘l bosganlarini, xususan, Ulug‘bek onasining hurmati uchun Amuday xatarli daryoning u qirg‘og‘idan bu qirg‘og‘iga qish

¹ *Panjhazora* — beshmingboshi, ya’ni qo‘sishin boshlig‘i, armiya generali.

chillasida bir emas, to'rt marta o'tganini hayotda kam uchraydigan bir mehr-u oqibat timsoli deb ta'riflar edilar. Bu ta'riflar Shohrux Mirzoning qulog'iga ham yetib bordi. Shohruxning topshirig'iga binoan Mirzo Alouddavla Hirotning eng e'tiborli arkoni davlatlari bilan birga Gavharshod beginiga peshvoz chiqib, u bilan Abdullatifni ikki kunlik yo'lida kutib oldilar.

Abdullatif va Alouddavla yarashgan bo'lib, quchoqlashib ko'rishdilar. Ammo bu yarashish ketidan qonli olishuvlar keliшини hali hech kim bilmash edi...

SHOHLARGA FIDO MALIKA

Shohruxday podshohning malikasi-yu Ulug'bekday yana bir hukmdorning onasi bo'lish tashqaridan qaraganda Gavharshod beginiga faqat saodat va farog'at keltiradiganday ko'rindi. Lekin bu shohna hayotning zamirida ziddiyatlar va xavf-u xatarlar shu qadar ko'PKI, ulardan ogoh begin doim ehtiyot va sergak bo'lishga intiladi.

Begimning sergakligi va aql-u farosatini yoqtiradigan Shohrux Mirzo davlat ishlarini xotinidan sir tutmaydi. Mana, qirq yildirki, qayerda qanday og'ir vaziyat yuz bersa, uni bamaslahat bartaraf etish uchun beginni uzoq safarlarga birga olib ketadi.

Harbiy yurishlarda Gavharshod begimning So'fi Tarxon, Ahmad Tarxon, Uvays Tarxon degan aka-ukalari podshoh va uning malikasiga eng sadoqatli qo'riqchilar bo'lib xizmat qildi.

Xurosonga Tabriz tomonlardan bostirib kirgan qoraqo'yunli turkmanlar tajovuzi paytida xiyonatchi beklar kechasi Shohrux bilan Gavharshod begin uxlab yotgan chodirga o'q yog'dirib, suiqasd uyuştirdilar. Voqeadan vaqtida xabar topgan So'fi Tarxon boshliq qo'riqchi askarlar o'sha kecha Shohrux va Gavharshod beginni bir o'limdan saqlab qoldilar. Saidxo'ja nomli fitnachi bek va uning tarafдорлари o'z tajovuzlarining qurbaniga aylanib, nobud bo'ldilar.

G'arbiy viloyatlarda, Sultoniya va Tabriz tomonlarda mudom qonli urushlarga sabab bo'lib kelgan Qora Yusuf Amir

Temurga tutqich bermay, qutulib ketgan edi. Keyinchalik Qora Yusufning odamlari Sohibqironning uchinchi o‘g‘li, Shohruxning akasi Mironshohni o‘ldirgan edilar.

Oradan ancha vaqt o‘tib, milodiy 1420-yilda qulay vaziyat vujudga kelganda Shohrux Mirzo akasining kushandalariga qarshi qo‘sishin tortdi. Bu xatarli yurishga Gavharshod beginni ham birga olib ketdi.

Qora Yusuf Shohrux bilan hayot-mamot jangiga shaylana boshladi. Biroq urush boshlanishidan bir kun oldin xudoning qudrati bilan keksa Qora Yusuf o‘z chodirida, yosh xotinining xobgohida to‘satdan vafot etdi. Bu o‘lim Qora Yusuf tarafdarlarini shunday sarosimaga soldiki, ular qarshilarida tahdid solib turgan Shohrux qo‘shindan vahimaga tushib, sarkardalari Qora Yusufning chodirda qolgan jasadini tashlab qochedilar. Murda bilan yolg‘iz qolgan yosh beva ayol shu atrofdagi qarindosh-urug‘larini yordamga chaqirish uchun ketganda allaqanday ochko‘z talonchi o‘lib yotgan Qora Yusufning yirik yoqut qadalgan oltin sirg‘asini qulog‘idan tezda chiqarib ololmagach, eti bilan birga kesib olib ketadi.

Qora Yusufning o‘g‘illari ko‘p edi. Shohrux oraga odam qo‘yib, uning Abusayid degan aqli o‘g‘li bilan murosa yo‘lini topdi. Urushni yarashga aylantirib, Qora Yusufga azaldan ota meros bo‘lgan yerlarni shu Abusayid ixtiyorida qoldirdi. Amir Temurga qarashli bo‘lgan viloyatlar esa yana Shohrux Mirzo qalamraviga o‘tdi.

Ochiqchasiga olib borilgan olishuvlarda Shohrux Mirzoni hech kim yengolgan emasdi. Amir Temurga munosib o‘g‘il sifatida u birorta jangda mag‘lub bo‘lmagani va qirq yildan buyon yelkasi yer ko‘rmay kelayotganidan Gavharshod begin iftixor qiladi.

Ammo Shohruxni janglarda yengolmagan g‘addor dushmanlar maxfiy yo‘llar bilan yana unga qarshi fitnalar va suiqasdlar uyuşhtirdilar.

Shohrux ellik yoshga kirgan yili qishda jangari xurufiylar mazhabiga mansub bo‘lgan aqidaparast Ahmad Lurning zimdan tayyorlanib qilgan suiqasdi kutilmagan hodisa bo‘ldi. Juma kuni edi. Musulmonchilik farzlarini astoydil ado etadigan Shohrux Mirzo doim juma namozini Hirotning jome masjidiga borib o‘qir edi.

Suiqasd bo'lishidan oldingi kechada Gavharshod begin yomon bir tush ko'rgan ekan. Begimning tushida Shohrux Mirzo otliq o'tib borayotgan tor bir ko'chaning paxsa devori to'satdan uning oti ustiga ag'darilib tushgan edi.

Ertasi kuni Shohrux juma namoziga otlanayotganda begin uni qaytarmoqchi bo'ldi. Tushiga kirgan hodisani unga aytib berdi-da:

— Shu bugun juma namozini uyda o'qiy qoling, dilim bezovta bo'lyapti! — dedi.

— Dilingiz bezovta bo'lsa miskinlarga sadaqa bering, — dedi Shohrux Mirzo. — Men juma namoziga bormasam gap-so'z ko'paygay!

Shohrux namozdan so'ng masjid hovlisiga chiqayotganda chakmon kiygan bir namozxon qo'lida o'ram qilingan oq qog'oz bilan shoshilib uning qarshisidan chiqdi. Shohrux qog'ozni ko'rib, «arizadir» deb o'yladi-yu, yonidagi mulozimiga «oling!» degan ishorani qildi.

Ammo o'ram qilingan qog'ozning ichiga o'tkir pichoq yashirilgan ekan. Ahmad Lur chapdastlik bilan pichoqni Shohruxning qorniga urdi. Qo'riqchi navkar shoshib himoyaga kelganda, Ahmad Lur unga ham pichoq sanchdi. Og'riqdan ingragan Shohrux qo'rchiboshiga:

— Ablahni daf qiling! — deb xitob qildi. Qo'rchiboshi qili-chini sug'urib, Ahmad Lurni shu yerning o'zida chopib tashlad. Masjid sahniga to'shalgan marmar toshlar uning qoniga bo'yaldi.

Pichoq Shohruxni qornidan yarador qilgan, uning rangi oppoq oqarib ketgan edi. Qo'rchiboshi:

— Hazratim, taxtiravon chaqiraylikmi? — deb so'radi.

Shunda qo'rchiboshi Feruzshoh bir andishani o'rtaga tashlad:

— Masjidga otliq kelgan hazratim taxtiravonda qaytsalar... turli ovozalar tarqalgay... fitnachilar bosh ko'targay!

Shohrux ham shuni o'ylab, zaif tovush bilan:

— Ot... keltiringlar! — dedi.

Uning yarasiga pilta qo'yib, beli bilan qornini mahkam bog'ladilar-da, bir amallab otga mindirdilar.

Pichoq zarbidan qoringa qon quyilish xavfi qanchalik kuchli bo'lmasin, Shohrux Mirzo og'riqqa chidab, butun irodasini

ishga solib, saroyga otliq yetib bordi. Uni otdan tushirganlarida qadam bosolmay, hushidan ketdi.

Erining hayoti qil ustida turganini sezgan Gavharshod begim darhol xos tabiblarni chaqirtirdi. Ikki kecha-yu kunduz uning hayotini saqlab qolish uchun kurashdilar. Jarrohlar qorinni olib, ichakning pichoq kesgan joyini tikdilar. Ichga quyilgan qonni tozalash ham juda mashaqqatli bo'ldi. Shohrux Mirzo bu ishlar davomida goh og'riqdan ingrar, goh hushidan ketib alahsirar, Gavharshod begin uning butun azobini o'zi boshidan kechirayotganday qiynalardi. Eri sal o'ziga kelguncha tinim bilmay, hakim-u tabiblarga qarashdi. Davlat ishlarini ham Shohrux Mirzo nomidan o'zi boshqarib turdi. Vaziri a'zamga buyurib, Ahmad Lurning ketida turgan Azd va Astrobodiy degan aqidaparastlarni tuttirdi. Din niqobi ostida hokimiyatni egallamoqchi bo'lgan bu g'alamislar ayovsiz jazolandı.

Podshohning hayoti saqlab qolingga va uning sog'aya boshlagani shukronasiga Hirot, Samarqand, Balx va boshqa shaharlarda el-yurtga xudoyi oshlar berildi, beva-bechoralarga xayr-u ehsonlar ulashildi, soliq to'lashda qiynalib qolgan dehqon va hunarmandlar ro'yxatga olinib, ularning boqimanda qarzlari dan voz kechildi.

Og'ir xastalik sababli Shohrux Mirzo bir oydan ortiq ko'rpato'shak qilib yotdi. Uning yarador bo'lgani haqidagi xabar to'rt tomonga tarqalib, Dashti Qipchoqlarga ham yetib borgan bo'lsa kerak. Qulay paytni poylab yotgan g'animplar ko'p o'tmay Turonning shimoliy hududlariga bostirib kirdilar.

Bosqinchilarga Chingizzon avlodlaridan bo'lgan Baroq O'g'lon boshchilik qildi. Ular Sirdaryo bo'yidagi Sig'noqni egal-lab, Turkiston shahriga tahdid solayotganligi haqida Ulug'bekka shoshilinch xabarlar keldi.

— Nonko'r Baroqxon! — deb Ulug'bek bu yigitga qancha yaxshiliklar qilganini esladi.

Baroq O'g'lon bundan sakkiz yil burun Oq O'rda¹ xonlari dan yengilib, Ulug'bek huzuriga qochib kelgan edi. Unga sadoqat

¹ *Oq O'rda* — Sirdaryo bo'yidagi hozirgi Qizil O'rda shahri va uning atroflari.

izhor qilib yalingan, Ulug‘bek yordamida Oq O‘rdada o‘z mavqeyini qayta tiklagan edi. Shunda Ulug‘bek unga To‘xtamishni eslatgandi. «Sohibqiron bobom qilgan yaxshiliklarga yomonlik bilan javob bergani uchun To‘xtamish yer bilan yakson bo‘ldi, siz unga o‘xshamang!» — deb Baroq O‘g‘lonni ogohlantirgan edi. Baroq O‘g‘lon besh-olti yil davomida bir necha marta Ulug‘bekka elchilar, sovg‘alar yuborib, uning hurmatini joyiga qo‘yib yurdi. Endi Shohrux Mirzo yaralanib yotib qolgan paytda Ulug‘bekni «himoyasiz qoldi» deb o‘ylasa kerak, olchoqlarcha tajovuz boshladi.

Ulug‘bek Baroq O‘g‘longa qarshi jangga chiqmoqchi bo‘layotgani haqida xabar kelgach, Gavharshod begin endi o‘g‘li uchun iztirob cheka boshladi. Chunki bu gal Shohrux Mirzo o‘g‘liga yordamga yetib bora olmas edi. Uning yarasi tu-zalgan bo‘lsa ham, me’da ichida ichakning tikilgan joyi ortiqcha zo‘riqishdan ochilib ketishi va ichga yana qon quyilishi mumkin edi. Tabiblar shuni aytib, «besh-olti oygacha zinhor harbiy yurishlarga bormasinlar», deb ta‘kidlamoqda edilar. Shohrux Mirzo Gavharshod begin bilan maslahatlashib, Ulug‘bekka Hirotdagi inisi Jo‘giy Mirzoni o‘n ming askar bilan ko‘makka yubordilar. Maxfiy axborotlarga qaraganda, Baroq O‘g‘lon Sig‘noqni o‘n ikki ming askar bilan bosib olgan edi.

Samarqandda Ulug‘bek yigirma ming askar to‘plagan ekan. Hirotdan Jo‘giy Mirzo o‘n ming qo‘sish bilan borsa, og‘a-ini Baroqxon ustidan g‘alaba qilishlari mumkindek tuyulardi.

Bundan bir necha yil oldin Ulug‘bek inisi bilan Issiqko‘l tomonlardan Farg‘ona vodiysiga tajovuz qilib kelgan mo‘g‘ul xonlarini tor-mor qilib g‘alabaga erishgan va buni Jizzaxdan beridagi Ilon o‘tar tog‘lari ustidagi toshga maxsus bitik tarzida yozdirgan edi. Shoyadki, bu gal ham og‘a-ini o‘g‘illar birlashib, Baroqxon tajovuzini bartaraf etsalar, deb umid qilardi Gavharshod begin.

Ulug‘bek o‘ttiz ming qo‘sish bilan Turkistondan o‘tib, Sig‘noqqa yaqinlashganda Baroq O‘g‘lon unga bas kelolmasligini tan olganday bo‘lib, elchi yubordi. Bir vaqtlardagidek Ulug‘bekka sadoqat izhor qilib, qimmatbaho sovg‘alar peshkash etdi. Bir hafta ichida bor qo‘shinini Turon hududidan olib chiqib ketishga va‘da berib, sulh taklif qildi.

So‘zga usta elchilar Ulug‘bekka: «Biz bir xalqmiz, hazratim, — deyishdi. — Tilimiz bir, dinimiz bir, Baroq O‘g‘londan gunoh o‘tgan bo‘lsa bir marta kechiring, behuda qon to‘kilmasin, tavba-tazarru qilib, bosh egib keldik!»

Ulug‘bek inisi va nufuzli a‘yonlari bilan kengashib, axiyri «egilgan boshni qilich kesmas» dedi-yu, sulh tuzishga rozilik berdi. Faqat Baroq O‘g‘longa bor qo‘sishini Turondan olib chiqib ketish uchun bir hafta emas, uch kun muhlat berdi. Elchilar Sig‘noqqa borib-kelib, Baroq O‘g‘lon bu muhlatga ham rozi bo‘lganligini bildirishdi.

Bu voqealar hut oyining oxirlarida — Navro‘z arafasida bo‘lmoqda edi. Ulug‘bek va uning bek-u navkarları: «Endi urush bo‘limgay, Navro‘z o‘zi urushni yarashga aylantiradigan bayram!», deyishib, bayram tayyorgarligini ko‘ra boshlaydilar.

Ulug‘bek qo‘sini past-u baland tepaliklar orasini qarorgoh qilgan edi. Bu qarorgohni qo‘riqlash uchun ajratilgan Xo‘ja Yusuf va Murod Qavchin degan beklar «ertaga bayram!» deyishib, rosa ichishadi, mast bo‘lib uxbab qolishadi. Ulardan ibrat olgan qo‘riqchi navkarlar ham pinakka ketishadi.

Ulug‘bekning o‘zi esa o‘sha kecha bahorgi tengkunlik boshlanganidan foydalaniib, «Ziji Ko‘ragoniy»ga zarur aniqliklar kiritish bilan band bo‘ladi. Buning uchun Samarqanddan charm g‘ilofga o‘rab, aravada ehtiyyot qilib olib kelingan asboblarni baland bir tepalikka o‘rnatadi.

Cho‘l osmoni xuddi gumbazning o‘zi edi. Atrof ochiq bo‘lgani uchun osmonning ufqqa tutashgan butun aylanasi juda aniq ko‘rinardi. Yulduzlar yirik-yirik va behad ravshan charaqlab turardi.

Shogirdi Ali Qushchi yordamida Ulug‘bek o‘sha kecha yulduzli osmonda ancha yangiliklar kashf qildi. U o‘z zijingning dastlabki tarhida Abdurahmon So‘fiy zijiiga asoslanib, Surayyo yulduzlarini oltita qilib ko‘rsatgan edi. Hozir usturlob orqali bu yulduzlar to‘pi oltita emas, to‘qqizta ekanini aniqladi. Hut yulduzlar turkumida esa yana ikki yulduz So‘fiy ko‘rsatgan o‘n ikkinchi burjda emas, balki Hamal yulduzlar joylashgan qo‘shni burjda ekanini ham Ulug‘bek shu kecha kashf qildi.

Falakiyot ilmining tarixiga kira digan yangi kashfiyotlari qilingani Ulug'bekni behad quvontirar va hayajonga solardi Yulduzlari charaqlagan osmon ostida Baroq O'g'londay manbu dushman uni g'aflattda qoldirib, to'satdan hujum qilishi mumkinligi xayoliga kelmasdi.

Sahar palla yov bostirib kelganda mast uyqudan cho'chib uyg'ongan Ulug'bek nima hodisa bo'lganini daf'atan tushun madi. Dahshatli qiyqiriq, baqiriq va ur-surlar orasidan Jo'giy Mirzoning ovozi eshitildi:

— Hazratim, olchoq Baroq O'g'lon sulk tuzib, bizni alda gan ekan! Turing tezroq!.. Yog'iy bosdi!

Kiyinib, otlanib chiqqunlaricha fursat boy berildi. O'ming qo'shin saflanishga ulgurmay, cho'l bo'ylab tumtaraqay bo'lib qocha boshladi, Ulug'bek ham inisi va qo'riqchi navlari bilan chekinishga majbur bo'ldi.

Baroq O'g'lon olchoqlik bilan erishgan g'alabasidan qutrib, Ulug'bekni Toshkentgacha ta'qib etib keldi. Uning askarlaridan katta bir qismi yo'lida uchragan shahar-u qishloqlarini talab, Samarqandga yaqinlasha boshladi.

Bu voqealar xabari bahorning savr oyida Hirotg'a yetib bordi Shohrux Mirzo endi tabiblarning so'ziga ham quloq solmay harbiy yurishga otlandi. Erining sog'lig'idan va Turondan o'g'llarining ahvoldidan xavotirga tushgan Gavharshod begim Shohrux Mirzo bilan birga yo'lga chiqdi. Goh otliq, goh fasti ravonda va mahofada yo'l yurib, Amudaryoga Termiz tomonidu yaqinlashdilar.

Ota-onasi kelayotganidan choparlar orqali xabar topgani Ulug'bek Toshkentdan Termizgacha shitob bilan yetib bonularni daryo bo'yida kutib oldi.

Shohrux katta qo'shin bilan kelayotganini eshitgan Baroq O'g'lon u bilan urushishga jur'at etolmay, Dashti Qipchoqqa chekindi. U yerda ham ko'p turmay, yangi o'ljalar tamasida Qashqar tomonlarga bostirib bordi.

Buni eshitgan Shohrux Mirzo Andijon va O'sh orqali Qashqar xoni Shermuhammadga bir necha ming kishilik askari ni ko'makka yubordi. Ikki tomondan Baroq o'g'longa hujum qilgan lashkarlar uning qo'shinini qurshab olib, tor-mor qildilni

Baroq O'g'tonning o'zi asir tushdi. Shermuhammadxon uning
to'xtimi ketirib, Samarqandda turgan Shohrux Mirzoga berib
otardi.

Ulug'bekning yaxshiliklariga shuncha yomonliklar bilan javob
tug'oni nuzil dushmanqa qasos qaytgani ko'pchilikni mammun
qildi. Lekin Sig'noq yaqinida dushman hiylasiga aldanib, behuda
tezok bo'lgan bek-u navkarlarning yaqinlari arz-u dod qilib yurar
alish. Shohrux Mirzo bir oycha Samarqandda turib, Sig'noqda
testrik bo'lgan sipohilarning oilalariga ta'ziya bildirdi va nafa-
qadur belpiladi. Ayni vaqtida, yov hujum qilgan kuni kechasi
qizililikda sergak turish o'rniqa aysh-u ishratga berilgan Xo'ja
Vicuf va Murod Qavchirlarni cho'p yasoq jazosiga buyurdi.

Vorpaning boshqa tafsilotlarini ishonchli odamlardan su-
zubimib bilgan Shohrux Mirzo Ulug'bekdan ham xafa bo'lib,
ba' necha kun u bilan so'zlashgisi kelmay yurdi. Nihoyat,
e'limi Ko'ksaroydagagi xonayi xosga chaqirtirib, taxt qarshisida
qilib qilib qo'ydi-da:

Baroqxon bilan urushda necha ming kishi halok bo'ldi? —
— de o'tadi.

Hazratim, ikki ming...

Ana shu minglarning uvoli, avvalo, sizning zimmangizga
ishadir! Siz bosh sarkarda edingiz. Harbiy holatda hushyor
o'rniqa tuni bilan osmondagи yulduzlarga tikilib, rasad
tarafabsiz!

Rost, hazrat otajon, mendan o'tdi. Baroq bizni g'aflatda
qoldirish uchun sulh taklif qilib, hiyla ishlatganini sezmay
qilibmen!

Xayolingiz qo'shin taqdiri bilan band bo'lganda sezar
o'stingiz! Sizda aql-u farosat yetarli! Lekin siz... Samarqandda ilmi
ning bilan band bo'lganingiz ozlik qildimi? Jang arafasida faqat
po'lin taqdirini o'ylash sizning burchingiz emasmidi?

Men gunohkorman, behuda halok bo'lganlarning ruhlari
oldida vijdonim azobdadur! Lekin menga olimlik dardini taqdir
neko ko'rgan ekan... Ne qilay? Bir yilda bir keladigan Navro'ziy
engunkunlik o'sha kechaga to'g'ri keldi. Homilador onanining
to'lg'og'iga o'xshash bir ilhomni to'xtatolmadim. Yangi kash-
fiyotlar qilindi...

— Xo‘p, siz olimsiz. Men ilmi nujumni ehtirom qilurmen. Agar taqdiringiz butunlay ilmga bog‘langan bo‘lsa, unda taxtdan voz keching! Axir ikki tarvuz bir qo‘ltiqqa sig‘magay!

Bu so‘zlarni aytish otaga ham oson emasligini, suiqasddan keyin u tabiblar nazorati ostida qattiq parhez bilan ovqatni kam yeb ozib, burishib qolganini, qorniga sanchilgan pichoq yarasining asoratlari hali butunlay ketmaganini Ulug‘bek otasining sarg‘ayib qolgan yuziga qarab sezdi.

— Hazrat otajon! Samarqand taxtini siz menga inoyat qilgan edingiz. Hayotim xavf ostida qolganda siz necha bor meni qutqarib qoldingiz. Mana, bu gal ham boshimga og‘ir kun tushganda bemor bo‘lishingizga qaramay yetib kelib, mal‘un Baroqxondan mening qasdimni olib berdingiz. Buning hammasi uchun men sizdan umrbod minnatdormen. Agar siz lozim ko‘rsangiz, mayli, men qolgan umrimni faqat ilm dargohida o‘tkazay, taxtga boshqa farzandingiz munosibroq bo‘lsa, men bunga so‘zsiz rozimen!

Shohrux Mirzo istehzoli kulimsirab:

— «Qolgan umrim» emish! — dedi. — Hali qirq yoshga ham kirganingiz yo‘q... Umrингиз узоқ бо‘лсин, миরзам! Ammo о‘zingiz rozi bo‘lganingiz uchun, biz Samarqand taxtiga boshqa nomzod izlab ko‘raylik...

Shohrux Mirzo o‘sha kuni Hirota chopar yuborib, Ulug‘bekning inisi, Xurosonda vaziri a’zam bo‘lgan Boysun-qur Mirzoni Samarqandga chaqirtirdi.

«Ulug‘bek taxtdan chetlatilmish!» degan ovozalar og‘izdan og‘izga o‘tib, madrasa va rasadxonalarga ham yetib bordi. Tojdor homiyalaridan ajralish Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiydek allomalarini, Ali Qushchi va Mirim Chalabi kabi shogirdlarni ma‘yus qilib qo‘ydi. G‘iyosiddin Koshiy bundan o‘n yil burun Hirotda Shohrux saroyida xizmat qilgan va uning topshirig‘i bilan ilmi nujum tarixiga oid kitob yozib bergen edi. U shuni Shohrux Mirzoga eslatib, Qozizoda Rumiy bilan birga podshoh qabuliga kirishga urinib ko‘rdi. Ammo Shohrux Mirzo bir haftagacha ularni qabul qilmadi.

Mudarrislar Shohrux Mirzoning Gavharshod begin bilan birga Bog‘i Dilkushoda istiqomat qilayotganini eshitgan edilar.

Ular Shohruxning nomiga maktub yozib, uni Obirahmat bo'yidagi rasadxonaga taklif qildilar. So'ng Bog'i Dilkushoga borib, Shohrux Mirzo huzuriga kirishga yana bir urinib ko'rdilar. Bunga tuyassar bo'lmaganlardan so'ng Dilkusho bog'idagi Gavharshod begin huzuriga kirib, maktubni unga topshirib qaytdilar.

Shu kunlarda Gavharshod begin ikki o't orasida qolgandek kuyunib yashamoqda edi. Chunki Shohrux Mirzo begin bilan maslahatlashmay Hirotga, Boysunqur Mirzoga chopar yuborgani so'nggi paytda podshoga hirotlik amir-u a'yonlarning ta'siri kuchayib ketganidan dalolat berardi. Ular Boysunqur Mirzoni Samarqand taxtiga o'tqazib, Turonni Xurosonga butunlay qaram qilishni istar edilar.

Lekin Amir Temur, poytaxti Samarqand, Xurosonga hech qachon qaram bo'lган emas. Agar zo'rlik bilan qaram qilishga urinsalar ikki orada urush boshlanishi mumkin. Nahotki Shohrux Mirzo shuni sezmasa?

Ulug'bek yigirma to'rt yildan buyon Samarqand hukmdori bo'lib turibdi. Bu yillar davomida qancha xayrli ishlar qilgan bo'lsa, yomonlarga jazo berib, shuncha dushman ham orttirgan. Agar u taxtdan tushirilsa, dushmanlari Ulug'bekning jo-niga qasd qilishmaydimi?

Hirotni tashlab, Samarqandga hukmdor bo'lib kelish Boysunqur Mirzo uchun ham yomon oqibatlar bilan tugashi mumkin. Boysunqur shoirtabiat yigit, bazmlarni yaxshi ko'radi. Hirotning eng yetuk madaniy kuchlari Boysunqur Mirzo atrofiga yig'ilgan. U Firdavsiy «Shohnoma»sining parchalanib yo'qola boshlagan barcha qismlarini bir joyga yig'dirgan va uning mu-kammal matnini yaratish ishiga bosh bo'lган alloma. Lekin so'nggi yillarda Boysunqur Mirzo mayxo'rlikka odatlangan. Gavharshod begin bu o'g'lining salomatligi zaifroq ekanini bilar, shuning uchun Hirotda ota-onalari uni ortiqcha may bazmlaridan ehtiyyot qilib yurar edilar. Endi agar Boysunqur Samarqandga kelsa, ota-onadan yiroqda mayxo'rlikka berilib, davlat ishini ham, o'z salomatligini ham barbod qilishi ehtimoldan xoli emas edi. Shuni o'ylab iztirob chekib yurgan Gavharshod begin yulduzshunos olimlar qoldirgan maktubni Shohrux Mir-

zoga xonayi xosda ta'zim bilan topshirdi-da, endi unga dil yorib so'zladi:

— Hazratim, men butun umr-u jonimni sizdek Xoqoni Sa'idga, Ulug'bekdek hukmdor o'g'limizga fido qilib yuribmen. O'g'illarimizning taqdirida yomon o'zgarishlar bo'lishidan xavotirdamen!

— Bilurmen, siz Ulug'bekning Samarqanddagi toj-u taxtini saqlab qolmoqchisiz.

— Faqat men emas, hazratim. El-yurt shuni istaydir. Sizing qabulingizga kirolmay yurgan allomalar ham shuni iltijo qilmoqdalar...

Shohrux Mirzo allomalarning maktubini ochib o'qidi-da:

— Yulduzshunoslar bizni rasadxonaga chorlabdilar, — dedi. — Lekin borsam... Yana o'sha arz-u dod, Ulug'bekka taraf-kashlik...

— Nechun faqat arz-u dod? Axir siz ilm-u nujumga juda qiziqar edingiz-ku. Ulug'bekning ulkan iste'dodini ehtiyot qilib tarbiyalashni Sohibqiron otangiz sizga tayinlagan emasnidilar, hazratim? Men ojizangizning fikricha, bobosining ulug' dahosi siz orqali shu o'g'limizga meros bo'lib o'tgan. Ulug'bek ilmi nujum tarixida eng mukammal rasadxona quribdir. Buni xitoy, arab olimlari tan olib, maktublar yuborganidan o'zingiz xabardorsiz. Farzandingizga bobosidan o'tgan irsiy dahoni parvardigor ulug' sarkardalik shaklida emas, ulug' allomalik shaklida bergen bo'lsa nachora? Uning rasadxonasi fan olamining buyuk kashfiyoti deb tan olingen paytda sizdek ma'rifatli podshoh bu rasadxonani bir borib ko'rmasangiz... qandoq bo'lur, hazratim?

— O'zingiz borib ko'rdingizmi, begin?

— Men sizdan oldin borishga ibo qildim... Har qalay, ayol zotidanmen.

Xotinining bu ibosi va kuyunib aytgan gaplari Shohruxni ancha yumshatdi. Uning o'zi ham ilmparvar odam bo'lgani uchun rasadxonani bir ko'rmay ketish ma'rifatli podshoh sha'niga nomunosib ish bo'lishini endi astoydil his qildi. Shundan so'ng rasadxonaga chorshanbayi murodbaxsh kuni asr namozidan keyin borishi haqida mudarrislarga xabar yubordi.

Rasadxona olimlariga bu xabar yaxshilik alomati bo‘lib tuyldi. Tepalik ustidagi uch qavatli doirashakl binoning hali tugallanmagan pardoz ishlari bor edi. Bu ishlar chorshanba kunigacha bitirildi. Ulug‘bekning o‘zi ertalabdan rasadxonaga kelib, uni yana bir ko‘zdan kechirdi, kam-u ko‘stlarini to‘g‘rilatdi.

Shohrux Mirzo Obirahmat bo‘yiga kechki payt oftob endi botganda keldi. Ulug‘bek boshliq olimlar uni ta’zim-u tavozelar bilan kutib oldilar. Rasadxonaning tepalikda qad ko‘targan uch oshiyonlik baland binosiga qadam qo‘yganda Shohrux Mirzo ilmiy kitoblarda suratlarini ko‘rgan boshqa rasadxonalarini esladi. Ularning hammasida ham yer ostiga egib tushirilgan yoy shaklidagi qurilmalar bo‘lgan. Lekin Ulug‘bek rasadxonasidagi bu qurilma juda ulkan va betakror edi.

Yoy shaklidagi yetmis gazlik ulkan rub‘i faxriyning yarmi yer tagiga egib tushirilgan. Ikkinchchi yarmi esa uch qavatli doirashakl binoning tomigacha chiqib borgan edi.

Chuqurlik ichi ham, bino ham deraza va tuynuksiz bo‘lgani uchun juda qorong‘i. Ularga tushib-chiqiladigan yuzlab zinapoyalar tegrasiga fonuslar yoqib qo‘yilgan.

Ulug‘bek otasini zinapoyalardan pastga boshlab tushar ekan:

— Bizdan oldin qurilgan rasadxonalarda sulsi faxriy¹ yordamida tadqiqot olib borilgan, — deb izoh berdi. — Sulsi faxriy orqali faqat osmonning oltidan birini kuzatish mumkin. Bizning mana bu rub‘i faxriy deb atalgan ulkan yoyimiz osmonning to‘rtadan birini qamrab olg‘ay. Yilning to‘rt fasli davomida osmon jismlari bir-biri bilan o‘rin almashinur. Shu sababli bizning rasadxonamiz bir yil ichida osmon gumbazini boshdan oyoq to‘liq kuzatish imkonini bergay.

— Qani, shu imkondan biz ham foydalansak bo‘lurmi? — deb so‘radi Shohrux Mirzo.

— Marhamat, hazratim! — deb Ulug‘bek otasini al‘idada deb ataladigan asbob yoniga boshlab keldi. — Endi ijozat ber-sangiz, fonus yorug‘ini bekitsak.

¹ *Sulsi faxriy* — osmonning oltidan birini kuzatuvchi sekstant.

Fonuslar ustiga maxsus g'iloflar tortilgach, rasadxona ichiga tun qorong'usidan ham quyuq qorong'ulik cho'kdi. Faqat tepadagi tuynukda oltin tangadek kichkina yorug'lik ko'rindi. Shohrux Mirzo usturlob orqali kechasi yulduzlarni qanday kuzatishni bilardi. Al'idadadan foydalanish ham usturlobni eslatardi.

— Hazratim, yoy o'qi nishonga qanday to'g'rilansa, al'idadaning milini ham tepadagi yorug'likka ana shunday to'g'rilaysiz... Mana... Endi osmondagи yulduzlarga qarang...

— Hali qorong'i tushmasdan osmonda... yulduz? — deb Shohrux Mirzo tushunolmay so'radi.

— Zuhal, Mirrix kabi sayyora yulduzlar bu rasadxonadan kunduz ham ko'rinur...

Ulug'bek al'idadani tuynuk orqali osmondagи Zuhal yulduziga to'g'rilab berdi. Zuhal va yana bir sayyora xuddi qorong'i tun og'ushida turganday yirik bo'lib porlab ko'rinyotgani Shohruxni taajjublantirdi.

— Bu mo'jiza-ku! — dedi Shohrux hayrat bilan. — Bir kitobda o'qigan edim. Abu Rayhon Beruniy kunduz kuni quduqning tubiga tushib, yulduzlarni o'sha joydan kuzatar ekan. Demak, quduqning tubi qorong'i bo'lgani uchun kunduzi sayyoralar ko'rinar ekan-da!

— Ha, bizning rasadxona ham sayyoralarini yil bo'yи kecha-yu kunduz kuzatish imkonini bergay, — deb orqaroqda turgan Qozizoda Rumiy gap qo'shdi. — Hazrati oliylariga arzim shulki, Ulug'bek Mirzo loyihasiga binoan qurilgan ushbu rasadxona ilmi nujum tarixidagi eng ulug' kashfiyotdir. Rasad bog'lash ilmi uch ming yildan buyon bor. Ammo shu ming yilliklar davomida Ulug'bek Mirzodan oldin hech kim bunday mukammal rasad bog'lagan emasdir!

— Faqir bu rasadni shu yerda turgan ustoz-u shogirdlarim yordamida bog'lamishmen! — dedi Ulug'bek qo'lini ko'ksiga qo'yib.

Shohrux Mirzo yulduzlar jamoliga mahliyo bo'lib, kechasi allamahalgacha rasadxonada qolib ketdi. Qorong'ilik quyuqlashgandan keyin sobita yulduzlar yirik-yirik bo'lib ko'rina boshladi. Oddiy ko'z bilan ko'rinxaydigan minglab mitti yulduzlar

rasadxonadan charaqlab ko‘zga tashlanardi. Osmonda yulduzlar bu qadar ko‘p ekanini va bunchalik tig‘iz joylashganini Shohrux umrida endi ko‘rdi. Qutb yulduzi, Dubbi Akbar, Sumbula va boshqa tanish yulduzlar shunchalik yorqin nur sochib porlar ediki, ulardagi joziba va tengsiz bir poklikni yurakdan his qilgan sari Shohruxning qalbi ham ilohiy bir nurga va go‘zallikka to‘lib, butun borlig‘ini yayratardi.

O‘g‘li Ulug‘bekning samoviy go‘zallikka bunchalik mehr qo‘ygani va yulduzlar tadqiqotiga bunchalik ko‘p vaqt sarflashi bejiz emasligini Shohrux Mirzo endi tushundi. Tushundi-yu, undan o‘tgan xatolikni kechirdi. Xufton kech Bog‘i Dilkushoga mamnun bir qiyofada qaytib keldi. Uni xobgohda kutib o‘ltirgan Gavharshod beginning huzuriga kirdi-da:

— Siz haqsiz, begim! — dedi. — Bu urush-u yurishlar, toj-u taxtlar bari o‘tkinchi. Tarixda qolsa, o‘g‘limiz Ulug‘bek yaratgan rasadxona-yu Ziji Ko‘ragoniyalar qolur. Men bunga shu bugun imon keltirdim!

Shohrux Mirzo o‘scha kecha Hirota yana bir chopar yubordi. Hirotdan yo‘lga chiqqan Boysunqur Mirzo Amudaryo bo‘yida bu chopar keltirgan maktubni oldi. Unda Shohrux Mirzo Samarqandni yana Ulug‘bek ixtiyorida qoldirganini yozgan edi. Boysunqur Mirzo otasining topshirig‘i bilan daryo bo‘yidan orqasiga qaytib, Hirota ketdi.

DARYOGA QULAGAN TOG‘

Shundan keyingi o‘n-o‘n besh yil davomida Ulug‘bek Mirzo xatarli urush-yurishlarga qatnashmasdan, ilm-u ijod bilan band bo‘ldi. Ulkan sultanatning hali u yerida, hali bu yerida yana isyonlar va tajovuzlar sodir bo‘lsa, ularni Shohrux Mirzoning o‘zi bartaraf qildi.

Shu orada Samarqand va Hirota Xitoy elchilarini bilan birga kelgan uyg‘uristonlik musavvir Shohrux Mirzoning taxtda o‘ltirgan paytidagi suratini chizgan edi. Bu suratning asl nusxasi Hirotda, Gavharshod beginmda, yana bir nodir nusxasi Samarqandda, Ulug‘bekning xonayi xosida saqlanardi. Ulug‘bek

otasini uzoq vaqt ko‘rmasa sog‘inar va shu suratga tikilib, valine’matidan ko‘rgan yaxshiliklarini yodga olardi.

Suratda Shohrux Mirzo kiygan samoviy rangdagi aboga¹ osmondan yulduzlar yog‘ilib tushayotganday ko‘rinardi. Musavvir bu ramz bilan Shohrux Mirzoga ilohiy marhamat yog‘ilganini, shuning uchun Sohibqiron otasining ulkan sultanatini qayta tiklash va boshqarish unga nasib qilganini ifodalagan bo‘lsa kerak. Chindan ham, Shohrux Mirzo Sohibqiron otasining salobati va jozibasini meros olgan o‘g‘il edi. Uyg‘ur rassomi chizgan suratda uning yuzidan nur yog‘ilib turishi, bahodirona gavdasiga yarashadigan kiyimlarni did bilan kiyishi ko‘zga yaqqol tashlanadi². Suratdagi Shohrux Mirzo qiniga solingan bejirim qilichning uchini hassaga o‘xshatib yerga tirab, o‘ng qo‘lida ushlab turgani ham ramziy bir ma’noni bildiradi.

Sohibqiron Amir Temur o‘g‘il va nevaralariga nasihat qilganda bir narsani alohida ta’kidlardi:

— Kurashda adovat emas, adolat yengadir. Adolatli podshoh davlat ishining o‘ndan to‘qqiz qismini aql-u zakovat, sabr-u bardosh, murosayi maslahat bilan hal qilgay.

Shohrux Mirzo otasining mana shu udumiga astoydil amal qilib kelayotgani uchun huda-behuda qilich yalang‘ochlamas edi. Lekin tashqi tajovuzlardan tashqari ichki isyonlar ham bo‘lib turardi.

Milodiy 1446-yilning kuzida Mashhaddan naridagi Rayda Shohrux Mirzoning nevarasi Muhammad Sulton isyon ko‘tardi. Yoshi yetmishdan oshgan Shohrux Mirzo yana harbiy yurishga otlanmoqchi bo‘lganda tabiblar uni bu niyatidan qaytarishga urindilar. Chunki jome masjidida ro‘y bergen o‘sha mash‘um suiqasdning asorati vaqtı-vaqtı bilan o‘zini sezdirib turardi. Pichoq yarasidan qolgan chandiq, ayniqsa, kuz va bahor paytalarida me’daga qattiq og‘riqlar berardi. Shu sababli Gavharshod begin ham erini uzoq harbiy yurishdan qaytarishga ko‘p urindi.

¹ *Abo* — kalta yengli ustki kiyim.

² Bu surat 1978-yilda Toshkentda Abdurazzoq Samarqandiy qalami-ga mansub «Matlai sa’dayn...»ning o‘zbekcha nashrida chop etilgan.

Lekin Muhammad Sultonning isyonи g‘arbiy viloyatlarda payt poylab yotgan barcha g‘animlarni Shohruxga qarshi qo‘zg‘atib yuborgan edi. Bu qo‘zg‘alishga vaqtida zarba berilmasa, g‘animlar erta-indin Hirot-u Samarqandga ham bostirib kelishlari ehtimoldan uzoq emas edi.

Shohrux Mirzo otasi tuzgan ulug‘ davlat bunday xavf-xatarga duch kelgan paytda sog‘lig‘ini ham o‘ylamas, o‘zini ham ayamas edi. Shuni biladigan Gavharshod begin og‘ir safar chog‘ida keksa erining ahvolidan xabardor bo‘lib turish uchun Ray yurishiga u bilan birga jo‘nadi.

Shohrux Mirzo bu gal ham isyonni jangsiz bartaraf qildi. Muhammad Sulton bobosining g‘azabidan qo‘rqib, Kavkaz tog‘lariga qarab qochdi. Uning o‘rniga Shohruxning sadoqatli nevaralaridan biri — 16 yashar Abdulla Mirzo hokim qilib tayinlandi. Muhammad Sultonni bir guruh aqidaparast xo‘jalar isyon girdobiga tortgan ekanlar. Shohrux Mirzo buni tekshirib aniqlagach, din niqobi ostida hokimiyatni egal-lamoqchi bo‘lgan buzg‘unchi xo‘jalarni osib o‘ldirishga buyurdi.

Keyinchalik Muhammad Sultonga ham qasos qaytdi. U Mazaranda o‘z inisi Abulqosim Bobur bilan taxt talashib urush boshladi-yu, jangda yengilib, asir tushdi. Shunda Abulqosim Bobur Muhammad Sultonning bobosiga qilgan xiyonatini ham yuziga solib, uni ayovsiz qatl ettirdi.

Shohrux Mirzo Ray va uning atroflarini tinchitib, hut oyida Hirotga qaytib kela boshladi. Ammo u qish bo‘yi yo‘l yurib juda toliqqan edi. Raydan beridagi Peshavoriy degan qishloqqa kelganlarida me’dasi juda qattiq og‘ridi. Tabiblarning muolajasi yordam bermadi. O‘scha eski yara harbiy yurish davomida yallig‘lanib, birdan ochilib ketgan bo‘lsa kerak. Yarim kechada Shohrux Mirzoning yonida o‘ltirgan Gavharshod begin uning og‘zidan qon kelganini ko‘rib, qo‘rqib ketdi.

— Taqdir ekan, — deb Shohrux Mirzo xotiniga tasalli berdi, — men ham hazrat otamga o‘xshab... harbiy yurishda... kayvoni xotinim qo‘lida... jon beradiganga o‘xshaymen... Qo‘singa... Abdullatif bosh bo‘lsin... Ulug‘bekka chopar yuboringlar...

Chopar Samarqandga o'lim xabarini olib kelganda Ulug'-bekning tiniq daryoday oqayotgan hayotiga tog' qulab tushganday butun vujudini larzaga soldi. Chopar keltirgan mash'um xabar ilmi siyoq¹ yozuvi bilan maxfiy usulda Abdullatif tomonidan yozdirilgan ekan. «Bobom hazratlari Mahdi Ulyo momomiz ilkida jon berdilar, — degan edi Abdullatif. — Hazrat momom yarim tunda meni huzurlariga chorladilar. «Ellik ming qo'shinga endi siz sarkardasiz», — dedilar. — Hazrat otajon, siz bilursizki, bu ulkan qo'shindan faqat o'n minggi siz menga topshirgan turonlik bek-u navkarlardir. Xuroson-u Balxdan yig'ilib kelganlar bizdan uch-to'rt barobar ko'p. Hirot taxtiga da'vogarlardan biri bo'lgan amakivachchamiz Mirzo Abulqosim Bobur menga itoat etishni istamay, o'n ming qo'shin bilan bizdan ajralib ketdi. Hirotda uning og'asi Alauddavla hokim. Biz hazrat bobomning tobuti bilan Nishopur tomonga qaytmoqdamiz. Vaziyat behad og'ir. Mening niyatim hazrat bobomning jismlarini Simnon orqali Samarqandga yetkazib borish. Ammo yo'l uzoq. Xavf-xatar ko'p. Hazrat otajon, butun najotni sizdan kutmoqdamen. Tezroq yordamga yetib kelmasangiz, intihosiz talafotlar girdobida qolishimiz mumkin. So'zim tamom. Sizga sodiq farzandingiz Mirzo Abdullatif».

Yaqinlashib kelayotgan bu falokatlar boshqa temuriylarni ham o'z girdobiga tortishini Ulug'bek oldindan sezib, qattiq iztirobga tushdi. Musibat chekib o'ltiradigan payt emas edi. U darhol qo'shin to'plab, o'g'li Abdullatifga yaqinroq borishga shoshildi.

Bu gal qo'shin Buxoro orqali Kalifga emas, G'uzor orqali Termizga boshlab ketildi. Bu yo'l Amudaryoga yaqinroq edi.

Boysuntog'dan narida bodomlar, o'riklar qiyg'os gullagan, qir-u adirlarda yasan-tusan odamlar Navro'z sayillari o'tkazishmoqda. Ammo Ulug'bekning ko'ngliga shodlik sig'maydi, uyg'ongan tabiat go'zalliklarini ko'zi ko'rsa ham ularning zavqi diliqa yetib bormaydi.

Uning butun fikr-u xayoli otasining o'limi-yu, tobutni qo'riqlab kelayotgan o'g'li bilan onasida edi.

¹ *Ilmi siyoq* — yashirin yozuv, shifr.

Shohrux Mirzo Amir Temurdan keyingi eng ulug‘ davlat arbobi bo‘lganini odamlar uning o‘limidan keyin astoydil his qilsalar kerak.

Shohrux Mirzo Mo‘g‘ulistondan Arabistongacha, Dashti Qipchoqdan Hindistongacha bo‘lgan ulkan hududlarni yagona davlat qilib, uni qirq yil davomida oqilona idora etgan nodir siymo edi. Oilada ham shu qirq yil davomida Shohruxning to‘rt o‘g‘lidan birortasi otasidan norozi bo‘lib, unga qarshi isyon qilgan emaslar. Faqat noshukur nevaralardan biri — Boysun-qur Mirzoning o‘rtancha o‘g‘li Sulton Muhammad isyon ko‘tarib, keksa bobosini qish kunida bemavrid harbiy yurish boshlashga majbur qildi. O‘sha Muhammad Sultonning tug‘ishgan inisi Abulqosim Bobur esa uzoq elda vafot etgan bobosining tobutini abadiy makonigacha qo‘riqlab kelish o‘rniga, o‘n ming qo‘shinni yo‘ldan urib, Jurjon tomonlarda mustaqil davlat tuzish harakatiga tushibdi. Shohruxning o‘limi haqidagi xabar Hirotg'a yetib borsa, kim bilsin, katta nevara — Alouddavla qanday hunarlar ko‘rsatarkin?

Ulug‘bekning ko‘ngliga xiyol taskin bergan xabar shuki, Gavharshod begin bilan o‘g‘li Abdullatif mushkul bir vaziyatda ahil bo‘lib, birga qaytib kelishmoqda. Ulug‘bek saralangan qo‘sirlardan ikki ming suvoriyni Termiz yaqinidan kemalar bilan daryodan o‘tkazdirdi-yu, Bobo Husayn degan ishonchli odamini ularga qo‘shib, onasi bilan Abdullatifga ko‘mak yubordi. Sirdosh Bobo Husaynga qayta-qayta tayinladi:

— Abdullatif doim Hazrat momosi bilan bamaslahat ish qilsin! Mahdi Ulyo onam nevaralari orasida Abdullatifga shunday katta ishonch bildiribdir, ellik ming qo‘shinning ixtiyorini unga topshiribdir, endi o‘g‘limiz shu ishonchni oqlasin!

MOMOSIGA QASD QILGAN NEVARA

Ammo Ulug‘bek yuborgan odamlar uzoq yo‘llarni bosib o‘tguncha ig‘vogarlar Abdullatif bilan Gavharshod beginning orasiga nifoq solishga ulgurdilar. Hamma balo Turon amirlari bilan Xuroson amirlarining bir-biriga bo‘ysunmay, obro‘ ta-

lashishlaridan boshlandi. Qo'shinda qattiq tartib o'rnatish uchun Abdullatif o'zi bilan kelgan turonlik bek-u navkarlarga tayanardi. Ammo Xuroson-u Balxdan kelgan bek-u navkarlar samarqandliklarning itoatida bo'lishni istamas, chunki ular ko'pchilik edi va Shohrux Mirzo davrida o'zlarini turonliklardan baland qo'yib o'rgangan edilar. Jahli tez Abdullatif itoat etishni istamagan xurosonliklardan bir qanchasini cho'pyasoq jazosiga buyurib, darra bilan urdirdi. Ba'zilarini o'zi ham qamchi bilan savaladi. Oradagi nizo kuchayib, qo'shinda buzilish boshlandi. Xazar dengizi yaqin, havoda nam ko'p. Hut oyining yomg'irlari hammayoqni ivitib yuborgan. Kuni bilan loy kechib yo'l yurgan askarlar kechasi quruqroq joyda yotib dam olishga intiladi. Quruq joylar esa bir-biridan ancha uzoqda bo'lgan qishloqlarda. Qo'shin ana shu qishloqlarda tu-nash uchun tarqab ketganda o'ng qanot bilan so'l qanot orasi o'nlab chaqirim masofani egallaydi. Abdullatif yopiq arava-ga solingan tobutni va momosi Gavharshod beginni qo'riqlab markazda boradi. Kechasi ular ham qishloq kadxudosi¹ yoki shahar hokimining qo'rg'onida tunaydilar.

Xuroson amirlaridan bir qanchasi Gavharshod begin qaror-gohiga arzga kelib, Abdullatifning shafqatsiz jazolar berayot-ganidan shikoyat qildilar. Beginning xizmatini qilib yuradigan ayollar orasida Junayid Bo'ta degan Abdullatifga yaqin bekning xotini ham bor edi. Bu xotin Gavharshod begin huzuriga arzga kelgan amirlarning gap-so'zlarini zimdan eshitib, eriga yetkazib turadigan xufiya edi. Hirotlik Mirzo Solih Gavharshod begin huzuriga kelib:

— Shahzoda Abdullatif haddidan oshmoqdalar! — dedi. — Hirotga qochib ketamen degan yigitlarning birining boshini kestiribdir! Axir biz, Xuroson-u Balxdan kelganlar ko'pchilikmiz! Bunday shafqatsiz jazolardan pichoq borib suyakka qadalsa, qo'shinda isyon ko'tarilishi mumkin!

Gavharshod begin ovozini pasaytirib:

— Zinhor bunday yomon so'zlarni og'izga ola ko'rmang! — dedi. — Isyondan xudo saqlasin, murosa yo'lini izlaylik!

¹ *Kadxudo* — qishloq oqsoqoli.

Beginning past tovush bilan aytgan so‘zlarini Junayid Bo‘taning xotini aniq eshitmadı. Uning nazarida, begin ham isyonga moyillik bildirib, ovozini pasaytirganday bo‘ldi. Bu gaplar o‘scha kuni xuftonda Junayid Bo‘ta orqali Abdullatifning qulog‘iga yetib bordi. Abdullatif boshqa noxush xabarlar ham eshitib, qattiq xavotirga tushib o‘ltirgan edi. O‘tgan kechasi uzoq qishloqda tunagan besh yuz xurosonlik bek-u navkarlar Hirotg'a qochib ketibdi. Bular to‘g‘ri Alouddavlarning oldiga borib, uni qo‘zg‘atsa, Jurjon tomondan Abulqosim Bobur hujum qilsa... Shuning ustiga qo‘shin ichidagi Mirzo Solihga o‘xshaganlar Gavharshod begin bilan til biriktirib isyon ko‘tarsalar...

— Nahotki momom bu isyonga qo‘shilsa? — deb ko‘zlar ola-kula bo‘lib so‘radi Abdullatif Junayid Bo‘tadan.

— Qo‘shilish ham gapmi, Mirzo Solih bilan pichirlashib, isyonning maslahatini qilishibdir! Bular sizni hibs qilib, Xuroson ixtiyorini Alouddavlaga berishmoqchi! Momongiz avvaldan Alouddavlani valiahdlikka mo‘ljallab yргanini bilar dingiz-ku!

— Demak, Momom qo‘shinni menga... vaqtincha... Alouddavla yetib kelguncha topshirgan ekan-da!

— Ayni shunday!

Abdullatifni vahima bosdi. Vasvos bo‘lganday telbalanib:

— Bas! Meni tuttirmoqchi bo‘lganlarning o‘zlar hibs qilinishi kerak! — dedi.

— Amirzodam, fitnaning oldini olmasak yutqazamiz!

— Bugun tun yarmida... eng ishonchli yigitlardan ikki yuz kishini oling! Momomizning elliktacha qo‘riqchisi bor. Sahar palla boringlar! Qarshilik qilganlarni ayamay qiring!

Gavharshod begin Shohruxning tobuti bilan yopiq bir qo‘rg‘onchada tunamoqda edi. Darvoza ichkarisidan berkitilgan ekan. Junayid Bo‘taning ikki yuz yigit devorga narvonlar qo‘yib oshib tushishdi. Qarshilik qilgan soqchilardan o‘n-o‘n beshtasi qilichdan o‘tkazildi. Gavharshod begin va unga hamrohlik qilib kelayotgan Amir So‘fi Tarxon uxbab yotgan joylarida hibsga olindilar. Qo‘llari bog‘liq holda ularni tobut qo‘yilgan usti yopiq aravaga chiqarishdi. Ertalab bu arava

qo'shin bilan birga yo'lga tushganda uning atrofidagi qo'riqchilar odatdagidan ikki-uch barobar ko'payib qolgani ko'zga tashlandi. Gavharshod beginning o'z qo'riqchi yigitlari bo'lar edi, beklar ularni tanir edilar. Hozir beginning qo'riqchilaridan birortasi ham ko'rinnmadidi. Ularning o'rnini Junayid Bo'ta boshliq boshqa xos qo'riqchilar egallagan edi.

Yetmish yoshli Gavharshod begin o'z nevarasi tomonidan hibsga olingenligini safar paytida yashirish qiyin edi. O'sha kuniyoq bu hodisa Mirzo Solih kabi hirotlik beklarning qulog'iga yetib bordi.

Ular o'ng qanotda bormoqda edilar. Bu kecha qo'shinda tunab qolsalar, ular ham hibs qilinishi mumkin edi. Shuni sezib, oqshom qorong'i tushgan zahoti uch ming kishi Hirota qarab qochdi. Abdullatif o'z qarorgohida isyon chiqishidan qo'rqib, ularning ketidan quvg'inchi yubora olmadi.

Hirotda Alouddavla Abdullatifni tashlab qochib kelganlarni quchoq ochib kutib oldi. Shohrux Mirzodan meros qolgan xazinalarni ochtirib, qochib kelganlarga hovuch-hovuch oltin ulashdi:

— Bizga sodiq bek-u navkarlar minba'd mana shunday mu-kofotlar olg'aylar! — dedi. — Ammo ko'rnamak Abdullatif... o'zini tarbiyalab o'stirgan avliyo momosini zanjirband qilgani uchun jazo olmog'i lozim!

— Gavharshod beginni qutqarishni bizga topshiring! — dedi Ahmad Tarxon.

— Men ham sizlar bilan borgaymen, — deb Mirzo Solih oldinga chiqdi.

Gavharshod beginiga qarindoshligi bo'lgan Uvays Tarxon ham ularga qo'shildi.

Alouddavla bu uch amirning har biriga zarbof to'n kiyirdi, isfahoniylar qilich va uchqur otlar hadya qildi. Ikki ming sara navkarlarni ularning ixtiyoriga berib, kechasi Nishopurga jo'natdi.

Bu orada Abdullatif Nishopurga yetib kelgandi. Uning qo'shnlari shahar yaqinidagi mahallalarni talab, Nishopur va uning atrofidagi aholini qattiq norozi qilgan edi. Abdullatif butun Xurosonga dong'i ketgan Mahdi Ulyo momosini azador ahvoliga qaramay hibs qilgani hammayoqqa ovoza bo'lgan,

bunday noinsof nevara ko‘pchilikning nafratini keltirmoqda. Shu sababdan nishopurliklar Hirotdan yashiriqcha kelgan Mirzo Solih va Uvays Tarxonlarga qo‘llaridan kelganicha ko‘makkashdilar. Ular kechasi Abdullatif yotgan qasr darvozasini hitrotliklarga sekin ochib berdilar.

Darvozaxonada fonus yonib turgan edi. Birdan uyg‘onib ketgan soqchilar shovqin ko‘tarib, hirotlik bek-u navkarlarning yo‘lini to‘sdir. Jang boshlandi. Hirotdan kelganlar ko‘pchilik edi. Ular qorovullar qarshiligini yengib o‘tganlarida darvozaxona yaqinida Abdullatif paydo bo‘ldi. Darvozaxonadagi fonus yorug‘ida uning saman oti loy aralash suv sachratib chopib kelayotgani ko‘zga tashlandi. Ikki kun surunkasiga yomg‘ir yoqqan, hovlida ko‘lmaklar bor edi. Uvays Tarxon otliq Abdullatifni mo‘ljallab yoydan o‘q otdi. O‘q otga tegdimi yoki samanning oyog‘i qorong‘ida chuqurga tushib ketdimi, har qalay ot toyilib yiqlidi¹. Egardagi Abdullatif yomg‘ir ko‘lmagi ustiga uchib tushdi. Mirzo Solihning navkarlari unga tomon tashlandilar. Hash-pash deguncha qo‘lini orqasiga qayririb bog‘ladilar. Abdullatifning yonidagi Junayid Bo‘ta qilich yalang‘ochlagan edi, uni nayza bilan urib yiqitdilar.

Bu orada Ahmad Tarxon darvozadan sal naridagi omborxonani topdi. Gavharshod beginmi Shohruxning tobuti bilan shu zax, sassiq omborxonaga kirgizib, ustidan qulflab olgan edilar. Omborxona qorovuli kalitni topib berdi. Ichkariga birinchi bo‘lib kirgan Ahmad Tarxon:

— Hazrat begin! Qaydasiz? Men jiyaningiz Ahmad Tarxonmen! — deb qichqirdi.

— Yo Olloh! — deb tovush berdi Gavharshod begin. — O‘zingga shukur! Ahmadjon!.. Solihjon!.. Najotkorlarim!

Hibsda ezilgan, zaxda bel og‘rig‘idan bukchaygan Gavharshod beginmi ikki yonidan suyab darvozaxona oldiga olib keldilar. Begin fonus yorug‘ida qo‘li bog‘langan, shohona kiyimlari loyga belanib, ayanchli ahvolga tushgan nevarasi Abdullatifni ko‘ridi-yu, yig‘lab yubordi:

¹ Bu tafsilot Abdurazzoq Samarqandiyining «Matlai sa’dayn...» kitobida keltirilgan.

— Noinsof nevaramga yaxshilik qilsam-u, shunday yomonlik ko'rsam-a!.. Mana, qasos qaytibdir!.. Lekin bu qasosdan mening dilim vayron! Bolamning bolasini shu ahvolda ko'rish menga azob!

— Nachora, Hazrat begin! Mirzo Abdullatif qilmishiga yarasha jazo olmog'i darkor! — dedi Uvays Tarxon.

Abdullatifni bandi qilib, Hirotg'a olib ketdilar va qo'l yetmas joydag'i Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'ydilar.

ONA VA O'G'IL IZTIROBLARI

Bu orada Ulug'bek Amudaryodan o'tib, Balxga kelgan edi. Shu yerda turib so'nggi mudhish voqealarni eshitdi-yu, cheksiz bir iztirob ichida qoldi. Aqlini yo'qotib, keksa momosini hibs qilgan Abdullatifni endi qanday qutqarish mumkin? Albatta, bu hodisada ko'pchilik Gavharshod beginni haq deb biladi. Lekin Ulug'bek Alouddavlarning bandisiga aylangan o'g'lini hibsdan chiqarib olmasa, uning otalik obro'si nima bo'ladi? Hirotg'a qo'shin tortib borib, jang qilsa, u yerda onasi bor. Yetmish yoshli onaga qarshi qilich yalang'ochlash... Buni Ulug'bek xayoliga ham keltira olmaydi.

Birdan bir yo'l — elchilar yuborib murosa yo'lini izlash edi. Ulug'bek Hirotda ko'pchilik taniydigan eng e'tiborli ulamolardan Nizomiddin Mirak Sadrni elchi qilib yubordi. Elchi orqali Alouddavлага iliq bir maktub yozib, kelgusida unga katta inoyatlar va'da qildi. Faqat orada xafachilik bo'lmasligi uchun Abdullatifni hibsdan bo'shatib, otasining oldiga yuborishini talab qildi.

Biroq Alouddavla ashaddiy dushmani Abdullatifni hibsdan bo'shatishga rozi bo'lmadi. Shundan so'ng elchi Nizomiddin Ulug'bek nomidan Gavharshod beginiga murojaat qildi.

— Hazrat begin, Mirzo Alouddavla sizning so'zingizdan chiqmaslar. Shahzodaga tushuntiring, Ulug'bek hazratlari o'g'illarini hibsda tutgan odam bilan sulk tuzsalar, el-ulus buni malomat qilgay. Rost, Mirzo Abdullatif sizdek ulug' momosiga zulm o'tkazib, katta gunoh qilgan. Shu gunohi tufayli tangri unga jazo beribdir, o'zini hibsga tushiribdir. Agar bu jazoni

kam deb hisoblasangiz, Abdullatifni Ulug‘bek hazratlariga topshiraylik. Qolgan jazoni padari buzrukvorlari bersin! Bunden o‘zga murosa yo‘li yo‘qdir, hazrat begin!

— Janobi elchi, men ham murosa taraf dorimen. Hirot bilan Samarqand orasida sulk bo‘lsin, urush bo‘lmasin, qon to‘kilmasin! Ulug‘bek Mirzo mening yolg‘iz o‘g‘lim, ko‘zimning oq-u qarosi, jonimdan aziz farzandim. Rahmatli Shohrux Mirzoning qonuniy taxt vorisi — Mirzo Ulug‘bekdirlar. Buni Hirotda barcha tan olur. Suh tuzilsa, Hirot jomesida Mirzo Ulug‘bekning muborak nomlari xutbaga qo‘sib o‘qilgay. Ammo sulk mustahkam bo‘lishi uchun Abdullatif Ixtiyoriddin qal’asidan chiqmasligi lozim. Men uning dastidan hibsda azob tortganimni allaqachon unutganmen. Onalar kechirimli bo‘lurlar. Menda qasoskorlik tuyg‘usi yo‘q. Ammo Abdullatif hibsdan chiqsa, urush qilmay turolmagay. Uning tabiatida qon to‘kish mayli behad kuchli. Momosiga shunday yomonlik qilgan Abdullatif erta-indin otasiga ham yomonlik qilishdan qaytmagay!

— Hazrat begin, Abdullatif minba’d bunday yomonlik qilmaslikka qasamyod qildi. Mana uning maktubi.

— Ammo men endi uning so‘ziga ishonmaymen! Ulug‘bek Mirzoga borib aytинг. Alouddavla Hirotda uning xizmatida bo‘lg‘ay. Samarqand Sohibqiron Amir Temur davridagi kabi bosh poytaxtga aylansin. Abdullatifning gunohi bo‘ynida. Ixtiyoriddin qal’asida biror yil tinch yotsin. Vasvasaga beriladigan odati bor¹. Tabiblar davolasin. Mayli, ahli harami ham yonida bo‘lsin. Qal’ada shohona xonalar bor. Maydan boshqa noz-u ne’matlar muhayyo qilingay. Biror yilda Abdullatif shifo topib, ehtimol fe’li ham o‘zgarar. Ungacha alg‘ov-dalg‘ovlar ham bosilgay. Mirzo Ulug‘bekning tinchini o‘ylab shu taklifni qilmoqdamen. Borib aytинг, janobi elchi, men o‘g‘limga faqat yaxshilik istaymen!

Ammo Ulug‘bek bu taklifni qabul qilishning ilojini topolmadi. Chunki uning atrofidagi amir-u ulamolar Abdullatifning Alouddavla tomonidan hibs qilinishini Ulug‘bekning podshohlik sha’niga tushgan dog‘ deb hisoblashardi. Ulug‘bek bu dog‘ni

¹ Abdullatifning vasvos kasali bo‘lganini hazrat Navoiy «Majolis-ul nafoyis»da yozgan.

yuvib tashlamasdan sulk tuzsa, Alouddavlani g'olib deb tan olgan bo'lar, o'zi esa mag'lubiyatga uchragan hisoblanardi.

Ulug'bek onasining kuyunib aytgan gaplarida jon borligini, Abdullatif hibsdan bo'shasa yana urush chiqarib, otasining tin-chini buzishini sezardi. Ammo shohlik udumi g'alabani Alouddavlagi berib, Ulug'bekning mag'lub ahvolga tushishiga yo'l qo'ymasdi. Shuning uchun Ulug'bek Abdullatifni hibsdan bo'shatishlarini qattiq talab qildi.

Bu orada Jurjondan, Alouddavlarning inisi Abulqosim Boburdan Ulug'bekka elchi keldi. Abulqosim Bobur Alouddavla bilan urush boshlagan, Hirot hokimligiga akasidan ko'ra o'zini munosibroq deb bilar va bu maqsadga yetish yo'lida Ulug'bekdan madad kutar edi. Abulqosim Bobur elchisiga Ulug'bek iltifot ko'rsatib, sovg'alar berdi. Shu bilan Abulqosim Boburga xayrixoh ekanini bildirdi. Bundan dadillangan Abulqosim Bobur Mashhadni Alouddavladan tortib oldi va Hirotga tahdid sola boshladi.

Ikki tomonlama xatardan cho'chigan Alouddavla endi qanday hunar ko'rsatarkin? Ulug'bek shu o'y bilan Hirotdan xabar kuta boshladi.

Muzokaralar uch oyga cho'zildi. Ulug'bekning sabr kosasi to'lib, yerdagi ishlardan bezib ketganda osmondan tasallizlardi. Kunduz quyosh nuridan jilolanadigan, tunda oy va yulduzlar bilan bezanadigan osmon o'zining bag'ri kengligi, sokinligi bilan uning ruhiga orom beradi. Hatto ko'kdagi bulutlar ham ulkan, chaqmoqlar ham yorqin. Momaqaldiroqlar ilohiy qudratni eslatib, ba'zi hovliqqan odamlarning hovurini bosalidi, insonni kamtar va bardoshli bo'lishga undaydi.

Elchilar Balxdan Hirotga uch marta borib keldilar. Hirotda Alouddavla to'plagan qo'shin bilan Balxda Ulug'bek atrofiga yig'ilgan lashkar Abdullatif tufayli qonli urush boshlashiga sal qoldi. Yo'q, xayriyat, bahor o'tib yoz kirganda Ulug'bek urushning oldini olishga va o'g'lini tinch yo'l bilan hibsdan chiqarishga muvaffaq bo'ldi.

Qamoqda rangi siniqib ozib ketgan Abdullatif Balx saroyidagi otasining huzuriga kelib, uning oyog'iga bosh qo'ydi. Ko'zda yosh bilan dedi:

— Najotkorim, padari buzrukvorim, toki tirikmen, bu yax-shililingizni unutmasmen!

Ulug‘bek uni tez yelkalaridan olib tikka turg‘izdi-da, bag‘riga bosdi, otalik mehri tovlanib:

— Farzandi arjumand, jigarbandim, ozodlik muborak bo‘lsin! — dedi.

— Qulluq, hazrat otajon! Qulluq!

Abdullatif uchun Balxning xushhavo bog‘laridan birida muhtasham ko‘shek ajratildi. Uning qaytishi sharafiga podshoh otasi shohona ziyofat berdi. Ulug‘bekning o‘g‘liga mehribonligini ko‘rgan bek-u amirlar Abdullatifni katta bir qahramonlik ko‘rsatib qaytgan odamdek ulug‘lashar, ko‘pchilik orasida uning nufuzi oshib borardi. Buni sezgan Ulug‘bek bir kun oqshom o‘g‘lini Balx arkidagi usti ochiq shahnishinga chaqirtirdi. Yoz kirib, kunlar isib ketgan, osmon bulutlardan tozalangan. Samarqand rasadxonasida Ulug‘bek tadqiq qilgan yulduzlar Balx osmonida ham porlab turardi.

— Hozir javzo oyi, — dedi Ulug‘bek o‘g‘liga. — Qani, osmonning Javzo burjini ko‘rsating-chi, amirzoda.

Otasining rasadxonasida ilmi nujumdan saboq olgan Abdullatif osmondagи o‘nlab yulduzlarni bir qarashda tanir edi.

— Mana bu — Burgut yulduzları... Narigi yetti yulduz — Dubbi Akbar... — deb ularni nomma-nom sanab o‘tdi-yu, bir-biriga juda o‘xshaydigan qo‘sh yulduzni ko‘rsatdi: — Adash-masam, Javzo — ana o‘shal just yulduzlardir! Osmonning Javzo burji ham shu!

— Balli, o‘g‘lim, topdingiz! — deb Ulug‘bek mammun bo‘ldi, — Nechun bu yulduzlar Javzo deb atalur? Rivoyatini eshitganmisiz?

Abdullatif o‘ylanib turib:

— Eshitmagan ekanmen, — dedi.

— Bu rivoyat Batlimus¹ davridan beri bor. Javzo «egizak-lar» degan ma’noni bildirur. Rivoyatga ko‘ra, egizak Hasan-Husanlar qadim zamonlarda yovlar bilan jang qilib, ko‘p

¹ *Batlimus* — Klavdiy Ptolomey. Bundan 1800 yil oldin o‘tgan qadimgi yunon astronomi.

qahramonliklar ko'rsatibdir. Ammo oxirgi bir jangda Hasan halok bo'lur. Inisi Husan qattiq musibat chekib, yashagisi kelmay qolibdir. Parvardigorning rahmi kelib, unga abadiy umr in'om qilibdir. Shunda Husan: «Ey yaratgan egam, men Ha-sansiz yashay olmaymen, yo mening ham jonimni ol, yoki Hasanni tiriltirib ber, bir kun bo'lsa ham birga yashaylik», deydir. Parvardigor Husanning bu mehr-u oqibatini taqdirlab, aka-uka egizaklarni osmonda abadiy porlab turadigan yorug' yulduzlarga aylantiribdir... Biz insonlar uchun bu ulug' bir ibrat emasmi, o'g'ilim?

— Albatta, ibrat!

— Qarang, osmon to'la yulduz. Ular yerdagi jonzotlarning nodir fazilatlaridan dalolat berarkan. Burgut yulduzlarini ko'rdingiz. Yerda odamxo'r devlar ko'payib, inson urug'ini quritmoqchi bo'lganda parvardigor Burgutni himoyaga yuboribdir. Uning ko'zlariga devlarni mahv etadigan ilohiy olovni joylabdir. Burgut juda uzoqni ko'radigan qush. Odamxo'r devlarni yuzlab chaqirim joydan ko'rgan zahoti Burgutning ko'zlaridagi olov devga borib chaqmoq bo'lib urilar, dev kuyib kul bo'lar ekan. Shu tarzda Burgut odamxo'r devlarni tamoman yo'q qilib, inson zotini o'limdan qutqaribdir. Parvardigor buning evaziga Burgutni ana o'shal yorug' yulduzga aylantirib, osmondan abadiy joy beribdir. Yoki, ana u kunbotish tomondagi yulduzlar turkumiga qarang. «Ona Bo'ri yulduzları» deb ataladir. Onasi o'lib yetim qolgan ikki chaqaloq — biri o'g'il, biri qiz — ochdan o'ladigan bo'lganda shu Ona Bo'ri ularni emizib, katta qilgan ekan... Rivoyatga ko'ra, Ona Bo'ri emizgan o'shal qiz bilan o'g'il katta bo'lgandan keyin ularning avlodlaridan turkiy qavmlar tarqagan ekan. Bu rivoyatlar ming yillar davomida unutilmay yashayotganiga sabab nedir, bilurmisiz?

— Sabab... yulduzlarining jozibasimikan?

— Jozibadan tashqari, yulduzlarda ilohiy bir hikmat bor. Insonlar o'z hayotlarini yulduzlardan ibrat olib poklashga intilsalar murodga yetishlari mumkin. Osmondag'i tartib-u muvozanat doim kishining havasini keltirur. Ana, bir to'p yulduz... Turkiy tilda Hulkar. Arabchasi Surayyo. Forschasi Parvin. Bular bir-biridan ajralmasdan hamisha birga yururlar. Boshqa turkum

yulduzlar ham bir-biriga Hasan-Husanlarday sodiq. Oy doim o‘z yo‘lidan yurgay. Sayyoralarning o‘z yo‘llari bor. Ular hech vaqt bir-birlari bilan to‘qnashib ketmagay. Hammasi muvozanat saqlab, uyg‘unlik bilan harakatlangay. Ammo biz, insonlar, mudom urush-u xunrezliklar bilan bandmiz. Mana, siz, mening jigaporam, o‘g‘lim, nechun amakivachchangiz Alouddavla bilan shunchalik dushmanisiz? Nechun sizga butun bir qo‘sinni ishonib topshirgan azador momongizni begona yurtda hibs qilib, hazrat bobongizning arvohini chirqiratdiningiz? Keyin o‘zingiz qamoqqa tushib, meni ham qanchalik malomat-u tashvishga qo‘ydingiz, nechun?!

Otasi kutilmagan bir shiddat bilan bergan bu savollardan Abdullatifning vujudini titroq bosdi:

— Hazratim, Xuroson amirlari momom bilan til biriktirib, menga qarshi suiqasd qilmoqchi ekanlar... Tirik qolish... o‘zimni himoya qilish maqsadida...

— Kim sizni shu bo‘htonga ishontirdi?

— Junayid Bo‘ta... uning xotini o‘z qulog‘i bilan eshitgan ekan...

— Men hammasini taftish qildirdim. Junayid Bo‘ta razilona tuhmat qilgan ekan. Xotinining gapi bo‘hton bo‘lib chiqdi... Ikkovi ham qatl qilindi. Ularning gapi rostmi-yolg‘onmi, deb surishtirsangiz bo‘lmasmidi? Nechun momongiz bilan uchrashib, bir og‘iz so‘ramadingiz?

— Momomning huzuriga borsam... Meni tuttiradi, deb o‘yladim.

— Axir bu vasvasa-ku! Nahotki bir umr sizga jon kuydirgan momongiz sizga shu qadar yomonlik qilsa? Axir siz arazlab ketganiningizda qish kunida Hirotdan Samarqandga kelgan kim edi?!

— Lekin momom mendan ko‘ra Alouddavлага ko‘proq yon bosishi sizga ham ma’lum, hazrat otajon. Hatto sizdek buyuk o‘g‘illaridan ko‘ra Alouddavlani baland qo‘yib, uni valiahd qilishga intilganlari yodingizadir. Hazrat bobom vafot etgandan so‘ng men uning jasadini Samarqandga, Go‘ri Amirga olib bormoqchi bo‘ldim. Ammo momomiz bunga mutlaqo qarshi bo‘ldilar. «Xoqoni Sa‘id Hirotni poytaxt qildilar, jahonda eng

obod shaharlardan biriga aylantirdilar, endi abadiy makonlari Hirotda bo‘lmog‘i kerak», deb qattiq turdilar. Mana, oxirida shu niyatlariga yetdilar. Hazrat bobom Hirotdagi Gavharshod begin madrasasiga dafn etilibdurlar. Shunday ulug‘ podshohni ayol kishining nomiga qurilgan madrasaga dafn etishlari adolatdanmi? Hirotda hazrat bobom nomiga ham madrasa qurilgan-ku. Hech bo‘lmasa o‘shal madrasaga dafn etsalar bo‘lmasmidi?

— To‘g‘ri, bu ish bemaslahat qilingan, — deb Ulug‘bek o‘g‘lining so‘nggi so‘zlariga qo‘shilishga majbur bo‘ldi. — Hazrat otam Sohibqiron bobomiz maqbarasiga qo‘yilishga munosibdirlar.

— Ammo, Hirotda momomiz atrofiga shunday odamlar yig‘ilganki, ular Mahdi Ulyoning rutbasini Xoqoni Sa‘id bobomning xotirasidan ham baland qo‘yurlar. Agar siz-u biz Hirotda bobomning qabrini ziyyarat qilishga borsak, bundan momomizning obro‘sni yana bir daraja oshgay, chunki sizdek ulug‘ podshoh Gavharshod begin madrasasida tiz cho‘kib tilovat qilganingizda Mahdi Ulyoning nomlariga ham sajda qilganday bo‘lursiz...

Abdullatifning so‘nggi so‘zlaridagi istehzo, momosining obro‘siga qarshi qaratilgan tikonli so‘zlar Ulug‘bekka noxush tuyuldi:

— Gavharshod begin mening onam ekanini unutmang, amirzoda. Onalar obro‘s — bizning obro‘yimizdir. Onalarga ulug‘lash Qur’oni karimda ham buyurilgandur.

— Meni afu eting, hazrat otajon... Qamoqda yotganimda o‘tgan alamlar hali xotiramdan chiqqan emas.

— Lekin alamni avval siz momongizga o‘tkazgansiz! Tazarru qiling, shunda adovat tuyg‘usidan xalos bo‘lursiz. Mening dilimda sizga atalgan otalik mehri bilan, onamga atalgan farzandlik mehri birga yashaydir. Siz tufayli men onamdan voz kecholmagaymen. Bu ne ko‘rgulikki, Hirotda, otam qabrini ziyyarat qilishga borolmaymen! Chunki siz tufayli orada tog‘dek moneliklar paydo bo‘ldi.

— Ijozat bersangiz men bu moneliklar tog‘ini tolqon qilgaymen! Alouddavla hozir inisi Abulqosim bilan urushib zaif-

lashgan. Uni bir hamla bilan bartaraf qilib, Hirotni qo‘lga kiritgaymiz!

— Yo alhazar! Kechagina tuzilgan sulhni buzib, yana urushaylikmi? Hirotdagi onamiz ustiga qo‘sish tortib borish biz uchun uyatli ish bo‘lmasmi? Siz adovat tuyg‘usiga bunalchalik erk bersangiz boshimiz urush-janjaldan chiqmay qolur... Shuning uchun men sizga katta bir lavozim beray. Tinch ish bilan band bo‘ling.

— Men tug‘ilgan shahrim Samarqandni sog‘inganmen... Turonga qaytgim bor...

— Vaqt kelganda Turonga ham qaytgaysiz. Ammo hozir Balx viloyatini idora etadigan kuchli bir hokim kerak. Balx ham Samarqand kabi qadimiy shahar. Bir cheti Turon-u Xurosonga tutashsa, narigi cheti Qunduz-u Badaxshongacha borur. Men sizga shu viloyat ixtiyorini bermoqchimen...

Abdullatif birdan bo‘sashib ketdi, boshini pastga egib... «otam meni Samarqandga yo‘latmoqchi emas!» degan gapni xayolidan o‘tkazdi. Balxday chekka viloyatda, Hirot-u Samarqandday poytaxtlardan yiroqda yashash unga badarg‘adek tuyuldi.

O‘g‘lining bo‘sashib qolganidan hayron bo‘lgan Ulug‘bek:

— Ha, ma’qul emasmi? — deb xiyol sergaklanib so‘radi.

Abdullatif hushini yig‘ib, tez o‘rnidan turdi, otasiga ikki bukilib ta’zim qildi-yu:

— Yo‘q, yo‘q, bu yuksak inoyatingizdan boshim ko‘kka yetdi! — dedi. — To abad xizmatingizda bo‘lurmen, padari buzrukvor!

— Omon bo‘ling, o‘g‘lim! Hirot bilan dod-u muomalani men o‘zim qilgaymen. Siz Balx viloyatini obod qilishda hazrat bobolaringizdan ibrat oling. Bir vaqtlar Samarqand-u Hirot ham hozirgi Balxdan xarobroq edi. Ularning sa'y-harakatlari bilan bu ikki shahar bugun olamshumul go‘zallik kashf etdi. Siz ham Balxga sayqal bersangiz, nomingiz bobolaringiz qatorida tarixda qolur. Omin, ilohim oramizdan mehr ko‘tarilmasisin, dunyoda yaxshi nom qoldirish siz-u bizga nasib qilsin!

— Omin! — deb Abdullatif ham yuziga fotiha tortdi.

UYASIDAN ILON CHIQQAN LOCHIN

Abdullatifga Balx yumushlarini topshirib, bir qadar yengil tortgan Ulug‘bek endi Samarqand va Hirota oid tashvishlarni qanday bartaraf qilish haqida o‘ylay boshladi, Samarqandda qolgan kichik o‘g‘li Abdulla ba’zi nojo‘ya ishlari bilan aholini norozi qilgani haqida noxush xabarlar keldi. Dashti Qipchoqdagi ko‘chmanchi sultonlar Zarafshon vohasiga bostirib kelmoqda. Bu hammasi Ulug‘bekning tezroq Samarqandga qaytishini taqozo qiladi. Ammo uch oy Balxda, Hirota shunday yaqin joyda turib otasining qabriniz ziyorat qilolmagani va mushfiq onasini borib ko‘rolmagani uning dilida og‘ir bir armon bo‘lib turibdi.

Hirotning jome masjidida Alouddavla Ulug‘bekning nomini xutbaga qo‘sib o‘qitgani haqida xabar keldi. Demak, hozir Ulug‘bek otasining o‘rnida qolgan oliy hukmdor deb tan olin-di. Shunday bo‘lgach, nega Hirota bemalol borolmaydi? Elchilar orqali Alouddavlagaga shu savol berilganda: «Podshoh hazratlari bizni ma’zur tutsinlar, inimiz Abulqosim Bobur bilan urush harakatlari to‘xtagan emas, Hirot harbiy holatdadir, oliy hazrat kelganlarida ularning xavfsizligini ta’minlashimiz uchun zamon tinchimog‘i zarur», degan javob olindi.

Ulug‘bek hozir Hirota qo‘sish bilan borsa, urush chiqadi. Qo‘sinsiz borish esa chindan ham xatarli. Shuning uchun onasi huzuriga maxfiy odam bilan maktub yuborishga qaror qildi. O‘ttiz yildan beri Ulug‘bekka sodiq xizmat qilib kelayotgan Bobo Husayn Turkistoniyni huzuriga chaqirdi:

— Yo‘l hozirligini ko‘ring, Husaynbek! Hirota borib, onam hazratlari bilan yakkama-yakka uchrashgaysiz. Mana shu maktubni berib, javobini... Amudaryo bo‘yiga... Kalifga olib borursiz. Uch kundan so‘ng men ham Balxdan chiqib, Kalifga yo‘l olurmen.

Gavharshod begin har hafta chorshanbayi murodbaxsh kuni azon pallada ayollar udumi bo‘yicha oftob chiqmasdan Shohrux Mirzoning qabriniz ziyorat qilishga borar edi. Bu qabr Gavharshod begin madrasasida bo‘lgani uchun shu binoda madrasa mudarrislaringin hujralari ham bor edi.

Mosh-guruch soqolli Bobo Husayn malla chakmon kiyib, boshiga kattagina salsa o‘radi, qo‘ltig‘iga kitob solingan juzdon-ni qisib, mudarris qiyofasiga kirdi-yu, madrasada o‘ziga uzoq qarindosh bo‘lgan ulamolardan birini qidirib topdi va kechasi uning hujrasida tunadi.

Madrasada Gavharshod beginning o‘ziga ajratilgan xos hujralar bor edi. Begin Shohrux Mirzo va o‘rtancha o‘g‘li Boysun-qur qabrlari oldida o‘ltirib tilovat qilgandan so‘ng, xos hujrasiga kirib, qabulga kelgan mudarris yoki talabalarning arzini eshitar, muhtojlarga xayr-u ehsonlar qilar edi.

Shuni surishtirib bilgan Bobo Husayn tong qorong‘usida Gavharshod begin o‘z hujrasiga o‘tadigan yo‘lak oldiga kelib, uning maqbaradan chiqishini kutdi.

Begimni madrasaga ikkita sodiq kanizidan tashqari yana to‘rtta barvasta soqchilar ham kuzatib keldilar. Bu soqchilar tashqi ko‘rinishda begimni qo‘riqlab yurgan bo‘lsalar ham, aslida Alouddavla tomonidan qo‘yilgan xufiyalar edi.

Hirot harbiy holatda bo‘lgani uchun Alouddavla momosi tashqi g‘anim hisoblangan Ulug‘bek yoki Abulqosim Bobur bilan aloqa bog‘lashidan hadiksirardi. Xususan, Hirotda Gavharshod beginning nufuzi juda baland, barcha olim-u fozil kishilar Mahdi Ulyoni Shohrux Mirzodan keyingi eng tajribali va dono davlat arbobi deb bilardi. Alouddavlani allaqachon o‘z ta‘siriga olgan qaynotasi Yodgorshoh arlot, vaziri Hoji Sulton, lashkarboshisi Qora Bahodirlar Gavharshod beginning Hirotdag‘i obro‘siga hasad ko‘zi bilan qarashar, turli yo‘llar bilan uni yomonlab, Alouddavlani momosiga ishonmaydigan qilib qo‘yishgan edi. Alouddavla momosining Ulug‘bekka yoki Abulqosim Boburga yon bosishidan xavotirda bo‘lgani uchun beginning har bir qadamini kuzatib turadigan qo‘riqchilar qo‘ygan edi.

Faqat sag‘ana yonidagi tilovat paytida va begin o‘zining hujrasiga kirganda qo‘riqchilar erkaklik odobiga bo‘ysunib tashqarida qolishardi.

Bobo Husayn beginning o‘z hujrasiga yolg‘iz kirayotganidan foydalanib, nim qorong‘i yo‘lidan yorug‘roq joyga chiqdi:

— Assalomu alaykum, hazrat begin!..

Ovozi Gavharshod beginiga tanish tuyuldi. Yuziga tikilib turib, eski qadrdoni Bobo Husaynni tanidi-yu:

— Keling, keling taqsir, ne arzingiz bor? — dedi. Bobo Husayn atrofga ko‘z tashlab, bittagina kanizdan boshqa hech kim yo‘qligiga amin bo‘lgach, qo‘ynidan Ulug‘bekning o‘ram qilingan maktubini chiqardi.

— Mana, arzi holim! — deya beginiga sekin uzatdi. Gavharshod begin zarhal qog‘ozning shohona belgisiga ko‘z tashlab, «Ulug‘bekdanmi?» degan o‘ydan hayajonga tushdi. Kaniziga shivirlab:

— Mening huzurimga boshqa hech kimni kirg‘izmang! — dedi-da, Bobo Husaynga — ketimdan yuring! — deb ishora qildi.

Hujraning ichida xizmatkor o‘ltiradigan kichik bir xonacha ham bor edi. Begin Bobo Husaynni o‘sha xonachaga kiritib, shivirlab hol-ahvol so‘radi.

— Kutib turing! — deb xonacha eshigini berkitib qo‘ydi.

Ulug‘bekdan kelgan maktubni yorug‘ tushib turgan joyga olib borib, titroq qo‘llari bilan ochdi:

«Hazrat onajon, sizni sog‘inganmen, diydoringizga tashna bo‘lib shu maktubni yo‘llamoqdamen, — degan so‘zlarni o‘qiganda beginning ko‘ziga birdan yosh keldi. — Avvalo, mendan gunoh o‘tgan bo‘lsa, tazarru qilamen, kechiring! Sizni ranjitib bo‘lsa ham, gumroh o‘g‘lim Abdullatifni o‘z yonimga olib keldim. Men ota bo‘lganligim uchun uning kafilini zimmamga olib, tarbiyat qilishga majburmen. Abdullatif chetroq joyda mushkulotlar bilan olishib chiniqishi uchun uni Balxda qoldirmoqchimen.

Endi Samarqandga qaytishdan oldin siz bilan ko‘rishish uchun Hirotga bormoqchi bo‘ldim. Ammo Mirzo Alouddavla Hirot harbiy holatda ekanini aytib, borishimga moyillik ko‘rsatmadи.

Men suyangan eng ulkan tog‘ Sohibqiron bobomdan so‘ng Xoqoni Sa’id otam bo‘lganini endi astoydil his qilmoqdamen. Meni ellik yildan buyon balo-qazodan asrab yurgan otam endi yo‘q. Men suyangan yana bir tog‘ — siz onam hazratlari eka-

ningizni birga safar qilganlarimizda aytgan edim. Endigi umidim shulki, sizni bir vaqlardagidek Amudaryo bo'yida kutib olsam. Ilojini topib Bobo Husayn bilan bir kunga bo'lsa ham kelsangiz. Axir men sizni kutib olish-u kuzatish uchun Samarqand-dan Amudaryo bo'yiga necha martalab otliq kelgan edim! Peshvoz olish-u kuzatishlar bahonasida haftalar davomida ona-bola hamroh bo'lardik, to'ygunimizcha suhbatlashardik. Siz menga ajoyib maslahatlar berardingiz.

Hazrat otam vafot etgandan buyon hammamiz intihosiz balolar girdobida qoldik. Bu balolardan qutulib ketishning iloji bormikin?

Uch o'g'lingizdan yolg'iz men tirikmen, yoshim ellikdan oshgandan buyon umrning ko'pi ketib ozi qolganini sezib yurib-men. Siz ham menga g'animatsiz. Shuning uchun men validayi muhtaramam bilan diydor ko'rishishga muntazirmen».

Gavharshod begin ko'zlariga quyilib kelgan yoshdan maktabning oxirini o'qiyolmadı. Ipak ro'molchasini olib ko'z yoshini artar ekan, yuzlari ham ho'l bo'lganini sezdi. «Oh, mehri daryo o'g'lim Tarag'ayjon! — deb pichirladi. — Koshki qantomtim bo'lsa-yu, huzuringizga uchib borsam!»

Begim hujrada uzoq qolib ketsa tashqaridagi soqchilar hadik olishlari mumkin. Agar ular bostirib kirib, qo'shni xonachada o'ltirgan Bobo Husaynni topib olsalar... o'limga mahkum etishadi. Begim yo'lakdagi eshikni qo'riqlab turgan sadoqatli kanizi oldiga chiqdi:

— Men toat-ibodat bilan bandmen. Hech kim xalaqit bermasin! — deb buyurdi-da, eshikni ichidan berkitdi.

So'ng hujraga qaytib, miz ustida turgan juzdondan qog'oz, qalam oldi.

«Ko'zimning oq-u qarosi, buyuk o'g'lim Mag'usiddin Muhammad Tarag'ay, — deb yozar ekan, ko'zları yana beixtiyor yoshlandi. — Men sizni ko'rib, bag'rimga bosib jon bersam rozi edim. Maktubingizni o'qiganimda yuzim necha bor ko'z yoshlarimga yuvildi, ilojsizlikdan bag'rim ezildi. Hozir mening har bir qadamimni xufiyalar kuzatib yuribdilar. Nevaram Alouddavla ketimga soqchi shaklidagi ayg'oqchilarini qo'yan. Bog'i Safeddag'i xizmatchilarimni ham almashtirgan.

Agar men biror kun yo‘q bo‘lib qolsam, hammani oyoqqa turg‘izib, topib olurlar. Nechunki, men Hirotning eng nufuzli Mahdi Ulyosi, sizning onangiz bo‘lganim uchun Alouddavlagacha kerak emishmen. Bular bilurlarki, Hirotda men tursam siz onaga qarshi qo‘shin tortib kelishni o‘z sha’ningizga munosib ko‘rmagaysiz. Shu sababdan Alouddavla bilan uning atrofini o‘rab olgan noinsoflar meni garov kabi hech qayoqqa ketkazmay, tutib tururlar.

Jurjondagi nevaram Abulqosim Bobur ham meni o‘z huzuriga chorlagan edi. Og‘a-inini yarashtirish maqsadida bormoqchi bo‘ldim. Lekin Alouddavla shunga ham ruxsat bermadi. Men Abulqosim Bobur saroyida qolib ketsam inisining obro‘sishishidan qo‘rqdi.

Men nevaralarim tarbiyasiga shuncha kuch, vaqt sarfladim, ularga shunchalik mehrimni berdim. Oxirida ulardan bu qadar shafqatsizlik, oqibatsizlik ko‘rganimdan ko‘nglim vayron...

Shoh o‘g‘lim Ulug‘jon! Siz Sohibqiron bobongizdek, marhum otangizdek mushkulotlar olovida toblanib, fozil bir daho darajasiga ko‘tarildingiz. Men o‘ylar edimki, nevaralarimni yaxshi tarbiyalasam, ilm-u amalga o‘rgatsam, ota-bobolarining tajribasini dillariga singdirsam, ular ham sizlardek ulug‘ siymolar bo‘lib yetishgay!

Ammo ona bergen tarbiya ozlik qilarkan. Har bir odamni hayot o‘z xumdonidagi olovłari bilan pishiq g‘isht kabi tobla-masa, siz ming tarbiya berganingiz bilan xom g‘isht xomligicha qolarkan, bir-ikki zarbadan uvalanib ketarkan.

Nevaramiz Abdullatifning xomligidan foydalanib, ig‘-vogarlar Nishopurdan narida uning ilki bilan meni bandi qildilar. Hozir Alouddavlarning xomligidan foydalanib, zolimlar meni endi uning asoratiga solib qo‘ydilar. O‘z ahvolimga yig‘lay-men-u, qayg‘uli bir rivoyatni eslaymen... Tog‘da men kabi bir Ona lochin o‘tgan ekan. Uning uyasi yaqinida zaharli ilonlar yashar ekan. Ular xavf solganda lochin ilonlarni dumidan changallab osmonga olib chiqar ekan-u, qoyatoshlar ustiga tashlab yuborarkan. Qolgan ilonlar tog‘ kamarlariga bekinib, lochindan qasd olishning yo‘lini o‘ylashibdi. Ona lochin har yili pana bir joydagisi uyasiga tuxum qo‘yib, jo‘ja ochar ekan.

Ilonlar ham tuxumdan bola ochadi-ku, Lochin uzoqqa ov qilgani ketganda ilonlar sekin o'rmalab kelib, uning tuxumlarini yeishibdi-yu, o'rniga ilonlarning tuxumidan qo'yib ketishibdi.

Bundan bexabar Ona lochin qo'ygan tuxumlariga vujudining haroratini berib, ularni bir necha kun bosib yotibdi. Vaqtisoati yetib, tuxumlar teshilibdi, ichidan nimadir chiqa boshlabdi. Ona lochin qarasa, tuxumlardan jo'jalar o'rniga ilonbachchalar o'rmalab chiqibdi. Bundan dahshatga tushgan Ona lochin chinqirib, uyasidan ko'kka uchibdir. Ilonlarga yem bo'lgan avlodi bilan vidolashib faryod chekkanda, tog'lar larzaga ke-libdir... Men ham mehrimni berib o'stirgan nevaralarimning yomonliklarini ko'rib, o'sha lochindek faryod chekkim, bu foni dunyo bilan vidolashgim kelur. Lekin... noumid shayton. Parvardigor biror joydan najot keltirur degan ilinjim bor.

Men-ku, yoshimni yashab, yetmishdan oshdim. Endi siz ehtiyot bo'ling, shoh o'g'lim. Bu nevaralarim jo'jaxo'rozlardek yana ko'p urush-yurish qilsalar kerak. Sizdan iltimosim shulki, iloji boricha bularning urushlariga bormang. Hazrat otangizni eslang: Xalil Sulton bilan Pirmuhammadlar taxt talashib urushganlarida Xoqoni Sa'id arqonni uzun tashlab, ularning urushi-ga aralashmadilar. Oxiri yillar o'tib vaziyat yetilganda Samarqandni jangsiz oldilar. Siz otangizday vazmin va bardoshli o'g'ilsiz... Mening xudodan endigi tilagim shulki, to'rt mu-cham butun paytda xor-zor qilmay, omonatini olsin. Ilohim farzand dog'ini boshqa ko'rmayin. Olim o'g'lim, shoh o'g'lim, parvardigordan kun-u tun tilagim shulki, siz ketimda qoling. Agar bu gal ko'rishish nasib qilmasa, iloyo kelgusida siz bilan diydor ko'rishish menga nasib qilsin!»

Gavharshod begim ko'z yoshlарини apil-tapil artib, mak-tubni o'ram qildi-da, qo'shni xonachaga chiqib, Bobo Husaynga topshirdi:

— Janob Bobo Husaynbek, ahvolni ko'rdingiz, borib ayting, — deb shivirladi. — Ishqilib urush bo'lmasin, o'lim bo'lmasin! Safaringiz bexatar bo'lsin!

Ulug'bek Mirzo onasini Amudaryoning chap qирг'ог'ида kutib turgan edi. Bobo Husayn yolg'из qaytganini ko'rib, ko'ngli bir cho'kdi. So'ng onasidan kelgan javob maktubini o'qir ekan,

yig‘lab yozilgan satrlardan va Ona lochin haqidagi rivoyatdan etlari jimirlab ketdi. Lochin avlodidan bo‘lgan Alouddavla g‘addor muhit ta’sirida ilonning ishini qilayotgani, momosini asoratda tutish bobida u ham Abdullatifdan qolishmayotgani Ulug‘bekni larzaga soldi. Shunday mushkul ahvolda ham o‘zini mardona tutayotgan onasiga bo‘lgan mehri o‘n chandon oshdi.

Amudaryodan o‘tib, Samarqandga qarab ot surib borar ekan, Turondagi tashvishlardan bo‘shagandan so‘ng Xurosonga tinch yo‘l bilan qaytib kelish va onasini ilonlar asoratidan qutqarish niyatini diliga mahkam tugdi.

TAHLIKALI ZAMON

Hirot bilan Samarqand orasidagi obod yo‘llardan Amir Temur va Shohrux davrlarida karvonlar emin-erkin qatnagan zamonlar o‘tmishga aylanib boradi. Ulug‘bek o‘z otasi bilan inoq hukm surgan davrda ham bu yo‘llar juda serqatnov va tinch edi. Shinam karvonsaroylar, charchagan otlarni almash-tirib beradigan yemxonalar, yo‘lovchilar tunab qoladigan rabiylar tun-u kun mehmonlar xizmatida bo‘lar, barcha bekatlar davlat tomonidan qo‘riqlanar edi. Shuning uchun goh sharqdagi Xitoydan, goh janubdagagi Hindistondan, goh g‘arbdagi Farangistonlardan keladigan elchilar va savdo karvonlari bu yo‘llardan bexavotir qatnar edilar.

Lekin Shohrux Mirzo vafot etgandan keyin boshlangan alg‘ov-dalg‘ovlar bu yo‘llarni juda notinch qilib qo‘ydi. Ulardan endi karvonlar emas, ichki nizolarga tortilgan harbiy kuchlar ko‘proq qatnaydigan bo‘lib qoldi.

Bultur olti oy harbiy yurishlarda bo‘lib qaytgan Ulug‘bek Samarqandda kichik o‘g‘li Abdulaziz izdan chiqargan ishlarni joy-joyiga qo‘yguncha qish bo‘yi tashvish chekdi. Bahorda sal orom olib, ilm-u ijod bilan shug‘ullanish umidida edi. Biroq yana Xurosandan kelgan biri-biridan yomon xabarlar uning tinchini buzdi.

Alouddavla va Abdullatif Hirot bilan Balx chegarasidagi Chechektu tumanini talashib, urush chiqarishibdi. Ikki orada qon to‘kilib, anchagina odam halok bo‘libdi. Alouddavla Jur-

jondagi inisi Abulqosim bilan yarashibdi. Endi ikkovlari birlashib, Balxni Abdullatifdan tortib olmoqchi emishlar.

Alouddavla Abulqosim bilan ittifoq tuzgandan so'ng hovliqib Ulug'bekni adolatsizlikda ayblamoqda emish: «Balx Jo'giy Mirzoning o'g'li Abubakrning mulki edi, — dermish. — Mirzo Ulug'bek Abubakrni kuyov qilamen deb aldab, Samarqandga yuborib, Ko'ksaroyda qatl ettirgan, shundan keyin Balxni Abdullatifga bergen». Holbuki, Abubakr Balxni akasi Muhammad Qosimdan zo'ravonlik bilan tortib olgan, Samarqandda esa fitna uyuşhtirgani uchun qatl etilgan edi. Lekin Alouddavla Ulug'bekning nomini jome masjidida o'qiladigan xutbadan oldirib tashlash uchun shunaqa tuhmatlar qilgan, so'ng o'z nomini xutbaga qo'shib o'qitgan edi.

Shu bilan Alouddavlarning Ulug'bekka qarshi isyon ko'targani hammaga ma'lum bo'ldi. Yaxlit davlatning parchalanishi — ko'p falokatlarga sabab bo'lishi muqarrar. Bu parchalanishning oldi olinmasa, Xurosonda boshlangan beboshliklar Turonga ham vaboday tarqalishi hech gap emas. Shuni o'ylagan Ulug'bek yana harbiy kuchlarni to'plashga va Alouddavlarning isyoniga qarshi yurish boshlashga majbur bo'ldi.

U bahor paytida qirq ming qo'shin bilan Amudaryodan o'tib, Xurosonga kirib keldi. Balx tomondan chiqib, otasiga qo'shilgan Abdullatif ellik ming qo'shin to'plagan edi. Alouddavlarning lashkari son jihatdan kamroq, ammo uning o'ziga ishonchi haddan ziyod bo'lgani uchun Hirotdan tap tortmay chiqib keldi. Hirotdan yuz chaqirimcha sharqdagi Tarnob degan joyda umumiyligi soni yuz ellik mingdan oshgan ikki taraf qo'shini bir-biriga qarshi jangga hozirlana boshladи. Hirotda turib bu hodisani eshitgan Gavharshod begin Alouddavlani sulh tuzishga ko'ndirdi. Ulug'bek Mirzoga Hirot Shayxulislomi Xo'ja Bahouddin elchi bo'lib borayotganda, begin unga dil yorib so'zлади:

— Axir ikki tomonda ham bizning jiгарbandlarimiz! Qaysi tomon mag'lub bo'lsa ham jabrini biz tortgaymiz, janob Shayxulislom! Shuni Ulug'bek Mirzoga aytинг, mening onalik iltijolarimni yetkazing!

Shayxulislom Xo'ja Bahouddin Tarnobga yetganda, avval Abdullatifning ilg'orlariga duch keldi.

Ulug'bek Mirzo umrida bunday ulkan — to'qson ming kishilik lashkarni boshqarmagan edi. Bu lashkarning ellik mingiga Abdullatif sarkardalik qilmoqda edi. Hirotdan elchi bo'lib kelgan keksa Shayxulislom Xo'ja Bahouddin oldingi marralarni egallab turgan Abdullatifdan iltimos qildi:

- Shahzodayi juvonbaxt, meni hazrat momongiz yubordilar, tezroq Ulug'bek hazratlariga uchramog'im zarur!
- Uchrashganda ne arzingiz bor, taqsir?
- Sulh taklif qilmoqchimiz.
- Endimi? Alouddavla nechun oldingi sulh shartlarini buzib, bizga qarshi tajovuz qildi?
- O'tgan ishga salovat, shahzoda! Behuda qon to'kilmasin! Bizni Ulug'bek Mirzo huzuriga o'tkazib yuborishingizni iltimos qilurmen!

— Meni shoshirmang, taqsir. Hazratimga siz kelganingiz to'g'risida xabar yuborgaymiz. Qabul qilamen, desalar, keyin borgaysiz!

Abdullatif jang qilish va Alouddavladan qasos olish istagi bilan yonardi. Shuning uchun u elchini ataylab o'z huzurida uzoq tutib qoldi. Elchi kelgani haqidagi xabar Ulug'bek Mirzoga vaqt o'tganda — butun qo'shin saf tortib jangga kirayotganda ma'lum qilindi.

To'qson ming qo'shinni bir irodaga bo'ysundirish Ulug'bek Mirzo uchun amrimahol bo'ldi. Abdullatif Balx va Badaxshondan boshlab kelgan lashkar Ulug'bek Turondan olib kelgan qo'shinga nisbatan ko'proq edi. Shuning uchun Abdullatif oldingi marralarni egallab, tashabbusni ham o'z qo'liga olib qo'ydi.

Sulh tuzishning iloji bo'lmagandan keyin Gavharshod begim urushga ketayotgan neveralaridan biri — Abdulla Mirzoga dil yordi:

— Ulug'bek Mirzo sizga otadek mehribondirlar. Hirotda mening tarbiyamni olgan qizlari Habiba Sultonni sizga nikohlab bermoqchi edilar. Siz ul zoti oliyga ikki tomonlama farzand bo'lishingiz mumkin. Nahotki endi Alouddavla qo'shini safida Ulug'bek Mirzoga qarshi jang qilsangiz?

— Nachora, hazrat begim? Rahmatli otam hokim bo‘lgan Sherozni mendan amakim Muhammad Sulton tortib oldi. Xayriyat, Hirotda Alouddavla Mirzo bizni yaxshi qabul qildilar. Ikki ming qo‘s him yoniga yana uch ming askar berib, panjhazora lavozimiga munosib ko‘rdilar.

— Endi shu besh ming navkarni Ulug‘bek Mirzoga qarshi urushga boshlab bormoqchimisiz?

— Bunga o‘zimning ham xohishim yo‘q, hazrat momo!

— Bo‘lmasa uzoqni o‘ylab ish qiling, bolam. Alouddavla mag‘lub bo‘lsa qayga borursiz? Undan ko‘ra sizga otadek mehribon bo‘lgan Ulug‘bek Mirzoga qarshi zinhor qilich yalang‘ochlamang!

O‘n yetti yoshli shoirtabiat Abdulla Mirzoga momosining gaplari qattiq ta’sir qildi. U Ulug‘bekning inisi Ibrohim Mirzoning o‘g‘li edi. Amakivachchalarga qiz berish odatlari azal-dan bor bo‘lgan. Hirotda Gavarshod begin yashaydigan Bog‘i Safedda Habiba Sulton bilan uchrashib, uni sevib qolgan Abdulla Mirzo «Sheroziy» taxallusi bilan bu qizga atab olovli she’rlar yozgan edi. Mana shu sabablarning hammasi bir-biriga qo‘s hildi-yu, Tarnob jangi paytida Abdulla Mirzo o‘zining besh ming kishilik qo‘s hini bilan Alouddavlarning o‘ng qanotidan chiqib, Ulug‘bek tomonga oq bayroq ko‘tarib, qochib o‘tdi. Ulug‘bek Mirzo uni quchoq ochib kutib oldi:

— Farzandi aziz, sen menga g‘alaba mujdasini keltirding! — deb suyundi.

O‘ng qanotning oldingi safida jangga kirgan Abdullatif qasos tuyg‘usiga to‘lib, Alouddavlarning askarlari bilan sherdai olish-di, bir o‘zi o‘ndan ortiq dushmanining boshini kesdi, qo‘l ostidagi jangchilariga shu tarzda ibrat ko‘rsatib, raqibining bir qanotini sindirdi.

Chap qanotga Ulug‘bekning kichik o‘g‘li Abdulaziz Mirzo boshchilik qildi. Uning qarshisida turgan Alouddavla lashkar-larining o‘ng qanotidan Abdulla Mirzoning qochib o‘tganligi Abdulazizning ishini osonlashtirdi. Alouddavlarning o‘ng qano-ti ham tezda mag‘lub bo‘lib, to‘zg‘ib ketdi. G‘uldan berilgan qaqqhatqich zarba buning ustiga qo‘s hildi. Alouddavla tor-mor bo‘lib, jang maydonini tashlab qochdi. Izma-iz kelayotgan

quvg‘inchilardan qo‘rqib, Hirot qo‘rg‘oniga ham kirmay, Mashhad tomonga o‘tib ketdi.

Ulug‘bek g‘alaba uchun Allohga shukronalar aytdi-yu, qadr-don amiri Bobo Husayn Turkistoniyni chaqirtirdi:

— Janob Bobo Husayn, xos navkarlardan yuz kishini oling-u, Hirotga tezroq yetib boring. Onam hazratlari bizni Hirotda kutsinlar!

— Bosh ustiga, hazratim!

Tarnobdan Hirotgacha bir kunlik yo‘l bor edi. Bu yo‘lni Bobo Husayndan ham oldin qo‘shinning ilg‘or saflarida jang qilgan Abdullatifning bek-u navkarlari bosib o‘tdilar.

Shohrux Mirzo hukmronlik qilgan salkam yarim asr davomida Hirot va uning atroflariga bironta talonchi qo‘shin bostirib kelolg‘an emas edi.

Bu o‘n yilliklar mobaynida yov qo‘shini tomonidan tala-nish va toptalish nimaligini bilmaydigan boy-badavlat odamlar ko‘paygan edi.

Abdullatifga Tarnobdag‘i jang uchun Balx-u Badaxshondan, Ko‘lob-u Hisordan katta qo‘shin yollash oson bo‘lgan emas. Qo‘shinga yigitlarni yollaydigan tavochilar Hirot va uning atroflarida yarim asrdan buyon farovon hayot kechirayotgan odamlar juda katta boyliklar orttirganini, endi shu boyliklarni quroq kuchi bilan tortib olib, yashin tezligida boyib ketish mumkinligini yollanma askarlarga aytishib, ularni bu harbiy yurishga qiziqtirgan edilar.

Mana endi jang g‘alaba bilan tugagandan so‘ng oldingi safda borayotgan Abdullatifning yollanma askarlari Tarnobda Hirotgacha yastanib yotgan obod va boy vodiyning shahar-u qishloqlarini ostin-ustun qilib, o‘lja yig‘a boshladilar.

Ulardan yarim kun keyin yo‘lga chiqqan Ulug‘bek Mirzo Tarnobdan naridagi Sanjob dovonidan o‘tgandan keyin, Hirot daryosidan suv ichadigan shahar-u qishloqlarni ko‘rganda Samarqand va Farg‘ona atroflarini esladi.

Saf tortib o‘sigan mirzateraklar, azim chinorlar, sersoya sadaqayrag‘ochlar, uzumzor, shaftolizor va anjirzorlar bir-biriga ulanib, obod va ulkan Hirot vodiysini vujudga keltirgan edi. Bu vodiya Hirot daryosidan o‘ndan ortiq katta shoxariqlar chiq-

rilgan, ularning suvlari qon tomirlarini eslatadigan yuzlab katta-kichik ariqlarga taralib ketgan edi.

Ulug‘bek Mirzo yam-yashil Hirot vodiysiga uzoqdan zavqlanib ko‘z yogurtirdi-yu, lekin bog‘-rog‘lar bilan o‘ralgan shahar-u qishloqlarni oralab o‘tayotganda g‘olib qo‘sish tomonidan talangan mahallalar va odamlarni ko‘rib, iztirobga tushdi.

Hiröt vodiysining katta bir qishlog‘ida sakson yoshli keksa shoir Lutfiy istiqomat qilardi. Ulug‘bek uni Hirotda, Gavarshod begim madrasasida o‘tkazilgan she’riyat majlisida «Gul va Navro‘z» dostonini go‘zal turkiy tilda o‘qib berib, katta mukofot olganda ko‘rgan, o‘sanda hirotliklar uni «Malikul kalom» deb ulug‘laganini eshitgan edi.

Hozir Ulug‘bek Mirzo g‘olib askarlar to‘s-to‘polon qilib o‘tgan bir mahallada shu keksa shoirni uchratib qoldi. Hojilardek oq libos kiygan, ko‘kragini qoplagan bo‘liq soqoli ham oppoq oqargan, hassa tutgan keksa shoir otliq kelayotgan Ulug‘bek Mirzoni ko‘rib, yo‘lning o‘rtasiga chiqdi.

— Hazrati podsho, qadamingiz qutlug‘ bo‘lsin! — degan so‘zlarni Lutfiy negadir yig‘lamsirab aytdi.

Ulug‘bek uni tanib, otdan tushdi. Quchoqlashib ko‘rishayotganlarida Lutfiy yig‘lab gapirdi:

— A‘lo hazrat, ota yurtingizga xush kelibsiz! Lekin Hirot vodiysi sizning qo‘siningizga ne yomonlik qildi?! Nечун бундай шафқатсиз талончиліктер болмоды?

— Mavlono, men ota yurtimizda talonchilikka mutlaqo yo‘l qo‘yilmasin deb butun qo‘singa farmon bergenmen. Kim bu farmonni buzmoqda?! Qayerda?!

Balxdan kelgan Jabbor Sulduz nomli amir shu atrofdagi mahallalarga qo‘sish kiritib, yarim kunda o‘ndan ortiq badavlat oilalarni talatgan, sandiqlarga yashirilgan tillolar, zarbof buyumlar, turkman gilamlar, atlas-u kimxoblarni yetti tuyaga yuklatib, yigirmatacha navkari bilan Balxga jo‘natish niyatida narigi bir ko‘chada turgan edi.

Ulug‘bek Mirzo o‘z navkari bilan o‘sha ko‘chaga o‘tib, o‘lja yuklangan tuyalardan tashqari aravalarga ortilgan sandiqlar, ular ustiga taxlangan gilam va bo‘xchalarni ham ko‘rdi.

Aravalar ortida qo‘li bog‘langan asira qizlar ham kanizaklikka olib ketilmoqda edi.

Ulug‘bek Mirzo yonidagi yasovullar va navkarlarga buyurib, bu ishni qilgan bir ming askarga boshliq Jabbor Sulduzni tuttirdi. Taftish o‘tkazilganda ma’lum bo‘ldiki, Jabbor Sulduz bir xonadonda talonchilarga qarshilik ko‘rsatgan ikki yigitni qilichdan o‘tkazdirgan, boshqa bir xonadonda bokira qizning nomusiga tekkan ekan. Bechora qiz «Endi harom bo‘ldim!» deb, nomusga chiday olmay, o‘ziga o‘t qo‘yibdi, olovda yonib halok bo‘libdi.

Bu hodisalardan dahshatga tushgan Ulug‘bek Mirzo Jabbor Sulduzni qatl ettirmoqchi bo‘ldi.

Shunda Jabbor o‘z sarkardasi Abdullatif Mirzoning ruxsati bilan o‘lja olganini aytib, aybini oqlashga urindi. Ulug‘bek Mirzo o‘g‘lini chaqirtirdi.

— Amirzoda, nahotki siz shunday talonchiliklarga ijozat bergen bo‘lsangiz? — deb so‘radi.

— Hazrat otajon, men faqat bir kunlik chopqinga rozilik bergen edim. Axir Sohibqiron bobokalonimiz Oltin O‘rdada To‘xtamish ustidan g‘alaba qozonganda qo‘singa ikki kunlik chopqinga ruxsat bergen ekanlar-ku?

— Nahotki siz uchun Hirot Oltin O‘rda kabi dushman mammakat bo‘lsa?! To‘xtamish qayoqda-yu, amakivachchangiz Alouddavla qayoqda? To‘xtamish davridan buyon zamonlar qanchalik o‘zgarganini nahotki tushunmasangiz? Hazrati otamiz Shohrux Mirzo so‘nggi qirq yil davomida Turon-u Xurosonda, Iroq-u Ozarbayjonda qancha g‘alabalarga erishib, biror marta chopqinga ruxsat bergen emaslar. Biz ham maxsus farmon bilan talonchilikni taqiq etgan edik. Siz nechun bunday jinoyatlarga yo‘l berdingiz? Begunoh qon to‘kish, bokira muslimanining nomusiga tegish... Buni qanday oqlash mumkin?!

— Bu jinoyatlarni Jabbor o‘zi sodir qilgan, endi javobini o‘zi bersin! — deb Abdullatif ham otasining hukmiga bosh qo‘shti. Ulug‘bek Mirzo maxsus farmonda Jabbor Sulduz qilgan jinoyatlarni batafsil ko‘rsatib, uni o‘lim jazosiga hukm qildi. Bu hukm qo‘sishin to‘plangan katta maydonda ijro etildi.

Podsho farmonini barcha bek-u navkarlarga o'qib eshittirish qo'shin boshliqlariga topshirildi.

Lekin Abdullatif bu farmonga barmoq orasidan qaradi. U bilan kelgan balxlik va badaxshonlik bek-u navkarlar talonchilikni Ulug'bek Mirzoning ko'zi tushmaydigan joylarda davom ettirdilar.

Abdullatif va uning qo'shini hammayoqqa dahshat solib kelayotgani haqidagi xabarlar Hirota allaqachon yetib bor-gan edi. Alouddavla ham shaharni himoyasiz tashlab qochgani saroy ahlining vahimasini avjiga chiqardi. Gavharshod begim ham Bog'i Safeddag'i eng kerakli narsalarini shosha-pisha yig'ishtirib, Astroboddagi nevarasi Abulqosim Bobur tomonga jo'nadi.

Begim inisi Muhammad So'fi Tarxon va boshqa yaqinlari bilan Mashhad yo'lida ketayotganda Bobo Husayn ularni quvib yetdi.

— Hazrat begim, Mirzo Ulug'bek meni maxsus yubordilar. Hirota qayting! — deb iltijo qildi.

— Hirota Abdullatif ham keldimi?

— Kelgan bo'lsa ham, siz podshoh hazratlarining himo-yasida bo'lursiz!

— Men jon deb Ulug'bek huzuriga borardim, sog'ingan farzandimni bag'rimga bosardim. Lekin Abdullatifdan qo'rqamen. Uning atrofiga qilichidan qon tomgan beshafqat amirlar yig'ilgan. Ular birgalashib Hirota atrofidagi mahallalarni qo'shing'ligariga talatibdirlar. Hirota ahli buni Ulug'bekdan ko'rib, o'g'limizdan qattiq xafa bo'lganlarini o'zim eshitdim.

— Ammo Ulug'bek hazratlari butun qo'shin ahlini maxsus farmon bilan ogohlantirgan edilar. Farmonda: «Hirota otamizning uyi, bizga meros tekkan mulk, bu yerda talonchilik qilish gunohni azimdir, bunday gunohni sodir qilganlar ayovsiz jazol-nur!» degan so'zlar bitilganiga men o'zim guvohmen!

— Abdullatif bilan uning tarafдорлари bu farmonni buzgan bo'lsalar-chi? Ular ko'pchilik, shuning uchun Ulug'bekdan qo'rqlaydilar, unga itoat etmaydilar! Shu vaziyatda ular o'g'limning ra'yiga qarshi borib, menga ham biron yomonlik qilmaydi, deb kim kafolat bera olgay?

— Biz kafolat berurmiz, begin! Hazratimning bizdek sado-qatl beklari ham oz emas!

Shu gapdan so'ng Gavharshod begin Hirota, Ulug'bek huzuriga qaytmoqchi bo'lib, inisi Muhammad So'fi Tarxonidan rozilik so'radi.

— Men bu to'polonda Hirota qaytishga rozi emasmen! — dedi Muhammad So'fi Tarxon qat'iyat bilan. — Abdullatif otasining buyrug'iga bo'ysunmay, o'zboshimchalik bilan elni talayotgan ekan, undan yaxshilik chiqmagay!

Gavharshod begin og'ir «uh» tortdi:

— Ming afsus, bultur Ulug'bek Mirzo mening gapimga kirmadilar. Abdullatif Ixtiyoriddin qal'asidan xonaki hibsdan chiqarilmasa, bugungi urushlar bo'lmasligi mumkin edi. Lekin endi bu dev ko'zadan chiqib oldi. Qaytib kirmagay, otasiga ham bo'ysunmagay!

— Biz uning jabrini bir marta tortdik, endi bas! — deb Muhammad So'fi Tarxon opasi Gavharshod begin bilan be-xatar joy qidirib ketdi, Hirota qaytmadi.

Qo'shin orasida chindan ham Abdullatifning tarafdorlari ko'payib bormoqda. Chunki Abdullatif jang qilishni va yangi-yangi o'ljalar olishni yaxshi ko'radi. Amir-u navkarlar ham bosib olingan joylardan katta boyliklarni qo'lga kiritganlardan mamnun bo'lib, Abdullatifni botir sarkarda deb ulug'la-shadi.

Ulug'bekning Tarnob-u Hirota atroflarida talonchilik qilishni taqiqlagan farmonlaridan nafsi katta amirlar norozi bo'lar edi. Ana shu amirlar orasida arg'in urug'iga mansub ikki ming navkarga boshchilik qiladigan yigirma besh yoshli yovqur yigit — Abu-sayid Mirzo ham bor edi.

Urush hali tugagan emas, Alouddavla inisi Abulqosim Bobur bilan til biriktirib, qarshi hujumga o'tishi mumkin. Shuning uchun Ulug'bek harbiy yurishni davom ettirib, Mashhad va Nishopurni ham ishg'ol qildi.

Abdullatifda otasiga nisbatan norozilik kuchayib borayotganini sezgan Abusayid Mirzo Nishopurda to'xtaganlarida jayron kiyik so'ydirib, Abdullatifga ziyofat berdi. Mayi nobga kabobni gazak qilib, kayflari ancha ko'tarilganda:

— Amirzoda, biz siz bilan qarindoshmiz, amakivachchamiz! — dedi Abusayid. — Men ham Sohibqiron Amir Temur avlodidanmen.

— Ha, rost, sizning bobongiz Mironshoh Mirzo bilan bizning bobomiz Shohrux Mirzo tug‘ishgan og‘a-ini bo‘lganlar.

— Bundan tashqari, buyuk sarkarda Xalil Sulton mening amakim edilar. Sizning onangiz Husn Nigor xonim Xalil Sultonning qizi bo‘ladilar. Biz siz bilan hazrat onangiz orqali ham yaqin xeshmiz! Endi og‘a-inidek yaqin bo‘lmog‘imiz lozim. Tarnobdag'i jangda siz chindan ham qahramonlik ko‘rsatdingiz, Mirzo Abdullatif! Men buni hazrat otangizga aytdim. «Fath-noma Mirzo Abdullatif nomiga yozilsa, adolatdan bo‘lur», — dedim. Ammo ming afsuski, hazrat otangiz ko‘proq iningiz Abdulazizga mehr qo‘ygan ekanlar.

— Kim bilsin! Otam menga boshqa sabab ko‘rsatdilar. «Hirot bilan uning atroflarida talonchilik bo‘lmasin!» — deb farmon chiqargan edilar. Men, «g‘olib bek-u navkarlar o‘ljador bo‘lsinlar!» — deb talonchilikka yo‘l berib, farmonni buzgan emishmen! Shuning uchun fathnomaga menning nomimga bitilmagan emish... Xullas, g‘alaba fathnomasini Abdulaziz nomiga bitish bilan hazrat otamiz bizning qadrimizni yerga urdilar!

— Baribir qo‘sish orasida sizning sarkardalik obro‘yingiz... hazrat otangiznikidan balandroq, Mirzo Abdullatif!

— Otam mening ko‘tarilib ketishimni istamaydilarmi? Hayronmen, Hirotdagi xazinada hazrat bobomdan menga meros qolgan ikki yuz tuman tangani ham berdirmadilar. «Urush tugagandan so‘ng olursiz», deb vaj ko‘rsatdilar. Imod qal’asida ham Alouddavla yashirib ketgan necha ming tuman oltinlar bor edi. Men bu qal’ani allaqachon zabit etgan bo‘lur edim. Ammo hazrat otamiz: «Qal‘a qo‘l yetmas balandlikda ekan, ko‘p talafot beribsiz, behuda qon to‘kilmasin, keyinchalik sulh tuzilganda Imodni jangsiz olgaymiz», — dedilar-u, yana jilovimdan tortib, shashtimni qaytardilar...

— Ha, Mirzo Abdullatif, sizda Sohibqiron Amir Temurning jasorati bor. Bobokalonimiz bunday qal‘alardan qancha-qanchasini olganlar. Ammo hazrat otangiz... buyuk olim bo‘lsalar ham podsholik iste’dodlari siznikichalik buyuk emas. Sizni

Samarqandga yo'latmay, obro'yingiz ko'tarilishini istamay yurganliklari ham shundan bo'lsa kerak...

Abusayid Mirzo Abdullatifning dilidagi gaplarni topib aytayotganday bo'ldi. Yana bir qo'ldan may ichishgandan keyin Abdullatif unga dil yorib dedi:

— Baribir ertami, kechmi, Samarqand bizniki bo'lg'ay, Mirzo Abusayid! Bilursizki, otning jilovini behuda tortaversalar, bir kun emas bir kun jilov uzilib ketgay!

Abdullatifning ko'zidagi isyonkorona olovni yoqtirgan Abusayid ovozini pasaytirib dedi:

— Lutf qildingiz, amirzoda! Xudo xohlasa, jilov uzilganda men yoningizda bo'lurmen! Sizga ilkidan kelgan ko'makni berurmen!

Ular ahd-u paymon qilgan kabi qo'l olishdilar. Lekin dil tubida har biri o'z manfaatini o'ylab qo'l bergen edi; Abusayid ota-bolani urushtirib qo'yib, birini boshqasining zarbasi bilan bartaraf qilgandan so'ng Samarqand taxtini o'zi egalashni istardi. Chunki bu taxtga Abdullatifning qanchalik haqqi bo'lsa, temuriyza Abusayidning ham shunchalik haqqi bor edi. Buni yaxshi biladigan Abdullatif esa Abusayidning ko'magidan foydalanib, ishini bitirgandan so'ng uni chetroq bir viloyatga hokim qilib jo'natib qutulishni o'yldi.

Mana shunday ichki ziddiyatlarga to'lib harakatlanayotgan Ulug'bek qo'shini Firdavsiy tug'ilgan mashhur Tus shahri ya-qinidagi Rodgon degan joyga yetganda Jurjondan Abulqosim Bobur huzuridan boshiga katta dastor kiygan oq soqolli Shayxulislom elchi bo'lib keldi. Ulug'bekka Abulqosim Bobur no-midan qimmatbaho sovg'alar topshirgach:

— Hazrati oliylari, Mirzo Abulqosim Bobur sizga sodiq farzanddurlar, — dedi. — Bultur Balxda turganingizda ham elchi yuborib, sadoqat izhor etgan edilar. Bu yil Tarnobdag'i jangga og'alari ul zotni ko'p targ'ib qildilar, ammo Abulqosim Bobur sizga qarshi borishni mutlaqo istamadi.

— Istamadi emas, kim g'olib chiqishini kutdi! — dedi Ulug'bek. — Alouddavla bilan yarashganidan xabarimiz bor. Agar og'asi Tarnobda g'olib chiqsa, Mirzo Abulqosim hozir bizga emas, Alouddavлага sadoqat izhor qilib, elchi yuborgan

bo'lur edi. Bu ikki og'a-ini bizning validayi muhtaramamizni o'zlariga qalqon qilib, bizning huzurimizga kelishlariga mone bo'lmoqdalar. Alouddavla Hirotda shunday keksa Mahdi Ulyoni qo'riqchi ayg'oqchilar asoratida tutganidan xabarimiz bor. Holbuki, onam hazratlari Alouddavlaga ozmuncha yaxshiliklar qilganmi? Shunday momosini asoratda tutib, men bilan diyordor ko'rishishiga moneliklar qilgani uchun Alouddavla ko'r bo'lsa arzigay!

— Siz ming marta haqsiz, a'lo hazrat! — dedi elchi ta'zim bilan. — Mirzo Abulqosim Bobur ham og'alarini beoqibatligi uchun yomon ko'rurlar. Shu sababdan Alouddavla Jurjonga bormay, inilaridan ham qochib yuribdir. Abulqosim Boburning «Ko'rnamak og'am ilkimizga tushsa, ko'zlariga mil torttirib ko'r qilurmen!» — degan so'zlarini men o'zim eshitdim!¹

— Undoq bo'lsa, Mirzo Abulqosim Bobur bizdan ne istaydilar? — deb, Ulug'bek xiyol yumshagan ohangda savol berdi.

— Urush harakatlari to'xtatilsa, sulk tuzilsa, el-ulus tinchisa — ul zotning orzulari shuldir. Shu orzuga yetsak, Mirzo Abulqosim Bobur sizning nomingizni xutbaga qo'shib o'qitgaylor, sizning buyuk ismingiz bilan pul zarb etgaylar!

— Ammo Alouddavla ham shunday va'dalar berib, keyin yog'iyliz qildi. Avval Mirzo Abulqosim shu va'dalarini bajarsin! Keyin sulk tuzishni o'laylik.

— Har bir so'zingizni gavhar o'rnida qabul qilgaymiz! — dedi elchi va Ulug'bekning shartlarini Abulqosim Boburga yetkazish uchun qaytib ketdi.

Abdullatif otasining Abulqosim Bobur bilan sulk tuzishini istamasdi.

— Hazrat otajon, Abulqosimga kuch yig'ish uchun fursat bermaylik, uni zaif paytida bosaylik, toki og'asi Alouddavla kabi tor-mor bo'lsin-u, bizga ikkinchi bosh ko'tara olmasin!

— Har qalay, elchi yuborib, sulk so'ragani uchun bunchalik bosqin qilish bizga munosib emas! Siz menga o'g'il

¹ Chindan ham keyinchalik Abulqosim Bobur akasi Alouddavlarning ko'ziga mil torttirib, qisman ko'r qilgani tarixchilar tomonidan qayd etilgan.

bo‘lsangiz, Abulqosim Bobur — jiyandir. Hazrat onamiz uning dargohida. Buni unutib bo‘lg‘aymi? Endi elchi javob olib kelguncha biz Isfaroinga borib turgaymiz. Siz qo‘sish bilan Bistomni egallang. Ammo ortiqcha hujumlar qilmang, amirzoda, behuda qon to‘kilmasin!

Abdullatifning buyruq ohangida aytilgan bu so‘zlarga itoat etmay iloji yo‘q edi. Ammo kechqurun amakivachchasi Abu-sayid bilan xilvatda may ichib o‘ltirib, yana otasidan ranjib gapirdi:

— Ko‘rdingizmi, bugun yana jilovimdan tortdilar!

— Otangiz ataylab shunday qilayotganga o‘xshaydir, amirzoda. Chunki ul zotda sarkardalik salohiyati zaif.

— Xudo haqqi, nechun buni tan olmaydilar?

Abusayid ovozini pasaytirdi:

— Agar tan olsalar, toj-u taxt bilan qo‘sinni sizga berib, faqat olimlig-u mudarrislik qilishlariga to‘g‘ri kelur.

— Bu gapni ikkinchi marotaba aytta ko‘rmang, Mirzo Abusayid, eshitsalar boshimiz ketgay! Samarqandda Mirzo Abubakr qanday qatl etilgani yodingizdam!

— Ammo men boshimga qilich kelsa ham rostini ayturmen!

— Rostgo‘yligingiz uchun tashakkur... Endi otam Isfaroinda besh-o‘n kun to‘xtab, Abulqosimning elchisini kutsalar kerak.

— Ungacha biz Bistomni zabit etgaymiz. Abulqosim Astro-bodga chekinsa, tinchlik bermay, yana ta’qib etgaymiz. Axiyri elchi yuborish fikridan ham qaytib, Iroqqa qochgay.

— Ana bu reja menga ma’qul! — dedi Abdullatif mamnun shivirlab.

Xuddi shu daqiqalarda Ulug‘bek xufton namozini o‘qib bo‘lib, joynamoz ustida tiz cho‘kkan holda past tovush bilan xudoga iltijo qildi: «Yo Ollohu taolo, biri o‘g‘lim, biri jiyanim, ikki o‘t orasida qolgan mushfiq onam, — bu intihosiz arosatdan o‘zing najot ber, ey parvardigori azim!»

DAHOGA KO‘Z TIKKAN BALOLAR

Xazar dengiziga yaqin bo‘lgan Nishapur atroflarida yoz issiqlariga bardosh berish qiyin, chunki havoda nam ko‘p.

Ulug‘bek Isfaroin degan xushhavo joyda baland bir tepalikka qurilgan serdaraxt qo‘rg‘onda to‘xtab, o‘n kuncha dam oldi. Shu orada kichkina oq salsa o‘ragan, malla chakmon kiygan nuroniy bir mo‘ysafid uning qabuliga keldi. Ancha-muncha odamni podshoh qabuliga kiritmaydigan qo‘riqchilar: «Kimsiz, ne arzingiz bor?» — deb surishtirdilar.

— Men Orif Ozariy nomi bilan kitoblar yozganmen, — deb «Ajoyibul g‘aroyib» hamda «Javohirul asror» degan ikkita kitobini qo‘rchiposhiga ko‘rsatdi. — Asli ismim Hamza Ibn Ali. Ulug‘bek hazratlariga bundan ellik yil oldin qissaxon bo‘lganmen...

Qo‘rchipog‘i kitoblarni qo‘liga olib, podshohnig huzuriga kirib ketdi-yu, ko‘p o‘tmay kulimsirab qaytib chiqdi:

— Hazratimning xotiralariga qoyilmen! Ellik yildan buyon sizni unutmagan ekanlar. Yuring!

Ulug‘bek o‘zining ilk ustozini o‘rnidan turib qarshi oldi. U bilan quchoqlashib ko‘rishdi, so‘ng o‘ng yonidagi zarbof ko‘rpachaga taklif qildi.

— Mavlono, sizning mana bu kitoblariningiz mening Samarcanddagagi kutubxonamda ham bor, — dedi.

— Tashakkur, hazratim. Sizning olamshumul ishlar qilgанингизни узоқдан бо‘лса ham eshitib, hamisha iftixor qilurmen. Madrasalar, rasadxona... Xususan, Ziji Jadidi Ko‘ragonidek buyuk kashfiyat...

— Lekin buning hammasidan ham podshohlik yuki menga behad og‘ir tuyulgay, mavlono. Xususan, otam o‘lgandan buyon... intihosiz nizolar, janglar, yo‘l azoblar... buning hammasiga bardosh berish uchun qanchalik chidam, sabr-toqat...

— ...Balki ulug‘ bir matonat kerak! — deb so‘z qo‘shdi mavlono Hamza. — Sizda shunday matonat uchqunlari bolaligingizda ham bor edi. Yosh paytingizda ham Tabriz-u Qorabog‘dan Hirot-u Samarqandlargacha otliq borganingizni bir eslang. Axir sizdek daholarga ko‘z tikuvchi balolar ko‘p bo‘lg‘ay! Qirq yil davomida qilgan ulug‘ ishlaringiz qanchadan qancha nursiz amir-u a‘yonlarning hasadini qo‘zg‘atib, baxillagini junbishga keltirganini men yaxshi tasavvur eturmen.

— Ana shu hasad-u baxilliklar hozir avjiga chiqmishdir, mavlono. Barcha baxillar o‘g‘lim Abdullatif atrofiga to‘planib,

ig‘volar qilayotganini sezib, bezovtaligim ortadur. O‘g‘limizning hovliqma fe‘li bor. G‘alabadan hovliqib, talonchiliklarga yo‘l beribdur. Shuning uchun Tarnobdag‘i g‘alaba fathnomasini uning nomiga yozdirmadim. Ammo buni gap-so‘z qilib, otabola orasiga g‘ubor soluvchilar paydo bo‘libdir. Shuni eshitib, kechalari uyqum qochib ketadir...

— Ko‘ngilni keng qiling, hazratim. Bu hammasi sizga nisbatan tog‘ etagida g‘imirlayotgan qurt-qumursqlardek mayda...

— Ammo falakning gardishi bilan men ham Samarqanddan sizning vataningizga qo‘sishin tortib keldim, mavlono. Inoning, jahongirlik da‘voyim mutlaqo yo‘q. Yana g‘arbg‘a qarab yurilsa Ray, Tabriz-u Bog‘dod. O‘shal tomonlarda Sohibqiron boboming o‘g‘illari Umarshayx Mirzo bilan Mironshoh Mirzo jang-u jadallarda halok bo‘ldi. Bu bizga achchiq saboq emasmi? Jahongirlik bas! Mening xudodan tilagim shulki, o‘zi bergen jonimni begona yurtda emas, vatanim Turonda, Samarqandda qaytib olsin!

— Ammo men sizga xudodan uzoq umr tilaymen!

— Tashakkur, mavlono! Siz menga yoshligimda aytib bergen rivoyatlarga binoan parvardigor muruvvatiga sazovor bo‘lgan jonzotlar yulduzga aylanib, osmondan abadiy makon qurar ekanlar. Gunohlarga botgan tana axir bir kun yerga ko‘milur, qabrimizdan maysa unib chiqur. Ammo ruhimiz... koshki ruhimiz osmonga uchib chiqsa! Bu foni yunyo tashvishlaridan bezib ketganimda bir istak dilimda qayta uyg‘onur. Qaniydi, ruhimni tanamdan osonlikcha ayirib olsam-u, osmonga qushdek uchirib yuborsam! Bu qush yulduzlar orasidan o‘ziga makon topsa! Ruhim yulduz bo‘lmasa ham mayli, faqat musaffo osmonda bir yorug‘ zarra bo‘lib, yulduzlarining sokin nuridan, ulardagi muvozanat-u uyg‘unlikdan bahra olib yashasa... Endigi orzuyim shul!..

— Ammo nechun bunchalik ma’yus tuyg‘ularga berilmoq-dasiz, hazratim?

— Chunki... foni yunyodagi yomonliklardan to‘yib ketdim! Rost, hazrat otam bilan mushfiq onam menga umr bo‘yi yaxshilik qildilar. Afsuski, otamdan judo bo‘ldim. Hazrat onam esa, o‘g‘lim Abdullatif tufayli mendan yuz o‘girib... o‘zlarini olib qochadigan bo‘lib qoldilar.

Mavlono Hamza Ulug‘bekning so‘nggi so‘zlariga e’tiroz qildi:

— Hazratim, men Gavharshod beginmi Domg‘on yo‘lida ko‘rdim. Ul Mahdi Ulyo hali ham sizni onalik mehri bilan sevib tilga oldilar.

— Qani, qani, batafsilroq so‘zlang, mavlono! Qayerda ko‘rdim dedingiz?

Abulqosim Boburning Astroboddagi qarorgohiga Abdullatif hujum qilgandan so‘ng uning oila ahli Gavharshod begin bilan birga Domg‘on tomonlarga ko‘chib ketmoqda ekan. Mavlono Hamza ularni yo‘ldagi bir qishloqda hovuz bo‘yida dam olib o‘tirganlarida uchratibdi. Gavharshod begin mashhur malika bo‘lgani uchun mavlono uni Hirotda ham ko‘rgan, yoshlikda esa Ulug‘bek tufayli u bilan ko‘p uchrashgan edi.

Hovuz bo‘yida dam olib o‘ltirgan beginma mavlono Hamza mulozimlari orqali o‘zini tanitib, yonlariga bordi. Horib-charchagan, ozib ketganidan gavdasi ham kichraygan Gavharshod begin:

— Bizning boshimizga tushgan ko‘rgiliklar hech kimning boshiga tushmasin, mavlono! — deb so‘z boshladi. — Nevaralarning ko‘pi beoqibat chiqqani ustiga yolg‘iz o‘g‘lim Ulug‘bek ham bizni bunchalik ayovsiz ta’qib etganiga lolmen! Axir men Abulqosim Boburni murosaga keltirgan edim, elchi yuborib, Ulug‘bekni oliv hukmdor deb tan olgan edi. «Yo‘q, avval mening nomim bilan pul zarb qilib ko‘rsatsin!» — deb elchini qaytaribdilar. Axir qochib yurib qanday pul zarb qilib bo‘lur? Zarbxona Astrobodda qoldi. Zolim Abdullatif Abusayid Mirzodek bir noinsofni yoniga olib, bizni Astroboddan ham quvib chiqardi. Endi bevatan bo‘lib Iroqqa qochaylikmi?! Axir menda ne gunoh? Mana bu murg‘ak bolalarda ne gunoh?!

Gavharshod begin hovuzning narigi chetida ko‘chlar orasida kattalardek xomush o‘tirgan xushbichim bir bolani imlab chaqirdi:

— Alisherjon, beri keling!

Bola tez o‘rnidan turib, Gavharshod beginning oldiga kel-di-da, qo‘l qovushtirgan holda mavlono Hamzaga odob bilan salom berdi.

— Borakallo, sher o‘g‘il. Kimning o‘g‘li bo‘lursiz? — so‘radi mavlono Hamza.

Alisher Gavharshod beginma bir qarab oldi-da, mas'um tovush bilan javob berdi:

- Amir G'iyo'siddin Kichkinaning o'g'limen.
- Nechun otangizni «Kichkina» derlar?
- Bilmadim, — deb Alisher uyalib yerga qaradi.

Shunda Gavharshod begin izoh berdi:

— Buning tarixi ancha uzoq, mavlono. Alisherning ota-bobolari Amir Temurga yaqin ekanlar. Abusayid Chang degan bobosi Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayx Mirzo bilan bir onani emgan ko'kaldosh ekanlar. Keyinchalik Alisherning otasi amir G'iyo'siddin Umarshayxning nevarasi G'iyo'siddin Mansur bilan birga o'sadir. Temuriyzoda G'iyo'siddinning yonida yurgan amir bahodirona gavdali odam bo'lsalar ham, kamtarlik bilan o'zlarini G'iyo'siddin Kichkina deb ataydilar. Hozir ul zot Abulqosim Bobur dargohida Sabzavor shahriga hokimlar. Bu hammasi Abdullatifga ma'lum. Shuning uchun bular ham Abdullatifning g'azabidan qo'rqib, Hirotdan biz bilan birga qochib chiqqanlar.

Gavharshod begin tomirlari keksalikdan bo'rtib chiqqan qo'llarini Alisherning yelkasiga qo'ydi:

— Alisherning zehni o'tkirligi menga xuddi Ulug'bekning bolalikdag'i zehnini eslatur. Yodingizda bormi, mavlono? Ulug'bek besh xonali sonlarni shunday xotirasida zarblab, hosilasini bexato chiqarib berur edi. Shunday buyuk salohiyatni bundan qirq-ellik yil oldin Ulug'bekda ko'rgan bo'lsam, mana endi Alisherjonda noyob iqtidorning boshqa bir xilini ko'rib qoyil bo'lmoqdamen. Qarang, mana shu Alisher... to'rt yoshida savod chiqarur... Hozir yetti yoshida minglab bayt, she'rlarni yod bilur. Farididdin Attorning «Mantiq-ut-tayr» kitobini boshdan oyoq yod olmish...

— Chindan, afsonaviy iqtidori bor ekan, Alisherbekni yomon ko'zdan xudo asrasin. O'zi ham she'r bitsa kerak?

Alisher bu maqtovlardan iymanib, yerga ko'z tikkancha jim turibdi. Shunda Gavharshod begin uning qo'lchalarini qo'liga olib, yuzini o'ziga qaratdi:

— Alisherjon! Kecha bir she'r aytgan edingiz. Eshitib ko'zlarimga yosh keldi. Shuni yana bir aytning.

Alisherning bu quvg‘inlardan zada bo‘lgan dili hozir she’r aytishga moyil emas edi. Shunda Gavharshod begin yana undan iltimos qildi:

— Hech bo‘lmasa ikki satrini ayting, bolam! Mavlono bir eshitsinlar! Balki sizning mas’um tovushingiz Ulug‘bek Mirzoning quloqlariga yetib borar...

Alisher nihoyat:

— Xo‘p, — deb ko‘ndi va kattalardek jiddiy, ma’yus ohang bilan ikki satr she’r aytdi:

*G’urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish...*

Shu paytda mavlono Hamza ham Alisherning buncha erta uyg‘ongan iste’dodini yurakdan his qildi.

— Bu yosh dahoga ko‘z tikkan balolar bor ekan! — dedi. — Men shu bugunoq Mirzo Ulug‘bek huzurlariga yo‘l olurmen, begin! Ilohim parvardigor sizlarni bu g‘urbat-u g‘ariblikdan xalos qilsin!

Hozir mavlono Hamza Ulug‘bek huzurida o‘ltirganda hamma gaplarni bir-bir aytib berdi-yu:

— Munis onangiz bilan shu mas’um bola butun najotni sizdan kutmoqda, hazratim! — dedi. — Ehtimol, Alisher ismli bu yosh shoir Xuroson-u Turon osmonida yangi bir yulduz bo‘lib porlar! O‘sanda sizning ismingizni ulug‘lab, she’rlar bitgay!

Mavlono Hamzaning hikoyasidan qattiq mutaassir bo‘lgan Ulug‘bek qarsak chalib, yasovulboshini chaqirtirdi...

— Men Mirzo Abdullatifga Bistomdan nari o‘tmang deb buyurgan edim! Nechun Astrobodga boribdir?!

O’sha kuni barcha qo‘sishnlarga «Amir Temur himmatidin Ulug‘bek Ko‘rag‘on so‘zum» deb boshlanadigan qat’iy farmon jo‘natildi. Shu farmonga binoan Abulqosim Bobur bilan boshlangan urush harakatlari to‘xtatildi. Astrobod va Bistom tomonlarga ketgan barcha askarlar orqaga qaytarildi. Abdullatif Mashhadga qaytgan Ulug‘bek huzuriga chaqirtirildi.

Nishopurda kasal bo‘lib, isitmalab yotgan Abdullatifni Mashhadga, Ulug‘bek kelib tushgan qasrga taxtiravonda ko‘tarib

keldilar. Isitmadan bo‘g‘riqqan Abdullatif taxtiravondan tushib, qoida bo‘yicha otasiga ta’zim qilayotganda xiyol gandiraklab ketdi. Ulug‘bekning unga rahmi keldi:

— Sizni Alloh panohida asrasin, o‘g‘lim! Ne bo‘ldi? Shamol-ladingizmi?

— Diq¹ bo‘ldim! Isitmam shamollashdan emas! Uzil-kesil zafarga yetay deganimizda muhorabani birdan to‘xtatib, qo‘sinni orqaga qaytarganingiz meni kasal qildi! Hazrat otajon, axir bu Abulqosim erta-indin o‘zini o‘nglab, yana Hirotg'a bostirib kelgay-ku! Nechun mag‘lub bo‘lay deb turganda siz uni saqlab qoldingiz?

— Chunki Abulqosim elchi yubordi. Shartimizni bajaribdur! Nomimizni xutbaga qo‘shib o‘qtibdur! Egilgan boshga qilich urmoq mardlikdan emas, amirzoda! Abulqosim bilan birga mening hazrat onam quvg‘inda qachongacha azob tortgay? Yosh bolalar... ularga rahm qilish kerakmi, yo‘qmi? Yoki odamiylikdan butunlay voz kechaylikmi?

— Hazratim, men odamiylikdan voz kechmagaymen, ammo podshohlikni undan baland deb bilurmen. Chunki podshohlik insonlardan yuqorida — xudoga yaqin joyda turgay!

— Sahv qildingiz, Mirzo Abdullatif! Garchi men podshohmen, lekin xudoning bir bandasidurmen. Odamiylik esa Odam ato alayhissalomdan bizga merosdir. Shu sababli men odamiylikni podshohlikdan baland qo‘yurmen!

— Sahv qilgan bo‘lsam ma’zur tuting, hazratim. Ammo davlat-u mamlakat manfaatlari qarindoshchilikdan baland turmagaymi?

— Qarindoshchilik deb kimni nazarda tutmoqdasiz? Hazrat onamnimi?!..

— Yo‘q, yo‘q, Abulqosimni...

— Abulqosim ham tug‘ishgan inimning o‘g‘li, menga siz kabi farzand. Agar men davlat-u mamlakat manfaatlariga sizni qurbon berib, bultur Ixtiyoriddin qal’asidagi hibsdan qutqarib olmaganimda... Haligacha Alouddavla o‘Idirib yuborishi mumkin edi-ku!

¹ *Diq* — sil.

— Rost, hazratim, siz bultur meni naqd o‘limdan olib qolgansiz...

— Naqd o‘limdan qutqarilgan farzand uchun... Tarnobdag'i fathnomaning inisi nomiga yozilgani-yu Hirot xazinasidagi necha tuman haqini ololmagani hayot-mamotga nisbatan arzimas narsalar emasmi?!

— Bu borada siz haqsiz, otajon!

— Endi aytинг-chi, sizga qilgan o‘shal odamiylikni men nechun onamga nisbatan qilmasligim kerak? Axir hadisi sharifda: «Yaxshilikni eng avval onangga qil, onangga, onangga!» deb uch qayta ta’kidlangan emasmi? Afsuski, bultur men shu muqaddas o‘gitni unutib, onamdan ham oldin sizga yaxshilik qilgan ekanmen. Bugun siz tufayli oq sut bergen onamdan tiriklayin judo bo‘lib yuribmen!

Ulug‘bekning so‘nggi so‘zлari Abdullatifga yashin zarbasi-day ta’sir qildi. Kasalligi ustiga qo‘silgan bu zarbadan oyoqda turolmay yiqiladigan bo‘lganda, mulozimlar uni ikki tomonidan suyab, tutib qoldilar.

Otasidan eshitgan achchiq haqiqat ta’sirida mulzam bo‘lib bo‘shashgan Abdullatifni yana taxtiravonga solib, davolash uchun olib ketdilar.

Otasi yuborgan xos tabiblarning dori-darmonlaridan tashqari, Abdullatifga shifobaxsh qimizlar, dumba-jigarlar, boshqa taomlar berib, ikki haftada oyoqqa turg‘izdilar.

Lekin otasining so‘nggi so‘zлari uning diliga tikanday qadalib qolgandi. Bu so‘zlar nohaq bo‘lsa, tikanni olib tashlash mumkin edi. Ammo haq so‘zlar uni ma’nан mag‘lub qilgan, endi bu mag‘lubiyat alami uning borlig‘ini kuydirmoqda edi.

«Mayli!— deb nihoyat u o‘ziga o‘zi tasalli berdi.— Otamiz yaxshilik bobida meni yengdi! Uning haq so‘zidan men mag‘lubmen. Ammo hali jangda ham kuch sinashib ko‘rgaymiz! So‘zda yengilgan bo‘lsam, xudo xohlasa, jangda yenggaymen!»

Abdullatif diq deb o‘ylagan kasallik zotiljam ekan. Xos hakimlarning muolajasi va yaxshi parvarishlar uning sog‘lig‘ini tez tikladi.

Hirotga qaytgan kunlarida Ulug‘bek Mirzo o‘g‘lining Ixtiyoriddin qal’asidagi xazinalarda Shohrux podshoh davridan bu-

yon saqlanib turgan ikki yuz ming tilla tangasini ham oldirib berdi.

U nima qilib bo'lsa ham o'g'li bilan o'zining orasida paydo bo'lgan g'uborni tarqatishga intilardi. Shu maqsadda barcha arkoni davlatni Hirotning Bog'i Zog'oniga, otasining taxtgohi bo'lgan muhtasham qabulxonaga to'pladi. Abdullatif taxtning o'ng tomonidagi maxsus o'rinni oldi.

— Amir Temur himmatidin Ulug'bek so'zim!.. Biz dorus-saltanat Samarqandga qaytgaymiz, Xuroson ixtiyori esa o'g'limiz Mirzo Abdullatifga berilgay! Balx ham o'g'limizning qalamraviga kirgay!

Abdullatif o'rnidan turib otasiga ta'zim qilar ekan, bu inoyatdan uncha xursand emasligi yuzidan sezildi. Kechqurun Ulug'bek Mirzo xonayi xosda o'g'li bilan yakkama-yakka o'ltirib, uning ko'nglida yana qanday istak borligini bilgisi keldi.

— Hazrat otajon, — dedi Abdullatif qo'lini ko'ksiga qo'yib.
— Bugungi farmoningizni toji sardek qabul qilurmen. Ammo imkon bo'lganda meni Turonga chaqirib olishingizni so'raymen!

— Ajabo, sizga Shohrux Mirzodek ulug' xoqonning taxti nasib etmoqda-ku, shod bo'lma sizimi? Bobongiz sizni yaxshi ko'rар edilar, o'z qo'shinini sizga ishonib topshirgan edilar. Endi ul jannatmakon xoqonning ruhini shod etib, Hirotda savob ishlar qiling, el-yurtning duosini oling. Bobongizdan sizga katta mablag'lar meros tegdi. Buni ilm-u ma'rifatga, bunyodkorlik ishlariga sarflang. Vaqt kelganda Samarqandga ham borursiz. Ammo hozir biz ketsak Abulqosim Bobur Hirotda tajovuz qilgay. Siz bunga yo'l bermasligingiz kerak!

— Abulqosimni o'shanda yo'q qilishimiz mumkin edi-ya, hazratim. Endi kech! U yana kuch yig'ib, zo'r bo'lib oldi.

— Nahotki u sizdan ham zo'rroq bo'lsa?

— Mayli, hazrat otajon, taqdir-u nasibam shunday ekan, so'zingizga shak keltirmagaymen!

Lekin dilida Abdullatif otasidan norozi edi. Bobosining xazinasidan meros olgan sandiq-sandiq tillalarni bunyodkorlikka emas, minglab yangi askarlar yollashga sarflamoqchi edi.

Unga yaxshi itoat etadigan bek-u navkarlar ko'proq Balx va Badaxshon tomonidan topilardi. Hirotlilklar Abdullatifni Tar-

nob jangidan keyingi talonchiliklari uchun juda yomon ko'rardilar.

Ulug'bek o'z qo'shini bilan Samarqandga jo'nab ketgandan keyin Abulqosim Bobur Hirotga qo'shin tortib kela boshladi. Shaharda unga qo'rg'on darvozalarini yashiriqcha ochib berishga tayyor turganlar ko'p edi.

Buni sezgan Abdullatif ikkinchi marta Ixtiyoriddin qal'asiga hibsga tushishdan xavotirlandi, Hirotni jangsiz tashlab chiqib, Balxga yo'l oldi.

Shundan keyin Hirotga Abulqosim Bobur, Gavarshod begim amir G'iyosiddin Kichkinaning o'g'li Alisher bilan birga qaytib kelishdi. Ular urush harakatlarini to'xtatib, sulh tuzgan Ulug'bekdan astoydil minnatdor bo'lishib, avvalgi makonlariga joylashdilar.

Mirzo Ulug'bek onasi bilan birga yosh Alisherni ham urush va quvg'in balolaridan qutqargani bo'lajak buyuk shoirning xotirasida o'chmas iz qoldirgan bo'lishi kerak. Ulug'bekning benazir yaxshiligini Alisher Navoiy bolalikda o'z ko'zi bilan ko'rgani uchun ham «Farhod va Shirin» dostonida:

*Temurbek naslidan sulton Ulug'bek
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek, —*

degan unutilmas satrlarni yozdi.

Ammo o'sha yili Hirotdan alamzada bo'lib ketgan Abdullatif Balxda qo'shin yig'ib, endi otasiga qarshi jangga hozirlik ko'ra boshladi.

SUIQASD

Milodiy 1449-yilning kuzida Shohruxiyadan¹ Samarqandga qaytayotgan Ulug'bek Mirzo Zarafshon daryosidan o'tgandan keyin Cho'ponota tepaliklariga otliq chiqib bordi. Yonida kichik o'g'li Abdulaziz va sadoqatlari amiri Bobo Husayn bor edi. Uchovlari tepaliklarning eng baland nuqtasiga ko'tarilib, otlarini to'xtatdilar.

¹ *Shohruxiya* — Toshkentga yaqin joyda, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida bo'lgan.

Bu yerdan Samarqand kaftda turganday aniq ko'rinardi. Ulug'bek Mirzo oftob nurlarida charaqlab ko'ringan moviy gumbazlarga zavq aralash ma'yus va xavotirli nazar tashladi.

Hozir poytaxtda Abdullatif hukmron. Xiyonatchi amirlar jangda yutqizgan Ulug'bekni qo'rg'onga kirgizmaganliklari sababli u Shohruxiyaga ketgan edi. Biroq Shohruxiyada ham shahar dorug'asining sovuq munosabatini sezgandan keyin Ulug'bek Samarqandga vakil yuborib, toj-u taxtni Abdullatifga ixtiyoriy ravishda topshirmoqchi ekanini ma'lum qildi.

Shu shart bilan unga Samarqand darvozaları ochiladigan bo'ldi. Abdullatifning odamlari bugun peshin namozidan keyin uni Obirahmat arig'i bo'yida, rasadxona oldida kutib olib, Ko'ksaroyga boshlab borishlari kerak. Kim bilsin, Ko'ksaroya uni qanday qismat kutmoqda?

Yomon dilsiyohliklar bo'lishini oldindan sezayotgandek, ko'ngli juda bezovta.

Shu bezovtalikni bosish uchun ham Ulug'bek Cho'ponota balandligidan yaxshi ko'rindigan shahar-u qishloqlarga, tog'-u vodiylarga to'yib-to'yib qarab olgisi keldi.

Kuzgi yomg'irlar va qavs oyida yog'ib o'tgan dastlabki qor havodagi g'uborlarni yuvib ketgan. Quyoshli osmon behad tiniq. Uzoqdagi qorli tog'lar go'yo yaqin kelib qolgan.

Samarqand atrofidagi bog'larda oltin kuz manzaralari. Zarrin daraxtzorlarga burkangan qishloqlardan narida Shovdor va Hisor tog'lari oppoq qorga burkanib, odatdagidan silliqroq ko'rindi.

Ulug'bek Mirzo saman otini orqaga burib, Nurota va Oyqor tog'lariiga ham qor tushganini ko'rdi. Ulardan narida Chotqol tog'lari, Turkiston tizmasi, Ko'ksaroy va Tilla beshik deb nom olgan eng baland cho'qqilar. Amudaryo tomonlarda Boysuntog' va Bobotog'... Bularning hammasini Ulug'bek Mirzo hozir xayol ko'zi bilan ko'rib turgandek bo'lardi.

Ellik besh yillik umrining katta bir qismini uzoq safarlarda, urush va yurishlarda o'tkazgan Ulug'bek Mirzo Turonzamining hamma daryolaridan suv ichgan, barcha vodiylariga uning mehnati singgan, charchaganda xayolan vatanining baland tog'lariiga suyanib, madad olishga intilgan.

Hozir u qorli tog'larga, oltin kuz libosidagi vodiylar va qadrdon shahri Samarqandning moviy gumbazlariga tikilib qarar ekan, «balki bularni oxirgi marta ko'rmoqdadurmen?» degan tahlikali savol diliga larza solib o'tdi.

Bu tahlika bejiz emas edi. Rasadxona tomondan ot choptirib Cho'ponota tepaligiga chiqib kelgan yuzdan ortiq qurolli sipo-hiyilar Abdullatifning harbiy ishlar bo'yicha vaziri Ibrohimshoh boshchiligidida Ulug'bek Mirzoni birdan o'rab oldilar.

O'nboshilardan biri o'z navkarlari bilan Abdulaziz Mirzoni otasidan ajratib olib, Bog'i Maydon tomonga boshlab ketdi. Yana bir o'nboshi Bobo Husaynni tutmoqchi bo'lib borayotganda, Ulug'bek uni to'xtatdi.

— Janob Bobo Husayn pastda kutib turgan uvrug oldiga qaytsin! — deb buyurdi.

«Uvrug» deganda oila a'zolari, ayollar nazarda tutilardi. O'nboshi Ulug'bekning podshohlarga xos qat'iy ohang bilan bergen buyrug'ini bekor qilomadi. Bobo Husayn pastga qarab ot choptirib qutulib ketdi.

Yolg'iz qolgan Ulug'bek Mirzoni badqovoq, sersoqol Ibrohimshoh o'z navkarlari bilan qurshab olib, Cho'ponota tepaliklaridan pastga boshlab tushdi va Samarqandning Feruza darvozasiga yo'l oldi.

Quyoshli kun edi. «Ulug'bek Mirzo Shohruxiyadan Samarqandga qaytibdi!» — degan xabar shahar bo'ylab tarqaldi.

Ulug'bekni Ko'ksaroya boshlab ketayotgan Ibrohimshoh har qancha ehtiyot choralarini ko'rmasin, odamlar devorlardan mo'ralab, tekis tomlar ustiga chiqib, Ulug'bek Mirzoga nazarlari tushar, uni bandiga o'xshatib qurshab olib ketayotganlarini ko'rgan ba'zi ixlosmandlari ko'zlariga yosh olishardi.

Abdullatif shaharda jabr-u zulmni kuchaytirgan sari Ulug'bek Mirzoday adolatli podshohning qadri o'tmoqda edi. Samarqand qirq yil davomida tinch va farovon hayot kechirgan edi. Endi Abdullatif Balx, Badaxshon va Qunduz tomonlardan boshlab kelgan o'ttiz mingdan ortiq talonchi bek-u navkarlar poytaxt ustiga dahshatli bir do'l bo'lib yog'ilayotganday, daraxtlarni qo'porib oqadigan ulkan sel kelib, o'z yo'lida uchragan hamma narsani buzib, yiqitib ketayotganday tuyulardi.

Samarqand bozorlari, zargarlik, bazzozlik va boshqa rastalar talandi. Rasadxona va madrasalar yopib qo'yildi. Ulug'bek Mirzoga yon bosgan odamlarning ko'pchiligi qilichdan o'tkazildi, bir qismi hibs qilindi. Ularning hovli-joylari, bog'-rog'lari Abdullatifga g'alaba keltirgan vazir-u amirlarga tortib olib berildi.

Balxlik Kamoliddin Abdulvoise degani devonbegi, Mo'minshoh Badaxshiy soliq idoralariga boshliq, Ibrohimshoh harbiy vazir, Xo'ja Porso ulamolar peshvosi bo'ldi. Ulug'bekka xiyonat qilib, uni Samarqand darvozasidan kirgizmay qaytargan Mironshoh qavchin ham Abdullatifdan katta mukofotlar olib, maxfiy ishlar vaziri lavozimiga tayin etildi.

Lekin Mironshoh qavchin ko'cha-ko'ydan otliq o'tib qolsa, ba'zi yosh-yalanglar tom ustidan unga kesak otib qochishar, «xoin», «sotqin!» deb so'kib yashirinishar, ularni topish va tutib olib jazolash amrimahol edi.

Odamlar Ulug'bek Mirzo davrida boshdan kechirgan yaxshi hayotlarini armon bilan eslashar, hozir uni qurshab, Ko'ksaroy tomonga olib kelayotgan zolimlarga nafrat bilan qarashar, ko'zlarini orqali ularga qarg'ish yog'dirayotganday bo'lishardi.

Shohi Zindaning yonidagi tosh yo'ldan o'tayotganlarida Ulug'bek Mirzo ustozi Qozizoda Rumiy maqbarasini ziyorat qilmoqchi bo'ldi. Ammo qovog'idan qor yog'ayotgan Ibrohimshoh bunga ruxsat bermadi. Ulug'bek Mirzo Rumiy maqbarasiga yaqinlashganda otini bir lahza to'xtatib, qisqagina duo o'qidi-da, yuziga fotiha tortdi.

Noinsoflar uni, hatto Amir Temur maqbarasi tomon burulishga, ota-bobolarining qabrini ziyorat qilishga ham qo'yamadir.

Chunki Ulug'bek Mirzo qaysi ko'chadan o'tmasin, yo'l chetlarida, tom ustlarida odamlar paydo bo'lar, unga ta'zim qilib salom berishar, keksalar:

— Xudo sizni panohida asrasin! — deb duo qilishardi.

Buning hammasi vazir Ibrohimshohning qahrini keltirar, u navkarlariga Ulug'bek Mirzoning atrofini mahkamroq o'rashni buyurar edi. Lekin Ulug'bek mingan saman otning bo'yi boshqa

hamma otlarnikidan baland edi. Shuning uchun egar ustida qaddini tik tutib borayotgan Ulug'bekka ko'pchilikning nazari tushardi.

Ulug'bek Mirzoni Registon maydonidan Ko'ksaroy tomonga boshlab o'tayotganlarida eshiklari yopiq madrasa oldida asabiy-lashib turgan tolibi ilmlar uni ko'rib yugurib keldilar.

Ularning uch-to'rttasi qo'riqchi navkarlar safini yorib o'tib, Ulug'bekning uzangisidan va otining bo'yndan tutdilar. Ustozning etaklarini ko'zlariga surtib, xitob qildilar:

— Hazratim, buyuring!

— Biz siz uchun jon berishga tayyormiz!

Ibrohimshoh va uning navkarlari bu tolibi ilmlarni qamchilar bilan savalab quvdilar.

— Buyruqni endi Abdullatif hazratlari bergaylar! — deb qichqirdi Ibrohimshoh. — Kimki uning buyrug'iga bo'ysunmasa boshi ketgay!

Ulug'bek Mirzoday odil podshoh va donishmand allomadan ajrab qolish xavfi va yangi kelgan zolimlar istibdodi nafaqat yoshlarni, balki hamma insofli samarqandliklarni junbishga keltirgani sari Abdullatifni taxtga chiqargan bek-u a'yonlarning xavotiri oshib bormoqda edi.

Ular ehtiyyot choralarini yanada kuchaytirib, Ulug'bekni Ko'ksaroyda xonaki hibsda saqlay boshladilar.

Ko'ksaroyning yonida podshoning taxi qo'yilgan Bo'ston-saroy bor edi. Kechki payt Bo'stonsaroyning oltin va lojuvard bilan ziynatlangan ulkan qabulxonasiga Abdullatifning arkoni davlatlari yig'ilishdi. Ularning oldiga Ulug'bek Mirzoni boshlab chiqishdi.

Abdullatif hali taxtga chiqmasdan to'rdagi baland shohnishinda zarbof ko'rpa chalar ustida baxmal bolishga suyanib o'ltirgan ekan.

— O'g'lim Abdullatif Mirzo! — deb Ulug'bek unga va arkoni davlatga murojaat qildi: — Mana shu bek-u a'yonlar guvohligida men toj-u taxtni sizga ixtiyoriy ravishda topshirdim. Qolgan umrimni ilm-u ma'rifatga baxsh etmoqchimen. Menga endi saroylarning keragi yo'q. Faqat bir iltimosim bor. Qilich tutgan janoblar ahli qalamga Sohibqiron bobomizdek yaxshi munosabatda bo'lsalar. Chunki qalamning ishtirokisiz faqat

qilich bilan mamlakat obod bo‘lmaq, uy qurilmagay! Barcha buniyodkorlik ishlari ahli qalam yordamidagina amalga oshgay!

— Ammo qilich bilan mamlakat olingay! — dedi tepada o‘ltirgan Abdullatif. — Mamlakatda esa uy ham bo‘lg‘ay, obo-donchilik ham, ahli qalam ham!

— Farzandi arjumand, — deb e’tiroz qildi Mirzo Ulug‘bek. — Mamlakat olmoqdin ko‘ra, uni boshqarmoq yuz karra mush-kulroqdir.

Shahnishinning o‘ng tomonida savlat to‘kib o‘ltirgan uzun oq soqolli Xo‘ja Porso Abdullatifdan ijozat olib, so‘zlay boshladi:

— Sohibqiron bobolariga bugungi eng munosib voris tojdori juvonbaxt Abdullatif hazratlaridir! A’lo hazratning jang maydonida qilich chopishlari ham, sarkardalik daholari ham Amir Temur bobolarini yodga solur. Ko‘pni ko‘rgan bahodirlar Abdullatif hazratlarini bugungi kunning Sohibqironi deb atamoqdalar! Ulug‘bek Mirzo mudarrisidirlar, olimdirlar, lekin sarkarda emaslar. Dashti Qipchoqdan Chingizzon avlodlari Turonga bostirib kirib Sig‘noqni, Turkistonni egalladilar. Mirzo Ulug‘bek ularga qarshi chora topolmadi. Bundan dadil-langan Dashti Qipchoq lashkari Amudaryo bo‘yiga bostirib bordi. Bultur kuzda Hirotdan qo‘sish bilan qaytayotgan Ulug‘bek Mirzoni Abulxayrxon daryodan o‘tayotgan paytda taladi. Agar o‘sanda Abdullatif hazratlari sarkarda podshoh bo‘lganlarida edi, bu dashtiy sultonlarni yer bilan yakson qilgan bo‘lardilar. Ammo Ulug‘bek Mirzo bosqinchilarni tor-mor qilmadilar. Ahvol shunday davom etaversa, chingiziylar butun Turonni bosib olishlari hech gap emas edi! Shuning uchun biz Abdullatif hazratlaridan «Bobokaloningiz sultanatini qutqaring!» deb iltimos qildik. Hazratim Balxdan Samarqandga najotkor sifatida keldilar! Buni Dashti Qipchoqdagi g‘animlar ham sezgan bo‘lsalar kerak. Har yili shu paytlarda Samarqand atroflariga kelib talonchilik qiladigan ko‘chmanchi sultonlar bu yil hazratimning siyosati tufayli daf bo‘lib ketdi!

Ulug‘bek Mirzo Xo‘ja Porsoga yuzlandi:

— Beayb parvardigor deydilar, taqsir. Biz ham sarkardalik ishida nuqsonlarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsak, mana endi bu ishni

podshohlikka qo'shib o'g'limizga topshirdik. Siz Sohibqiron Amir Temurni eslatdingiz. Men ul buyuk dahoning tarbiyasini olgamen. Hazrat bobom shunchalik olamshumul sarkarda bo'lsalar ham, «Hamma ishni faqat qilich bilan ado etish mumkin», demas edilar. Aksincha, «davlat ishlarining o'ndan to'qqizi aql-zakovat, tadbir-u mashvarat bilan bajo keltirilgay, faqat o'ndan bir qismini qilich bilan bitirsa bo'lg'ay» derdilar. Bul so'zlar Sohibqironning tuzuklarida ham yozilgan. Tadbir, mashvarat deganda, bobomiz ma'rifatli odamlar maslahatiga suyanishni nazarda tutardilar. Ul zoti oliy o'z atrofiga har sohaning eng ma'rifatli dono olimlarini to'plagan edilar!..

— Mirzo Ulug'bek, — deb Xo'ja Porso uning so'zini bo'ldi. — Siz mudom «ilm-u ma'rifikat» deb, mudarris-u mullabachchalarни taltaytirib yubordingiz, jangovar bek-u amirlarni ulardan past qo'ydingiz. Buning oqibatida, mana, bugun mullabachchalar Mironshoh qavchindek nufuzli vazirimizga tom ustidan tosh-u kesak otib, haqoratomuz so'zlar aytibdir!..

— Kimlar shunday qilgan?! — o'shqirib so'radi Abdullatif.
— Janob Mironshoh, siz ularni tom ustida ko'rgan bo'lsangiz, nechun tuttirmadingiz?

Mironshoh qavchin o'rnidan turdi:

— Tor ko'chalardan qaysi biriga qochib yashirinishganini bilmay qoldik, a'lo hazrat! Mahalla ahli ularni yashirdi, hech kim «ko'rdik» demadi.

— Bundan isyonning hidi keladir! Janob Mironshoh, voqeа sodir bo'lgan mahalla ahlining har o'ntasidan uchtasini garovga olib, hibs qildiring! To bu isyonchilarni topib berma-gunlaricha qiyonqlarga soling! Isyonchi mullabachchalar topilganda bizga xabar bering, maydonga chiqarib, siyosat uchun qatl ettirgaymiz!

— Bosh ustiga, hazratim! — deb Mironshoh orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Shundan keyin Abdullatif Xo'ja Porsoga yuzlanib, ovozi sal yumshab gapirdi:

— Biz Samarqandni yog'iylar tajovuzidan saqlash uchun kelganimiz haqida juda asosli dalillar keltirdingiz, mavlono! Ertaga jome masjidida bizning nomimizga xutba o'qilganda mana

shu dalillarni barcha namozxonlarning diliga yetkazib ber-mog‘ingiz kerak! Toki xaloyiq buzg‘unchi mudarrislar-u bezori mullabachchalarning ketidan ergashmasin!

Abdullatifning laganbardorlari uni machitlarda va mashvaratlarda qanchalik ko‘klarga ko‘tarib maqtamasin, ko‘pchilik aholi Ulug‘bekni beqiyos baland qo‘yar, otasiga qarshi qilich yalang‘ochlagan o‘g‘ildan nafratlanardi.

Ulug‘bek Mirzo hamma muhim lavozimlarga mumkin qadar bilimli va insofli amaldorlarni tanlab qo‘yan edi. Lekin Abdullatif bilan kelgan johil vazirlar avvalgi yaxshi amaldorlarni ishdan quvib, hamma muhim lavozimlarni tamagir va poraxo‘r sipohilarga bermoqda edilar.

Ulug‘bek mardlik qilib, toj-u taxtni o‘g‘liga o‘zi topshirgan bo‘lsa ham, Abdullatifning otasiga beandisha va shafqatsiz muomala qilishi ko‘plarga nonko‘rlik bo‘lib ko‘rinmoqda edi. Buni sezgan vazirlar kunduzi Ulug‘bek Mirzoni xalqqa ko‘rsatmay, Ko‘ksaroyda xonaki hibsda saqlashdi. Ahli oilasi bilan ko‘rishihi uchun faqat kechasi, el uxlaganda ruxsat berishdi. Shunda ham Ibrohimshoh boshliq yigirmata navkar uni to‘rt tomondan qurshab olib, Bog‘i Chinorda turgan oila a’zolarining oldiga kuzatib bordi.

Abdullatifning onasi Husn Nigor xonim shaharning boshqa tarafidagi Bog‘i Dilkushoga kelinlari va nevaralari oldiga ko‘chib ketgan ekan. Ulug‘bek Bog‘i Chinorda suyukli qizlari Habiba Sulton, Robiya Sulton va kuyovi Abdulla Mirzo bilan ko‘rishdi.

Ularga qo‘riqchilar eshitmaydigan past tovush bilan xabar berdi:

— Men Samarqandga sig‘maydiganga o‘xshaymen. Erta-in-din hajga jo‘natishmoqchi.

— Unday bo‘lsa men navkarlarim bilan sizni qo‘riqlab bor-gaymen! — dedi Abdulla Mirzo. — Amudaryodan eson-omon o‘tib olsak, Hirotda hazrat momom borlar!

Habiba Sulton ham Hirotdagi momosini esladi:

— Momomga xat yozgan edim. Yaqinda javoblari keldi. Hazrat otajon, momom sizni mehr bilan qalamga olibdirlar... Hirotda jang bilan borganingizda Abdullatifning g‘azabidan qo‘rqib, Astrobodga qochgan ekanlar. Siz Bobo Husaynni izlaridan

yuborib qaytarmoqchi bo'lgan ekansiz. Momom Abdullatifdan qo'rqib qaytmagan ekanlar. Shuni eslab, «Endi armon qilamen, pushaymon bo'lamen, axir nevaralar bilan sarson bo'lib yurgandan ko'ra, podshoh o'g'limning dargohida yashaganim afzal emasmidi?» deb yozibdilar.

— Men ham armon qilamen, pushaymon bo'lamenki, Abdullatif Hirotda Ixtiyoriddin qal'asida hibsda yotganda onam hazratlarining maslahatlariga kirmadim. «Abdullatif biror yil shu qal'ada yotsin, hakimlar davolasin, zamon tinchiganda chiqargaymiz», dedilar. Agar onamning maslahatiga kirganimda, ehtimol, Tarnob jangi ham bo'lmas edi, Hirot bilan Samarqand orasiga nifoq ham tushmas edi.

— Nachora! Bu hammasi taqdirimizda bor ekan, otajon!

— Bolalarim, mabodo boshqa ko'risholmasak, mendan rozi bo'linglar!..

Ular yig'lab xayrashdilar. Saroydan kelgan bek-u navkarlar Ulug'bekni yana qurshab olib, tun qorong'usiga kirib ketdilar.

Ertasi kuni xufiyalar Abdulla Mirzoning haj yo'lida qaynotasiga qo'riqchilik qilish niyati bilan Keshga ketayotganini Abdullatifga yetkazdilar.

— Darhol tutib kelinglar! — deb buyurdi Abdullatif.

Abdulla Mirzoni shahardan chiqayotganda tutib olib, Ko'ksaroya keltirdilar va eng qattiq qo'riqlanadigan hibsxonaga qamab qo'ydilar.

Abdullatif inisi Abdulaziz Mirzoni Bog'i Maydonda yashiriqcha qatl ettirdi. Shu tarzda u taxtga da'vogarlik qilishi mumkin bo'lganlarni bartaraf qilgandan so'ng, saroy mulozimlaridan bo'lgan Hoji Muhammad Xusravni o'z huzuriga chaqirtirdi.

— Siz hajga borib kelgansiz, barcha qoidalarini bilursiz. Shuning uchun bizning otamizga haj safarida hamroh bo'lishni sizga topshirmoqchimiz!

— Bosh ustiga, a'lo hazrat!

— Ammo shart shuki, buni hech kimga, hatto ahli ayolin-gizga ham aytmaysiz!

— Nechun, hazratim? Axir yo'l tayyorligi... Xayr ma'zur...

— Sababini keyin bilursiz. Ammo shu daqiqadan boshlab har bir qadamingiz davlat siri hisoblangay. Sirni oshkor qilganlar omon qolmagay!

— Fahmladim, podshoh hazratlari! Farmoningizni so‘zsiz ado etgumdir.

Qattiq sir tutilayotgan narsalar Ulug‘bekni haj yo‘lida bartaraf qilishga qaratilganini Hoji Muhammad keyin tushundi.

Abdullatifni chirmovuqday o‘rab olgan vazirlar va a‘yonlar uning hovliqma fe’lini qo‘zg‘atdilar.

— Otangiz tirik bo‘lsa Abdulla Mirzoga o‘xshaganlar yana bosh ko‘targay!

— Ularga Hirotdan Gavharshod begin ko‘mak yuborgay!

— Kesh bilan Termizda ham otangizning tarafdozlari kuch to‘plamoqda emish.

— Buni kim aytdi?! — ko‘zлari ola-kula bo‘lib so‘radi Abdullatif.

— Mana, xufiyalar ma’lumotini o‘qib ko‘ring, a’lo hazrat, — deb devonbegi unga maxfiy axborotlarni berdi.

Abdullatif bu axborotlarni o‘qir ekan, donishmand otasi hayot bo‘lgani uchun uni el-yurt podsho deb tan olmayotganini baralla sezdi. Otasining bu darajada mashhur bo‘lib ketganiga uning hasadi keldi. Hasaddan o‘rtanib, xitob qildi:

— Biron yo‘l topinglar! Meni otamning soyasidan oftobga olib chiqinglar!

Abdullatifning atrofidagilar Ulug‘bek Mirzoni yashiriqcha qatl ettirishdan boshqa yo‘l yo‘qligini aytdilar.

Biroq Abdullatif padarkush bo‘lishdan qo‘rqardi. «Shohnoma»dagi mashhur Zahhoki Moron otasini o‘ldirib, taxtni egallagani uchun uning ikki yelkasidan ikkita ochko‘z ilon bosh ko‘targani haqidagi rivoyatlarni yaxshi bilardi. Bu ilonlar Zahhokning boshiga yetganiga ham ishonardi.

Kamoliddin devonbegi o‘ylab-o‘ylab boshqa yo‘l topdi:

— Hazratim, siz bir chetda betaraf bo‘lib turgaysiz. Otangizning dushmanlari ko‘p. Hamma ishni o‘shalar qilgay: A’lam hazratlari otangiz tomonidan tamagirlilikda ayblanib, ishdan bo‘shatilgan ekan. Bu hazrat otangizdan norozi bo‘lib yurgan qozi-yu ulamolarni yig‘ib, fatvo tayyorlagay. Bultur Tarnob jangidan so‘ng Hirot bo‘sag‘asida Jabbor Sulduz degan amirni otangiz qatl ettirgan ekanlar.

— Rost, men Jabbor Sulduzga shafoat so‘ragan edim. «Tortib olgan o‘ljalarini egalariga qaytarsin, qonidan kechaylik», dedim. Otam Jabborbekning boshqa jinoyatlari ham borligini aytib, uni o‘limga hukm qilgan edi.

— Hozir A’lam hazratlari bu hukmni noshar’iy deb topmoq-dalar. Jabborbekning Abbos Sulduz degan o‘g‘li bor ekan. Hozir shu Abbos Ulug‘bekdan otasining xunini talab qilmoqda. Qo‘yib beraylik, qolgan ishni bular o‘zлari bitirsin. Siz bu ishni shariat peshvolariga topshiring. Ularning fatvosini Chingizzon avlodidan bo‘lgan Mug‘luqxonga tasdiqlatgymiz. Bobokaloningiz Amir Temur davrida shunday odat bor ekan-ku.

— Ammo bu hammasi qattiq sir saqlanmog‘i lozim! — buyurdi Abdullatif.

Suiqasdni imi-jimida amalga oshirish yana o‘sha vazir Ibrohimshohga topshirildi.

Bomdod namozidan keyin Ulug‘bek Mirzo va Hoji Muhammad Xusravni Ibrohimshoh o‘z navkarlari bilan o‘rab olib, Samarqanddan Ohaklik tog‘lari tomon boshlab ketdilar. Haj yo‘li o‘sha tog‘ tepasidagi Taxti Qoracha dovoni orqali o‘tardi.

Ulug‘bek Mirzo Ko‘ksaroydagи xonaki hibsdan qutulib, havosi toza keng joylarga chiqqanda o‘zini ancha yengil his qildi. Hamrohi Hoji Muhammad Xusrav unga diyonatli, mo‘min-musulmon odam bo‘lib ko‘rindi.

— Xudo xohlasa haj yo‘lida Hirotg‘a ham kirgaymiz! — dedi Ulug‘bekka dalda berib. — Hazrat onangiz bilan diydor ko‘rishgaysiz!

— Onamdan qizimiz Habiba Sultonga maktub kelgan ekan. Hazrat onam «qolgan umrimni o‘g‘lim Ulug‘bekning dargohida o‘tkazish orzusidamen», deb yozibdilar.

— Iloyo shu orzulari ro‘yobga chiqsin! — deb duo qildi Hoji Muhammad Xusrav.

Shu tarzda bir-birlarining ko‘ngillariga taskin berib, kech-gacha yo‘l yurdilar. Qosh qorayganda orqadan yana otliq sipohilar yetib keldi. Ibrohimshohga nimalarnidir aytishdi.

Shundan keyin Ulug‘bek Mirzo bilan hamrohini «Obi Suj» deb ataladigan bir ariq bo‘yidagi qo‘rg‘onchaga boshlab kir-dilar.

— Bugun shu yerda tunagaymiz! — deb e'lon qildi Ibrohimshoh.

Qo'rg'oncha kimsasiz befayz joy edi. Ichki-tashqi hovlida hech kim yo'q, go'yo egalari ko'chib ketgan.

Ulug'bek Mirzo bu yerda yomon bir niyat borligini sezdi. Lekin qaytib chiqib ketishning iloji yo'q edi.

Ulug'bekni qurshab olib kelgan bek-u navkarlar tashqi hovlida qo'riqchilik qilmoqda edi. Huvillagan ichki uy sovib yotardi. O'choq yoniga tarasha va payrahalar taxlab qo'yilgan ekan. Hoji Xusrav quruq payrahalar ustiga tarashalarni qalashtirib, olov yoqdi.

Samur¹ po'stin kiygan Ulug'bek Mirzo qo'llarini olovga tutib isinayotganda eshik birdan sharaqlab ochildi.

Ko'zları g'azab bilan yongan devday bir yigit ichkariga otilib kirdi.

— Men Abbos Sulduzmen! Otam Jabbor Sulduzning xuni ni talab qilib keldim!

Ulug'bek sapchib o'rnidan turdi:

— Jabbor Sulduz bultur Tarnob jangidan so'ng talonchilik qilib ilikka tushganmidi? Otang begunoh odamlarning qonini to'kkani! Hirotlik bokira qizning nomusiga tekkan! Buning hammasi uchun shariat qonuniga binoan qatl etilgan!

— Siz otamni nohaq qatl ettirgansiz! Hozirgi podshohimiz Abdullatif hazratlari otamga yog'iy molini musodara qilishga ruxsat bergan edilar. Buni o'shanda sizga aytib shafoat ham so'raganlar. Lekin siz jahlga berilib, otamni ayovsiz qatl ettirdingiz! Buni shariat peshvolari taftish etib, fatvo chiqardilar. Abbos qo'ynidan o'ram qilingan va muhrlangan bir qog'ozni olib ko'rsatdi:

— Mana, A'lam hazratlari bilan yana oltita qozi mening xundorlik talabimni «qondirilsin!» deb imzo chekdilar.

— Bu imzolar hammasi bekor! Temuriylar davlatida o'limga hukm qilish huquqi faqat podshohga berilur! Qani Abdullatif Mirzoning imzosi?! Qani muhri?!

— Amir Temur Ko'ragon davrida eng muhim ishlarni Chingizxon avlodiga mansub xonlarning tasdig'i bilan amalga oshirish

¹ Samur — suvsar.

odati bor ekan. Abdullatif hazratlari ana shu odatga rioxalash qildilar. Sizni qatl etish haqidagi hukmga podshohimizning roziligi bilan xonlar avlodiga mansub Mug'luqxon imzo chekib, muhr bosgan! Mana, uning imzosi, mana muhri!

— Mal'unlar! — deb Ulug'bek Abbasning ko'kragiga bir musht urdi. Fatvoni uning qo'lidan yulib olib, o'tga tashlamoqchi bo'ldi. Lekin ayiqday zo'r Abbas fatvoni bermay, Ulug'bekni itarib yubordi. Orqasida turgan ikkita navkariga:

— Chilvir qani? — dedi. — Ilkini bog'lash kerak! Arik bo'yiga mash'ala yoqinglar!

Ranglari oqarib ketgan, hansirab og'ir nafas olayotgan Ulug'bek Hoji Muhammadga yuzlandi:

— Bu yerda bizga qopqon qo'yilgan ekan-ku! Siz bu yovuz niyatdan xabardormidingiz?!

— Tepamizda xudo turibdir, hazratim! Men bir g'arib mulozimmen! Bundan mutlaqo bexabarmen!

— Unday bo'lsa, ilohim siz tirik qoling! So'nggi xohishirodamni sizga bildirgaymen!

Hoji Muhammad ko'ziga yosh olib, eshik tomonga o'tdi. Ulug'bek so'nggi so'zlarini aytib ulgurishi uchun eshikni ichkaridan yopib, tutqichidan mahkam tutib turdi:

— Onam hazratlari mendan rozi bo'lsinlar! Bobo Husaynga, Ali Qushchiga, Abdulla Mirzoga, barcha yaxshilarga haqiqatni yetkazing! Qonli qilichlarni sindiradigan eng zo'r kuch — haqiqatdir! Mening ruhim yozgan kitoblarimda qolgay! Shoyadki parvardigor menga umri soniy inoyat etsa... Hayhot! Menga berilgan hayot jomingning tubidan eng achchiq qismat chiqdi! Pushti kamarimdan bo'lgan o'g'lim meni razil talonchilar qili-chi bilan o'ldirmoqchi!.. Na iloj! Bir o'lim hamisha boshimizda bor. Men parvardigordan to'rt mucham butunligida xor-zor qilmay, omonatini olishini so'rар edim. Shu iltijo bugun ijobat bo'lsa nachora! Bu mal'unlar meni sudrab xor qilmasinlar. Eshikni oching, mavlono! O'zim chiqay!

Mirzo Ulug'bek eshikdan dadil qadamlar bilan hovliga chiqdi.

Arik bo'yidagi daraxtga osilgan mash'ala charsillab yonmoqda edi. Chilvir tutgan bir navkar Ulug'bekning qo'lini orqasiga bog'laguncha u sokin turib berdi. Qilich yalang'ochlab olgan

bahaybat Abbas Ulug'bekka mash'ala qarshisidan joy ko'rsatdi. Ulug'bek yuzini qibлага qaratib: — Yo Olloh! Adolatni o'zing o'rnatgaysen, — deb iltijo qildi.

Buning hammasini ochiq eshik orqali kuzatib turgan Hoji Muhammad mash'ala yorug'ida yaltiragan qilich Ulug'bekning bo'yniga kelib zarb bilan urilganini ko'rdi-yu, dahshatli manzaraga bardosh berolmay, ichkariga qochib kirib ketdi...

O'sha kecha marhumning jasadini kesik boshi bilan birga archadan qilingan mustahkam tobutga soldilar. Tobutni hech kim ocholmaydigan qilib bekitdilar. Tong qorong'usida Hoji Muhammad Xusravga janoga o'qitib, marhumni imi-jimida Amir Temur maqbarasiga dafn etdilar. Keyin Abdullatif nomidan mahalla-ko'yga xudoyi osh berishib, «Hazratning otalari haj yo'lida xastalanib, vafot etdilar», degan rasmiy xabar tarqatdilar.

QONLI QILICH VA HAQ SO'Z

Hirot bog'larida gilos va olchalar oppoq bo'lib gullagan. Bog' oralab o'tgan Gavharshod begin esa o'g'li Ulug'bekka aza tutib, qora libos kiygan.

Bugun chorshanba. Gavharshod begin ertalabdan o'z nomidagi olti minorali ulkan madrasaga kelib, tolibi ilm va mudarislarni qabul qilmoqda.

Qabulxona eshigida beginning Turkanshoh degan sodiq navkari soqchili qilib turibdi. Madrasa ma'muriyatini boshqaradigan mutavalli tashqi eshikdan simobi sulla o'ragan, moshguruch soqolli barvasta kishini boshlab kirdi. Qabulxonada o'ltirgan keksa kanizakka:

— Bu janobni hazrat begin yaxshi biladilar, huzurlariga boshlab kiring, — deb topshiriq berdi.

Yuziga oq harir parda tutgan kanizak barvasta kishini Gavharshod begin huzuriga olib kirdi.

Begin bu odamni yuz-ko'zidan va ta'zim qilib salom ber-ganda ovozidan tanidi-yu, birdan ko'ngli buzildi:

— Bobo Husayn! O'g'lim Ulug'bekning sodiq amiri! — deb yig'lab so'rashdi. — Bu ne ko'rgilik?! Shunday ulug' siy-modan nechun judo bo'ldik?!

Bobo Husaynning ko‘zлari ham namlandi:

- Zolimlar boshimizga shu musibatni soldi... Taqdir ekan...
- Qaysi zolimlar? «Mirzo Ulug‘bek haj yo‘lida xastalanib vafot etdi», degan rasmiy xabar oldik. Shu rostmi?

Bobo Husayn orqasiga qarab, eshik yopiq ekaniga ishongach, past tovush bilan:

— Bu axborot g‘irt yolg‘on, hazrat begin! — dedi.

Gavharshod begin necha kunlardan beri dilini o‘rtab yurgan mavhum savollarga hozir javob olishi mumkinligini sezdi. Hayajondan nafasi titrab, Bobo Husaynni ichkari xonaga taklif etdi. Sakkiz oyoqli miz atrofida baxmal qoplangan kursilardan biriga o‘zi o‘ltirdi-yu, qarshisiga Bobo Husaynni taklif qildi. Ko‘z yoshlarini ko‘k ipak ro‘molcha bilan apil-tapil artdi. — So‘zlang, bolam! Siz menga farzanddek azizsiz... Aqlga sig‘dirib bo‘lmaydigan bu fojia qayoqdan keldi?

— Qilichidan qon tomgan zolim beklarning bu galgi is-yoni Mirzo Abdullatifning hovliqma fe’li-yu telbaliklaridan kuch olib, ulkan bir yong‘inga aylanib ketdi, hazrat begin! Bu yong‘in Balxdan, Amudaryo bo‘ylaridan boshlangani ma‘lumingizdir. Biz hazrat Ulug‘bek boshchiligidagi ularning yo‘llarini to‘sib, ikki oygacha isyonchilarni daryodan Samarqand tomonga o‘tgani qo‘ymadik. Bizning qo‘shinlar orasida yigirma olti yoshli temuriyzoda Sulton Abusayid ham bor edi. Shu odam ota bilan o‘g‘ilni urushtirib qo‘yib, Samarqand taxtini o‘zi egallash fikrida yurgan ekan. Bir kun kechasi Abusayid besh ming qo‘shin bilan bizning qarorgohdan yashirinchcha chiqib, Samarqandga yo‘l olibdi. Poytaxtga tajovuz qilib, uni bosib olish harakatiga tushibdir. Hazratim bu tashvishli xabarni eshitgandan so‘ng, qo‘shining ozroq qismini daryo bo‘yiga qorovul qilib qoldirdilar-da, asosiy kuchlarni shitob bilan Samarqand himoyasiga boshlab bordilar. Abusayid Mirzo bizning qo‘shinga bas kelolmay, Buxoro tomonga qochdi. Ammo bu orada Abdullatif qo‘shini Amudaryodan o‘tib, biz qoldirgan qorovulni tor-mor qilibdi-yu, otlarini yeldirib, Kesh shahriga yetib kelibdir.

— Sulton Abusayid Ulug‘bekka xiyonat qilib, Abdullatifga ko‘mak beribdi-da!

— Ayni shunday!.. Ammo Sulton Abusayidning yomonligi keyinchalik o‘ziga qaytdi. Abdullatif uning Samarqand taxtiga da‘vogar ekanini sezib, darhol hibs qildirdi. Abusayid hozir Buxoroda, zindonda yotibdi! Abdullatifga ham qasos qaytadigan kun kelgay, hazrat begin!

— Lekin endi o‘g‘lim Ulug‘bek qaytib kelmagay! Nahotki uni qasddan o‘ldirgan bo‘lsalar, janob Husaynbek?

— Ne til bilan aytay, begin! Umrlarining so‘nggi kunigacha birga bo‘lishga intildim. Hazratimning hayotini saqlab qolish uchun o‘z jonimni qurbon qilishga ham tayyor edim. Lekin Shohruxiyadan Samarqandga bosh egib borgan kuminiz hazratimni Abdullatif yuborgan bek-u navkarlar o‘rab oldi-yu, Ko‘ksaroya boshlab ketdi. Keyin surishtirib bilsam, Abdullatif o‘zining odamlaridan Hoji Muhammad Xusrav degan bir ulamoni Ulug‘bek Mirzoga qo‘shib, haj safariga jo‘natgan ekan. Bu odamni men yaxshi tanir edim. Bir kun Samarqand bilan Kesh oralig‘idagi Taxti Qoracha dovonida uni uchratib qoldim. Hazrati Bashir mozorini ziyyorat qilgani ketayotgan ekan.

— Qochib yuribmen, men bilgan sirlarni boshqa hech kim bilmaydi, bilganlarning ko‘pini o‘ldirib yuborishdi, — deydi. — Ulug‘bek hazratlarining o‘lim oldidan aytgan gaplari bor, zimmamda qiyomatlik qarz bo‘lib turibdir, deydi. Oxirgi da-qiqalarda on hazrat siz bilan meni eslabdilar, hazrat begin! Shuning uchun Hoji Muhammad Xusrav bizni xoli bir joyda uchratib, butun voqeani so‘zlab bermoqchi bo‘lib yurgan ekan.

— Oh, janob Husaynbek, uni ham Hirotg‘a birga olib kel-sangiz bo‘lardi-ku!

— Chegarada ilikka tushib qolishdan qo‘rqdi. «Keyinroq zamon tinchiganda borurmen», dedi. Lekin dovon ustida xilvat bir joyda o‘ltirib, menga fojianing butun tafsilotlarini so‘zlab berdi.

Bobo Husaynbek hozir Hirotda o‘ltirib, Hoji Muhammad Xusravdan eshitganlarini o‘zi ko‘rgan-bilgan voqealar bilan to‘ldirib, birma-bir aytib berar ekan, Gavharshod beginning ko‘zi oldida o‘g‘li Ulug‘bekning oxirgi kunlari, so‘nggi da-qiqalari fojaviy tafsilotlarga to‘lib gavdalandi.

— E, voh, shahid ketgan o‘g‘lim Tarag‘ayjon! — deb yum-yum yig‘ladi. — Ketish navbatni meniki edi-ku! «O‘g‘lim izimda

qolsin!» deb, joynamoz ustida o'ltirib Parvardigordan iltijolar qilgan emasmidim?! Yoshim yetmishdan oshganda yana farzand dog'ida kuyib-yonish peshonamda bor ekan-da, janob Husaynbek!

— Biz ham valine'matimiz dog'ida kuyib-yonib yuribmiz, hazrat begin! Men sizning dil yaralaringizni yangilagan bo'l-sam, o'tinib uzr so'raymen! Lekin ul zoti oliyning so'nggi xohish-irodalarini sizga yetkazish mening burchim edi.

Gavharshod begin ko'z yosollarini ro'molchasi bilan artib, ovozi bo'g'ilib gapirdi:

— Sadoqatingiz uchun sizga ming rahmat! O'g'limni bag'rimga bosib vidolashish menga nasib qilmadi. Endi Samarqandga borib, qabrini quchoqlab o'lsam ham rozi bo'lurmen!

— Hozir Samarqandlar juda notinch, begin. Abdullatifning sizga adovati cheksiz... zamon tinchimasdan borsangiz sizga ham qasd qilishlari aniq.

— Hirot tojdori Abulqosim Bobur ham shunday dedilar. Bu nevaram xiyla insofli, menga g'amxo'r. Hozir emin-erkin yuribmen. Lekin Samarqandga boradigan yo'llarimga Abdullatif chindan g'ov bo'lib turibdir. Bu g'ovni olib tashlashning hech bir iloji yo'qmi, janob Husaynbek?

Bobo Husayn ovozini pasaytirib:

— Xudo xohlasa, iloji topilgay, — dedi. — Ulug'bek hazratlari so'nggi so'zlarida «qonli qilichlarni haqiqat sindirgay» deb bashorat qilibdirlar. Biz bu bashoratni ro'yobga chiqarish harakatidamiz. Zolimlar haqiqatni yashirishga qanchalik tirishmasin, el-ulus Abdullatifning padarkushlik qilganidan voqif bo'lmoqda. Odamlarning unga nafrati kun sayin ortib borur. O'zi ham buni sezsa kerak, juma namoziga kelishdan ham qo'rqib qolgan. O'z xalqidan bu darajada qo'rqedigan podshohni umrimda birinchi ko'rishim. Obodonchilik yo'q. Qurilishlar to'xtatilgan. Madrasa-yu rasadxonalar berk. Olim-u fozil kishilar ta'qib ostida. Hatto Abdullatifning atrofida yurganlar uning yovuz fe'lidan qanday jon saqlashni bilmaydilar. Balx-u Badaxshondan borgan amirlar baland lavozimlarni egallab olib, poraxo'rlikni avjiga chiqargan. Barcha amaldorlik o'rirlari tillaga sotilmoqda. Kim ko'proq tilla bersa, eng yog'liq joy o'shaniki. Buni biladigan saroy mulozimlari haqiqatni Abdullatifga aytishdan qo'rqedilar,

Ibrohimshoh Badaxshiy deganlari tepada o‘ltirib olib, rost gapni aytganlarning payini qirqmoqda. Mamlakatda ahvol kun sayin yomonlashayotganidan iztirobga tushgan ba’zi insofli saroy mu-lozimlari biz bilan yashiriqcha hamkorlik qilurlar. Men o‘shalardan eshitdim. Noxush hodisalar to‘g‘risida rost gapni aytgan odam Abdullatifdan baloga qolarmish. «Sen o‘zing aybdorsen, nechun vaqtida chora ko‘rmading?!» deb, haqiqat-ni aytgan odamga jazo berarmish. Lekin unga shirin yolg‘onlarni aytib, «Sizning dono podshohlik qilayotganingiz tusayli hamma ish a’lo!» deganlarning oshig‘i olchi emish. Har kuni may bazmi qilarmish. Tunlari go‘zal qizlar bilan aysh-u ishrat... Bu ketishda padarkush mamlakatni butunlay xarobaga aylantirgay. O‘zi ham og‘riq tishga o‘xshab liqillab turibdir. Bir zarb bilan uni sug‘urib olib tashlash — vijdoni bor turonliklarning eng zo‘r maqsadi bo‘lib qoldi. Siz bizning Mahdi Ulyo — avliyo onamizsiz. Oq fotihangizni olaylik deb huzuringizga keldim.

— Jonim bilan sizdek mard o‘g‘lonlarni duo qilurmen. Faqat... bolamning bolasini har qancha yomon bo‘lsa ham... qatl etishga bosh qo‘sholmagaymen.

— Balki hibs qilgaymiz. Vaziyatga qaragaymiz hazrat begin. Tarafdarlarimiz ko‘p. Ochiqchasiga isyon ko‘tarmog‘imiz ham mumkin.

— Isyondan xudo saqlasin, Husaynbek! Abdullatifning qili-chidan qon tomgan bek-u navkarlari ko‘p ekan. Ming-ming odam har ikki tomondan behuda halok bo‘lg‘ay.

— Ha, isyonning oqibati yomon bo‘lg‘ay. Undan ko‘ra Abdullatifning o‘zini bartaraf etmoqchimiz.

— Uni o‘rtadan ko‘tarsalingiz, o‘rniga kimni taxtga chiqarmoqchisizlar?

— Hazrat begin, bu ishda ham sizdan maslahat so‘ramoqchimiz. Biz Abdulla Mirzoga moyilmiz... O‘zi hozir hibsda. Bizning niyatimizdan bexabar.

— Abdulla Mirzoning ko‘ziga mil tortib, ko‘r qilibdirlar deb eshitdik. Rostmi?

— Abdullatif shunday buyruq bergen ekan. Biz saroydag‘i maxfiy odamlarimiz orqali buni bilib qoldik. Habiba Sulton

begin otalaridan meros olgan qimmatbaho narsalarini sottirdilar. Yuz ming tillani jallodlarga, hibsxona boshlig‘iga yashiriqcha berdik. Hammasi poraxo‘r, tilloga sotilurlar. «Abdulla Mirzoni ko‘r qildik» deb, Abdullatifga yolg‘on axborot berishibdir. Aslida, ko‘zlarini sog‘, faqat Abdullatifning odamlari kelib qolsa ko‘zini bog‘lab, o‘zini ko‘r qilib ko‘rsatar ekanlar.

— Xayriyat!

— Biz bu yovuzlarni o‘z illatlari yordamida bartaraf qilmoq-chimiz. Men hozir Hirota podshoh karvonini qo‘riqlab keldim, hazrat begin. Abdullatifning qo‘riqchilari safiga xizmatga kirdim. Tun-u kun tinim yo‘q. Abdullatifning Qanoatshoh degan badaxshonlik qo‘rchiposhisi bor ekan. U ham porani yaxshi ko‘rarkan. Har oyda ming tilladan berib, u bilan inoq bo‘lib qoldim. Sir olish uchun kerak-da.

— Ha, g‘animning ichida bo‘lgan odam bilib ish qiladir. Abdulla Mirzoga katta yaxshiliklar qilibsiz, janob Husaynbek. Sizga ming rahmat! Agar uni taxtga chiqarsalaringiz, Ulug‘bek Mirzoning ruhi ham shod bo‘lg‘ay. Oxirgi paytda Ulug‘bek Abdulla Mirzoni valiahd qilmoqchi bo‘lgan ekan. Menga buni Habiba Sulton begin maktubida yozib yuborgan edi.

Gavharshod begin suykli o‘g‘lining o‘lim oldidan o‘zini qanday mardona tutganini yana bir ko‘z oldiga keltirdi-yu, yum-yum yig‘lab gapirdi:

— Oh, men ham shunday o‘g‘ilning qadriga yetmagan ekanmen-a! Tarnob jangidan keyin Mashhad yo‘lida ketayot-ganimizda siz Ulug‘bekdan chopar bo‘lib kelgan edingiz, janob Husaynbek! O‘sanda men ham uzoqni o‘ylamay, rad javobi bergen ekanmen! Nuqlu nevaralar g‘amini yeguncha Ulug‘bekdek dahoning yonida bo‘lganim yaxshi emasmidi?! Axir u podshoh edi-ku. Sizdek amirlari bor edi, meni Abdullatifning tajovuzlaridan himoya qilishga kuchi yet-masmidi? Mushkul vaziyatlarda men uning yonida bo‘lsam, foydam tegar edi-ku! Axir Shohrux Mirzoday ulug‘ podshoh og‘ir damlarda mendan ozgina bo‘lsa ham madad olar edilar-ku. Ana shunday madadni Ulug‘bek Mirzoga bersam, balki bunday fojialar sodir bo‘lmasmidi?! Axir men yoshimni yashagan edim, yetmishdan oshgan edim, qolgan umrimni

Ulug‘bekday o‘g‘limga bag‘ishlasam arzimasmidt?! Ichim to‘la armon, janob Husaynbek! O‘zimdan ham o‘tdi, ming pushay-monmen!

— Hazrat begin, bu hammasi taqdirda bor ekan. Bandalari chidashga majbur ekan! Xudo sizga quvvat bersin, bizga najot bersin! Ulug‘bek hazratlari umrining eng so‘nggi damlalida Ollohdan adolat so‘ragan ekanlar...

— Endi siz bilan bizga Ulug‘bek Mirzo iltijo qilgan o‘sha adolat nasib etsin! — Gavharshod begin ko‘zda yosh bilan fotihaga qo‘l ochdi: — Ollohu taolo, har kuni besh vaqt namozlarimda sendan mag‘firat so‘rayman, bilib-bilmay qilgan gunohlarimni afv etgaysen! Adolat yo‘lida fidoyilik qilayotgan Bobo Husayn Turkistoniy kabi mard o‘g‘lonlarga o‘zing kushoyishi kor bergaysen! Nevaram Abdulla Mirzoga o‘zingdan najot tilaymen! Iloyo haq joyida qaror topsin! Yaratganning o‘zi bizni yaxshi niyatlarimizga yetkazsin. Omin!

— Omin, Ollohu akbar! — deb Bobo Husayn ham yuziga fotiha tortdi.

RUHIY QIYNOQLAR

Savr oyining momaqaldoiroqli yomg‘irlaridan keyin Samarqand atrofidagi bog‘lar yam-yashil bo‘lib yashnab turibdi. Olma va behilar gulini to‘kkandan so‘ng anor va jiydalar endi gulga kirgan.

Amir Temur davridan meros qolgan bog‘larning eng ulkan ni va obodi Bog‘i Dilkusho edi. Abdullatif taxtga o‘ltirgandan so‘ng Ulug‘bek Mirzoning qizlari va haramini Urgut yo‘lidagi ko‘rimsizroq Bog‘i Zog‘onga ko‘chirtirib yubordi. Bog‘i Dilku-shadagi uch oshiyonlik muhtasham qasr qaytadan jihozlanib, unga Abdullatifning onasi Husn Nigor xonim joylashtirildi.

Bog‘i Dilkushoning to‘rt tomonida to‘rtta chiroyli ko‘shklar bor edi. Abdullatif ularga o‘zining to‘rt xotinini ko‘chirtirib keldi.

U juda erta uylangan edi. Bu xotinlardan tug‘ilgan besh o‘g‘ilning to‘ng‘ichi Abdurazzoq Mirzo o‘n yoshda, Jo‘giy va Ahmad Mirzolar to‘qqiz yoshli, Qaydu Mirzo yettiga kirdi, Boqiy Mirzo ham yil sayin bo‘yiga tortib boryapti. Abdullatif

yigirma sakkiz yoshdayoq besh o‘g‘ilning otasi bo‘lgani uning tole yulduzi naqadar porloq ekanidan dalolat berayotgandek tuyuladi.

Bu tole yulduzi el-yurtning ko‘ziga yaqqolroq tashlanishi uchun Abdullatif hamal oyida Samarcandda katta o‘g‘il to‘yi o‘tkazdi, barcha mahallalarga osh berdi. Cho‘ponota tepaliklari ortida uch kun ertadan kechgacha sayil va ko‘pkari bo‘ldi.

Uloqni marraga eltib tashlaganlarga ot va tuyadan tortib, ipak gilamlargacha o‘nlab qimmatbaho sovrinlar berildi.

Ayni vaqtida, podshoning o‘g‘il to‘yiga barcha viloyat va tumanlardan, xususan, Samarcandning o‘zidan shuncha ko‘p sovg‘a va to‘yonalar keldiki, Abdullatif to‘yga qilgan xarajatini o‘n barobar ortig‘i bilan chiqarib oldi.

Ammo chekka-chekkada yurgan ba‘zi ulamo va mudarrislar: «Otasining yil oshini bermasdan burun o‘g‘illariga dabdabali to‘y qildi, padarkushligini shu bilan yana bir ko‘rsatib qo‘ydi!» deb, Abdullatifdan nafratlanib gapirishardi.

Bu gaplar uzunquloq xufiyalar orqali Abdullatifga yetib borganda uning g‘azabi qaynab ketdi:

— Kimlar bu nonko‘rlar?! Men to‘y qilib, elga osh be-rib, yana malomatga qolaymi?! Tuttiring hammasini! Hibs qildiring!

Devonbegi Kamoliddin o‘zi yomon ko‘rgan olim-u fozillardan yana besh-olti kishini qamoqqa tashladi. Ularning orasida Ulug‘bek Mirzoning sevimli shogirdi Ali Qushchi ham bor edi.

Lekin Abdullatif va Kamoliddin Balxiy ilm-u ijod ahlini qatag‘on qilganlari sari el-yurt orasida norozilik kuchayib borar, «otasini o‘ldirtirgan padarkush xudoning g‘azabiga uchrasin!» degan qarg‘ishlar Ulug‘bek Mirzo qabrini ziyyarat qilishga kelganlar orasida ham quloqqa chalinardi.

Bugun azonda ayollar odatiga binoan oftob chiqmasdan oldin Amir Temur maqbarasiga ziyyaratga kelgan Husn Nigor xonim bu qarg‘ishni nuroniylar bir ayolning og‘zidan eshitdi-yu, hang-mang bo‘lib so‘radi:

— Xolamullo, kim u padarkush?!

Husn Nigor xonim Abdullatifning onasi ekanini sezib qolgan kayvonini:

— Bilmaymen, ko‘chada odamlardan eshitdim, — dedi-yu, xonimni qo‘riqlab yurgan soqchilardan hayiqib, o‘zini ziyyoratga kelgan xaloyiqning orasiga urdi va ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Husn Nigor xonim hazrati Amir Temur va Shohrux Mirzolar arvohiga atab tilovatlar qilgandan so‘ng, ularning yoniga qo‘yilgan Ulug‘bek Mirzo qabrining oyoq tomoniga tiz cho‘kib, ko‘ziga yosh oldi.

Xonim odamlarning «padarkush» degan so‘zlariga ishonmasa ham, lekin u tuqqan o‘g‘il otasiga qarshi qilich yalang‘ochlab, jang maydonida uni yenggani va otani majburan hajga jo‘natgani uchun ona o‘zini allanechuk gunohkor sezardi.

Balki bu shafqatsizlik va haddan ziyod taxtparastlik Abdullatifga ona suti orqali o‘tgandir? Axir xonimning otasi Xalil Sulton xuddi shu yoshda bobosining vasiyatiga qarshi borib, Samarqand taxtini zo‘ravonlik bilan egallamaganmidi?! Keyin Xalil Sulton o‘zini tarbiyalab o‘stirgan va suyukli xotini Shodimulk beginni naqd o‘limdan qutqarib qolgan Bibixonimning Bobo Turmush tomonidan zaharlab o‘Idirilishiga sabab bo‘lmaganmidi?! Ulug‘bek Mirzo bu voqealarni Husn Nigor xonimga aytib berganda: «Ehtiyot bo‘ling, o‘g‘limiz Abdullatif bobosi Xalil Sultonga hech ham o‘xshamasin!» demaganmidi?!

Lekin irsiyat orqali kelgan va sut bilan o‘tgan illat qarshisida Husn Nigor xonim nima qila oladi?

Ulug‘bek Mirzoday unutilmas siymo bilan birga o‘tkazgan mas‘ud damlarini eslaganda uning ko‘zlariga yosh quyulib keldi. Qabrning sovuq marmariga yuzini qo‘yib shivirladi: «Barcha gunohlarim uchun afu so‘raymen, Parvardigor meni farzand dog‘idan asrasin!» deb ko‘zda yosh bilan iltijo qildi.

Abdullatif Bog‘i Dilkushodagi barcha ayollar, bolalar, xizmatkorlar va tarbiyachilarga onasini bosh nazoratchi qilib qo‘ygan edi. O‘zi bu boqqa besh-to‘rt kunda bir kelar va eng avval onasi turadigan uch oshiyonlik qasrga kirar edi. Har safar podshohning kelishiga quyuq ziyyofat tayyorlanar, o‘g‘illar bayramona kiyintirilardi. Abdullatif o‘g‘illarining oltin kamar bog‘lab, qurol taqib yurishini yaxshi ko‘rardi.

Mana bugun kechki payt katta qasrning qabulxonasiiga Abdurazzoq Mirzo bo‘yi bastiga moslab yasalgan oltin sopli qilich taqib kelib, otasiga ta’zim bajo keltirdi. Undan keyin kirgan Ahmad, Jo‘giy va Qaydu Mirzolarning belidagi xanjar qiniga zumrad va yoqut toshlar qadalgan edi. Abdullatif o‘g‘illarini suyib erkalatar ekan:

— Qilichni ham o‘ng, ham chap ilik bilan chopishga o‘rganinglar, — deb buyurdi. — Har ikki ilik bilan xanjar urishni ham bolalikdan o‘rganmoq zarur.

— Podshoh o‘g‘lim, bular o‘qish-yozishni ham yaxshiroq eplashsin! — dedi Husn Nigor xonim. — Axir siz shu yoshlarda ilm-u ijodga ham qiziqar edingiz-ku. She‘r ham yozar edingiz.

— Albatta, kitob o‘qishsin! Ammo muallimlari bularni kitob-daftarga qiziqtirishsin! Siz ham, hazrat momosi, bularning yaxshi o‘qishini nazorat qiling.

Abdullatif o‘g‘illariga to‘y paytida tushgan eng nodir sovg‘alardan berib, hammasini xursand qilib jo‘nattdi.

Husn Nigor xonim o‘g‘li bilan yolg‘iz qolganda:

— Shoh o‘g‘lim, men marhum otangizning qabrini ziyorat qilgani borgan edim, — dedi. — Qabr yonida yomon bir so‘z eshitdim. Sizga aytay desam tilim kuyadir, aytmay desam dilim.

— Qanday so‘z ekan? Qani, men ham eshitay...

— Go‘yo siz otangizni o‘ldirgan padarkush emishsiz...

Bu so‘zlardan Abdullatifning rangi quv o‘chdi. Uni birdan qaltiroq bosdi:

— Yolg‘on! Tuhmat! Kim aytdi?! Nechun tuttirmadingiz?!

— Bir keksa ayol... Men uni tuttirganim bilan... boshqa yana qanchasi bor. Shoh o‘g‘lim, el og‘ziga elak tutib bo‘lmagay! Nahotki siz?!

— Yo‘q, yo‘q! A’lam boshliq qozilar fatvo bergen... Abbas Sulduz otasining qasdiga otamni o‘ldirgan ekan... Men buni keyin bildim!..

— Keyin?.. Axir otangizni hajga siz jo‘natgan emasmidin-giz? Nechun bu qotillikka yo‘l berdingiz?!

— Meni avrashdi. Vahima qilishdi. «Otangiz tirik bo‘lsa, sizni xalq podsho o‘rnida ko‘rmagay», deyishdi.

— Kim shunday dedi? Kim?!

— Amir Ibrohimshoh... Keyin o'zi butun aybni menga to'nkabdir! Bir ichkilik bazmida mast bo'lib maqtanibdir. «Biz podshohni ko'ndirdik, bo'lmasa otasini o'ldirishga kim jur'at etardi?» debdi. Buni eshitgan Eson Buqo bilan Tavakkal Barlos hammasini menga kelib aytdi. Ablah Ibrohimshoh: «Siz betaraf turgaysiz, butun ayb Abbasga tushgay», deb meni ishontirgan edi. Endi butun aybni menga to'nkabdir... Meni padarkushlikda ayblabdi! Shu ablaligi uchun Amir Ibrohimshohni hibs qildir-dim! Mol-mulki musodara bo'ldi!

— Aytig'an gap — otilgan o'q, qaytib kelmaydir! Axir otangiz taxtni o'z ixtiyorlari bilan sizga topshirib, mardlik qil-gan edilar-ku?! Bunga javoban uning joniga qasd qilish... Qanday dahshat!

Birdan Abdullatifning lablari ko'karib ketdi, peshonasini sovuq ter bosdi. Ko'zları ola-kula bo'lib, badani qaltirab gapirdi:

— Men... otamning qasdini oldim!.. Abbasning qo'lini orqasi-ga bog'latib, tiz cho'ktirdim... Oyog'imga bosh urib, afu so'radi. Lekin kechirmadim! Men qilichimni sug'urdim! «Sen mening otamni qanday o'ldirgan bo'lsang, o'zing ham shunday o'lgaysen!» dedim. Qilichning bir zarbi bilan boshini kesib tashladim!

Husn Nigor xonimni ham titroq bosdi:

— Yo alhazar! Siz... mening o'g'lim... bosh kesdingiz?! O'z ilkingiz bilan odam o'ldirdingiz?!

— Men otamning kushandasidan qasd olib, bir alamdan chiqdim! O'g'lingiz janglarda qilich chopib, yog'iylarni o'ldir-ganini bilmasmidингiz?!

Abdullatif hozir shu turishda Husn Nigor xonimga marhum otasi Xalil Sultonni eslatdi. Ikki qo'llab qilich chopadigan Xalil Sulton ham janglarda juda ko'p odamlarning boshini kesgan va bu ishi bilan faxrlanib yurar edi. Husn Nigor xonimning dilida o'g'liga nisbatan sovuq bir tuyg'u — nafratmi, qo'rquvmi pay-do bo'ldi.

— Menga bu gaplarni aytmang, bolam! Siz gapirmang, men eshitmay! Qo'rqiб jinni bo'lamen!

— Onamga dil yorib gapirmasam dardimni kimga aytay? Kechalari uyqum o'chib ketadir. Qulog'imga arvochlarning chir-

qirashi eshitilganday bo‘ladir. Uxlasam tushimga otam kiradir... Ustida hojilarning oq ehromi. Menga o‘qrayib qaraydir, ammo gapirmaydir. Keyin oq ehrom o‘rniga kafan kiyib, ustimga bostirib keladir. Qo‘rqib uyg‘onib ketamen!

Husn Nigor xonim o‘g‘lining bu ruhiy qyinoqlardan qoni qochgan so‘lg‘in yuziga qaradi-yu, yana onalik tuyg‘usi ustun keldi:

— Xos hakimingiz bor edi-ku, bolam! Asabni tinchitadi-gan dorilardan bermadimi?

— E, dori-pori kor qilmaydir. Gulobga afyun qo‘sib ichadigan bo‘ldim. Bir necha soat qattiq uxmlaymen. Keyin shunday bo‘sashib, aqlim zaiflashganga o‘xshab bemador bo‘lib uyg‘onamen! Afyun ta’sirida odamning ko‘ziga har xil narsalar ko‘rinadigan bo‘lib qolarkan. Bir marta tong yorishganda uyg‘onsam, xobgohimga qora kiygan barvasta ayol kirib keldi. Tikilib qarasam, momom Gavharshod begin! Ko‘zlarini o‘qday tikib menga qaraganda, qo‘rqib qichqirib yuboribmen... Bilmadim, bu hodisa tushimda bo‘ldimi, o‘ngimdam?.. Kun bo‘yi jinnim chiqib yurdim. Hozir ham eslasam yuragim taka-puka bo‘ladir. Onajon, bu qyinoqlardan meni kim qutqargay?! Tushimga kesik kallalar kiradir. Bir marta tushimda o‘zimning boshimni ham ko‘rdim. Kimdir oltin barkashga kesilgan boshni solib, ustiga oq harir mato yopib ko‘tarib kirdi. Ochib qarasam, o‘zimning boshim!

— Voy-ey, endi men ham qo‘rqib, jinni bo‘lamen! Buni menga nega aytasiz, bolam?!

— Boshqa kimga aytay?! Agar mening ruhiy kasalim bo‘lsa, buning uchun faqat o‘zim aybdormi? Bobom Xalil Sultonning jununi bor der edilar. Bu junun otalari Mironshoh bilan onalari Xonzoda beginidan o‘tgan deyishardi. Eshitgan bo‘lsangiz kerak, Sohibqiron bobomizning katta o‘g‘illari Juhongir Mirzo vafot etganda, xotinlari Xonzoda beginning ikki o‘g‘li bor ekan. Yoshi Mironshoh Mirzodan katta ekan. Bu kelin ikki o‘g‘li bilan begona xonadonga ketmasin deb, Xonzoda beginni Mironshoh Mirzoga uchinchi xotin qilib nikohlab bergen ekanlar. Lekin Mironshoh Mirzo kelinoyisi bo‘lgan yoshi katta Xonzoda beginiga ko‘ngilsiz ekan. Momo-

lari Bibixonimning Xonzoda begimga rahmi kelarkan. Mironshoh Mirzoni uning xobgohiga bir oy-qirq kunda majbur qilib yuborar ekan. Mironshoh Mirzo ko'ngilsiz bo'lgani uchun Xonzoda beginning oldiga may ichib, kayf qilib borar ekan. Mana shu majburiy nikohdan bobomiz Xalil Sulton tug'ilgan ekanlar. Ehtimol, Xalil Sultonning jununiga shu ham sabab bo'lgandir? Axir bechora Xalil Sulton yigirma yetti yoshida kasal bo'lib, o'lib ketgan-ku!

Husn Nigor xonim o'zining ham ko'nglidan o'tgan bu gaplarni allanechuk karaxt ahvolda jim o'ltirib tingladi. «Yaqin qarindoshlar nikohidan ko'pincha nosog'lom bolalar tug'ilgay» degan so'zlar esiga tushdi. Gap mavzusini o'g'lining tushiga kiradigan vasvasalardan uzoqroq olib ketish uchun:

— Xo'p, shoh o'g'lim, siz shunday fikrga kelgan bo'lsangiz, o'g'illaringizni yaqin qarindoshlarga zinhor uylantirmagaymiz! — dedi.

— Bu-ku, siz-u bizga bog'liq. Ammo otam bilan momom... Nuqlu mening tushlarimga kirib, ko'zlarimga ko'rinish, aql-u hushimni boshimdan uchiradirlar. Buning ne chorasi bor?

— Chorasi — xudoyi qilish, tilovat... Tavba... Siz bilan men otangizning arvohi oldida gunohkormiz. Buni tan olib afu so'raylik, jon bolam!

Abdullatif yana birdan o'zgardi. G'azabdan rangi oqarib, titrab-qaltirab so'radi:

— A, ne dedingiz?! Tan olay?! Tavba qilay?! Siz ham meni padarkush demoqchimisiz?! Men — padarkush?!

Abdullatifning qontalash ko'zlari va tahdidli vajohati yirtqich yo'lbarsni eslatardi. Husn Nigor xonim o'g'lining g'azabidan qo'rqib, unga beixtiyor yon berdi.

— Siz emas! Yo'q! Siz emas!

— E, agar men buni tan olsam o'zimga o'lim chaqirganday bo'lurmen, hazrat ona! Axir Nizomiyni o'qimaganmisiz? «Padarkush olti oydan ortiq umr ko'rmagay», deb yozmaganmi Ganjaviy? Tarixda bu karomat necha bor isbot bo'lganini men bilurmen! Nahotki siz yolg'iz o'g'lingizning olti oyda halok bo'lishini tilaysiz?!

— Yo‘g‘-ey, xudo saqlasin! Men namozlarimda sizga uzoq umr tilaymen!

— Ha, men ham uzoq yashashni istaymen! Shuning uchun meni padarkush deganlarni yo‘q qilgaymen! Otamni o‘ldirgan Abbosdan qasd oldim! Meni avrab shu ishga aralashtirgan Amir Ibrohimshohni zindonda chiritgaymen! Kerak bo‘lsa boshqalarining ham jazosini berurmen! Siz, mening onam, bir narsaga qattiq ishoning! Men padarkush emasmen!

— Inondim, shoh o‘g‘lim! O‘zingizni bosing! Dushmaningiz ko‘p, ehtiyyot bo‘ling! Xudo sizni panohida asrasin!

Mushfiq ona o‘g‘lining gunohini go‘yo o‘ziga oldi. Abdullatif unga ichini bo‘shatib, xiyla yengil tortdi. Onasi bilan xayrlashib, yaqinda nikohiga olgan samarqandlik go‘zal yosh xotini joylashgan tillakori koshonaga qarab ketdi.

Bog‘i Dilkushoda tun qorong‘usi tushganda qasr va ko‘shklar tilla qandillar yorug‘idan charog‘on bo‘ldi. Abdullatif kirib ketgan koshonada sozandalar sho‘x kuylar chalayotgani eshitildi.

Ammo Husn Nigor xonim musibat to‘la bir dilsiyohlik ichida qoldi. O‘g‘lidagi ruhiy qiynoqlar endi onaga o‘tdi. Yolg‘iz o‘g‘lining tilla barkashga solingen kesik boshi onaning ko‘ziga ko‘rinib ketganday bo‘ldi. Abdullatifdan eshitgan qo‘rqinchli gaplar xayolidan ketmay turib qoldi.

Narigi koshonada sho‘x kuylar yangragan sari Husn Nigor xonimning dili tilka-pora bo‘layotganday azob tortardi.

Abdullatif onasi oldida o‘zini har qancha oqlamasin, Ulug‘bek Mirzoning o‘limiga bosh sababchi — o‘g‘li ekani bugun xonim uchun inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatga aylanadi.

Odamlar uni «padarkush» deb atashga haqli ekanliklarini Husn Nigor xonim tan olmay iloji qolmadi.

Ammo buni tan olish — yolg‘iz o‘g‘lining o‘limiga rozi bo‘lishdek dahshatli tuyulardi.

Bog‘ to‘rida esa hamon raqs kuylari yangrar, o‘zining tungi vasvasalarini onasiga tashlab kelgan Abdullatif Mirzo kayf-u safo qilib, ularni butunlay unutishga intilardi.

CHAQMOQDAY YALTILLAB SO'NGAN UMR

Ko'ksaroyning to'rtinchi oshiyonida eng qattiq qo'riq-lanadigan chetki xonada o'n to'qqiz yoshli Abdulla Mirzo olti oydan buyon qamoqda yotibdi.

Xonaning derazasi yo'q, faqat qo'l yetmas balandlikda tuynugi bor. Yaqinda shu tuynukdan turnalarning mayin quruv-quruvlari eshitilib qoldi. O'sha kuni kechasi tepada kuchli momaqaldiroq qasir-qusur qildi.

Abdulla Mirzo bahor kirganini ana shu tovushlardan payqadi.

Olti oydan beri bu begunoh yigitni ne ko'y larga solishmadi! Abdullatif uning taxtga da'vogar bo'lishi mumkinligini, bir vaqtlar Ulug'bek Mirzo bu yosh kuyovini valiahd qilmoqchi bo'lganini bahona qilib, Abdulla Mirzoni ham qatl ettirmoqchi edi.

Bundan xabar topgan Habiba Sulton akasidan shafoat so'rashga bordi. Abdullatif uni qabul qilmadi. Habiba Sulton vaziri a'zam Kamoliddin Balxiy huzuriga kirdi. Otasidan meros qolgan yirik gavharni vazirga sovg'a qilib, uni yumshatdi. Shundan so'ng vaziri a'zam oraga tushib, o'lim jazosini ko'ziga mil tortib ko'r qilish jazosiga almashtirdi.

Bu ham dard ustiga chipqon bo'ldi. Shunda Bobo Husayn yordamga keldi. Tilla va javohirlar qutqaruvchi kuch ekanini Habiba Sulton yana bir bor bildi. Ko'zga mil tortuvchi jallodni oltinga sotib olishib, Abdulla Mirzoni yolg'ondakam ko'r qilishdi.

Hibsxona nazoratchisiga ham bir hamyon tilla berishdi. Shundan so'ng bu nazoratchi orqali Abdulla Mirzoga sarxil yeguliklar, issiq kiyimlar, o'zi so'ragan boshqa narsalarni yashiriqcha yuborib turishdi. Bu narsalar orasida qog'oz va qalam ham bor edi.

Habiba Sulton umr yo'ldoshining ruhini ko'taradigan maktublar yozar, ularga Abdulla Mirzo muhabbat izhoriga to'Igan she'rlar bilan javob berardi.

Juda qattiq momaqaldiroq bo'lgan kuni tushga yaqin hibsxona eshigi oldida tapir-tupur qadam tovushlari ko'payib ketdi. Hibsxonaning po'lat qulfiga shoshilinch kalit solindi. Eshik

ochilganda Abdulla Mirzo Habiba Sultonning ovozini eshitganday bo‘ldi.

Qulqlariga ishonmay, eshik tomonga intildi. Kutilmaganda hibxonaga Habiba Sulton kirib keldi. Abdulla Mirzo uni bag‘riga bosar ekan:

— Tushimmi o‘ngim? — deb so‘radi.

— O‘ngingiz, jonim! — deb Habiba Sulton uning sarg‘ayib ketgan yuziga yuzini bosib, o‘sib ketgan sochlarini nozik barmoqlari bilan siladi.

— Oftob qayoqdan chiqdi, Habiba? — deb Abdulla Mirzo sog‘inch to‘la lablar bilan Habibaning ko‘zlaridan, qoshlaridan o‘pdi.

— Oftob Parvardigori olamning dargohidan chiqdi! Sizni hibs qilgan zolim akamiz narigi dunyoga ketdi!

— Rostmi? Qachon?.. Kim?

Eshik tashqarisida kimlardir odob saqlab taklif kutib turar edi.

— Ana, sizga najot keltirgan siymolar! — deb Habiba Sulton eshik tomonni ko‘rsatdi.

Abdulla Mirzo eshik oldiga borib, oq soqolli nuroni Xo‘ja Burhoniddin bilan Bobo Husayn Bahodirni ko‘rdi-yu, ular bilan quchoqlashib ketdi.

— Xayriyat-e! Xudo shu kunga yetkazganiga ming shukur!

— Chiqing endi bu kasofat hibxonadan yorug‘ dunyoga! — dedi Xo‘ja Burhoniddin va Abdulla Mirzoni Ko‘ksaroyning ikkinchi oshiyonidagi keng, muhtasham qabulxonaga boshlab tushdi. — Endi bu joylarning egasi siz bo‘lursiz!

— Ertak eshitayotibmenmi yoki chin? Abdullatif Mirzo ne bo‘ldi?

— O‘ldi! Bobo Husayn Bahodir otganadolat o‘qi uni yiqitdi. Bahodirning navkarlari padarkushning boshini kesib olib, Ulug‘bek madrasasining peshtoqiga osib qo‘ydilar! Toki odamlar ogoh bo‘lsinlar, padarkushga qanday jazo berilishini yetti pushtigacha unutmasinlar! Bunday gunohi azim yurtimizda hech vaqt takror bo‘lmasisin!

Abdulla Mirzo Bobo Husaynning qo‘lini olib, bahodirona ish qilgani bilan tabrikladи.

— Abdullatifning qo‘riqchilari ko‘p edi-ku! Ularning orasi dan qanday omon chiqdingiz? — deb so‘radi.

— Xudo o‘zi o‘ng keltirdi. Bog‘i Balanddan chiqaverishda katta sadaqayrag‘ochlarning ortida navkarim bilan panalab tur-gan edim. Abdullatif to‘rtta qo‘riqchisi bilan yaqin joydan o‘tib qoldi. Men orqadan otgan yoy o‘qi yuragiga borib qadal-gan ekan, otdan yiqilib oqjon beribdi. Qo‘riqchilari menga hamla qilar deb o‘yladim, navkarim ikkalamiz kamonga o‘q o‘matib, hujum qilishsa otgaymiz deb shaylandik. Yo‘q, qo‘riqchilar Abdullatifning jasadini tashlab, tiraqaylab qochib qoldi. Shun-dan sezdimki, qo‘riqchilari ham undan bezor bo‘lib, qutu-lishning yo‘lini o‘ylab yurgan ekanlar.

— Sizning shu jasoratingiz tufayli biz hibsdan ozod bo‘ldik. Bu najotkorligingizni umrbod unutmasmen, janob Bobo Husaynbek!

— Bir men emas, mana, shayxulislomimiz hazrat Xo‘ja Burhoniddin boshliq yuzlab adolatparvar odamlar maslahat-lashib shu ishni qildik.

— Endi najotkorlik navbatи sizga kelmoqda, amirzodam! — dedi Xo‘ja Burhoniddin. — Mamlakatni zolimlardan poklamoq uchun davlatni yaxshi odam boshqarmog‘i kerak. Rahmatli Ulug‘bek Mirzo sizni o‘zlariga valiahd qilish niyatları borligini menga aytgan edilar. Ul zoti oliyning shu niyatlarini biz vasiyat o‘rnida qabul qilurmiz.

— Tashakkur, hazratim. Ammo menga imkon bering... Sal o‘zimga kelay!

Abdulla Mirzoning ko‘pdan beri tarashlanmagan qop-qora soqol-mo‘ylovi o‘sib, lablarini bekitib qo‘yan, sochlari peshonasini va bo‘yinlarini qoplab yotardi.

Habiba Sulton yasovulboshi va saroy xizmatchilarini zo‘rg‘a topdi. Chunki Abdullatifning o‘ldirilgani haqidagi xabar bu-tun saroy ahlini vahimaga solib, qochirib yuborgan edi.

Ko‘ksaroydan Bo‘stonsaroyga o‘tdilar. Taxt turgan qabul-xona, vazirlar devonxonasi bo‘m-bo‘sh. Ilgarigi amaldorlar tumtaraqay bo‘lib qochib qolgan edi. Lekin Bo‘stonsaroyda yuvinadigan joy ham, ovqatxona va oshpaz ham, shohona kiyim-lar saqlanadigan bo‘lmalar ham hammasi bor edi.

Kechagina Abdullatifga xizmat qilgan va uning qo‘rqinchli fe‘lidan titrab-qaltirab yurgan oftobachi endi sartaroshni topib kelib, Abdulla Mirzoning soch-soqolini oldirdi, uning yuvinishiga va shohona toza kiyimlar kiyishiga yordamlashdi. Boshiga jig‘a qadalgan chiroyli zarrin salsa kiydirdi.

Bungacha oshxonada bedana kabob tayyorlandi. Abdulla Mirzo sevgilisi Habiba Sulton yozgan dasturxondan to‘yib ovqatlandi, uzum sharbatidan ichib, chanqog‘ini bosdi.

Bu orada Bobo Husayn va boshqa sodiq amirlar Xo‘ja Burhoniddin bilan birga shaharda osoyishtalikni saqlash va Abdulla Mirzoni taxtga chiqarish tayyorgarligini ko‘rdilar.

Jome masjidida imomlik qilgan Xo‘ja Burhoniddin Abdullatifning padarkush sifatida halokatga uchraganini va Ulug‘bek Mirzoning vasiyatiga binoan Abdulla Mirzo taxtga chiqqanini e’lon qildi.

Oradan bir kun o‘tgach, juma kuni Abdulla Mirzoning nomi xutbaga qo‘sib o‘qildi.

Yangi tojdar Bobo Husayn Bahodirni vaziri a’zam qilib tayin etdi. Ikkovi qo‘riqchi navkarlar va mulozimlar qurshovida Amir Temur maqbarasini va Shohi Zindani ziyyarat qildilar. So‘ng Ulug‘bek Mirzo madrasasiga yo‘l oldilar.

Madrasa peshtoqida kechadan buyon padarkushning boshi osilganicha odamlarga tomosha bo‘lib turar edi.

Oqliq Abdulla Mirzo madrasa hovlisida ko‘ringanda ichkariidan marhumning onasi yuzlarini yulib-qonatib, dod-faryod qilib chiqdi:

— Voy, men ona bo‘lmay o‘lay! Bolamning jasadini ko‘mgani qo‘ymaydilar-a! Tanasi boshqa joyda, boshi bu yerda! Bu qanday shafqatsizlik! Voy, ruxsat beringlar! Sho‘rlikni tuproqqa topshiray!

Motamzada onaga ko‘pchilikning rahmi keldi. Abdulla Mirzo marhumni shu bugunoq dafn etishga buyruq berdi.

Lekin Abdullatifni temuriylar xilxonasiga — otasining yoniga qo‘yishni mo‘ysafidlar ma’qul ko‘rmadi. Marhumni kechki payt chetroqdagi qabristonga olib borib, tuproqqa topshirdilar.

Nohaq hibs qilingan olim-u mudarrislar ham qamoqxonalaridan chiqarildi. Ularning orasida Abdulla Mirzoga ilmi nu-

jumdan saboq bergen Ali Qushchi ham bor edi. Abdulla Mirzo Ali Qushchini hibsxona oldida quchoq ochib kutib oldi, yaxshi bir otga mindirdi.

— Uyga borib dampingizni oling, mavlono, — dedi. — Keyin rasadxonani qayta ishga tushirish bo‘yicha neki taklifingiz bo‘lsa, birga ko‘rib chiqurmiz.

Qatag‘on kunlarida har qayoqqa tarqab ketgan mullabach-chalar ham madrasalarga qaytdilar. Samarqandda hayot astasekin Ulug‘bek davridagidek izga tusha boshlagan kunlarda Buxoro tomondan tashvishli xabar keldi.

Abdullatifning hukmi bilan Buxoro arkiga qamab qo‘yilgan Sulton Abusayid Samarqandda yuz bergen o‘zgarishlardan foydalanib, hibsdan bo‘sab chiqibdi. Buxoro ulamolarining peshvosi Xo‘ja Arquqiy Sulton Abusayidning Abdulla Mirzodan olti yosh katta ekanini va Shohrux Mirzoning akasi Mironshoh avlodiga mansubligini vaj qilib ko‘rsatibdi.

— Samarqand taxtiga Sulton Abusayid munosibroqdir! — degan fikrni ko‘pchilik orasida targ‘ib qila boshlabdi.

Bu targ‘ibot bultur Samarqandni Ulug‘bek Mirzodan tortib olishga uringan arg‘un urug‘iga mansub bek-u navkarlarni yana Sulton Abusayid atrofiga to‘playdi. Xo‘ja Arquqiyning ko‘pchilik muridlari ham Abusayid Mirzo tomoniga o‘tadi.

Bu xabarlar ishonchli odamlar orqali Samarqandga yetib kelgandan so‘ng, Abdulla Mirzo ham shoshilinch ravishda qo‘sish to‘plashga kirishdi.

Sulton Abusayid Buxorodan ikki ming askar bilan yo‘lga chiqib, Samarqandga tahdid solib kela boshladi.

Saraton oyi kirgan, kunlar issiq. Abdulla Mirzo o‘z qo‘shinini Zarafshondan ajralib chiqqan Oqdaryo va Qoradaryo oralig‘idagi salqinroq yo‘llardan boshlab bordi.

Sulton Abusayid qo‘schinining asosiy qismi yaydoq cho‘llarda ot choptirib o‘rgangan ko‘chmanchi arg‘unlar edi. Miyonqol deb ataladigan ikki daryo oralig‘idagi dov-daraxtlar va sholizorlar ularning harakatini qiyinlashtirib qo‘ydi. Sug‘oriladigan yerlarga ot qo‘yib kirgan arg‘unlarning ancha-munchasi suv to‘ldirilgan sholizorlarda balchiqqa botib yurolmay qoldi va Abdulla Mirzo navkarlarining o‘qlariga nishon bo‘ldi. Yov

qo'shinlari polizlarni toptab, boshoqlari sarg'ayib yetilgan bug'doyzorlarni payhon qildi, bog'lardagi mevali daraxtlarni sindirib ketdi. Bu hammasi Miyonqol aholisining g'azabini keltirdi.

Ochiq maydonda Abdulla Mirzo qo'shini Abusayid askarlari bilan yuzma-yuz turib qattiq jang qilayotgan paytda, minglab Miyonqol yigitlari orqadan arg'unlarga kuchli zARBalar berdilar.

Ikki o't orasida qolgan Sulton Abusayid jangni boy berib, Dabusiya qal'asiga qarab chekindi. Ammo bu qal'adagilar uni darvozadan ichkariga kirgizmay haydadilar. Buxoro qal'asidagilar ham qamalda qolish ehtimolidan cho'chib, Abusayidga darvoza ochmadilar.

Abdulla Mirzoning quvg'inchilari Abusayidni ta'qib etib kelmoqda edi. Sulton Abusayid o'ng yonida ot choptirib keelayotgan Xo'ja Arquqiyning maslahati bilan jilovni Turkiston tomonga burdilar. Biroq Bobo Husayn boshliq quvg'inchilar uning izidan Turkistonga ham yetib bordilar. Shundan keyin Sulton Abusayid Dashti Qipchoqdagi Abulxayrxonga qarashli yerlarga qochib o'tib, zo'rg'a jon saqladi.

Abdulla Mirzo nomiga bitilgan g'alaba fathnomasi mammakatning barcha viloyatlariga tarqatildi va maxsus chopar bilan Hirotga ham yuborildi.

Gavharshod begin Abdulla Mirzoning taxtga chiqqanini eshitgandan buyon:

— Mening Samarqandga boradigan yo'llarim endi ochilibdir! — deb safarga tayyorlanmoqda edi. Shuning ustiga suyukli nevarasining Abusayid bilan jang qilib g'olib chiqqani haqidagi xushxabar ham keldi-yu, begin quvonganidan qanot chiqarib uchgudek bo'ldi.

Asad oyi kirib, issiqning tafti sal pasaygandan so'ng Hirot tojdori Abulqosim Bobur momosini uzoq safarga kuzatib qo'ydi. Keksa begin yo'llarda ko'p ozor chekmasligi uchun ipak pardalar utilgan shohona mahofa uning ixtiyoriga berildi. Mahofada toliqqanda baquvvat yigitlar beginni yumshoq taxtiravonda ko'tarib boradigan bo'lishdi.

Zamon hali uncha tinchigan emas. Abdullatifning o'limidan keyin quvg'inga uchragan Balx va Badaxshon sipohilari Sa-

marqanddan o‘z yurtlariga alamzada bo‘lib qaytib ketayotganda talonchilik qilayotgani haqida tashvishli xabarlar bor edi.

Shuning uchun Abulqosim Bobur momosining xavfsizligini ta’minlab borishni Nizomiddin Ahmad Tarxon boshchiligidagi besh yuz kishilik qo‘riqchi askarlarga topshirdi.

Hirotdan momosi kelayotganini eshitgan Abdulla Mirzo Habiba Sultonni yoniga olib, Termizga yetib keldi. Gavharshod beginmi kemaga solib, Payg‘ambar oroliga olib o‘tdilar. Bu yerda Ulug‘bek Mirzo qurdirgan chiroyli ko‘shek bor edi. Shu ko‘shekda eng avval Ulug‘bek Mirzoni yodga olib tilovat qildilar. Boshlaridan o‘tgan mudhish voqealarni eslagonda dil yaralari yangilanib, ko‘z yosh to‘kdilar. Eson-omon diyordi ko‘rishganlari uchun Parvardigorga shukronalar ham aytishdi.

Gavharshod begin kelin-kuyovga Hirotdan bir sandiq sarupolar, dur-u gavhar taqinchoqlar, bedov otlar, ov qushlari olib kelgan edi. Bularning hammasidan behad quvongan Habiba Sulton momosining bir yelkasidan, Abdulla Mirzo uning ikkinchi yelkasidan quchdi.

— Momojon, biz ikkovimiz ham sizning tarbiyangizni olganimiz-a! — dedi Habiba Sulton buvisini oppoq sochidan o‘pib.

— Rost, sizning duolaringiz bilan shu kunlarga yetishdik! — deb Abdulla Mirzo momosining oq fotiha tilab yozgan javob maktubini esladi.

— Oh, aylanay, sizlardan! Kelin-kuyovlik ikkovlaringga ham behad yarashibdi! Gulday ochilib, shunday ko‘hlik bo‘lib-sizlarki, ilohim yomon ko‘zdan asrasin!

— Ha, dunyoda bizga ko‘z tikkan yomonlar ko‘p!

— Rahmatli bobongiz Shohrux Mirzo menga nevaralar tarbiyasini topshirib, «bularni lochinday yuksakda parvoz etadigan qilib tarbiyalang» degan edilar. Aksiga olib, men tarbiyalagan nevaralardan biri Alouddavla... ilonning ishini qildi. Biri Abdullatif... padarkush bo‘ldi. Bundan ko‘nglim vayron bo‘lib yurgan edim. Xoqoni Sa‘idning topshirgan neki ishini uddalay olmadim, deb o‘ksinar edim. Lekin, xayriyat, Samarqandda, mana Abdulla Mirzo bilan Habibajon... Hirotda Abulqosim Bobur... Hozir uchovingiz mening eng mehr-u oqibatli neva-

ralarimsizlar. Rahmatli bobolaring orzu qilgan lochinlar sizlardan ortiq bo'lmas!

— Unday bo'lsa, bizning ona lochinimiz — o'zingizsiz! — dedi Habiba Sulton.

— Shunday shirin so'zlarni aytgan tilginangdan o'rgilay! — deb momosi Habibani quchoqlab, suyib o'pdi.

Daryo salqinida rohatlanib, Payg'ambar orolida bir kecha tunadilar. Ertasi kuni o'ng qirg'oqqa o'tib, Samarqandga yo'l oldilar.

Bora-borguncha tog'lar ham, vodiylar ham, shahar-u qishloqlar ham beginma o'g'li Ulugbekni eslatardi. Ana, Boysuntog'. Undan narida Hisor tizmasi, Xo'jayi pok cho'qqisi... Sayrob chashmasida suzib yurgan baliqlar... Bular hammasi Mirzo Ulugbekni ko'p marta ko'rgan. G'uzor, Shahrisabz, Taxti Qoracha dovon... Bu go'zal manzillardan Gavharshod begin o'g'li Ulugbek bilan necha marta birga o'tgan edi. Endi bu joylar hammasi beginidan Mirzo Ulugbekni so'roqlayotganday bo'lardi. Hatto kechasi osmonni to'ldirib chiqqan yulduzlar ham yer yuzidan Ulugbekni topolmay, uning onasiga ma'yus termulib turganday ko'rindi.

Samarqandga, Amir Temur maqbarasiga yetib borganlarida Gavharshod begin Ulugbek qabrini xuddi beshik kabi quchoqlab, yelkalari silkina-silkina uzoq yig'ladi. Ulugbek go'daklik paytida begin kechalari uning beshigiga bag'rini berib, bola emizganlari yodiga tushdi. Shundan keyingi ellik besh yillik hayot ko'z oldidan yashin tezligida o'tdi. Lekin xayoli o'ziga kelganda go'dakning iliq nafasi keladigan beshikni emas, qirralari ko'kragiga botib turgan sovuq qabr toshini quchoqlab yig'layotganini ko'rди...

Gavharshod begin uchun Ulugbek Mirzo yaxshi ko'radigan Bog'i Maydonda, Chinnixona qasrida maxsus joy tayyorlab qo'yilgan edi. Bu yerdan rasadxona yaqin. Ertasi kuni begin Abdulla Mirzo bilan Habiba Sultonni ikki yoniga olib, rasadxonaga bordi.

Yer tagidan chiqib kelgan va uch qavatli ulkan binoning shiftigacha ko'tarilib borgan zinapoyalarda Ulugbekning ruhi kezib yurganday tuyulardi. Gavharshod begin Ulugbekning

ruhiga sadoqat saqlab kelayotgan va rasadxonada uning ishini davom ettirayotgan Ali Qushchi boshliq olimlarga sarupolar kiygizdi.

Alg'ov-dalg'ov paytlarida rasadxonadagi qimmatbaho asbob-u olotlardan anchasi o'g'irlangan ekan.

— Bu asboblarni yangidan yasatish mumkin emasmikin? — so'radi Gavharshod beginm Ali Qushchidan.

— Loyihalari bor, ustalarga buyurtma berish mumkin, ammo katta mablag' kerak.

— Mablag'ni topib berurmiz, mavlono! — dedi Abdulla Mirzo.

— Momongiz ham bu ishga ozgina hissa qo'shgay! — dedi Gavharshod beginm va Hirotdan po'lat sandiqqa solib keltingan tilla tangalardan besh mingtasini rasadxona xarajatlari uchun in'om qildi.

Ertasi kuni Ulug'bek madrasasiga borib, mudarrislar va tolibi ilmlar bilan uchrashdilar. Gavharshod beginm madrasa ehtiyojlari uchun ham besh ming tilla sovg'a qildi.

— Momojon, bobomdan qolgan oltin zaxiralaringiz hali ko'pmi? — deb hazillashib so'radi Abdulla Mirzo. — Bizga ataganingiz ham bordir?

— Bor, shoh o'g'lim. Hirotgay qaytsam sizga bir sandiq oltin berib yuborgaymen.

Samarqandda Ulug'bek Mirzo xotirasi uchun Gavharshod beginm nomidan juma kuni elga osh tortildi, xushovoz qorilar tilovatlar qilishdi.

Kuz kirib, bog'larda barcha mevalar yetilgan paytda mahallalarda yana dasturxonlar yozilib, Ulug'bek Mirzoning yil oshisi berildi.

Bu orada Gavharshod beginm Bog'i Dilkushoga borib, Abdullatifning onasi va bolalaridan xabar oldi.

Husn Nigor xonim kasalmand bo'lib, hassaga suyanib qolgan edi. U darvoza oldiga yetib kelguncha Abdullatifning besh o'g'li birin-ketin yugurib chiqib, katta momolarini ta'zim bilan kutib oldilar. Bir yilda sochlari oppoq oqarib ketgan Husn Nigor xonim Mahdi Ulyo qaynonasining oyog'i ostiga o'zini tashlab, uvvos solib yig'ladi.

Gavharshod begin uni yelkasidan olib, zo'rg'a oyoqqa turg'izdi.

— Afu eting, hazrat begin, kechiring!

— Parvardigorning o'zi kechirsin, kelinpushho! Siz bilan biz endi mana shu nevaralarni mehr-u oqibatli qilib o'stiraylik.

— Bu bolalar ham malomatga qoldi, hazrat begin. Maktabga borsa, tengdoshlari: «Padarkushning o'g'li» deb, davraga qo'shmas emishlar.

— Yo, tavba! Bu norasida bolalarda ne ayb? Unday bo'lsa, men bu chevaralarimni Hirota olib ketaymi?

— Borasizlarmi Abdurazzoq? Jo'giy? Qaydu?

— Borgaymiz! — deyishdi katta chevaralar. Kichigi Boqiy Mirzo hali endi besh yoshga kirgandi.

— Mayli kelin, kichiklari siz bilan qolsin. Nevara shirin bo'lur. Ovungaysiz. Shu qarorga kelishib, yo'l taraddudini ko'rishayotganda Dashti Qipchoq tomondan noxush xabar keldi.

Yozda Samarqandga hujum qilib uni ololmagan Sulton Abusayid endi Sabron va Sig'noq tomonlarga borib, Jo'jixon avlodidan bo'lgan Abulxayrxonga qulluq qilayotgan emish. Abulxayrxonning o'ttiz mingdan ortiq qo'shini bor edi. O'zi Ulug'bek davrida bir necha marta Samarqand-u Buxoro atroflariga talonchilik yurishlari uyuştirib, katta o'ljar bilan Dashti Qipchog'iga qaytib ketgan edi. Bu gal agar u temuriyzoda Abusayid bilan ittifоq tuzib, Samarqandga bostirib kelsa, Abdulla Mirzo ularga bas kelishi amrimahol.

Bundan tashvishga tushgan Gavharshod begin tezroq Hirota qaytish va Abulqosim Boburni Abdulla Mirzoga ko'mak yuborishga ko'ndirish niyatini ko'ngliga tugdi.

Begin endi chevaralar taqdiri uchun ham o'zini javobgar sezardi. Shu sababli Abdullatifning o'g'illari, ya'ni Ulug'bek Mirzoning nevaralari Abdurazzoq va Jo'giy Mirzolarni o'zi bilan birga Hirota olib ketdi.

Bir vaqtlar Ulug'bek Mirzo davridagi urush harakatlarini to'xtatishda Gavharshod begin alloma Orif Ozariy orqali katta ish qilgani va shundan keyin Hirota taxtini egallashda Abulqosim Boburga o'z maslahatlari bilan yordam bergani uchun bu ne-

vara momosini juda e'zozlardi, hafta-o'n kunda bir marta Bog'i Safedga kelib, begimdan xabar olib ketardi. Abulqosim Bobur saroyining Gavharshod begimga ehtiromi ham shunga yarasha juda baland edi.

Begin Samarqanddan qaytayotgani haqida Hirotg'a xabar kelganda podshoning topshirig'i bilan bosh vazir va shahar dorug'asi bir kunlik yo'lga peshvoz chiqib, Gavharshod begimni kutib oldilar. Ertasi kuni ertalab Bog'i Safedga Abulqosim Boburning o'zi ham momosini ko'rgani keldi. Gavharshod begim tojdor nevarasini bag'riga bosib ko'rishar ekan, undan xushbo'y may hidi kelayotganini sezdi.

Abulqosim Bobur o'ttiz yoshli xushsurat va shoirtabiat yigit bo'lib, otasi Boysunqur Mirzoga o'xshab, may bazmlarini yaxshi ko'rар edi. Bugun kechasi ham tongotar may bazmi qilgan bo'lsa kerak, kam uxlaganidan ko'zлari qizarib turibdi. Ovozi ham do'rillab eshitildi:

— Hazrat momojon, qalay, Samarqanddan xursand bo'lib qaytdingizmi?

— Xursandchilik ko'p bo'ldi, siz menga qo'shgan odamlar uzoq safarda og'irimni yengil qilganlaridan minnatdor bo'lib, besh vaqt namozlarimda sizni duo qildim!

— Tashakkur, momo!

Begin Hirotg'a tojdoriga avval quvonchli voqealarni so'zlab berdi-da, keyin Dashti Qipchoq tomondan Samarqand ustiga bostirib kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatardan so'z ochdi:

— Abusayid Mirzo yigirma yettiga kirgan, ko'p balolarni ko'rib pishigan tadbirla raqib. Agar u Abulxayrxon bilan ittifoq tuzib, Samarqandni olsa, Hirotg'a ham xavf ostida qolgay. Sohibqiron Amir Temur Turonni Chingiziylardan ozod qilgan edilar. Chig'atoy avlodlarini Mo'g'ulistonda, Jo'ji avlodlaridan bo'lmish To'xtamishxonni Oltin O'rdada mag'lub etgan edilar. Shundan beri Chingiziyalar alamzada bo'lib, temuriylarga qarshi necha bor tajovuz qildilar. Ularning qancha hujumlarini Ulug'bek Mirzo bilan rahmatli bobongiz Xoqoni Sa'id qaytardilar. Lekin hali temuriylardan birontasi Dashti Qipchoqdagi Chingiziyalarga yordam so'rab borgan emas edi. Sulton Abusayid Abulxayrxon bilan ittifoq tuzib, dushman

qo'shinini Samarqandga boshlab kelsa, temuriylar sulolasining ildiziga bolta urganday bo'lur. Hazratim, siz ham shu shajara daraxtining yashnab turgan bir shoxisiz. Ildizga urilgan bolta barcha shoxlarga zarar keltirur. Shuning uchun men sizdan iltijo qilurmen, Samarqandga, Abdulla Mirzoga ko'mak yuboring. U sizga sovg'a-salomlar bilan shayxulislom Xo'ja Burhoniddinni elchi qilib yuborgan. Hozir siz Hirotda, Abdulla Mirzo Samarqandda mening ikki qanotim bo'lib turibsizlar. Iloyo bu qanotlarim doim bir-birlaridan kuch olib parvoz etsinlar!

— Aytganingiz kelsin, hazrat momo. Men Abdulla Mirzoning elchisini yaqin kunlarda qabul qilgaymen. G'arbiy chegaralarimiz notinchroq bo'lib turibdir. Qora qo'yunli turkmanlar Tabriz-u Isfahonga qanoat qilmay, Jurjon-u Astrobodga ko'z olaytirmoqdalar. Ularni daf qilgandan so'ng amir-u a'yonlar bilan maslahatni bir joyga qo'yib, Abdulla Mirzoga, albatta, ko'mak yuborgaymiz.

Lekin g'arbiy chegaralarni tinchitish Abulqosim Bobur o'ylaganidan ko'proq vaqt oldi. Xurosonlik amir-u a'yonlar, ayniqsa, ularning eng e'tiborlisi bo'lgan Amir Sherhoji Turonga borib, Chingizzon avlodlari bilan urushib yurishni istamas edi. Yumshoq tabiatli Abulqosim Bobur bu amirlarga doim ham o'z so'zini o'tkazolmasdi.

Abdulla Mirzodan elchi bo'lib kelgan Xo'ja Burhoniddin qish bo'yi Hirotda qolib, kutilgan natijaga erisholmadi. U Samarqandga qaytayotganda Gavharshod begin Shohrux Mirzodan meros qolgan so'nggi xazinani ochtirib, Abdulla Mirzoga va'da qilgan oltinlarini usti yopiq bir aravaga yuklatdi. Elchiga ishonchli qo'riqchilar ham berib, bu boylikni Samarqandga jo'natdi.

Hayot-mamot jangiga tayyorlanayotgan Abdulla Mirzo uchun momosi yuborgan oltinlar juda asqotdi. Yozgacha o'n ming kishilik askarlar yollanib, ular ot-ulov va qurol-yarog' bilan ta'minlandi.

Javzo oyining oxirlarida Sulton Abusayid qo'shini Shohruxiya va Jizzax orqali Samarqandga yaqinlashib kela boshladi. Abdulla Mirzo o'z lashkari bilan Samarqanddan chiqib, uning yo'lini Bulung'urda to'sib chiqdi.

Abusayid Mirzoning qo'shini sakkiz ming atrofida edi. Abdulla Mirzo tap tortmay bu qo'shin bilan jangga kirishdi.

Ko'p urushlarni ko'rgan tajribali Abulxayrxon ataylab Sulton Abusayid qo'shinini oldinroq jangga soldi. O'zi esa yigirma ming askari bilan ancha orqada — Sangzor daryosiga va Marjonbuloq tomonlarga boradigan suvsiz soylar ichida, tepaliklar ortida pistirma bo'lib panalab turdi.

Abdulla Mirzo Abulxayrxonning alohida qo'shin bilan orqadan kelayotganini bilardi. Uning nazarida, avval Sulton Abusayidni tor-mor qilsa, keyin Abulxayrxon bilan yakkamayakka olishish osonroq bo'ladiganga o'xshardi.

Biroq Sulton Abusayid lashkari orqaga chekinib borib, Abulxayrxon qo'shini bilan birlashdi-yu, juda katta kuchga aylanib ketdi.

Samarqandliklar Abusayidni Bulung'urdan Sangzor tomonga quvib borayotganda pistirmada turgan Abulxayrxonning yigirma ming qo'shini soylardan, tepaliklar ortidan selday yopirilib chiqdi.

Dashtiy Sultonlar to'lg'ama usulini ishlatib, Abdulla Mirzo qo'shinining ikki qanotiga tegmay, aylanib o'ta boshladi.

Buni ko'rgan Bobo Husayn Abdulla Mirzo mingan otning jilovini tutdi:

- Hazratim, qaytmoq kerak!
- Qochaylikmi, a? Qaysi yuz bilan Samarqandga qaytgaymiz?!
- Iloji yo'q. Dashtiy Sultonlar bizni qurshovga olmoqchi! Qarang, qanotlarimizga tegmay, orqadan zarba berishmoqchi!
- Abdulla Mirzo g'ulda o'zi bilan birga jang qilib kelayotgan ikki ming otliq yigitni orqaga qaytardi. Ammo dashtiy Sultonlar bu orada ot choptirib, qaytish yo'lini ham bekitib olishga ulgurdilar.

Abdulla Mirzo otning jilovini yoli ustiga tashlab, chap qo'liga ham qilich oldi. Ikki qo'lda ikki qilichni sermab, yov askarlarining uch-to'rttasini egardan ag'anatdi. Bobo Husayn boshliq yuztacha bek-u navkarlar Abdulla Mirzoni ikki yondan va orqadan himoya qilib, qurshovni yorib o'ta boshladilar.

Shu payt ochiq turgan old tomondan yov kamonchilar o‘q yog‘dirdilar. Bu o‘qlardan besh-oltitasi Abdulla Mirzoning zirhlisini dubulg‘asiga va jumbasiga urilib, qapchib ketdi. Shunda dushman mergani Abdulla Mirzoning bo‘ynini mo‘ljalga oldi.

Bosh harakatda bo‘lishi uchun zirhlisini kiyimning bo‘yinga yopilgan qismida ozgina ochiq joy qoldirilardi. Yov mergani epchillik bilan otgan yoy o‘qi ana shu ochiq joyni topib o‘tdi-yu, Abdulla Mirzoning bo‘yniga sanchildi.

Bo‘yinning yo‘g‘on tomiri o‘tgan joydan qon tizillab otildi. Abdulla Mirzoning hushdan ketib, egardan og‘ib tushayotganini ko‘rgan Bobo Husayn tez borib uni ushlab qoldi va o‘zining otiga o‘ngarib oldi.

Navkarlar endi Bobo Husayn mingan otni o‘rab olib, yov qurshovini yorib o‘tdilar. Behush Abdulla Mirzoni jang maydonidan olib chiqdilar. Lekin Samarqandga yetib borgunlaricha Abdulla Mirzo hushiga kelmay, jon berdi.

Marhumni bobokalonlari maqbarasiga dafn etdilar. Uning ruhiga bag‘ishlab tilovat qilgan Xo‘ja Burhoniddin:

— Abdulla Mirzo chaqmoqday yaltillab so‘ndi, boqiy dunyoga shahid bo‘lib ketdi! — deb ko‘ziga yosh oldi.

Habiba Sulton begin musibatdan o‘rtanib yig‘layotgan paytda amakivachchalari Abusayid Mirzo Samarqandga g‘alaba karnayini chaldirib kirib keldi.

U bilan izma-iz kelgan Abulxayrxonning g‘olib lashkari bir vaqtlar Amir Temur askarlariga qarorgoh bo‘lib xizmat qilgan Konigilni egalladilar.

Abusayid Mirzo o‘ziga homiylik qilib toj-u taxtni olib bergen Abulxayrxonni xursand qilish harakatiga tushdi. Abdulla Mirzo tarafdarlarining mol-u mulki ayovsiz musodara qilindi. Butun shahar aholisidan Abulxayrxon foydasiga juda katta moli omon yig‘ib oldilar.

G‘olib sultonlar bu bilan qanoatlanmadilar. Sulton Abusayid ularning talabiga bo‘ysunib, Ulug‘bek Mirzoning o‘n sakkiz yoshli go‘zal va oqila qizi Robiya Sultonni ellik yoshli Abulxayrxonga o‘lja tarzida majburan nikohlatib berdi.

Temuriylar tarix sahnasiga chiqqandan buyon hali chingiziyilar orasidan chiqqan birorta xon temuriy malikalarni o‘lja tarzida o‘z nikohiga ololgan emas edi.

Abulxayrxon bu sharafga birinchi bo‘lib erishganidan g‘ururga to‘lib, Dashti Qipchoqqa obro‘sí benihoya oshib qaytdi.

Bu g‘urur bejiz emas edi. Chingiziylar bilan temuriylar orasida bir asrdan buyon davom etib kelayotgan kurashlar keskin burilish pallasiga kirganini mana shu hodisalar ilk bor namoyon qildi. Lekin bunga ko‘p odam e’tibor bermadi.

Chunki temuriylar sultanati hali mustahkam ko‘rinardi.

Oradan ellik-ołtmish yil o‘tar-o‘tmas Abulxayrxon ochgan yo‘llardan uning nevarasi Shayboniyxon bostirib kelishini, butun Turon-u Xurosonni zabit etib, temuriylarni Samarcanddan ham, Hirotdan ham siqib chiqarishini, tog‘ ko‘chkisiday shafqatsiz bosqinlar natijasida Sulton Abusayidning nevarasi Zahiriddin Muhammad Bobur vatanidan judo bo‘lib, Hindistonga ketishini hali hech kim tasavvur ham eta olmasdi.

KUYGAN QANOTLAR

Bog‘i Safedga har haftada kelib turadigan Hirot tojdori Abulqosim Bobur so‘nggi daf‘a uch haftagacha ko‘rinmay ketdi. Nihoyat, yigirma kun o‘tgandan keyin momosining huzuriga ma‘yus bir qiyofada kirib keldi-yu, Abdulla Mirzoning halok bo‘lgani to‘g‘risidagi musibatlari xabarni aytди.

Abusayid Mirzo Samarcandda taxtga chiqqanini, Robiya Sulton begin Abulxayrxonga o‘lja tarzida berib yuborilganini eshitgan Gavharshod begin dahshatga tushib, o‘rnidan turib ketdi. Qo‘llarini osmonga cho‘zib:

— Yo poki Parvardigor, falak bunchalik chappa aylandi?! — deb o‘rtanib yig‘ladi. — Nechun Abusayid o‘lmaydi-yu, Abdulla Mirzoday mardlarga ajal keladir?! Abdulla mening Samarcanddagi qanotim edi! Qanotim kuyib tushdi! Katta bir umidimdan ayrildim!

Abulqosim Bobur o‘z vaqtida Abdulla Mirzoga ko‘mak yubora olmagani uchun momosidan xijolat bo‘lib, unga tasalli berishga intildi:

— Hazrat momojon, noumid bo‘lmang, Abusayidga qasos qaytg‘usidir! Uning chingiziylar ko‘magida o‘z qarindoshi Abdulla Mirzoni o‘ldirgani — temuriylar sulolasiga xiyonatdir!

Yana Robiya Sultonday jigarbandimizni Jo‘jixon avlodlariga o‘lja tariqasida berib yuborgani — biz uchun isnod! Men buni jazo-siz qoldirmagaymen! Xudo xohlasa, vaqtি-soati bilan g‘arbiy chegaralarni tinchitib, Abusayidga qarshi qo‘sish tortgaymiz!

— Iloyo yaxshi niyatingizga yeting, jonim bolam! Mening endigi suyangan tog‘im sizsiz! Butun umidim sizdan!

Gavharshod beginm nevarasini duo qila-qila kuzatib qo‘ydi.

Abulqosim g‘arbiy chegaralarni tinchitguncha yana bir-ikki yil o‘tdi. Bu orada Turonda qurg‘oqchilik bo‘lib, yomon kasalliklardan ot-ulovlar qirilgani, Sulton Abusayidning ahvoli og‘irlashgani haqida xabarlar keldi. Abulqosim Bobur fursat-dan foydalaniib, milodiy 1454-yilning kuzida Samarqand yurishiga otlandi.

* * *

Shu yillarda Abulqosim Bobur saroyida tarbiya olayotgan Husayn Boyqaro va Alisher Navoiylarda ham Samarqandga borish ishtiyooqi kuchli edi. Ular Bog‘i Safedda Ulug‘bek Mirzoning nevaralari Abdurazzoq va Jo‘giy Mirzolar bilan birga Gavharshod beginidan temuriylar tarixi bo‘yicha har haftada saboq olar edilar.

Beginning kutubxonasi dagi nodir qo‘lyozmalar, Amir Temur tuzuklarining asl nusxalari, faqat tojdorlar uchun bir necha nusxagina ko‘chirilgan Yazdiy «Zafarnoma»si yosh Alisherni juda qiziqtirardi. Gavharshod begin tarix kitoblaridagi voqealarga o‘zi ko‘rgan-bilgan tafsilotlarni qo‘sib gapirganda Husayn Boyqaro ham ertak eshitayotganday maroq bilan qulq solardi.

Mana, hozir Husayn Boyqaro o‘n olti yoshga kirib, yelkalari keng, polvontaxlit yigitga aylanib bormoqda. Bolalik paytidan beri Gavharshod beginiga behad jozibali ko‘rinadigan Alisherbekning istarasi issiq, qaddi-qomati nozik, o‘zi ham Husayn Boyqarodan uch yosh kichik — endi o‘n uchga kirgan.

Qilichbozlik mashqlarida Husayn Boyqaro ba’zi katta yoshli navkarlarni ham yengib chiqardi. Ammo maktabda muallimlar bergen saboqlarni Alisherbek undan yaxshiroq o‘zlashtirardi.

Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy kabi shoirlar yozgan «Xamsa»larni ular ikkovi birga o‘qishardi, Gavharshod begin ularni doim birga ko‘rardi.

Husayn Boyqaroning yoshi kattaroq bo‘lsa ham, Alisher-ning o‘tkir zehniga, aql-u farosatiga tan berib, bilmagan narsalarini undan so‘rab olardi.

Bu ikki o‘spirinning ota-onalari ham Gavharshod beginning qadrdon kishilari edi.

Husayn Boyqaro — Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li Umarshayx Mirzo avlodlaridan edi. Husayn Boyqaro yetti yasharligida otasi G‘iyosiddin Mansur vafot etgan, shundan beri uni onasi Feruza begin tarbiyalab, katta qilmoqda edi.

Feruza begin ota tomondan ham, ona tomondan ham Amir Temur avlodlariga mansub juda oqila va shijoatli ayol bo‘lgani uchun Hirotda eng nufuzli onalardan sanalar, Gavharshod begin u bilan tez-tez uchrashib, suhbatlashishni yaxshi ko‘rardi.

Alisherbekning otasi G‘iyosiddin Kichkina Bahodir Abulqosim Boburning eng ishongan amirlaridan bo‘lib, uch yil burun podshoh uni Sabzavorga hokim qilib tayinlagan edi. Oradan bir yil o‘tgach Sabzavorda yomon bir kasallik tarqaldi. G‘iyosiddin bahodir bu kasallikka uchraganlarni qutqarishda hakim-u tabiblarga bosh bo‘ldi. Aksiga olib, bu yomon kasallik uning o‘ziga ham yuqdi. Alisher o‘n bir yasharligida otasidan judo bo‘ldi.

Alisherning onasi Abulqosim Boburning yolg‘iz o‘g‘li — hozir yettiga to‘lgan shoh Mahmudga murabbiya bo‘lib xizmat qilardi. Gavharshod begin bu ayol bilan ham juda qadrdon edi.

Shuning uchun begin Samarqand yurishiga qatnashmoqchi bo‘layotgan Husayn Boyqaro va Alisherbekdan:

- Onalaringiz rozimi? — deb so‘radi.
- Hazrat begin, avval sizdan maslahat olgani keldik.
- Xo‘p, men maslahat berish uchun maqsadni bilishim kerak. Samarqandga... tomosha qilgani bormoqchimisizlar?
- Yo‘q, biz qasos olmoqchimiz, — dedi Husayn Boyqaro. — Abdulla Mirzo yaxshi yigit edi. Robiya Sulton uchun ham oriyatimiz kelur. Biz ularni mana bu bog‘da ko‘rgan edik...

— Siz ham jang qilmoqchimisiz? — deb begin kulimsirab Alisherdan so‘radi.

— Men Ulug‘bek Mirzo qabrini ziyorat qilmoqchimen, — deb uyalinqirab javob berdi Alisher. — Biz quvg‘inda yurganda Ulug‘bek Mirzo katta yaxshilik qilgan edilar. O‘zingiz bilursiz, hazrat begin... Biz ul olivy zotning ruhlari oldida qarzdormiz.

— Niyatlaringiz yaxshi, bolalarim. Lekin harbiy yurish xatardan xoli bo‘lmas. Ona rozi — xudo rozi, deydilar. Avval onalaringizdan rozilik olmoq kerak.

— Onalarimiz sizning gapingizdan chiqmaslar, — dedi Husayn Boyqaro, — Hazrat begin, bir og‘iz ularga aystsangiz...

— Xo‘p, men ham aytay. Ammo oldin o‘zlariningiz...

— Onalar ko‘nsa ham, balki podshoh ruxsat bermas? — ikkilanib so‘radi Alisher.

— Buni keyin gaplashgaymiz. Hozir borib, onalaringizni mening huzurimga taklif qilinglar.

O‘sha kuni oqshom Gavharshod begin Feruza begin bilan Gulruh bonuni Bog‘i Safedda qabul qilib, ularning o‘g‘illari to‘g‘risida uzoq suhbatlashdi.

— Sohibqiron qaynotamiz yashagan davrlardan beri, — deb gap boshladi Gavharshod begin, — bir necha avlod yoshlarni ko‘rib, kuzatib, ko‘zim ancha pishib qolgan. Feruza begin, Gulruh bonu, sizlar shu o‘spirinlarga ham ota, ham ona bo‘lib, o‘zlariningizni fido qilib yuribsizlar. Bular endi qanot chiqarib parvoz etadigan yoshga yetyapti. Shu yoshda o‘spirinlar safarlarga chiqishni, xavf-xatar bilan olishishni yaxshi ko‘radilar. Men sezib turibmen, Husayn Boyqaro ham, Alisherbek ham, inshoollo, toleyi baland siymolar bo‘lib yetishgay. Ulug‘bek bilan uning otasida bo‘lgan nodir fazilatlar kurtagini men shu ikki o‘spirinda ko‘rganday bo‘lurmen.

— Bashoratingizni xudo rost keltirsin, hazrat momo, — dedi Feruza begin. — Husaynjonning o‘zi ham adolatsizliklarini ko‘rganda tutoqib ketadir, «men taxtga chiqsam faqat adolat o‘rnatish uchun chiqqaymen!» deydi. Uning adolatli podsho bo‘lish orzusi behad kuchli.

— Alisherbekning orzusi-chi? — deb so‘radi Gavharshod begin Gulruh bonudan.

- O‘g‘limiz shoir bo‘lib, «Xamsa» yozish orzusidalar.
 - Ikki do‘stda ikki xil orzu, ammo men ularni doim birga ko‘ramen, — hayratlanib dedi Gavharshod begin.
 - Chunki Alisherbek adolatli podshohga do‘st-u hamkor bo‘lishni istaydir, — izoh berdi Gulruh bonu.
 - Agar Husayn Boyqaroga podshohlik nasib qilsa, Alisherbek uning eng ishongan vaziri bo‘lg‘aylar! — deb qo‘shib qo‘ydi Feruza begin.
 - Lekin bunday ulug‘ maqsad yo‘lida qancha mashaqqat, qancha xavf-xatarlar bor! — Gavharshod begin gapni Samarqand yurishiga burdi, — qalay, bu ikki do‘stning Samarqandga borishiga rozimisizlar?
- Tabiatan dadil ayol bo‘lgan Feruza begin:
- Men tavakkal qilmoqchimen! — dedi. Tokaygacha onasining qanoti ostida o‘ltiradi? Ota-bobolari shu yoshda Iroq-u Ajamlargacha yurish qilib borgan ekanlar. O‘g‘limni xudoning panohiga topshirmoqchimen. Hayotning achchiq-chuchugini tatif chiniqsin.
 - Kuz kirdi... Bular Samarqandga yetguncha qish yaqinlashgay. Alisherjon juda nozik. Men qo‘rqamen... Otasi o‘lgandan buyon men Alisherga suyanib qolganmen.
 - Yoshi ham endi o‘n uchgaga kiribdir, — deb Gavharshod begin Gulruh bonuning gapini ma’qulladi. — Hali o‘n olti-o‘n yetti yoshga kirganda bunday yurishlarga qatnashsa bo‘lur. Uni hozir ehtiyot qilaylik.

* * *

Husayn Boyqaro onasining roziligi va Gavharshod beginning tavsiyasi bilan Abulqosim Bobur qo‘smini safida Samarqand yurishiga jo‘nadi. Odatda, harbiy yurishlar erta bahorda boshlanib, qish tushguncha tugatilar edi. Lekin Abulqosim Boburning amirlari tayyorgarlik ishlarini cho‘zib yubordilar. Kuzgi qavs oyi kirganda zo‘rg‘a yo‘lga chiqdilar. Amudaryodan o‘tishda kemalar tezda topilmay, yana ancha vaqt yo‘qotishdi.

Samarqandga yetib kelishganda aqrab¹ oyi kirib, dastlabki qor yog‘ib o‘tgan edi.

Abusayid Mirzo vaqtan yutish uchun, shahardan chiqmay, qo‘rg‘on darvozalarini ichkaridan mahkam bekittirdi. Abulqosim Bobur qo‘smini shaharni qirq kun qamal qildi. Bu orada qish kirib, qattiq sovuqlar boshlandi. Hirotliklar shahar atrofidagi mahallalardan issiq joy qidirib, tarqab keta boshladi.

Abusayid Mirzo qo‘rg‘on devorlari ustidan mo‘ralab, qamal sirtmog‘i bo‘sashgan joylarni anipladi. So‘ng ichkaridagi issiq joylarda kuch yig‘ib yotgan besh ming otliq askarni qo‘rg‘on tashqarisiga to‘satdan boshlab chiqdi. Kutilmaganda berilgan zarbadan Abulqosim Bobur qo‘smini katta talafot ko‘rdi. Shunday bo‘lsa ham, Hirot qo‘smini hali Abusayidnikidan ikki barobar ko‘p edi. Hirotliklar o‘zlarini o‘nglab jangga kirishganda Abusayid ochiq turgan qo‘rg‘on darvozalarini tezroq bekittiresh uchun askarlarini ichkariga boshlab kirib ketdi.

Bu ketishda Abulqosim Bobur shaharni zabit etolmasligi, qish sovuqlari uni chekinishga majbur qilishi ko‘pchilikka ayon bo‘lib qoldi. Qamalda shahar aholisi ham qiynalmoqda edi.

Axiyri qo‘rg‘on ichidan Xoja Ahror valiy oq bayroq ko‘targan muridi bilan Bobur qarorgohiga elchi bo‘lib keldi. Muzokaralarda Hirot tomondan tashqi ishlar vazoratining tajribali mulozimi Abdurazzoq Samarcandiy ishtirok etdi.

Ikki orada paydo bo‘lgan nizoning asosiy sababi — Sulton Abusayidning Shohrux Mirzo avlodlariga, xususan, Ulug‘bek Mirzoning merosxo‘rlarigaadolatsiz munosabatda bo‘layotgani edi. Abdulla Mirzoning o‘ldirilishi, Robiya Sultonning Abulxayrxonga majburan berib yuborilganidan tashqari, Ulug‘bek Mirzoning to‘rt nevarasi — Abdullatifning o‘g‘illari otabobolarining merosidan butunlay mahrum etilgani edi. Ularni Hirotda Gavharshod begin tarbiyalab voyaga yetkazmoqda. Hozir Ulug‘bekning katta nevarasi Abdurazzoq Mirzo o‘n uch yoshda, Jo‘giy Mirzo o‘n ikkida, Qaydu va Ahmad Mirzolar ham o‘n yoshdan oshgan. Ularga tajribali bek-atkalar, otaliqlar

¹ *Aqrab* — noyabrning 21 da kiradi.

tayin etilsa, alohida shahar-u viloyatlarga hokim bo'lishlari mumkin edi.

Xoja Ahror valiy Abdurazzoq Samarqandiy bilan birga bu talablarning asosli ekanini Abusayidga tushuntirdilar. Abusayid Hirot tomonning talablaridan bir qismini qondirishga majbur bo'ldi. Ikki tojdor tuzgan sulhga binoan, Ulug'bekning katta nevarasi Abdurazzoq Mirzo Balxga, Jo'giy Mirzo Shohruhiyaga hokim qilib tayinlandilar. Ularning yosh inilariga akalari hokim bo'lган joylardan munosib lavozimlar berish Hirot tomonining ixtiyorida qoldirildi.

Shu tarzda ikki tomon bir-birlari bilan yarashdilar.

* * *

Hirotliklar bu harbiy yurishdan horib-charchab, qish chillasida Xurosonga qaytganlarida ularning orasida Husayn Boyqaro yo'q edi. Xavotirga tushgan Feruza begin o'g'lini so'roqlab, Abulqosim Bobur saroyiga bordi.

— Podsho hozir bandlar! — deb beginni yasovulboshi qabul qildi.

— O'g'lim Husayn Boyqaro nechun qaytmadi? Tirikmi?
Yo yarador bo'ldimi?

Yasovulboshi istehzoli kulimsirab:

— O'g'lingizga Samarqand yoqibdir, — dedi. — Bizdan ajralib, Abusayid saroyiga xizmatga kiribdir.

— Yo'g'-ey, hazil qilmang, janob yasovulboshi! — deb Feruza begin bu gapga ishonmadidi. — Axir o'g'limning butun ixlos-u e'tiqodi hazrati Abulqosim Bobur tarafida edi-ku!

— Yana bilmadim. O'g'lingiz Ulug'bek Mirzoga ham ixloemand ekanlar. Rasadxonaga borib yurganlardan xabarim bor. Balki o'sha yerda Ulug'bek Mirzoning shogirdlari bilan til topishgandirlar?

Feruza begin battar xavotirga tushdi. Abulqosim Bobur boshqa ishlardan bo'shanguncha uning qabulini kutdi. Har qalay, begin o'g'lini shu podshohga ishonib topshirgan edi.

Abulqosim Bobur xonayi xosida shahnishin ustida o'ltirgan edi. Ta'zim qilib kirgan Feruza beginiga o'ng yonidan joy ko'rsatdi.

— Afsus, beginm, o'g'lingiz beboshroq ekan. Bizdan beruxsat Samarqandda qolgan edi. Oqibati yomon bo'libdir.

— Ne bo'libdir, hazratim? Yana biron shumxabar keldimi?

— Ha, mana, bugun ertalab Samarqanddagi bizning odamlardan maxfiy axborot keldi. Sizga aytmay ilojim yo'q... Abusayidning o'gay ukasi Sulton Uvays Mirzo yana bir necha Temuriy shahzodalar bilan til biriktirib, akasiga qarshi isyon ko'tarmoqchi bo'lgan ekan. Nazarimda, isyonchilarning bir qismi Abusayiddan Abdulla Mirzoning qasdini olmoqchi bo'lganlar. Lekin oralaridan ayg'oqchi chiqib, isyon tayyorlanayotganidan Abusayidni xabardor qilmishdir. Shafqatsiz Abusayid Temuriy shahzodalardan o'n ikkitasini tuttirib, Ko'ksaroydagi hibxonaga qamatibdir. Shularning orasida sizning o'g'lingiz Husayn Boyqaro ham bor ekan.

Feruza beginm qattiq iztirobga tushib, ko'ziga yosh oldi:

— Voy, o'g'limni Samarqandga yubormay men o'lay! Endi uni kim qutqarg'ay?! Abusayid uni Abdulla Mirzoga o'xshatib o'ldirib yuborsa ne qilurmiz? Otasi bo'lmasa!.. Hazratim, menga yordam bering! Men o'zim Samarqandga boray! Yo o'g'limni qutqarib olib kelurmen, yo, mayli, o'ligim o'sha yoqlarda qolsin!

— Niyatni yaxshi qiling, beginm. Boramen desangiz ishonchli odamlarga qo'shib yuborgaymiz.

Feruza beginm shosha-pisha yo'l taraddudini ko'rdi. Gavharshtod beginning oldiga kirib, oq fotiha oldi.

Uning Samarqandga jo'nayotganidan xabar topgan Alisherbek qadrdon maktabdoshi Husayn Boyqaroga atalgan bir bayt she'rini sog'inchli maktubiga qo'shib, Feruza beginmdan berib yubordi.

Feruza beginm o'ttiz yetti yoshli zabardast ayol edi. Qish oxirlaganda Hirotdan karvon bilan otliq yo'lga chiqdi-yu, hut oyining yog'in-sochinlariga qaramay, Samarqandga erta bahorda yetib bordi.

Bu yerda uni biladigan bek-u a'yonlar ko'p edi. Amir Temurga ham ota, ham ona tomondan avlod bo'lgani uchun «karimut tarafayn», ya'ni «ikki tomonlama mo'tabar» deb hurmat qiluvchilar bor edi. Abusayidning o'zi ham ilgari Ulug'bek

qo'shini safida oddiy mingboshi lavozimida yurgan paytlarida Feruza beginni ko'rsa, ikki bukilib ta'zim qilardi.

Ammo bu gal o'ttiz yoshli Abusayid oltin taxt ustida savlat to'kib o'ltinganda Feruza begin uning qabuliga kirib, yergacha egilib ta'zim bajo keltirdi.

— Keling, begin, — deb Abusayid taxt qarshisidagi kursidan joy ko'rsatdi.

— Hirotday joydan sizning huzuringizga shafoat so'rab keldim, hazratim!

— Siz mo'tabar onasiz. Ammo o'g'lingiz badkirdorlar to'dasiga qo'shilmishdir!

— Yoshlik qilib aldangan bo'lsa kechiring!..

— Bu ne aldanish?! Bizdan Abdulla Mirzoning qasdini ol-moqchi bo'lgan mish! O'g'lingizning bu niyatini o'z og'zidan eshitgan odam menga kelib aytди!

— Hazratim, ba'zida qo'shib-chatib yo'q gapni bor qilib aytadiganlar ham ko'p. O'g'limning gapiga emas, ishiga qarab baho berishingizni so'raymen. O'g'lim sizning dargohingizni afzal ko'rib, Abulqosim Boburdan ajralib, Samarqandda qolgan. Shu ishi uning sizga ixlosi balandroq ekanini ko'rsatmaydimi?

— Biz ham shunday deb o'ylagan edik. O'g'lingiz yosh bo'lsa ham dovyurak, qilichni yaxshi choper ekan. Men uni tarbiyalab qo'shimboshi qilmoqchi edim. Biroq keyin bilsam, isyonchi shahzodalar to'dasiga qo'shilibdir. Biz bunday to'dalarni yo'q qilmasak, ular bizni yo'q qilurlar! Hammaga ham jon shirin tuyuladir, begin!

— Siz haqsiz, hazratim. Xudo omadingizni bersin. O'g'lim tajribasizlik qilib yomon odamlarning ta'siriga tushgan bo'lsa, uni men o'zim to'g'ri yo'lga solib olurmen. Menga inoning, aylanay sizdan! Axir siz bilan biz qon-qarindoshmiz. Ildizimiz bir. Hammamiz ham temuriylar xonadonidanmiz!

— Lekin «men ham temuriyem» deb, kuchi yetsa-yetmasa toj-u taxtga da'vogar bo'layotganlar juda ko'payib ketdi, begin! Qo'yib bersak, bu mayda-chuyda da'vogarlar bir butun mamlakatni parcha-parcha qilib, zaiflashtirib yuborurlar. Biz Sohibqiron bobomiz davridagi yagona markaziy davlatni qayta

tiklash orzusidamiz. Buning uchun yaganalash siyosatiga amal qilmoqdamiz.

— Yaganalash? Bu qanday siyosat, hazratim?

— Dehqonlar ekinlarini ne tavr yaganalaydilar, bilurmisisz? Bitta yaxshi tupni qoldirib, hosil bermaydigan boshqa zaif tuplarni yilib tashlaydilar. Biz ham ana shunday yaganalash usuliga amal qilmasak, murodga yetolmagaymiz!

Bu so'zlarning tagida qanday shafqatsiz ma'no borligini, Abusayid o'zi yakka-yu yagona hukmdor bo'lishi uchun Husayn Boyqaroni yilib tashlab mahv etishlari mumkinligini sezgan Feruza beginmirdan qo'rqib ketdi:

— Hazratim, agar o'g'limning gunohi bo'lsa, mayli, jazosini men tortay! Uni bir marta kechiring! Lozim topsangiz uning o'rniga meni hibs qildiring. Meni o'limnga buyursangiz ham mayli, faqat o'g'limni kechirsangiz bas!

Abusayid Feruza beginning bu mardona gaplariga qarshi nima deyishini bilmay, ikkilanib qoldi.

Feruza beginmirdan una yana ko'p iltijolar qilib, axiyri o'g'lini hibsdan bo'shattirib oldi.

Uch oy hibsda yotib ranglari sarg'ayib ketgan Husayn Boyqaro yorug' dunyoga chiqqan kuni onasini bag'riga bosib, ko'zlarini yoshlanib, minnatdorchilik bildirdi. Onasi una Alisherbek yozgan maktubni berganda o'g'lining quvonchi yana bir daraja oshdi.

Maktub shunday iliq, shunday yoqimli tuyuldiki, Husayn Boyqaro uni ko'zlariga surtib o'pdi. Alisherbek yozib yuborgan bir bayt she'rni onasiga zavq bilan o'qib berdi:

*Ko'zim ucharki Humoyun yuzingni ko'rgay bot
Baaynih anga kipriklar o'l mish ikki qanot.*

Qanday go'zal majoz! Ko'z uchganda kipriklar chindan qanot qoqqandek bo'lur! Men ham hozir qanot chiqarib Hirrotga, do'stim Alisher tomonga uchgum kelur!

Ona-bola bahor kunlarida yam-yashil qir-u adirlar osha Hirrotga qaytayotganlarida Feruza beginmirdan o'g'lidan so'radi:

— Rostini ayting, Abusayiddan Abdulla Mirzoning qasdini olish uchun Samarqandda qolganmidingiz?

— Boshqa qasoskorlar bilan yashiriqcha maslahat qilgan edik. Ularning orasida Abdullatifdan Ulug‘bekning qasosini olgan Bobo Husayn Bahodir ham bor edi. Abusayid shu Bobo Husayndan xavfsirab, uning ketiga juda pixini yorgan xufiyalarni qo‘yan ekan. Bu xufiyalar yashirin maslahatdan xabar topib, podshohga yetkazadilar. Abusayid tunda Bobo Husaynni tuttirish uchun yigirmadan ortiq qurolli navkarlarini yuboribdir. Bobo Husayn ilikka tushsa, qatl etilishini sezgan bo‘lsa kerak. Ilkiga qilich-u xanjar olib, Abusayidning bek-u navkarlaridan besh-oltitasini yiqitibdir. Ammo bular uzoqdan o‘q yog‘dirib, yarador qiladilar. Bobo Husayn yarador bo‘lishiga qaramay yana qilich chopadir, yovlariga to holdan toyib yiqilguncha qarshilik ko‘rsatadir. Axiyri ilikda qilich tutganicha mardona jon beribdir... Shundan keyin bizni ham hibs qildilar.

— Bobo Husaynni xudo rahmat qilsin. Qahramon amir edi. Lekin siz ham bir o‘limdan qolibsiz, o‘g‘lim! Ikkinchimarta Abusayid saroyiga yaqin bora ko‘rmang! Balodan hazar!

— O‘zim ham uning qanchalik xatarli ajdaho ekanini endi bildim. Bir qarashda juda kelishgan, alp qomat, qilichboz yigit bo‘lib ko‘rindi. Lekin qilgan ishlarini bilib dahshatga keldim. Gunoh qilgan amaldorlaridan birining terisini tiriklay shildiribdir. Yana birini qaynab turgan qirqquloqlik qozonga tashlab o‘ldiribdir.

— Qaynab turgan qozonga tashlab o‘ldirish!.. Bunday vahshiy jazo temuriylarda yo‘q edi-ku.

— Abusayid buni johil xonlardan o‘rgangan bo‘lsa kerak. Kitob o‘qimas ekan. Saroyida mushoira yo‘q, faqat ichkilik bazmlari. Shoир-u olimlar quvg‘inda. Dag‘al muomalalik jangarilar to‘rda.

— Abulqosim Boburning qadriga endi yetsangiz kerak?

— Ha, men undan ajralib qolganimga ko‘p pushaymon bo‘ldim.

Hirota qaytganlarida ona-bola avval Gavharshod beginning huzuriga kirib, boshdan kechirganlarini unga so‘zlab berdilar.

— «Musofir bo‘limguncha musulmon bo‘lmassen» deganlari rost ekan, — dedi Feruza begin. — Abusayidning jabrini tortgan odam Abulqosim Boburdek ma’rifatli shohni boshiga

ko‘tarsa arzigay! Shuni podshoh hazratlariga bir og‘iz aystsangiz, hazrat begin! Zora o‘g‘lim Husaynbek yana ul zoti oliyning xizmatlariga qabul qilinsa.

Gavharshod begin oraga tushgandan keyin Abulqosim Bobur «yo‘q» deyolmadi:

— Mayli, saroya kelsin, o‘zim bir so‘zlashib ko‘ray.

Alisherbek hozir podshoh saroyida mulozimlar orasida xizmatda edi. O‘n to‘rt yoshida qaddi-qomati to‘lishgan, bilimli, fahmi-farosati ba’zi katta yoshli mulozimlarnikidan ham baland edi. Shuning uchun podshoh Alisherbekni:

— Farzandim, — deb atar, ilm-u san’atga oid eng nozik ishlarni unga topshirardi.

Alisherbek podshoh qabuliga kelgan shoirlar, olimlar, san’atkorlar, me’morlarning arzlarini eshitib, muhimlarini podshohga kirib ma’lum qilar, Abulqosim Bobur ruxsat bergenlarini uning qabuliga olib kirar, vazirlar bilan hal bo‘ladigan muammolarni ularning ixtiyoriga yuborar edi.

Maktabdosh do‘sti Husayn Boyqaroni podshoh qabuliga olib kirish ham Alisherbekning zimmasiga tushdi. U podshohning devoni xosiga ta’zim qilib kirdi-da, arz qildi:

— Hazratim, Husayn Boyqaro... Sizdan beruxsat Samarqandda qolgani uchun afu so‘ramoqchi bo‘lib keldi. Qabulxonada inoyatingizga muntazir.

— Betayinroq yigitga o‘xshaydir Husaynbek...

— Ammo faqir uni bolalik paytimizdan bilurmen. Sizga e’tiqodi baland. Samarqandda qolganining sababi ham — Abu-sayidga xizmat qilish emas ekan. Siz ko‘zlagan maqsadni amalga oshirmoqchi ekan. Abdulla Mirzo uchun qasd olmoqchi bo‘lgan!

— Biz qo‘sish tortib borib yetolmagan maqsadga uning bir o‘zi yetmoqchi emishmi?.. Juda katta ketibdilar-ku.

— Yoshlik g‘o‘rligi tufayli shunday bo‘libdir. Bir marta afv eting, hazratim. Minba’d sizdan beruxsat bunday ishlarni qilmagay. Faqir kafil bo‘lurmen!

— Hazrat momom ham aytgan edilar. Mayli, kirsin. O‘zim bir yakkama-yakka so‘zlashib ko‘ray-chi.

Alisherbek qabulxonaga chiqib, Husayn Boyqaroni podshohning huzuriga kirgizib yubordi. Yarim soatlar o‘tgandan

keyin Husayn Boyqaro qizarib, terlab chiqdi. Ammo ko‘zlar quvnoq chaqnab, Alisherbekka kulimsirab qaradi:

— Rosa adabimni berdilar. Lekin oxirida saroy xizmatiga qabul qildilar!

— Muborak bo‘lsin!

— Qulluq, do‘stim. Endi yana birga bo‘lurmiz.

— Iloyo toabad ajralmaylik! — dedi Alisherbek, Husayn Boyqaroni bag‘riga bosib.

Abulqosim Bobur ilm-u ijod ahlining suhbatini yaxshi ko‘rar, davlat ishlaridan vaqt ajratib, madrasalarga borar, Abdurahmon Jomiy va Lutfiy huzurida bo‘ladigan mushoiralarda ishtirok etardi. El-yurt uni «darveshtabiat shoh» deb e’zozlardi.

Ammo jang-u jadalga moyil amirlari uning darveshona ishlarini yoqtirishmas, maxsus ziyofatlar berishib, uni ko‘proq may bazmlariga tortishga intilishardi. Xos hakimlar uning jigar xastaligi borligini Gavharshod begimga eslatib turishardi. Nevarasi ko‘p may ichgan kunlarida ko‘zining oqi sarg‘ayibroq qolishini Gavharshod begim ham sezgan edi. Shuning uchun saroya borganda ham, Abulqosim Bobur momosini ko‘rish uchun Bog‘i Safedga kelganda ham undan doim may ichmaslikni iltimos qilardi.

— Parvardigor otangizning umrini ham sizga qo‘shib bergen bo‘lsin! — derdi. — Lekin Boysunqur Mirzo o‘ttiz uch yoshida mayning kasofati bilan olamdan o‘tgani meni hanuzgacha larzaga soladir.

— Shukur, men o‘ttiz beshga kirdim-u, momo!

— E, hali siz yosh yigitsiz. Menga o‘xshab yetmish yettiga kiring! Undan ham ortiq umr ko‘ring! Beklaringiz may bazmiga taklif qilavermasinlar. Ilm-u ijod ahli sizni yaxshi ko‘radir. O’shalarning davrasida ko‘proq bo‘ling.

— Aytmoq-chi, madrasangizda bir mushoira bo‘libdir. Borolmaganimga afsus qildim. Malikul kalom Lutfiy Alisherbek haqida ajoyib so‘zlar aytgan emish. Siz bormidингиз, hazrat momo?

— Bor edim. Mushoirada Alisherbek shunday ajoyib she’rlar o‘qidiki, malikul kalom Lutfiy ularning bir baytini o‘zining o‘n ikki ming misra she’rlaridan a’lo, deb ulug‘ladi.

— Ammo turkiy tilda Lutfiyga teng keladigan shoir hali dunyoga kelgan emas edi. Endi shunday hassos shoir o'n besh yoshli Alisherbekni o'zidan baland qo'ygan bo'lsa, bu juda katta tantilik, ham bashorat bo'libdir!

— Men ham rahmatli Ulugbekda ko'rgan daho darajasi-dagi iste'dod nishonalarini Alisherbekda ko'rmoqdamen. Ilohim yomon ko'zdan xudo uni asrasin! Sizning dargohingizdan shunday ulug' bir shoir yetishib chiqsa, nomingiz tarix zarvaraqlariga bitilgay, shoh o'g'lim! Uning do'sti Husayn Boyqaro durust xizmat qilmoqdamni?

— Ha, bahodir sarkarda bo'ladigan ko'rinaradir. Sipohilar orasida nufuzi baland. Yaqinda ming kishilik qo'shinga sarkarda qilib ko'tarmoqchimiz. She'r ham mashq qilar ekan. Husayniy taxallusi bilan yozgan she'rlaridan o'qib berdi. Turkiysi yaxshi. Ammo hamma she'rlari bir vaznda. «Nechun boshqa vaznlarda yozmaysiz?» desam, «Shu vaznni yaxshi ko'ramen. Boshqa vazndagi she'rlarni qilich bilan yozgaymen», deydir.

Gavharshod begin so'nggi gapdan zavqlanib:

— Hazratim, sizning qanotining ostida ahli qalam bilan ahli sayf¹ inoq bo'lib yashamoqda. Men buni mana shu ikki yosh iste'dod misolida ko'rib quvonamen. Ahli sayf mam-lakatning xavfsizligini ta'min etsa, ahli qalam el-yurt farovonligi yo'lida xizmat qilur. Ana shunda el-yurt sizniadolatli shoh deb boshiga ko'targay. Bu ulug' maqsadga yetmoq uchun mayparast beklardan o'zingizni ehtiyyot qiling. Sizning salomatligingiz mana shu istiqbolli yoshlar uchun ham juda kerak!

Abulqosim Bobur Hirotda, Bog'i Zog'onda turgan paytda Gavharshod begin nevarasini iloji boricha mesh bazmlaridan ehtiyyot qilib yurdi.

Lekin milodiy 1456-yilning kuzida qora qo'yunli turkmanlarning sarkardasi Jahonshoh Qazvin va Isfahonni egallab, Mashhadga tahdid sola boshladi.

Mashhad Xuroson tarkibiga kirar va Hirotdan keyingi eng muhim shahar hisoblanardi. Mashhadda Gavharshod begin nomi bilan ataladigan sakkiz gumbazli ulkan masjid-madrassa qurilgan edi.

¹ Sayf — qilich.

Amir Sherhoji boshliq beklar Jahonshoh tajovuzining oldini olish uchun podshoh saroyini vaqtincha Mashhadga ko‘chirishni taklif qildilar. Gavharshod begin bunga qarshi edi. Lekin Amir Sherhoji va boshqa nufuzli amirlar may bazmlaridan birida Abulqosim Boburni bu rejaga ko‘ndirdilar.

Saroy ahli qatorida Alisherbek va Husayn Boyqarolar ham qishni Mashhadda o‘tkazdilar. Abulqosim Bobur o‘zining saroyi va qo‘sishinlari bilan g‘arbiy chegaralar himoyasida turganligi sababli Jahonshoh qora qo‘yunli Mashhadga hujum qilishga jur’at etmadi va Tabrizga qaytib ketdi.

Shuning xursandchiligiga Mashhadda tongotar may bazmlari boshlandi. Bu bazmlarga Abulqosim Boburning eng nufuzli vaziri amir Sherhoji boshchilik qilardi.

Mashhadda bodom va o‘riklar gulga kirgan bahor kunlaringning birida Amir Sherhoji podshoh sharafiga katta ziyofat berdi. Shohna dasturxonga kaklik va kiyik go‘shtlaridan tayyorlangan, zira hidi kelib turgan kaboblar tortildi. Xumda o‘n-o‘n besh yildan buyon kuch yig‘ib yotgan o‘tkir mayi noblar oltin qadahlargacha to‘ldirildi.

Podshoh o‘ltirgan shohnishin qarshisida turkman gilamlari to‘shalgan ochiq sahnda yuzini harir parda bilan bekitgan xipchabel kanizaklar raqs tushmoqda. Orqaroqda o‘ltirgan sozandalar sho‘x kuylar chalmoqda.

Tun yarmidan oshganda Abulqosim Bobur qadahdagisi o‘tkir mayi nobni yana bir marta sipqordi. Shunda to‘satdan nafasi qaytib, boshi aylanib ketdi. Yonida o‘ltirgan Sherhoji uning hushdan ketib, dasturxon ustiga yuzturban tushayotganini ko‘rdi-yu:

— Hazratim, sizga ne bo‘ldi?! — deb uni tutib qoldi va o‘ng yonboshiga yotqizdi.

Darhol xos hakimni chaqirdilar. Biroq muolaja yordam bermadni. Hamon behush yotgan podshohni qo‘riqchi yigitlar ko‘tarib, olib chiqib ketdilar.

Ichkilik bazmi azaga aylandi.

O‘ttiz olti yoshli Abulqosim Bobur jigar kasalidan vafot etdimi yoki u ichgan mayga bilintirmay zahar solganmidilar — shundan keyin boshlangan alg‘ov-dalg‘ovda buni aniqlashning iloji bo‘lmadi.

Amir Sherhoji darhol jilovni qo'lga oldi. U podshohning o'n bir yashar o'g'li norasida Shohmahmudni tezroq taxtga chiqarib, davlatni uning nomidan o'zi boshqarish harakatiga tushdi.

Bek-u a'yonlar orasida: «Sherhoji oldindan mana shu maqsadni ko'zlab, podshohga zahar bermadimikin?» — degan taxminlar ham paydo bo'ldi. Lekin bu taxminlar qanchalik asosli ekanini tekshirib, haqiqat qiladigan odam bo'lmadi.

Hammaning xayoli «endi toj-u taxtni kim egallaydi?» degan savol bilan band. Bu savolga dafn marosimidan keyin aniq javob topish mumkin edi. Hammaning ko'zi Gavharshod beginmda. Hal qiluvchi so'zni shu kayvonidan kutayotganlar ko'pchilik edi.

Abulqosim Bobur jasadini Mashhaddan Hirotg'a olib kelib, Gavharshod begin madrasasi yonidagi Boysunqur Mirzo qabri yoniga dafn etdilar.

Azadorlik marosimini Gavharshod begin boshqardi. Marhumning o'n bir yashar norasida o'g'li Shohmahmud momosi yonida ayvonda bel bog'lab, ko'z yosh to'kib turardi.

Ta'ziyaga keluvchilarning keti uzilmas, ularni Amir Sherhoji boshliq mulozimlar kutib olishar va tilovatdan so'ng kuzatib qo'yishar edi.

Saroy ahli orasida o'n olti yoshli Alisher Navoiy va o'n to'qqiz yoshli Husayn Boyqaro ham bor edilar.

Ta'ziyaga oppoq soqolli mavlono Lutfiy bilan hali soqolmo'yloviqa oq tushmagan qirq to'rt yoshli barvasta Abdurazzoq Samarqandiy birga keldilar.

Yig'i-sig'idan behad toliqqan Gavharshod begin ayvon ichkarisidagi xonaga kirib o'ltingan edi. Alisherbek Gavharshod beginning ruxsati bilan mavlonolarni o'sha xonaga boshlab kirdi.

Qadrdon mavlonolarni ko'rganda Gavharshod begin yana ko'ziga yosh oldi.

Noz-ne'mat qo'yilgan xontaxta atrofida o'ltinganlarida sakson besh yoshli mavlono Lutfiy ta'sirli ovoz bilan marhumning arvohiga bag'ishlab tilovat qildi. Shundan so'ng Gavharshod beginimga ta'ziya bildirib, ko'ngil so'radilar.

— Begin, xudo sizga quvvat bersin! — dedi mavlono Lutfiy. Musibatingizga biz ham sherikmiz, — deb gap qo'shdil

Abdurazzoq Samarqandiy. — Hazrat begin, yana toj-u taxt talash bo‘lishidan xavotirdamiz. Podshoh xonadonining sizdan ulug‘ kayvonisi yo‘q. Shuning uchun barcha ma’rifat ahli umid ko‘zini sizga tikanlar.

— Tashakkur, mavlono. Ammo men hozir qanoti kuygan qushning ahvolidamen. Oxirgi qanotim — Abulqosim Bobur edi. Xudo uni ham bizga ko‘p ko‘rdi.

— Ammo siz ma’rifat ahli uchun olovdan tirik chiqadigan Qaqnus kabisiz! — dedi mavlono Lutfiy.

— Ko‘p olovlarda yonib tirik chiqqanim rost, mavlono. Ammo endi qarib qoldim. Yoshim saksonga bordi.

— Shukur, hali baquvvatsiz.

Mavlono Lutfiy orada bo‘layotgan gapga qo‘l qovushtirib qulq solib turgan Alisherbek bilan Husayn Boyqaroni Gavharshod beginga ko‘rsatdi:

— Xudo xohlasa, mana bu yangi avlod siz-u bizga qanot bo‘lg‘usidir. Faqat bularni qonli mojarolardan omon saqlay olsak bas.

— Nevara-chevaralaringiz sizning so‘zingizga qulq solurlar, — dedi so‘nggi kunlarda toj-u taxt uchun kurash boshlanayotganidan xabardor bo‘lgan Abdurazzoq Samarqandiy. — Iloyo ularni murosaga keltirish sizga nasib qilsin, hazrat begin!

— Duolaringiz ijobat bo‘lsin, mavlonolar!

Mehribon allomalarining duosidan madad olgan Gavharshod begin o‘zaro nizoni allaqachon boshlab yuborgan chevaralar Sulton Ibrohim bilan Shohmahmudni murosaga keltirish haqidagi o‘ylay boshladi.

NOQOBIL CHEVARALAR KASOFATI

Aslida otasidan judo bo‘lib musibat chekayotgan o‘n bir yoshli Shohmahmudga hozir toj-u taxtning uncha keragi ham yo‘q edi. Lekin uning ketida tojsiz podshoh bo‘lish ishtiyoqi bilan yongan otalig‘i Amir Sherhoji turar va norasida merosxo‘r atrofiga ko‘proq tarafdarlar yig‘ishga intilar edi.

Yana bir taxt da‘vogari — Alouddavlanning o‘n sakkiz yoshli o‘g‘li Sulton Ibrohim edi. U bundan ikki yil avval otasi

uyushtirgan fitnaga qatnashgani uchun Abulqosim Bobur buyrug'i bilan Ixtiyoriddin qal'asidagi hibsxonaga qamab qo'yilgandi. Ko'p urushlarga sabab bo'lgan Alouddavla inisidan mag'lub bo'lib qo'lga tushganda, Abulqosim Bobur uning ko'zini ko'r qilishni buyurgan edi. Lekin Alouddavla jallodlarga pora berib, jazoni yengillatishga muvaffaq bo'lgan, uning bir ko'zi sog' qolgan, shu bir ko'z bilan hali Dashti Qipchoqqa qochib borar, hali Badaxshon va Hisorda paydo bo'lar, lekin Hirota qaytishga jur'at etolmay, tentirab yurardi.

Mana endi Abulqosim Bobur vafot etgandan keyin Alouddavlarning sobiq vaziri Qora Bahodir harakatga tushdi. U Ixtiyoriddin qal'asining qutvoli bilan ilgari hamtovoq bo'lgan edi. Hozir unga va hibsxona qorovullariga katta pora berib, kechasi Ibrohim Sultonni qochirishga muvaffaq bo'ldi. Sulton Ibrohim ona tomondan tarxon amirlariga qarindosh edi. O'sha kecha Nizomiddin Ahmad Tarxonning uyiga borib yashirinib yotdi.

Aksiga olib, bu yosh yigit hibsxonada tutqanoq kasaliga yo'liqkan ekan. Tutqanog'i tutganda qo'l-oyog'i qaltirab, hushidan ketib qolar edi.

Uni davolab o'ziga keltirish va ko'proq qo'shin yig'ish maqsadida Qora Bahodir boshliq tarafdlari Sulton Ibrohimni Murg'ob daryosi bo'yidagi bahavo joylarga olib ketdi.

Abulqosim Boburning dafn marosimi va yettisi o'tgandan keyin Gavharshod beginiga qarindosh bo'lgan Nizomiddin Ahmad Tarxonlar kechki payt Bog'i Safedga kelib, Gavharshod beginni Sulton Ibrohimga yon bosishga unday boshladilar.

— Axir Sulton Ibrohim yosh jihatidan ulkan, nasab jihatidan ham katta og'aning o'g'li, taxt uniki bo'lishi kerak! — deb vaj ko'rsatdilar.

— Keksayganimda meni tinch qo'yinglar, — dedi Gavharshod begin. — Nevaralarning taxt talashishlariga aralashib nima topdim? Endi chevaralarning janjali qoldimi? Buning oxiri bo'lmas ekan. Yana necha kunlik umrim bor? Shu yerda besh vaqt namozimni o'qib tinchgina turay, meni bu ishlarga aralash-tirmanglar.

— Hech bo'lmasa maslahat bering, hazrat begin! Obro'yin-giz katta. Amirlar gapingizga quloq solurlar.

Tajribasiz yosh chevaralari ajdahoday og'iz ochib kelayotgan amalparast amirlarning qurboni bo'lishi mumkinligini Gavharshod begin ich-ichidan sezib turardi. Buni ko'ra bila turib, ularga hatto durust bir maslahat ham bermasdan chetda loqayd turishga Gavharshod beginning ko'ngli bo'lmadi.

— Agar mening maslahatimni olsalaring, Sulton Ibrohim bilan Shohmehmudni yarashtiringlar. Har ikki tomonning amirlari ittifoq tuzsinlar! Chunki Turondan Abusayid qo'shin tortib kelmoqda emish. Menga aniq axborot keldi. Agar chevaralarim birqalashib unga qarshi bormasalar, Xurosonni Abusayid bosib olg'ay. Ikki shahzoda taxt talashib urushsa, ikkovi ham zaiflashgay. Shu ahvolda Sulton Abusayidga bas kelib bo'lurmi, aytinlar-chi?

— Bu tomonini o'ylamabmiz, — deb tan oldi Uvays Tarxon. — Lekin g'arbdagi Jahonshoh ham yana Xuroson tomoniga qo'shin tortib kelmoqda emish.

— Ana, ikki tomonimizdan shunday kuchli yog'iylar bostirib kelayotgan paytda ichki nizolarni unutish kerak emasmi?

Shu tarzda begin Tarxon amirlari bilan uzoq gaplashdi. Axiyri Tarxon amirlari Sulton Ibrohimni Shohmehmud bilan yarashtirishga rozi bo'ldilar.

— Endi Sherhojini siz ko'ndiring, — deb Gavharshod begimdan iltimos qildilar. Beginning oyog'i tortmasa ham Bog'i Muxtorga borib, azador kelini Maqsuda begin va Amir Sherhojilar bilan uchrashdi.

Amir Sherhoji Sulton Ibrohim bilan sulk tuzgisi kelmay, ancha tixirlik qildi. Shunda Shohmehmudning onasi Maqsuda begin qaynonasining tarafini oldi:

— Sulton Abusayid bostirib kelayotgan bo'lsa, o'g'limiz ikki o't orasida qolmasin, mayli, sulk tuzaylik!

— Ammo Ibrohimni hibsdan qochirgan Qora Bahodir albatta Hirotg'a tajovuz qilgay! — dedi Amir Sherhoji. — Men uning qanchalik g'addor odam ekanligini bilurmen.

— Lekin Sulton Ibrohimning yonida mening jiyanlarim Tarxon amirlari ham bo'lurlar. Men ularning roziligini oldim.

— Agar momom orada kafil bo'lib tursalar, biz sulhga rozmiz! — dedi Shohmehmud.

Sherhoji yakkalanib, tumtayib qoldi, ammo boshqa e'tiroz qilolmadi.

Sulh tuzish haqida Sulton Ibrohim nomiga yozilgan maktubga har ikki tomonning Hirotdagi amirlari imzo qo'ydilar. Gavharshod beginning Turkonshoh degan eng ishonchli navkari bu maktubni Murg'ob bo'yida turgan Sulton Ibrohimga tezroq yetkazib berish uchun chopar bo'lib ketdi.

Shahzodalar ittifoq tuzib, Abusayidga qarshi chiqmoqchi bo'layotganining xabari xufiyalar orqali Samarqand podshohiga ham yetib bordi.

Sulton Abusayidning Hirotg'a yuborgan elchisi Said Jalolidin Mazid bu ittifoqni buzish haqida yashirin topshiriq oldi.

Bu elchi Abulqosim Bobur vafoti munosabati bilan uning momosi, o'g'li va oilasiga ta'ziya bildirgani kelgan edi. Marhumning ma'rakalariga qatnashib, Hirotda bir-ikki oy turdi. Shu orada Amir Sherhoji bilan yashiriqcha uchrashib, Sulton Abusayid buyurgan gaplarni uning qulog'iga aytdi:

— Shohmahmud bilan Sulton Ibrohim orasida tuzilmoqchi bo'lган sulh — aslida hiyla. Tarxon amirlari sizni g'aflatda qoldirib, taxtni Sulton Ibrohimga olib bermoqchi emishlar.

— Yo'g'-e, buni kim aytdi?!

— Hazrat Sulton Abusayid aytdilar. Murg'ob bo'yida ham u zoti oliyning xufiyalari bor. Sulton Ibrohimni hibsdan qochirgan Ahmad Tarxon: «Hirotg'a borsak, eng avval Sherhojini yo'q qilgaymiz» deganini bizning odamlar o'z quloqlari bilan eshitibdilar.

Sherhoji Sulton Abusayidning xufiyalar xizmatidan juda ustalik bilan foydalanishini bilardi. Sultonning yashirin odamlari Dashti Qipchoqdan tortib Xuroson-u Iroqqacha hamma joydan aniq xabarlar yuborib turishardi. Sulton Abusayid ulardan mablag'ni ayamas, har bir muhim ma'lumot uchun hamyon-hamyon naqd oltin berar edi.

Bundan xabardor bo'lган amir Sherhoji Abusayidning elchisi yashiriqcha aytgan gaplarga so'zsiz ishondi.

— Sulton hazratlariga ming rahmat, sizga ham tashakkur, elchi janoblari! — ovozi titrab shivirladi Sherhoji. — Men bu Tarxon amirlariga uncha ishonmas edim. Lekin keksa Gavharshod begim oraga tushdi...

— E, u begin ham Tarxonlar urug‘idan-ku!

— Ha, hammasi bir! Meni hiyla bilan yo‘qotmoqchi bo‘lsalar, men avval ularning o‘zini bartaraf qilmog‘im kerak!

Serhoji hech narsani sezdirmay, Tarxon amirlari bilan apoq-chapoq bo‘lib yurdi.

— Endi do‘sst bo‘ldik, sulh tuzilishi aniq, shuning shodiyonasiga men bir dasturxon yozay! — deb Serhoji Hirotda turgan eng nufuzli Tarxon amirlarini o‘ziga qarashli chorbog‘ga ziyoftga taklif qildi.

Chorbog‘da mevali daraxtlar qiyg‘os gullagan, lolalar ham ochilgan yoqimli payt edi. Gulzorlar o‘rtasidagi koshonaning eng muhtasham tanobiysiga anvoysi noz-ne’matlar bilan bezalgan dasturxon yozildi. Amir Xusrav Tarxon, Muhammad Tarxon, Uvays Tarxon va uning yigirma yoshli o‘g‘li Yusuf Tarxon hammalari kiyik go‘shtlaridan yeb, totli maylardan ishib kayf qilib o‘tirganlarida Amir Serhoji o‘zining «Devona» laqabli filday ulkan Pahlavon Husayn degan amiriga yashirin bir ishora qildi. Pahlavon «tushundim!» deganday bosh irg‘ab, tashqariga chiqib ketdi. Uning ketidan Sherhoji ham chiqmoqchi bo‘lib turganda Uvays Tarxon uni etagidan tutdi:

— Janob amir, o‘tiring yonimga! Qani, ittifoq bo‘lganimiz sharafiga yana bir qo‘ldan olaylik! — dedi.

Serhoji may to‘ldirilgan qadahni qo‘liga olib, birga ichishga majbur bo‘ldi. Uvays Tarxon dandon sopli pichoq bilan kiyik go‘shtidan gazak qilish uchun kesib olayotgan paytda birdan ularning boshi ustida tig‘ yalang‘ochlagan Pahlavon Devona va yana besh-oltita kallakesarlar paydo bo‘lishdi. Birinchi qilich Uvays Tarxonning o‘g‘li Yusufni otasining ko‘zi oldida chopib tashladi. Kimdir orqadan Uvays Tarxonning yelkasiga xanjar sanchdi.

Bu mal‘unlik Sherhojining ishi ekanini payqagan Uvays Tarxon yelkasi yarador bo‘lganiga qaramay qo‘lida go‘sht kesib o‘ltirgan dandon sopli pichoqni Sherhojining biqiniga urdi. Pichoqni burab chiqarib, unga yana bir sanchmoqchi bo‘layotganda Pahlavon Devona yetib kelib, Uvays Tarxonni qilich bilan urib yiqitdi.

Biqiniga sanchilib, burab olingan pichoq jarohatidan Sherhoji ham behush bo‘lib, dasturxondagи taomlar ustiga yuztuban ag‘anab tushdi.

Ziyofat paytidagi vahshiyona qirg'inda Uvays Tarxon, uning o'g'li Yusufbek, amakivachchalari Muhammad va Ahmad Tarxonlar halok bo'ldilar. Dasturxonga qo'yilgan nozi ne'matlar ularning qonlariga belandi.

Bu qonli fojiadan faqat hojat uchun tashqariga chiqqan Amir Feruzshoh omon qolgan edi. U bog'dan qochib chiqib, Tarxon amirlarining tarafдорларини оyoqqa turg'izdi. Ular Sherhojidan qasos olish uchun yarim tunda uning uyiga bostirib bordilar, lekin qotilni topolmadilar.

Sherhojini yaqin qarindoshlari shahar tashqarisidagi Niratu qal'asiga olib borib yashirgan edilar. Biqiniga sanchilgan pichoq yarasidan uning ichki a'zolariga qon quyulib, og'zidan qon keldi, o'lishiga sal qoldi. Katta pullar evaziga Hirotdan yashiriqcha chaqirilgan hakim va jarrohlar uni bir amallab qutqarib qoldilar.

Sherhojining olchoqlik qilgani uning himoyasidagi norasida Shohmahmud uchun ham og'ir zarba bo'lib tushdi. Endi uning Sulton Ibrohim bilan sulh tuzishi haqida so'z bo'lishi mumkin emas edi. Shahid bo'lgan Tarxonlarning barcha qarindoshlari o'z navkarlari bilan Sulton Ibrohim tomoniga o'tdilar. Shohmahmud onasi Maqsuda begim, yaqin bek va navkarlari bilan Hirotni tashlab chiqib, Mashhadga ketishga majbur bo'ldi.

Husayn Boyqaro bilan Alisher Navoiy ham marhum Abulqosim Boburning xotirasiga sadoqat saqlab, uning o'g'li bilan Mashhadga bordilar.

Podshohsiz va boshqaruvsiz qolgan Hirotg'a Sulton Ibrohim o'z tarafдорлари bilan bahor oxirlab qolgan kunlarda yetib keldi.

Gavharshod beginning ikki shahzodani yarashtirish bo'yicha qilgan sa'y-harakati Sherhoji uyuşhtirgan qonli fojialar bilan tugagani uchun begin endi davlat ishlariga butunlay aralashgisi kelmay qoldi. Bog'i Safedda kunlarni toat-ibodat bilan o'tkaza boshladi.

Sulton Ibrohim Hirot taxtini egallagandan keyin o'ziga alam o'tkazgan dushmanlardan qasos olishga berilib ketdi. Uni hibsxonada qiyanagan sobiq nozir Ismoil Simnoniy bilan hibsxona boshlig'i Mir Rajabni dorga osib o'lirtirdi.

Tarxon amirlari Sherhojining yaqinlaridan bo‘lgan Malik Qosim, Qahramon Turkman, Davlat Keldi Tag‘oyi kabi amirlarni tutib kelib, podshohdan ularni o‘limga buyurishni talab qildilar.

Shu orada Isfahon tomondan Jahonshoh qora qo‘yunli Jurjon va Astrobodni bosib olganligi va Murg‘ob daryosi bo‘yiga — turkmanlar yashaydigan tomonga qo‘shin tortib borayotgani haqida xabar keldi.

Balxda Sulton Abusayid Xurosonga bostirib kirish uchun tayyorgarlik ko‘rmoqda edi. Shunday bir qaltis paytda o‘ch olishga berilib ketib, Hirotning o‘zida ham ichki adovatni alanga oldirish hech bir aqlga to‘g‘ri kelmaydigan ish edi.

Gavharshod begin chevarasi Sulton Ibrohimning bu xato ishlariga yana loqayd qarab turolmadi. Taxtiravonga tushib, podshoh saroyiga bordi.

— Murg‘ob bo‘ylariga yana ishingiz tushgay, podshoh o‘g‘lim! — dedi. — U yoqda sizga xayrixoh turkmanlar ko‘p. Ularni o‘zingizga dushman qilmang. Amir Qahramon Turkman bilan Davlat Keldini Sherhojining aybi uchun behuda qatl et-tirmang! Bularga men shafe bo‘lurmen!

Momosi oraga tushgandan keyin har ikki turkman amiri omon qoldi. Ammo Hoji Xalil va yana ikki amir Hirot shahriga qutvol bo‘lib tayinlangan Qora Bahodirning qutqusi bilan qatl etildilar. Shunda bu amirlarning yuzlab navkarlari va qarindoshurug‘lari Sulton Ibrohimdan yuz o‘girib, Balxdagi Abusayid tomoniga o‘tib ketdilar.

Bu orada Mashhaddan yosh Shohmahmud qo‘shin to‘plab, Hirotga bostirib kelayotgani ma’lum bo‘ldi. Sulton Ibrohim ham o‘z bek-u navkarlarini jangga hozirlab, amakivachchasiga qarshi maydonga chiqdi. Ikki orada kun bo‘yi davom etgan jang axiyri Sulton Ibrohim g‘alabasi bilan tugadi. Shohmahmud endi toj-u taxtdan umidini uzib, Mashhadga chekindi, undan keyin Kobulga qochib ketdi. O‘scha yoqlarda o‘n to‘rt yoshida o‘q yeb, halok bo‘ldi.

Bir urush tugar-tugamas ikkinchisi yaqinlashib kelmoqda edi. Qora qo‘yunli Jahonshoh Ashxobod tomonlardan o‘ziga tarafdarlar topib, Xurosonga shimoldan bostirib kirdi.

Yaqindagina bir urushdan talafot ko'rib charchab chiqqan Sulton Ibrohimning qo'shini Jahonshoh lashkaridan ikki barobar kam edi. Shuning uchun bir guruh amirlar:

— Hirotda zaxira tayyorlaylik, qo'rg'on darvozalarini bekitib, yog'iyni shu yerda kutaylik! — deyishdi.

Lekin qamal azobini yomon ko'radigan boshqa bir guruh amirlar:

— O'zimizda kuch oz bo'lsa, Sulton Abusayiddan ko'mak so'raylik, — deyishdi. — Axir u ham temuriylardan-ku. Hirotdning yetti yot begonalar ilkiga o'tib ketishini istamasa kerak.

Shuning ustiga Balxdan Said Jaloliddin Majid elchi bo'lib keldi va Sulton Ibrohimga Abusayid nomidan sulh taklif qildi:

— Mirzo hazratlari, siz Hirotdan Murg'ob tomonga qo'shin tortib chiqsangiz, bu orada Balx tomondan Sulton Abusayid a'lo hazrat ham o'z lashkari bilan Murg'ob bo'yiga yetib bor-gaylar. Agar siz oldinroq borsangiz Jahonshohning Hirotg'a keladigan yo'lini to'sib turgaysiz. Alhol, Sulton Abusayid borib yoningizga kirgaylar. Birgalashib Jahonshohni tor-mor etgaysiz-lar, inshoollo!

O'n sakkiz yoshli tajribasiz Sulton Ibrohim Said Jalolid-dindek makkor vazirning gapiga ishonib, undan ham shumroq Abusayid bilan ittifoq tuzmoqchi bo'layotgani Gavharshod beginni yana xavotirga soldi. Begin hokimiyat mojarolariga aralashishdan nechog'li to'yan bo'lishiga qaramay, chevarasining yoshlik g'o'rligi sababli xatarli ishga bosh qo'shayotganini sezib, yana loqayd qarab turolmadi. Podsho saroyiga borib, Murg'ob yurishiga tayyorlanayotgan Sulton Ibrohimni bu niyatidan qaytarishga intildi.

— Siz bir-biriga qarab yumalayotgan ikkita zo'r xarsang-toshning orasiga tushmang! — dedi. — Qo'yib bering, avval Jahonshoh Abusayid bilan to'qnashsin! Bu ikkovi bir-biri bilan urushmay turolmagay!

— Lekin biz Sulton Abusayid bilan bitim tuzdik, shartlashdik!

— Mayli, bitim o'z o'rnida tursin. Lekin Siz Jahonshoh bilan birinchi bo'lib urushga kirmang, jonim bolam! Shoshilmang! Avval Abusayid Balxdan Murg'ob bo'yiga yetib borsin.

Uning kuchi ko‘p, tajribasi katta. Oldin u jangga kirsin, qo‘yib bering!

— Ammo Jahonshoh Balxga emas, Hirotga bostirib kelmoqda. Biz Jahonshohning yo‘lini to‘smasak, Abusayid umuman jangga kirmasligi mumkin.

— Abusayid ham Hirotga ko‘z tikkan. Jahonshohga Hirotni berib qarab turmas!

— Xo‘p, hazrat momo! Bu maslahatingizni yana o‘ylab ko‘rgaymiz. Amirlar bilan maslahat qilurmiz!

— Lekin aldanib qolmang, jonim bolam! Abusayid ham, Jahonshoh ham makr-u hiylaga juda usta! Shuni unutmang!

Bu gaplardan Sulton Ibrohim qattiq xavotirga tushdi. Ustma-ust kelayotgan tashvishlardan uning asabi charchagan edi. Jahonshohga qarshi qo‘shin tortib borayotganda uni yana tutqanoq tutdi.

Xos hakim dori-darmon bilan uni o‘ziga keltirgan bo‘lsa ham, tutqanoqdan keyin bir necha kun uning boshi g‘ovlab, darmoni ketib yurardi. Ana shu bedarmonlik ham sabab bo‘lib, u Jahonshoh bilan jangga oshiqayotgan hovliqma beklarning shashtini qaytarolmadi.

Balxdan yetib kelishi kerak bo‘lgan Sulton Abusayid negadir yo‘lni Hirot tomonga burib ketdi. Jahonshohning Balxdagi xufiyalari: «Abusayid avval Hirotni egallamoqchi emish!» degan ma‘lumot yubordilar.

Yaqindagina taxtga chiqqan yosh Sulton Ibrohimning Abusayid qarorgohidan aniq xabar yuborib turadigan xufiyasi ham yo‘q edi. U Abusayid bitimga muvosiq, albatta, Murg‘ob bo‘yiga yetib keladi, degan ishonchda edi.

Jahonshoh esa Abusayid yetib kelmasdan oldin Sulton Ibrohim bilan yakkama-yakka olishishdan manfaatdor edi. Shu sababli u qo‘shinini Murg‘obning Hirot tomonidagi o‘ng qirg‘og‘iga olib o‘tdi va Sulton Ibrohim qarorgohiga to‘satdan hujum qildi.

Kuchlar teng emas edi. Hirotliklar ko‘p qurbanlar berib, Balx tomonga chekindilar. Ular hali ham Abusayidning Balxdan yordamga yetib kelishiga ishonar edilar.

Lekin Sulton Abusayid bu orada butunlay boshqa yo‘ldan Hirotga yaqinlashib kelmoqda edi. Uning tadbirkor vaziri Said

Jaloliddin Hirotdan Abusayid qarorgohiga elchi bo‘lib borgan Shayxulislom Taftazaniga qo‘silib, shaharga Malik darvozasi tomondan keldi. Shahar dorug‘asi Qora Bahodir Said Jalolid-dinni ittifoqdosh hisoblab, uning qo‘riqchi navkarlari bilan qo‘rg‘onga kirishiga ruxsat berdi.

Keyin Said Jaloliddin Qipchoq darvozasiga o‘z odamlari bilan yetib bordi-yu, uni o‘sha tomondan qo‘sish tortib kelgan Sulton Abusayidga ochib berdi. G‘aflatda qolgan shahar dorug‘asi Qora Bahodir shaharni Abusayidga jangsiz topshirganday bo‘ldi.

Faqat Ahmad Yasovulboshi Abusayidning bitimni yuzsiz-larcha buzib, Hirotni hiyla bilan egallaganini sezib qoldi-yu, mustahkam Ixtiyoriddin qal’asini ichdan bekitdi va Abusayid yuborgan amirlarga darvoza ochmadi.

Uning Sulton Ibrohim qaytib kelishidan umidi bor edi. Lekin Abusayid Qora Bahodirni, Sulton Ibrohim tayin etgan devonboshi va boshqa amaldorlarni tuttirib hibs qildirdi, qarshilik ko‘rsatganlarini qatl ettirdi. Darvozalardagi hamma posbonlar-ni o‘zining ishonchli odamlari bilan almashtirdi.

Shu bilan Hirotdarvozalari yosh boladay aldangan Sulton Ibrohim uchun taqataq bekildi.

UYAT O‘LIMDAN YOMON

Gavharshod beginning tasavvurida bu voqealar ulkan bir quyunga o‘xshardi. Bu quyun uni shiddat bilan chirmab, ay-lantirib halokat sari olib ketayotganday tuyulardi.

Sulton Abusayid Hirotni qanday ustalik bilan egallaganini eshitgandan beri beginning ruhi tushgan, vujudi bo‘shashgan, endi butun umidi oxiratga yorug‘ yuz bilan borishga qaratilgan edi.

Bu yil ramazon saraton oyiga to‘g‘ri keldi. Begin odatda ramazon kirmasdan ikki-uch kun oldin ro‘za tutishni boshlar edi. Bugun ham tong qorong‘usida turib, Bog‘i Safedda kaniz-lari tayyorlagan yengil ovqatlar bilan saharlik qildi. Bog‘ o‘rtasidagi qasrning salqin bir xonasida toat-ibodat bilan taskin topganday bo‘ldi. Shu payt tashqarida otlar dupuri, shoshilinch qadam tovushlari eshitildi. Xos navkar Turkanshoh begin o‘ltirgan xonaning eshigini taqillatdi.

— Kim? Kiring! — degan ruxsatdan keyin Turkanshoh is-siqdan bo‘g‘riqib, allanarsadan hovliqib kirib keldi:

— Tinchingizni buzgan bo‘lsak afu eting, hazrat begin! Saroydan vazir Said Jaloliddin keldi. Podshoh Sultan Abusayid bu yerga tashrif buyurarmish!

Bu nomlarni eshitganda Gavharshod beginning yuragi noxush tuyg‘ulardan «shig» etib ketdi.

— Meni tinch qo‘ysalar bo‘lmasmidi? Podshohlardan to‘yganmen!

— Kim bilsin? Balki bu yaxshilik alomatidir?

Begim hozir Sultan Abusayidni ko‘rishi butun vujudi bilan istamasa ham, lekin ko‘nglining bir chetida, «balki insofga kelib, murosa qilmoqchidir?» degan ilinj paydo bo‘ldi.

Savdarlarni chaqirib, ko‘p podshohlarni ko‘rgan muhtasham qabulxonani tartibga soldirdi. Zarrin matolar qoplangan shohona kursilar qo‘ydirdi. Oltin guldonlarda go‘zal guldastalar paydo bo‘ldi. Ro‘za boshlangani uchun dasturxon yozdirmadi.

Sulton Abusayid o‘ziga yarashiqli shohona ipak kiyimlar kiygan alpqomat yigit edi. Gavharshod beginiga yengil bir ta‘zim bilan salom berdi. Begim ham uni podshohlarga munosib ta‘zim-u tavoze bilan qarshi oldi.

Abusayidning ko‘pchilik temuriylar kabi zabardast qiyofasi borligini, yoshi o‘ttiz beshlarga kirgan bo‘lsa ham, soqlomo‘ylovi siyrak, hali o‘sib yuzini qoplamaganini begin endi yaqindan ko‘rdi. Uning ovozi ham salobatli eshitildi:

— Biz rahmatli Abulqosim Bobur bilan xesh bo‘lganmiz, Samarqandda sulh tuzgan edik. Bandalikni baho keltiribdirlar. Xudo rahmat qilsin. Sizdan ko‘ngil so‘ragali keldik.

— Tashakkur, a’lo hazrat!

Sulton Abusayid bilan birga kelgan Hirot shayxulislomi Xo‘ja Taftazani marhumning arvohiga bag‘ishlab tilovat qilgandan so‘ng, maqsadga o‘tdi.

— Endi qolganlar omon bo‘lsin, begin! O‘zingizga ma‘lum, temuriylar sultanatining bugungi eng qudratli tojdori Sultan Abusayid Mirzo hazratlaridir. Buni Dashti Qipchoqdagi Abulxayrxondan tortib, Mo‘g‘ulistondagι Yunusxon-

gacha hammalari tan olmoqdalar. Ammo Xurosonda ichki nizolar-u o'zaro urushlar siz-u bizga behad ko'p balo-yu ofat keltirmoqda. Bu ofatlardan bizni, avvalo xudo, soniyan Abusayid hazratlari qutqarmoqlari mumkin. Siz, temuriylar xonadonining eng nufuzli kayvonisi, endi bul hazratga onalik qilsangiz...

— Axir siz bizga ham momosiz! — deb gap qo'shdi Abusayid.

Ammo Ulug'bek bilan Abdulla Mirzoning o'limiga sabab bo'lgan Abusayidning momosiga aylanish beginmi allanechuk seskantirdi. Ro'zador beginning lablari quruqshab, tili qiyinlik bilan aylandi:

— Taqsir, tepamizda xudo turibdir. Yaxshilik qilganlarga men doim yaxshilik istayman. Momolar duogo'y bo'lurlar. Men duolarimni hech kimdan darig' tutmagaymen. Sulton Abusayid hazratlari haq yo'lda adolatli bo'lsinlar deb duo qilurmen. Iloyo ma'rifatli hukmdor bo'lsinlar! Iloyo jabr-zulmdan uzoq yursinlar!

Bu duolar Abusayidda yo'q fazilatlarni begin istehzo bilan unga yopishtirayotganday tuyuldi. Ayniqsa, so'nggi gap Abusayidning g'ashini keltirdi.

Buni sezgan Taftazani beginning podshohga yoqmaydigan yana biron gap aytib qo'yishidan cho'chib, orani sillqlashga shoshildi:

— Omin, beginning yaxshi tilaklari ijobat bo'lsin! Begin, sizning qaramog'ingizda ulkan madrasa bor. Mudarris-u tolibi ilmlar sizning so'zingizdan chiqmaslar. Ana o'shalarga aytsangiz. Barcha ahli qalam, ahli ma'rifat — sizning ixlosmandlarin-gizdir. Davlat tepasida podshoh tursa, madaniyat va ma'rifat ahlining boshida siz turibsiz. Ilm-u ma'rifat ahliga tushuntirsangiz, ular Abusayid hazratlarini qo'llab-quvvatlasinlar. Bu oliy zotni Turon-u Xurosonning eng oliy hukmdori deb tan olsinlar!

Gavharshod begin Abusayidning hozirgi tashrifidan maqsadi nimaligini endi fahmlay boshladi. Bu ayyor odamning o'ziga ishonchi shunchalik katta ekanki, Gavharshod beginday ko'pni ko'rgan malikaning qirq-elliq yilda erishgan obro'si va nufuzini bir yo'la o'z maqsadlariga xizmat qildirmoqchi bo'lyapti. Shuncha

yil umr ko'rib, saksonga kirganda madrasalarga borib, mudarislari va tolibi ilmlar oldida o'g'li Ulug'bek Mirzoga shuncha yomonliklar qilgan Abusayidni «Najotkorimiz!» deb maqtash uyatli ish bo'lmashi? Odamlar bu tojdorning kimligini bilmaslarimi? Gavharshod beginning Hirotda, boshqa joylarda qancha ixlosmandlari bor. Agar u o'g'liga xiyonat qilgan odamga xushomadlar qilib obro' orttirmoqchi bo'lsa, bu bilan el-yurtning nazaridan qolmaydimi? Begimdan odamlarning ixlosi qaytgandan keyin Abusayid ham uni keraksiz narsaday bir chetga surib tashlamaydimi? Begim bunday hodisalarning ko'pini ko'rgan-ku.

Lekin hozir Abusayid go'yo ta'ziya bildirib, «Ko'ngil so'rash uchun keldim» deb turgan paytda unga qarshi gapirish aqdan emas edi. Gavharshod begim yerga qarab, qiynalib, yotiqroq bir javob izladi:

— Mening bir oyog'im yerda bo'lsa, bir oyog'im go'rda... Narigi dunyoga riyokor bo'lib ketishdan qo'rqamen. Necha kunlik umrim bor, xudo biladi. Qolgan umrimni toat-ibodat bilan tinchgina o'tkazmoqchimen!..

— Niyatingiz oliyanob, — deb sayrab ketdi Taftazani, — sizdan faqat duo-yu fotiha lozim! Abusayid hazratlarini Hirotdning oliv hukmdori deb e'lon qilmoqchimiz. Juma namozida nomlarini xutbaga qo'shib o'qitmoqchimiz. Shunga siz oq fotiha bersangiz bo'ldi!

— Ammo... taqsir... men ayol zotidanmen, masjidga borolmagaymen...

— Albatta, siz borishingiz shart emas! Biz sizning rozi bo'lganiningizni, oq fotiha bergenningizni el-yurt oldida o'zimiz e'lon qilgaymiz.

Gavharshod begim el-yurt oldida qanday uyatga qolishi mumkinligini ko'z oldiga keltirdi-yu, o'zini ortiq tutib turolmadi.

— Taqsir, uyat o'limdan yomon deydilar! Meni el-yurt oldida uyatga qo'y mang!

— Bu sizga uyat emas, balki sharaf keltirgay!

— Sulhni buzib, ittifoqdoshining yelkasiga pichoq urish ham sharafmi? Nechun Sulton Abusayid hazratlari Jahonshoh bilan jang qilishga bormadilar?

— Hazratim Hirotda mustahkam bo‘lib, keyin Jahonshoh bilan albatta jang qilurlar!

— Bundan uch oy oldin siz Sulton Ibrohimning nomini xutbaga qo‘sib o‘qigan edingiz, taqsir. Endi u aldanib qola-versinmi?

— Unga hazratim Balxni bermoqchilar...

— Ammo Balx hokimi Shayx Hoji ham Sulton Ibrohimni aldabdi-ku. «Keling, Balxni bergaymen!» deb odam yuboribdir. Sulton Ibrohim bunga ishonib, Balxga borayotganda pistirmadan Hazrat Abusayidning askarları chiqib, uning qancha odamini o‘ldiribdir. Sulton Ibrohim Marvga qochib borib, zo‘rg‘a jon saqlabdir. Nahotki ittifoqdosh, qarindosh odam shunchalikka borsa?! Men bunday makr-u hiylalarga oq fotiha bersam iy-mondan ayrilamen-ku!

Abusayidning rangi oqarib ketdi. O‘rnidan sakrab turar ekan:

— Biz bu beginning fotihasiga muhtoj emasmiz! — dedi va xaylashmay chiqib ketdi.

Shu soatdan boshlab Gavharshod beginningi chirmab aylanti-rayotgan quyunning shiddati behad kuchayib ketdi. Beginning ishongan navkari Turkanshoh Abusayid ketishi bilan hibsga olindi.

Bog‘i Safedni qo‘riqlab turgan sodiq navkarlar ham kechga borib almashtirildi. Ularning o‘rnini Abusayidning badjahl harbiylari egallab oldilar.

Bog‘ning tashqari burchagidagi qorovulkxona ularning ixtiyoriga o‘tdi. Ular bog‘ va qasrda xizmat qiladigan savdarlarni ham haydab yubordilar. Bog‘ to‘ridagi xizmatkorxonani o‘zlarini ovqat yeydigan joyga aylantirdilar.

Gavharshod beginning ixtiyorida faqat bitta keksa kaniz bilan oshpaz qoldirildi.

Ertasi kuni chorshanba edi. Gavharshod beginning o‘z nomidagi madrasaga boradigan payti bo‘ldi. Uni taxtiravonda e’zozlab olib boradigan yigitlar kelishdi. Lekin ularni boqqa kirgizmay, qaytarib yubordilar. Gavharshod beginningi bilan madrasaga piyoda bormoqchi bo‘lgan edi, uni darvozadan tashqariga chiqarmadilar:

— Ruxsati oliv bo‘lmaquncha hech yoqqa bormagaysiz! — dedi bog‘ni qurshab olgan qo‘riqchilar sardori.

— Axir madrasada meni odamlar kutib o‘ltiribdir! — dedi Gavharshod begin. — Kanizim borib mutavalliga¹ aytsin. Balki o‘zlaridan biror kishi kelar. Men mudarrislarga maosh bermog‘im zarur.

— Madrasaga biz o‘zimiz xabar yuborurmiz, — dedi qo‘rboshi va bog‘dan kanizning chiqishiga ham ruxsat bermadi.

Begin xonaki hibsga tushganini, asorat halqasi tobora si-qilib borayotganini shundan sezdi.

Amir Sherhoji esa Abusayidning alohida iltifotiga sazovor bo‘ldi. So‘nggi uch oy davomida Nirotu qal’asida yashirinib yotib, sog‘ayib qaytgan Sherhojiga Abusayid tomonidan panjhazora degan yuksak unvon berildi. Tarxon amirlarini ziyofat paytida qatl ettirib, Abusayidning Hirotga keladigan yo‘llarini ochib bergenligi uchun Sherhoji endi mashvaratlarning to‘rida, Abusayidning yonida o‘ltiradigan bo‘ldi.

So‘nggi mashvaratda Abusayid avvalgi hukmdorlarga xizmat qilgan amaldorlarning mol-u mulklarini musodara qilishni, yashirgan oltinlarini topib, xazinaga topshirishni vazir Said Jaloliddinga buyurdi.

— Siz, janob Sherhoji, Ixtiyoriddin qal’asining darvozalarini ochtiring! — dedi. — Ahmad yasovul degan bir devona qal’ani ichidan berkitib olgan emish! Hirotday qo‘rg‘on bizga jangsiz darvoza ochganda qayoqdagi yasovul qal’aga bizni krigizmasa, bunga qanday chidash mumkin?

Sherhoji o‘rnidan turib, qo‘li ko‘ksida Abusayidga ta’zim qildi:

— Olampanoh, farmoningiz bosh ustiga, uni so‘zsiz ado etgaymen!

Sherhoji mashvaratdan chiqiboq, o‘ziga berilgan besh ming qo‘sish bilan Ixtiyoriddin qal’asini o‘rab oldi. Zambaraklardan qo‘rg‘onning po‘lat darvozalariga o‘q ottirdi. Lekin darvozalar «qilt» etmadi.

Qal’a baland bir qoya ustiga qurilgan, atrofi tik jarlik, hech qanday narvon ish bermas edi.

¹ *Mutavalli* — madrasa ma’muri.

Sherhoji qal’ani kuch bilan ololmagach, hiyla ishlatmoq-chi bo’ldi. Darvoza ichidagi qorovullarga aytib, Ahmad yasovulboshini chaqirtirdi:

— Mayli, darvoza ichidanmi yoki devor ustidanmi bizga o’z talablarini aytsinlar, — dedi.

Ahmad yasovulboshi darvoza devori ustiga chiqqanda unga eng kuchli yoydan o‘q otadigan merganni pana joyga poyloq-chi qilib qo‘ydi.

Ahmad yasovulboshi ham anoyi emas ekan. Uning odamlari yuqoridagi devor shinaklaridan mo‘ralab, pistirmada turgan merganni ko‘rgandan keyin Ahmad yasovulboshi po‘lat darvoza ortida turib Sherhojini rosa so‘kdi.

— Sen, xoin, meni ham taxxonlarga o‘xshatib aldab o‘ldirmoqchimiding?! B... yebsan! Jo‘na bu yerdan! Senga darvoza ochadigan sotqin yo‘q!

Sherhoji Ixtiyoriddin qal’asini kuch bilan ham, hiyla bilan ham ololmagach, Sulton Abusayid huzuriga kelib, aybni Gavharshod beginnga to‘nkadi:

— Ahmad yasovul shu kampir orqali Sulton Ibrohimdan darvoza ochmaslik haqida buyruq olgan. Qal’aga juda katta oltin zaxiralari yashirib qo‘yliganidan mening xabarim bor, hazratim. Bu zaxiralarning katta bir qismini Gavharshod begim Shohrux Mirzo davridan beri asrab yuribdir. Ahmad yasovul o‘sha beginning qutqusi bilan bizga darvoza ochmay turibdir!

— Nahotki Hirotda bu beginning odami shunchalik ko‘p bo‘lsa?! — deb taajjublandi Abusayid va maxfiy ishlar amirini chaqirdi. Hirotda yashirin ish olib borayotgan xufiyalarning ma’lumotlarini o‘qitib eshitdi.

Madrasadan kelgan maxfiy axborotda mudarrislар Gavharshod beginning jasoratini maqtagan emishlar. Abusayid Hirot taxtiga chiqish uchun oq fotiha so‘raganda, begin bunga rozi bo‘limganligi qandaydir yo‘llar bilan hirotliliklar orasida ovoza bo‘lib ketibdi. Bozor rastalarida yuradigan xufiyalar axboroti bo‘yicha ham avom xalq beginnga qoyil bo‘lmoqda emish, podshohni esa, «sulhni buzgan, ahdida turmaydigan makkor odam!» — deb qoralamoqda emish.

So‘nggi ma’lumotlarni eshitganda Abusayidning g‘azabi qo‘zidi:

— Ablahlar! Kim bunday ovozalarni tarqatgan bo‘lsa darhol tuttiring! Bizni yomonlaganlarning tilini kestiring!

«Amiri g‘azab» deb ataladigan jallodlar boshlig‘i bu buyruq-ni bajarishga kirishdi.

Shundan keyin Abusayid yana Sherhojini chaqirtirdi.

— Bitta kampirga sizdek amirning kuchi yetmay qoldimi, a?!

— Olampanoh, siz hukm qilsangiz, men bu yalmog‘izni birpasda yo‘q qilurmen!

— Hukmga asos kerak. Gavharshod beginning ildizi juda chuqur ekan, ixlosmandlari ko‘p ekan. Ularning og‘zini bekitadigan shar‘iy dalillar topping.

— Hazratim, eng katta dalil shuki, sizga qarshi Marvda qilich qayrayotgan Sulton Ibrohim mana shu momosi bilan ilgaritdan til biriktirgan. Momosi Tarxon amirlariga imzo qo‘ydirib yuborgan maxfiy nomani Turkanshoh degan navkari Murg‘ob bo‘yiga eltil berganidan men o‘zim xabardormen.

— Lekin bu dalil eskirgan. Undan ham foydalanish mumkin. Turkanshoh hozir hibsda. Ammo siz yangi dalillar topping. Bizning posbonlarimiz hozir Bog‘i Safedni o‘rab olgan. Balki ular Ibrohimdan keladigan maxfiy aloqachini tutib olishar?

— Dono fikr berdingiz, olampanoh! Men alhol Bog‘i Safeddag'i qo‘riqchilarimiz oldiga borib, bu ishga o‘zim bosh bo‘lurmen!

Sherhoji boshliq qo‘riqchilar Bog‘i Safedga Gavharshod beginni so‘rab kelgan har bir odamni sinchiklab kuzata boshladilar. Oq salsa o‘ragan madrasa mudarrislari uch kishi bo‘lib kelgan edi. Ular beginning huzuriga kirib chiqqanlardan keyin uchovini qorovulxonaga olib kirib, kissalarini, kiyimlarini tintishdi. Gavharshod begin ularga maosh tarzida tilla tangalar bergen ekan. Navkarlar tangalarni olib qolishdi:

— Buni xazinaga topshirgaymiz! — deyishdi. Mudarrislar badvahima qo‘riqchilardan omon qutulganlariga shukur qilib, uylariga tarqab ketishdi.

SO'NGGI TASALLI

Shundan so'ng Bog'i Safedga Gavharshod beginni yo'qlab kelish ham xatarli bo'lib qolgani butun shaharga ovoza bo'ldi. Bu muhtasham saroyni ichidagi butun boyliklari bilan Gavharshod beginidan tortib olib, o'ziniki qilish Sulton Abusayidning qat'iy maqsadiga aylangani ko'pchilikka sezildi. Bu dargohga yurak yutib keladigan odam juda kamayib ketgan kunlarning birida Bog'i Safedga Feruza begin, Alisherbek va uning onasi Gulruh bonu kirib keldilar. Gavharshod begin ularni bag'riga bosib, ko'ziga yosh olib ko'rishdi:

— Xayriyat, meni unutmagan qadrdonlarim bor ekan!

— Ne bo'ldi, hazrat begin? Bu Abusayid nechun buncha o'chakishdi?

— Menga eski adovati borligini bilursiz. Meni tiz cho'ktirib, el-yurtning nazaridan qoldirmoqchi bo'ldi. Lekin niyatiga yetolmadi. Baribir ertami-kechmi, mana bu qasrni bor bisotlarim bilan tortib olishi aniq. Shuni bilganim uchun izzatimni saqlab, qattiq turibmen. Alisherjon, siz farishtadek pok yigitsiz. Shunday zolimga el-yurt orasida maddohlik qilib yashagandan ko'ra, haq yo'lida o'lgan afzal emasmi?

Alisher qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

— Hazrat begin, Hirotdagi barcha ahli qalam, ahli ma'rifat sizning haq yo'lida sobit turganingizga tahsin aytmoqda. Abusayid Mirzo Hirotda harbiy g'alabaga erishgan bo'lsa ham, ma'naviyatda siz uni mag'lub etmoqdasiz. Iloyo umringiz uzoq bo'lg'ay!

— Ma'naviyat — bu umri boqiy emasmi? O'tkinchi dunyoga hammamiz ham mehmonmiz. Men yoshimni yashab, oshimni oshadim. Endi xudo sizlarga umr bersin. Feruza begin! Nechun Husayn Boyqaro ko'rinxaydir?

— Abusayid uni Samarcandda hibs qildirgandan buyon o'g'lim uni ko'rgisi kelmaydir. Marv hokimi Sulton Sanjar Mirzo uni o'z saroyiga taklif qilibdir. Husaynjonning bahodirligi unga juda yoqib qolgan emish. Qizi Beka beginni bizga kelin qilib bermoqchi emish. Husaynjon mendan rozilik so'rab, odam yuboribdir. Sizdan maslahat olgani keldim.

— Husayn Boyqaro hozir necha yoshdalar?

— O'n to'qqizda.

— Ayni uylanadigan paytlari ekan. Sulton Sanjarni men bilurmen, mardona ish yuritadigan mirzolardan. O'zi siz-u bizga qarindosh temuriyzoda. Ona tomoni — mashhur saljuq podshohi Sulton Sanjarning avlodidan. Marvda Sulton Sanjar maqbarasi hanuz saqlanib turibdir. O'g'lingizning toleyi bor ekan. Bunday aslzodalarga kuyov bo'lish katta sharaf. Iloyo baxti ochilsin!

— Tashakkur hazrat begin! Hirotda yashash xavfli bo'lib qoldi. Abulqosim Bobur saroyida xizmat qilganlarning uy-joyini, mol-u mulkini Abusayid musodara qilib, o'zining bek-u a'yonlariga in'om etmoqda. Shuning uchun men ham Marvga, o'g'limning huzuriga ketmoqchiman.

— Unday bo'lsa men keliningizga sovg'alar berib yuboray.

Gavharshod begin javonda turgan sadaf qutidan gavhar ko'zli uzuk va yoqt qadalgan oltin isirg'a olib, Feruza beginiga uzatdi.

— Oling, begin, Hirotda hozir sizlardan yaqin qadrdonim qolmadi!

Feruza begin o'rnidan turib, sovg'alarni ta'zim bilan oldida, ko'zlariga surtdi:

— Hazrat begin, sizniki tabarruk! Ming bora tashakkur!

— Muborak bo'lsin! — deb Feruza beginni Alisherbek bilan uning onasi Gulruh bonu tabrikladilar.

Gavharshod begin Gulruh bonuga yuzlandi.

— Siz ancha xomush bo'lib o'tiribsiz, Gulbibi... Tinchlik-mi?

— Bizni taladilar, hazrat begin. Alisherbekning otalaridan qolgan hovli-joy, mol-u mulk — hammasini Abusayidning amirlari tortib oldilar. Hatto uy jihozlarini, sayisxonada turgan otlarimizni tortib olib ketdilar. O'zimizni ko'chaga haydadilar. Faqat egnimizda bor kiyim bilan qoldik.

— Evoh, bu qanday bedodlik! — deb kuyundi Gavharshod begin.

— Men Alisherbekni onalari bilan o'z uyimizga olib ketdim, — dedi Feruza begin. — Borini baham ko'rib, birga turibmiz.

— Lekin bu zolimlar sizni ham tinch qo‘ymasalar kerak, begin. Sulton Ibrohim Marvda Sanjar Mirzo bilan ittifoq tu-zibdir. Husayn Boyqaro ular bilan birga ekanini Abusayid bilib qolsa, sizga ham zulm o‘tkazurlar!

— Shuning uchun biz tezroq Marvga jo‘nab ketish niyati-damiz.

Hammalari ro‘zador bo‘lganliklari uchun dasturxon yozilmadi. Gavharshod begin yana o‘rnidan turib, sadaf qutidan olmos donalari qadalgan noyob bir tilla bilaguzuk oldi.

— Sandiqlarimda oltinim ham bor. Xudoga shukur, shuncha yil Hirotning eng badavlat malikasi bo‘lib yashadim. Lekin oltin tangalarni tashqarida turgan nokas qo‘riqchilar mudarrislardan tortib olib qo‘yibdir. Yana sizlarni ham ovora qilmasin. Gulbibi, bilaguzukni taqib, yeng ichida yashirin olib o‘tgaysiz. Ishonchli zargarga bersangiz o‘n ming tilla tangaga sotib olgay. Og‘ir kuningizga yarasin deb bermoqdamen.

— Toabad sizdan minnatdormen, hazrat begin! Lekin bu unutilmas sovg‘angizni zinhor zargarga sotmasmen. Mening ham orzu-havaslarim bor. Xudo xohlasa buni bo‘lajak kelinimga atab saqlab qo‘ygaymen!

— Unday bo‘lsa, men sandiqni ochay! — dedi Gavharshod begin. — Hirotda hozir sizlardan yaqinroq qadrdom qolmadidi. Yiqqan bisotlarimni narigi dunyoga olib ketarmidim? Abusayid oltin-u javohirga juda o‘ch emish. Erta-indin uning talonchilar bu yerga kelib, bor bisotimni musodara qilishlari hech gap emas. Hozir Bog‘i Safedni o‘rab olgan poyloqchilar faqat meni emas, bu qasrdagi boyliklarni ham qo‘riqlab turgan bo‘lsalar kerak. Qashqirlarga talatgandan ko‘ra, sizlarga bergenim afzal emasmi? Feruza begin, sizning karimat-u tarafayn ekanligingiz qo‘riqchilar boshlig‘i Amir Sherhojiga ko‘pdan ma’lum. Sizga ular daxl qilolmaslar.

Gavharshod begin ikkita charm hamyon to‘la tilla tangalarni sandiqdan olib, Feruza beginiga berdi.

— Gulbibi siznikida ekanlar, birga baham ko‘rgaysizlar, — dedi.

— Bu saxovatingiz umrbod yodimizda qolgay, hazrat begin! — dedi Gulruh bonu. — Biz Marvga ham Feruza begin

bilan birga ketmoqchimiz. Mening og‘am Mirsaid Kobuliy Marvda Husayn Boyqaro bilan birga ekanlar. Bizni chorlabdilar.

— Alisherbek, siz ham birga borurmisiz?

— Ha, yo‘llar notinch, onalarni faqir qo‘riqlab bormoq-chimen. Yana Marvda qadrdon maktabdoshim Husayn Boyqaroni to‘y bilan tabriklash niyatidamen.

— Husayn Boyqaro qilichni ko‘p chopgan dovyurak bahodir deb eshitdim.

— Ayni vaqtida ul zot tab’i nazmlari baland shoirdirlar, — dedi Alisherbek. — Husayniy taxallusi bilan bitgan ajoyib she’rlari bor.

— Lekin she’rini eshitmagan ekanmen, — dedi Gavharshod begin.

— Alisherbek do‘stining eng yaxshi she’rlarini yod bilurlar, — dedi Feruza begin.

— Husayn Boyqaro bahodirona bir jur’at bilan ajalning yuziga tik boqib, g‘azal bitganlar. Hazrat begin, men siz uchun o‘sha g‘azaldan bir matla’ni aytib beray:

*Ey, ajal, osuda qil, hijron balosidin meni,
Bir yo‘la qutqar ulusning mojarosidin meni.*

— Hah! — deb taajjublandi Gavharshod begin. — Shunday yigit ham ulusning mojarosidan bu qadar bezor bo‘lgan ekanlarmi? Bizning boshimizda ham hozir shunday mojaro! Yaxshi she’r dil dardiga malhamdek ta’sir qilar ekan.

Gavharshod begin yana nodir buyumlari saqlanadigan sandiq ustiga egilib, quyma oltindan muqova qilingan jajji bir daftarcha oldi. Oltin muqovasi nodir feruza toshlar bilan ziynatlangan bu daftarchaning hali hech narsa yozilmagan varaqlari nafis ipakdan qilingan edi. Gavharshod begin kaftdek daftarchani Alisherbekka berar ekan:

— Mavlono Lutfiyni qoyil qilgan shoh satrlaringizga oltin daftar munosibdir, Alisherbek, — dedi. — Men sizni ko‘rsam o‘g‘lim Ulug‘bekning yoshligini eslaymen. Daholardagina bo‘ladigan pok bir olovni, tengsiz zehn-u iste’dodni, farish-tadek ma’sumlikni men Ulug‘bekda ko‘rgan edim. Endi sizda ko‘rmoqdamen. Mana shu oltin daftarchaga yangi shoh satrlaringiz bitilsin. Mendan yodgorlik tarzida oling, bolam!

Alisherbek beginning qo'lini oltin daftarcha bilan birga avaylab kaftlariga oldi-yu, bir tizzasini gilamga qo'yib yukundi va sovg'ani ko'ziga surtib qabul qildi:

— Minnatdormen, hazrat begin. Ruxsat bersangiz, ikki satr she'r aysam. Zora bu she'r sizning ko'nglingizga ozgina bo'lsa ham taskin bersa. Faqir bu she'rda Abusayid bilan kelgan zolimlarni chingiziy ulusga o'xshatmishmen. Husayn Boyqaro g'azalida ham ana shu ulus zulmidan bezganlik bitilmishdir. Mana, o'sha ulus haqidagi bayt:

*Parim bo'lsa, uchib qochsam ulusdin to qanotim bor.
Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to hayotim bor!*

— Oh, yosh bo'lsangiz ham avliyodek dilimdagini topib aytdingiz, Alisherjon! Necha yillar men bu zolimlar ulusidin qanotim boricha uchib qochdim. Ammo bir qanotim Samarqandda kuydi, yana bir qanotim Hirotda kuydi, endi, mana, qanotsiz qushdek arosatda qoldim. Ammo hamon hayotim boricha yugurib, Haq taolo dargohiga ruhimni pok yetkazib borish harakatidamen.

— Parvardigor sizga madad bersin! — dedi Alisherbek.
— Sizning she'ringiz ham dilimga quvvat berdi, — deb, Gavharshod begin kanizakni chaqirdi: — Bahriniso, muraqqasni¹ olib keling.

Nafis zarvaraqlariga Gavharshod beginning eng yaxshi ko'rgan hadislari, hikmatli so'zлari yozilgan muraqqas kelтирildi. Sakkiz oyoqlik naqshin miz ustida oltin qalam va kumush dovot turgan edi. Gavharshod begin Alisherbekdan iltimos qildi:

— Hozir aytgan she'rlaringizni shu muraqqasga yozib keting, bolam.

— Jonim bilan! — deb Alisherbek miz yoniga qo'yilgan zarbof kursiga o'tib o'ltirdi. Muraqqasning hali hech narsa yozilmagan zarvaraqlari ko'p edi. Ulardan biriga o'zining yuqorida aytgan ikki satr she'rini chiroyli nasta'liq yozuvi bilan bitdi.

¹ *Muraqqas* — albom.

— Husayniyning baytini ham yozing! — deb iltimos qildi beginim. — Men ham shu kunlarda ajal bilan yuzma-yuz turibmen. Ruhimga mos keldi.

Alisherbek muraqqasning yana bir zarvarag‘iga do‘sining satrlarini yozdi. So‘ng muraqqasni ikki qo‘llab Gavharshod begimga ta’zim bilan tutdi.

— Bizdan ham kichkina esdalik qoldi, qabul eting, hazrat beginim!

— Bu kichkina esdalik men uchun barcha bisotlar-u xazinalardan qimmatliroqdir. Sohibqiron Amir Temur davridan buyon men qancha xazina-yu qancha boyliklarni ko‘rdim. Hammasi oqar suvdek o‘tib ketdi. Ammo mana bu muraqqasga bitilgan ma’rifat-u ma’naviyat gavharlari abadiy qolgay. Ming afsuski, Ulug‘bek davrida erkin parvoz etgan ilm-u ma’rifat yana qaytadan bosqinchi sipohilar asoratiga tushdi. Husayn Boyqaro bilan Alisherbek ulg‘ayib davlatni boshqarsalar, ilm-u ma’rifat ahliga najot keltirurlar, degan umidim bor edi.

— Bu ikki do‘sit adolatli shoh-u, donishmand vazir bo‘lish orzusidan hali ham voz kechganlari yo‘q, — dedi Feruza beginim.

— Lekin hozir bular ham quvg‘inda. Yovuz kuchlar davlat tepasiga keldi, Alisherjon. Men sizlarning orzularingiz ushaladigan kunlarga yetib borolmaydigan ko‘rinamen. Zora mas’ud kunlarga oq fotihalarim yetib borsa!

Begim duoga qo‘l ochdi:

— Yo Ollohu taolo! Muqaddas ramazon kunida ro‘za tutib qilgan iltijolarimizni ijobat aylagaysen! Iloyo Shohrux Mirzo bilan Ulug‘bek davridagi tinchlik, bunyodkorlik, farovonlik yana qaytib kelsin, adolatni tiklab, ilm-u ma’rifatni yuksaltirish Alisherbek bilan uning do‘siti Husayn Boyqaroga nasib etsin! O’shal mas’ud kunlarga men yetib borolmasam, ilohim mana bu mushfiq onalar yetib borsinlar! Omin!

— Omin! Iloyo o‘scha kunlarga siz ham yetib boring, hazrat beginim! — dedi Alisherbek.

— Koshki! — deb Gavharshod beginim ko‘ziga yosh oldi. Feruza begin una tasalli berdi:

— Hazrat beginim, Marvdan qaytib yana diydor ko‘rishgaymiz. Biz huzuringizga albatta kelurmiz.

— Qani edi sizlarni yana ko‘rsam! Lekin men hech balodan qaytmaydigan zo‘r bir makkoring asoratiga tushdim. Chevaram Sulton Ibrohim kasalmand, yosh yigit. Abusayidday tajribali g‘animga bas kelolmagay. Uni Marvda ko‘rsangiz aytинг, yana Abusayid bilan urushib mag‘lub bo‘lib yurmasin. Taqdirga tan bermoqdin o‘zga chora yo‘q.

— Axir ular sizni bu asoratdan qutqarishlari kerak-ku!

— Endi parvardigor meni o‘z boqiy dunyosiga olib ketib qutqarmog‘i mumkin. Qolgan umidim oxiratdan. Agar qayta ko‘risholmasak, xayr! Mas’ud kunlarga yetib borganda meni ham yod etinglar. Alvido, azizlarim!

Uchovlon tashqariga chiqqanlarida daraxt soyasida poyloq-chilik qilib turgan qilich taqqan shopmo‘ylov qo‘rchiposhi yo‘llarini to‘sib chiqdi. Qo‘lini qilichining sopiga qo‘yib:

— To‘xtanglar! — dedi.

Feruza begin yuziga tutilgan oq harir parda orqali past, ammo tahdidli tovush bilan gapirdi:

— Iffat pardasi ostidagi muslimalarni tintimoqchimisiz? Bizga tegingen nomahram ilik shariatga binoan kesib tashlanmog‘i kerak!

— Sizni emas! Yoningizdagи yigit qorovulxonaga kirsin.

Alisherbek qo‘ynidagi oltin muqovali daftarchaning salmoqli vaznini sezib, yuragi «shig» etdi. Shunda yana Feruza begin qo‘rchiposhiga shiddat bilan so‘z qotdi:

— Nahotki siz avliyoday pok bu shoir yigitni tanimasangiz? She‘rlarini butun Hirot yod bilur, g‘azallarini kuylarga solib, to‘ylarda ayturlar. Siz qo‘rchiposhi bek bo‘laturib, nahotki Alisher Navoiy degan nomni eshitmagansiz?

— Eshitganmen... Lekin bul zot juda yosh ko‘rinadirlar. Navoiyni men katta yoshlik shoir deb o‘ylardim.

— Bo‘ladigan yigit o‘n besh yoshida ham bosh bo‘lur. Menchi? Meni tanidingizmi, janob bek? Amir Temur hazratlari ning qiz avlodlaridan yolg‘iz men qolganmen. Sulton Abusayid Mirzo meni yaxshi taniydlilar. Hazratning qahriga uchramayin desangiz, bizga yo‘l bering!

Qo‘rchiposhi qorovulxona tomonga bir alanglab qarab oldi. Hozir u ko‘proq amir Sherhojining qahridan qo‘rqar edi. Le-

kin Sherhoji qorovulxonaning salqin burchagiga to'shalgan ko'rpachaga yonbosh qilganicha, tashqaridagi jazirama issiqliqdan bo'shashib uyquga ketgan edi.

— Mayli, boringlar. Lekin bu yerda ko'rgan-bilganlaringni hech kimga ayta ko'rmanglar. Jazosi yomon!

— Xo'p, tushundik. Xayr!

QATAG'ON

Kechki payt oftobning tafti qaytgach, amir Sherhoji ham qorovulxonadan chiqdi.

U xipcha gavdali, baland bo'yli, qotmadan kelgan, yoshi qirqdan oshgan odam edi. Siyrak qora soqoli ko'proq engagida o'sgan edi. Ko'zları yirtqichning ko'zidek sarg'ish tus berib yonib turardi.

Namozi asrga yaqin Bog'i Safedga Gavharshod begin madrasasining ma'muriyatini boshqaradigan mutavalli keldi.

Qalin qora soqol qo'ygan oq sallalik bu odamni Sherhoji tanir ekan. Mutavallining ta'zim qilib bergen salomiga alik oldi-yu, u ichkariga kirib ketgandan so'ng qo'rchiposhiga sekin shipshitib qo'ydi:

— Mana shuni tutmoq kerak. Begimning ishongan odami. Asli marvlik. O'sha yoqlar bilan aloqasi bor...

Gavharshod begin madrasa mutavallisining haromdan hazar qiladigan diyonatli odam ekanligiga ishonar edi.

— Madrasadagi mening qabulxonamda po'lat sandiq bor, shuning kalitini men sizga bermoqchimen! — dedi Gavharshod begin. — Men endi madrasaga bora olamanmiyo'qmi, ma'lum emas. Agar borolmasam, sizni xudoga, madrasa ixtiyorini sizga topshirmen.

— Inoyatingizdan minnatdormen, hazrat begin!

— Po'lat sandiqda madrasaning bir yillik sarf-u xarajatiga yetadigan oltin zaxiralari bor... Mudarrislar, tolibi ilmlar, oshpaz-u farroshlar, musharriflar — hammasining biz siz bilan tayin etgan maoshlari daftarga yozilgan. Hech kimni ta'minotdan qismang. Mudarrislarga har oyda yuz yigirma tillordan maosh,

bir yilda yigirma to‘rt yuk oshliq¹. Talabalarning yaxshi o‘qiganlariga har oyda yigirma to‘rt tilla pul, bir yilda besh yuk oshliq. Yana oyiga ikki tillodan sham puli. Har mavsumga muvofiq bepul beriladigan ust-bosh kiyimlar. Men o‘ltirib hammasini hisoblab chiqdim. Besh yuz jarib vaqf yerlarimizdan keladigan daromadlar barcha xarajatlarni qoplagay. Yetmaganiga po‘lat sandiqdagi zaxiralardan sarflagaysiz. O‘zingizga har oyda ikki yuz tilla maosh, bir yilda o‘ttiz yuk oshliq belgilandi.

— Saxovatingizdan minnatdormen, hazrat begin! Butun madrasa ahli, barcha mudarris-u tolibi ilmlar tun-u kun sizning duoyi joningizni qilmoqdalar.

Mutavalli Gavharshod begin topshirgan ishlarni qog‘ozga yozib oldi. Kalitni qo‘yin cho‘ntagiga solib, bog‘ tashqarisiga chiqqanda uni ikki navkar ikki qo‘lidan tutib, chetroqdagi qorovulxonaga boshlab ketdi.

O‘scha yerda eshikni ichidan bekitib, mutavallini hushidan ketguncha kaltakladilar. Behush yotganda qo‘ynidagi kalitni oldilar va qog‘ozlari orasiga oldindan tayyorlangan maxfiy maktubni solib qo‘ydilar. Go‘yo Gavharshod begin tomonidan yozilgan bu maktubni mutavalli Marvga Sulton Ibrohimga yashiriqcha olib ketayotgan paytda qo‘lga tushgan bo‘ldi.

Amir Sherhoji Abusayid huzuriga shoshildi. Gavharshod begin Marvdagi chevarasini isyonga undaganini, Hirot qo‘rg‘onining darvozasini unga tunda yashiriqcha ochib bermoqchi bo‘lganini, bu gaplar yozilgan maktub qo‘lga tushirilganini Abusayidga xabar qildi.

Yoz jaziramasi avjida. Ramazon oyining to‘qqizinchiligi kuni ertalab Gavharshod beginni usti yopiq soyabon aravaga solib, el-yurtga ko‘rsatmay, podshoh saroyiga olib ketdilar. Ustiga qora mato yopilgan bu arava beginiga to‘satdan Shohruk Mirzo vadotini eslatdi. Marhumni uzoq Raydan mana shunday aravada Hirotga olib kelgani, yo‘lda nevarasi Abdullatif ig‘vogarlarning qutqusiga uchib, momosini hibs qildirgani xayolida qayta gavdalandi.

¹ Bir yuk — taxminan 60 kiloga to‘g‘ri keladi. Oshliq — bu yerda bug‘doy va guruch.

U galgi hibsdan beginm qutulib ketgan edi. Ammo bu gal Abusayid shafqatsizlikda Abdullatifdan ham o'tib tushsa ehtimol. Beginning dili sezib turibdi. Hozir arkoni davlat yig'ilgan saroyda beginm o'zini Abusayidning oyog'i tagiga tashlab afu so'rasha, balki tirik qolishi mumkindir. Lekin qaysi gunohi uchun afu so'rashin? Bunday beobro' bo'lib yashashning nima qizig'i bor?

Beixtiyor kecha Alisherbek muraqqasga yozib ketgan ikki bayt she'r beginning yodiga tushdi. Kechqurun va ertalab bu satrlarni har o'qiganda ulardan ruhiy madad olganday bo'lardi. Qayta-qayta o'qigani uchun ular yod bo'lib qoldi. Bu baytlarning biri uni to hayoti borichaadolat va haqiqat sari intilish, ya'ni kurashishga undardi. Ikkinchisi esa, ajaldan ham qo'rqmaslikka chorlar, mardonha o'lim ulusning mojarosi ichida qul bo'lib yashashdan afzal ekanini eslatar edi.

Begim dardli qalbini tinchitish uchun: «Ey ajal, osuda qil qullik balosidin meni!» deb takrorlardi. «Hijron» o'rniga «qullik» so'zini qo'yib aytganda o'zining hozirgi asiralik dardiga mosroq kelardi. «Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to hayotim bor» degan so'zlar esa foniy dunyoda qanotlari kuygan odam boqiy dunyoga o'z hayotini pok yetkazib borishga intilishi kerakligini ta'kidlaganday bo'lardi.

Bog'i Zog'on qasrining muhtasham qabulxonasiga gavhar va yoqutlar bilan bezatilgan baland taxt o'rnatilgan. Bir vaqtlar bu taxtda Shohrux Mirzo o'ltirar edi. Hozir uni boshiga tilla toj kiygan Sulton Abusayid egallagan. Podshohning ikki yonidan arkoni davlat, bek-u a'yonlar joy olganlar.

Qarshidagi o'ymakor eshikdan ikki barvasta navkar oq libos kiygan Gavharshod beginmi ikki tomondan tutib olib kirdilar.

So'nggi kunlarda beginm et tashlab, gavdasi ancha kichrayib qolgan. Lekin ko'zları taxtda yastanib o'ltirgan Abusayidni ko'rganda chaqmoq yorug'i tushganday chaqnab ketdi. Begim qo'llarini navkarlardan bo'shatib olib, ulardan bir qadam oldinga chiqdi. To'rda oq soqolli qozikalon va shayxulislomlar ham o'ltirganini ko'rib, qo'lini ko'ksiga qo'yganicha past tovush bilan salom berdi.

Ammo podshoh qovoq solib jim o‘ltirgani uchun hech kim alik olmadi.

Abusayid birinchi so‘zni qozikalon Shamsiddin Imomiyga berdi. Bu odam yaqindagina Gavharshod beginma sadoqat izhor qilib yurgan shariat peshvosi edi. Endi birdan yangi tojdar xizmatiga o‘tib, Gavharshod beginmi muqaddas ramazon oyida, Sulton Abusayidga qarshi fitna yuushtirishda ayblay boshladi.

Ashyoviy dalil tarzida mutavallining qo‘ynidan topilgan va Sulton Ibrohimni isyonga da‘vat etib yozilgan maktub keltirildi.

— Qani o‘sha mutavalli? — so‘radi Gavharshod begin. — Taqsir, uni men bilan yuzlashtiring. Bu soxta, uydirma maktubni kim uning qo‘yniga solib qo‘ygan? O‘zi aytsin!

— Mutavalli aybini bo‘yniga olgan! Mana, imzosi bor! — deb qozikalon qo‘lidagi bir varaq qog‘ozni ko‘rsatdi.

— Bechorani qiyab, soxta aybnomaga imzo chektirgan bo‘lsalar-chi? — so‘radi Gavharshod begin. — Janob qozikalon, siz xudodan qo‘rqmaysizmi? Shariat nomidan bunday tuhmatlar qilish gunohi azim emasmi?

— Peshgarlik qilmang! — deb, qozikalon jerkib berdi. — Eng katta gunoh — podshoh hazratlariga qarshi fitnaga bosh bo‘lmoqdir!

— Men fitnadan mutlaqo bexabarmen! Saksonga kirgan ro‘zador ayolmen!.. Parvardigor o‘zi shohid! Men Marvga ketganlarga tayinlagan edim. Mirzo Ibrohim kasalmand, o‘zi yosh, Sulton Abusayidga kuchi yetmagay, boshqa urushmasin, taqdirga tan bersin, deb aytib yuborganmen!

Qozikalon so‘nggi gapga ilmoq tashlashga shoshildi:

— Kimga aytgansiz? Kimga?

Gavharshod begin Alisherbek bilan Feruza beginmi biron baloga giriftor qilmaslik uchun ularning nomini tilga olmadi.

— Yaqinlarimga aytganmen, — deb qo‘ya qoldi.

— Demak, Sulton Ibrohim bilan aloqada bo‘lgansiz. Buni o‘zingiz tan olmoqdasiz.

Sherhoji taxtda o‘ltirgan Abusayidning ishorasi bilan o‘rnidan turdi:

— Janob qozikalon, bu beginning gaplariga mutlaqo ishonib bo‘limgay! Mutavallining qo‘ynidan topilgan maktub asosiy

dalildir. Bu maxfiy maktub ichkaridan olib chiqilgan paytda men Bog'i Safed qo'riqchilarining yonida edim.

— Demak, bu bo'htonni siz o'ylab topgansiz! — dedi Gavharshod begin. — Iloyo, kim yolg'on gapirsa, kim bo'hton qilsa, xudoning g'azabiga uchrasin! Qani, kim haq bo'lsa, omin desin!

Gavharshod beginidan boshqa hech kim bu duoga omin qilmadi. Aksincha, beginning duosi Abusayidga qarg'ishday eshitildi. U taxt ustidan pastga qarata qahr bilan gapirdi:

— Bu beginning qarg'ishi o'ziga tekkay! Chunki qachonlardan buyon bizga qarshi yog'iylik qilib kelmoqda. Samarqandda Abdulla Mirzo bizga qarshi urush qilganda unga mana shu begin ko'mak berdi. Abulqosim Bobur Hirotdan Samarqandga qo'shin tortib borib, biz bilan jang qilganda bu begin unga yon bosdi. Beginning tarbiyasini olgan yana bir ilonbachcha — Abdullatifning o'g'li Balx tomonlarda bizga qarshi isyon qilmoqda. Marvda Sulton Ibrohim, Sanjar Mirzo, Sulton Husayn Mirzo — uchovi ham bizga qarshi kuch yig'moqda. Lekin bizning jilovimizda Xo'ja Ahror valiydek piri komil bormoqda. Mana bu saroyga yig'ilgan g'olib amirlarimiz yog'iylarimizni tor-mor qilmoqda. Bizga qasd qilganlar past bo'lmoqda. Hirotday buyuk poytaxtni biz qon to'kmasdan jangsiz egalladik. Aqli bor odam shundan ham xulosa chiqarishi mumkin. Biz Sohibqiron bobokalonimizning buyuk sultanatini qayta tiklamoqchimiz. Buning uchun bizga yog'iylik qilganlarni ayovsiz mahv etmog'imiz lozim. «Bu ham temuriylar xondonidan» deb fitnachilarga erk bersak, ular mamlakatni xarob qilurlar. Yagona markaziy davlat tuzmoq uchun isyonchilarni shumg'iyadek ildizi bilan yulib tashlagaymiz! Ana o'shanda ishlarimiz mirishkor dehqonning ekinlaridek yaxshi rivoj topgay! Fitnachi shahzodalarni, ularning mana bu beginiga o'xshagan rahnamolarini dalamizdan yulib tashlab, safimizni yaganalab turishimiz lozim!

«Pahlavon Devona» laqabli amir Muboriziddin sakrab o'rnidan turdi:

— Haq gapni aytdingiz, olampanoh!
Unga Sherhoji jo'r bo'ldi:

- Dono siyosat uchun tashakkur!
- Amir Temurning haqiqiy vorisiga tasanno! — deb Said Jaloliddin Majid maqtovni yana bir daraja baland ko'tardi.
- Sohibqironi soniyga ofarin! — deb qozikalon Imomiy Abusayidga qulluq qildi.

Bunday laganbardorliklarni juda ko'p ko'rgan Gavharshod begin miyig'ida kulimsirab qo'ydi. Madhiyabozliklar bositgandan keyin Abusayidga murojaat qildi:

— Hazrat, siz bobokaloningiz Amir Temurni tilga oldingiz. Men bu ulug' dahoning nazari tushgan kelinlari edim. Ul zoti oliyning ol tamg'ali¹ muhrlariga «Rosti-rasti» degan so'zlar bitilganini o'z ko'zim bilan ko'rganmen. «Kuch adolatdadir», «Rostini aystsang najot topgaysen» degan e'tiqodga men umr bo'yi amal qilib keldim. Modomiki, siz meni o'limga hukm qilmoqchi ekansiz, so'nggi so'zimni aytishga ruxsat so'raymen. Rostini gapirmoqchimen!

Saroy ahli: «Begin rostini aytib, aybiga iqror bo'lmoqchimi?» degan xayol bilan jimb qoldi. Abusayid ham sukut saqladi.

Ro'zador Gavharshod begin saraton issig'i ustiga qo'shilgan ruhiy larzadan quruqshagan lablarini namlab, so'nggi kuchlarini to'pladi.

— Amir Temurning vafotlaridan keyin uning buyuk sultani qanday parchalanib ketganidan xabarlarining bor. Shohruk Mirzo o'g'limiz Ulug'bek bilan birga yagona markaziy davlatni qanday qayta tiklaganlariga men guvoh bo'lganmen. Ular doim ilm-u ma'rifat ahliga, halol odamlarga tayandilar. Barcha temuriylarga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'ldilar. Xalil Sulton bobokalonlarining vasiyatiga qarshi borib, og'ir xatolar qilgan bo'lsa ham, uni kechirdilar. Otalarining mulkini unga qaytarib berdilar. Katta og'alarining o'g'li Pirmuhammad Mirzo halok bo'lganda uning o'g'li Qaydu Mirzoni Balxga hokim qilib qo'ydilar. Yana bir og'alarining o'g'li Ahmad Mirzoni e'zozlab, Farg'ona vodiysini unga inoyat qildilar. Ana shu tarzda barcha sog'lom temuriylarni atroflariga yig'dilar, natijada shajara daraxti gullab-yashnab, bugungi kunlarga yetib keldi. Dehqonlar ya-

¹ *Ol tamg'aliq* — qizil gerb.

gana qiladigan mavsumiy ekinlar boshqa. Ammo temuriylar shajarası asrdan asrga o‘tib kelayotgan azim bir daraxtdır. Bu daraxtning qurigan shoxlarini olib tashlasalar mayli. Ammo shajara daraxtini g‘o‘zaga o‘xshatib yaganalash — uning tirik shoxlariga, ildiziga bolta urish bilan barobardir!

Gavharshod begin laxcha cho‘g‘day yongan ko‘zlarini Abusayidga tikdi:

— Siz o‘g‘illaringizdan biriga Ulug‘bek deb nom qo‘yibsiz. U hozir Kobulda hokim ekan. Ehtimol, siz Ulug‘bek Mirzodek olamshumul dahoga endi tan bergandirsiz. Ammo Ulug‘bek Mirzo tirikligida siz unga qarshi isyon ko‘tardingiz, Abdullatifning g‘olib kelishiga yordam berdingiz, shu bilan Ulug‘bekning qatl etilishiga hissa qo‘shdingiz. Shajara daraxtining eng yashnagan buyuk bir shoxiga bolta urganingiz shu emasmi? Abdulla Mirzo temuriylar sulolasining iste’dodli vakillaridan edi. Yosh bo‘lsa ham, Samarqandda adolatni tiklashga astoydil kirishgan edi. Siz Dashti Qipchoqdan Abulxayrxonni boshlab kelib, chingiziylar o‘qi bilan Abdulla Mirzoni o‘ldirdingiz. Keyin iningiz Uvays Mirzo sizga qarshi bosh ko‘targanda uning gunohi uchun o‘n ikki nafar begunoh temuriylarni Ko‘ksaroy hibsxonasiga qamab qo‘ydingiz. Ulardan biri o‘n to‘rt yoshli Husayn Boyqaro edi, xayriyat, onasi Feruza begin uni qutqarib olib keldi. Qolganlarini siz «yaganalab» yo‘q qildingiz. Aslida, bu yaganalash emas, shajara daraxtini kallaklashdir. Uning yashnab turgan shoxlariga bolta urib quritishdir!

Abusayidning toqati toq bo‘ldi. Taxt ustidan:

— Va’zonlik bas! — deb o‘shqirdi.
— Hazratim, bu xotin sizga shunday beandisha gaplarni aytgani uchun tilini kestirmoq kerak! — dedi Sherhoji.

— Siz faqat tilimni emas, boshimni ham kesishga tashnasi, janob amir! — dedi Gavharshod begin. — Lekin yaltog‘-langan bu xushomadgo‘ylarga uncha ishonmang, hazrat! Bizga xiyonat qilganlar erta-indin sizga ham xiyonat qilurlar. Dashti Qipchoqdagi Abulxayrxon bilan Mo‘g‘ulistondagι Yunusxon uchun siz Turon darvozalarini keng ochib berdingiz. Endi ko‘chmanchi sultonlar siz ochgan yo‘llardan kelib, temuriylarni asta-sekin Turon-u Xurosandan siqib chiqarish imkoniga

ega bo'lmoqdalar. Ular Samarqand-u Hirotda yana chingiziylar hokimiyatini o'rnatganda kelgusi avlodlar sizni qanday so'zlar bilan eslarkin, shuni bir o'ylang, hazrat!

G'azabdan rangi oqarib, ko'zlar qisilgan Abusayid chap tomondagi eshikka yuzlanib:

— Jallod! — deb qichqirdi.

Podshohning ovozidagi g'azabni sezgan jallodlarning birdan ikkitasi chopib keldi.

— Qilich bilan boshini kesinglar bu yalmog'izning! Ovozi o'chsin!

Farishtadek oq libosli momoni jallodlar ikki qo'lidan tutib olib chiqib ketayotganlarida begin oxirgi so'zlarini yig'ib aytdi:

— Xudo bor! Qasos qaytgay!

SHAHID MOMO YODI

Gavharshod beginmi xuddi o'g'li Ulug'bek Mirzo kabi qilich bilan chopib o'ladirganlari hirotlklarni zilzila kabi larzaga soldi. Beginning oq libosiga, oppoq sochlari ja'llod qilichidan qonlar tomanini ko'rgan qadrdonlari ko'z yoshlarini to'xtatolmay, o'kirib yig'ladilar. Beginning nomidagi madrasa hovlisiga tumonat odam yig'ilib, janoga o'qildi. Imomlik qilgan keksa mudarris janoga so'ngida:

— Avliyo momo haq yo'lda shahid bo'lilar! — deb e'lon qildi.

Beginmi shahidlarga munosib qoidalar bilan qabrga qo'yganlarida ko'ziga yosh olmagan odam qolmadidi.

Shahid momoni yig'lab dafn etganlar orasida muarrif Abdurazzoq Samarqandiy ham bor edi. Ko'p yil Shohrux Mirzo saroyida xizmat qilgan, uning o'limidan keyin ham Gavharshod beginmdan yaxshiliklar ko'rgan mavlono Abdurazzoq dilida uning kushandasini Abusayidga nisbatan cheksiz bir nafrat sezardi. Yonveridagilar:

— Musulmon podshosi ham shu qadar noinsof bo'lurmu? — deyishardi.

— Sakson yoshli ro'zador onani o'limga hukm qilishga qanday haqqi bor edi?!

— Xudodan qo‘rqedimini, a? Bunday katta ketishning oqibatini o‘ylamadimi?

Mavlono Abdurazzoqning dilidan ham shu iztirobli savollar o‘tib turar, ammo ko‘pchilik ichida tilini tiyib, dardini ichiga yutardi. Chunki hamma joyda Sulton Abusayidning ayg‘oqchilari borligini bilardi.

Sulton Abusayid tarafdorlari el-yurt orasida har xil mishmishlar tarqatmoqda edi. Go‘yo Gavharshod begim chevarasi Ibrohim Mirzo foydasiga josuslik qilgan mish. Saksonga kirib ham taxt talashishni qo‘ymagan emish. Bir vaqtlar shu begim Abdullatifni otasiga qarshi gij-gijlab, Ulug‘bekning o‘limiga ham sabab bo‘lgan emish. Buni biladigan Sulton Abusayid beginning hamma gunohlari uchun bir yo‘la shunday qattiq jazoga buyurgan emish.

Mavlono Abdurazzoq og‘ziga kuchi yetmagan odamlar birlariga aytib yurgan bu uydirmalardan nafrati kelar, lekin ularga qarshi ochiq gapirolmay ezilardi. Chunki bu yolg‘onlarni fosh qilish — Abusayidni qoralash bilan barobar edi. Abusayid esa o‘zini qoralagan odamni yo‘q qilmay qo‘ymas edi.

Endi qirq besh yoshga kirgan mavlono Abdurazzoq yigirma yildan buyon podshoh saroyida xizmat qilib, mulozimlar orasida biri-birining og‘zini poylash, podshohga qarshi aytilgan gapni dasturxon qilib yetkazish va raqibini chalib yiqitish odati naqadar rivoj topganini amalda ko‘rgan edi.

Adolatsiz gaplardan ezilib, dardini aytadigan sirdosh do‘s topolmagan mavlono Abdurazzoq dilidagi haqiqatni qog‘ozga tushirgisi keldi.

Mavlono ko‘pdan beri yozib yurgan umr kitobi «Matlasi’dayn» («Ikki saodatli yulduzning qo‘shilishi») hali tugallanmagan edi. «Hech bo‘lmasa avlodlar Gavharshod beginning begunoh o‘ldirilganini bilsinlar», degan niyat bilan quyidagilarni qog‘ozga tushirdi:

«Zamon bonusi¹, jahon malikasi... Gavharshod begim band martabali, pokizalik va iffat pardasi o‘ralgan, xatti-harakati odilona, pok, oliyhimmat va ulug‘ maqsadli bir malika

¹ Bonu — aslzoda ayol.

edi. Bu mashhur malikadan tiriklar olamida ko‘p xayrli yodgorliklar qoldi»¹.

«Shunday oliyhimmat, pokiza, iffatli, ulug‘ maqsadli, adolatli, xudojo‘y momoni qatl ettirgan Abusayidning qilmishiga parvardigor o‘zi jazo berar», degan umid bilan mavlono Abdurazzoq podshohning nomini bu o‘rinda qalamga olmay o‘tdi.

Mavlono Abdurazzoq Gavharshod beginmi «jahon mali-kasi» deb ataganda shahid momo qabrini ziyorat qilishga nafaqat Turon-u Xurosondan, balki Qazvin va Sherozdan, hatto uzoq Tabrizdan ham ixlosmandlar kelayotganini nazarda tutgan edi. Qora qo‘yunli turkman podshohlarining orasida eng nufuzlisi hisoblangan Jahonshoh milodiy 1558-yilda Abusayid bilan sulh tuzgandan keyin Hirotg a qisqa muddatga kelib, Gavharshod begin qo‘yilgan maqbarani ziyorat qilib ketganligi ko‘pchilikning e’tiborini tortgan, Sulton Abusayidga esa yana bir malomat toshi otiganday bo‘lgan edi.

Ayniqsa, ramazon hayiti kunlariда beginning qabrini ziyorat qiluvchilar ko‘p bo‘ldi.

Marvdan Alisherbek Gulruh bonu va Feruza beginmlar bilan Hirotg kelib, shahid momodan ko‘rgan yaxshiliklarini ko‘zda yosh bilan eslashdi, uning ruhiga bag‘ishlab, tilovatlar qilishdi.

Bog‘i Safedni ichidagi jihozlari va boyliklari bilan Sulton Abusayidning onasi va o‘g‘li Mahmud Mirzo egallab oldilar.

Hayit kunlari Gavharshod beginning jiyani Nizomiddin Ahmad Tarxon madrasa hovlisida beginni yod etib kelgan ilm-u ma’rifat ahliga xudoyi osh berdi.

Sulton Abusayid o‘z mulozimlari bilan ko‘chalardan nog‘ora chaldirib, bedov otta viqor bilan o‘tardi. Shunda salom yoki olqish o‘rniga xo‘mraygan yuzlarni, nafrat yog‘dirayotgan

¹ Ushbu ko‘chirma «Matlai sa’dayn...»dan olindi. Bu kitobning o‘zbekcha tarjimasini taniqli sharqshunos olim Asomiddin O‘rinboyev tomonidan yigirma yil burun amalga oshirilgan. Istiqlol davrida bu ulkan asar tarjimasini to‘liq nashr etildi.

ko‘zlarni ko‘rardi. Ko‘pchilikning nafrati va qarg‘ishi xufiyalar orqali ham saroya yetib bormoqda edi.

Shu orada Balxdan Ulug‘bekning nevarasi, Gavharshod beginning tarbiyasini olgan Abdurazzoq va Ahmad Mirzolar momosining kushandasasi Sulton Abusayidga qarshi isyon ko‘targanlari haqida xabar keldi.

Abusayid katta qo‘sish bilan Balxga yo‘l oldi. Isyonni bostirib, har ikki og‘a-inini o‘limga buyurdi.

Unga qarg‘ish yog‘dirayotganlar yanada ko‘payganini sezib, Hirota qaytgisi kelmadni, qishni Balxda o‘tkazdi.

Shohrux Mirzo avlodlarining Abusayidga qarshi isyonlari biri biriga ulanib ketdi. Hisor tomonlarda qochib yurgan Alouddavla Marvdan nari Saraxs qo‘rg‘onida kuch yig‘ayotgan o‘g‘li Ibrohim Mirzoning yoniga kelib, besh yuztacha navkarini uning lashkari safiga qo‘shti. Marv hokimi Sulton Sanjar Mirzo ham Abusayidga qarshi isyon ko‘tarib, Sulton Ibrohim va Alouddavlalar bilan birlashdi.

Lekin Abusayidning lashkari bu har uch mirzonikidan ikki barobar ko‘p edi. Abusayid bor boyligini qo‘sish yollashga sarflar, uning suyangan tog‘i sipohilar edi.

Saraxs qo‘rg‘oni yaqinida hayot-mamot jangi bo‘ldi. Sulton Abusayid bu gal ham zo‘r chiqdi. Sanjar Mirzo jang maydonida yarador bo‘lib, qo‘lga tushgan edi. Abusayid uni qatl ettirdi.

Sulton Ibrohim bu galgi mag‘lubiyat alamini ko‘tarolmadi, eski tutqanoq kasali qattiq xuruj qilib, olamdan o‘tdi.

Qochib yurgan Alouddavlaning o‘ligi Kaspiy dengizining janubidagi Rustamdar degan joydan topildi. Uning jasadini qizi Ruqiya beginning Hirota olib keltirib, momosi Gavharshod beginning maqbarasiga dafn etdi.

Go‘zal qiz — Ruqiya beginning Abusayid o‘ziga to‘rtinchchi xotin qilib nikohlab olgan edi. Undan o‘g‘il ko‘rganda otini Shohrux Mirzo qo‘ydi. Shu bilan Abusayid go‘yo Shohrux Mirzo xotirasiga tan bergen bo‘ldi.

Lekin amalda shajara daraxtini kallaklashni davom ettirdi.

Shohruxiya shahrida isyon ko‘targan Ulug‘bekning o‘rtancha nevarasi Jo‘giy Mirzo Hirota keltirilib, Ixtiyoriddin qal’asida qatl etildi.

Faqat Husayn Boyqaro bir marta Abusayidning changalidan qutulib chiqqandan buyon unga tutqich bermay, Marv va Astrobod tomonlarda yurardi. Abusayid endi uni ham yagana-lab yilib tashlashga harakat qila boshladi.

QUVG‘IN QILINGAN ISTE’DODLAR

Abusayid boshlab kelgan shafqatsiz quyunlar Qoraqum sahrosida chang-to‘zon ko‘tarib, Marvgaga ham yaqinlashib kelmoqda edi. Marvda bir qancha vaqt Husayn Boyqaro bilan birga bo‘lgan Alisherbek va ularning onalari Abusayid tomondan kelayotgan balolardan saqlanish uchun boshqa bexatarroq joy izlashga majbur bo‘ldilar.

Yigirma yoshga kirgan devqomat Husayn Boyqaro Marv atroflarida bo‘lgan janglarda jasorat ko‘rsatib chiniqqan, uning uch yuztacha sodiq navkari bor edi. Onasi va do‘sti Alisherbek bilan xayrashar ekan:

— Men endi tavakkal qilmoqchimen! — dedi. — Abusayidga qarshi kuch to‘plagaymen. Astrobod tomonlarda bizni chorlagan qadrdonlar bor.

Alisherbekning undan ajrashgisi kelmas edi.

— Do‘stim, — dedi Husayn Boyqaro. — Siz harb ishiiga uncha moyil emassiz. Sizning shoirlik qalamingiz xalqqa yuz ming sarbozdan ko‘proq naf keltirishi mumkin. Onalarimiz bilan birga Hirota qaytsangiz. Biz bilan tog‘oyingiz Muhammad Kobuliy birga bo‘lurlar.

— Hirota Abusayid ilkida, ayog‘im tortmaydir, — dedi Alisherbek.

— Hirotda sizga homiylik qilgan Hasan Ardasher borlar, — dedi Feruza begin. — Uy-joydan qiyngalsangiz, Gulbibi bilan biznikida turgaysizlar. Rahmatli Gavharshod begin in‘om etgan oltinlarimiz hali tugagan emas. Bir amallab ro‘zg‘or tebratgaymiz.

Maslahat shunga qaror topdi-yu, Husayn Boyqaro onalarini va do‘stini uch otga mindirib, yonlariga to‘rt nafar qo‘riqchi navkarini qo‘sib, Hirota jo‘natdi. Shundan so‘ng o‘zi Astrobod yo‘lidagi Niso viloyatiga yo‘l oldi.

Bu viloyatda Husayn Boyqaroga omad ilk bor kulib boqdi. Uch yuz kishilik askari bilan Bobo Hasan degan g‘animning besh barobar ko‘p qo‘sшинини yengib chiqdi. Bobo Hasanning o‘zi Husayn Boyqaro bilan yakkama-yakka qilich chopishib halok bo‘ldi. Uning ko‘pchilik navkarlari Sulton Husayn Boyqaroning bahodirligiga tan berdilar. Ular ham aslida Abusayid va qora qo‘yunli Jahonshoh zulmidan qochib yurgan sipohilar ekan. Husayn Boyqaro bu mustabid shohlarga qarshi kuch to‘playotgani ma’lum bo‘lgach, Bobo Hasanning tirik qolgan mingdan ortiq bek-u navkarlari Husayn Boyqaro xizmatiga o‘tdilar.

Shundan oldin Astrobodni Jahonshoh bosib olgan va Husaynbek degan tog‘asini bu yerga hokim qilib qo‘ygan edi. Shohruux Mirzo va Abulqosim Bobur zamonlarida tinch va farovon yashagan astrobodliklar qora qo‘yunli Husaynbekning jabr-u zulmidan bezor bo‘lib, botir bir najotkorga umid bog‘lab turgan edilar.

Qora qo‘yunlilarni g‘aflatda qoldirib, Astrobodga tong saharda to‘satdan qo‘shin tortib kirgan Husayn Boyqaroga shaharning botir yigitlari yordam berdilar. Qora qo‘yunlilar qo‘shtining jang maydoniga chiqqan qismi qirib tashlandi. Tirik qolganlari shaharni tashlab qochdilar.

Katta oq cho‘girma kiygan ellik yoshli semiz Husaynbekning o‘zi asir tushdi.

Uning jabr-u jafosidan va axloqsizliklaridan qahr-u g‘azabga to‘lgan astrobodliklar Husaynbekni ayovsiz jazolashni talab qildilar.

Boyqaroning farmoni bilan zolim Husaynbek dorga osib o‘ldirildi.

Astrobodliklar bu dovyurak, yosh temuriyzodani adolatli hukmdor sifatida tan oldilar.

Buning xabari sharq-u g‘arbga yashin tezligida tarqaldi. Jurjon tomonlarda Abusayidga qarshi jangga tayyorlanayotgan Jahonshoh Astrobodday muhim shahar yana temuriylar qo‘liga o‘tib ketganidan cho‘chidi.

Agar Abusayid Husayn Boyqaro bilan ittifoq tuzsa, ularga bas kelolmasligini sezib qoldi.

Hirotdagi Abusayid ham Jahonshohni o‘zining eng xatarli dushmani deb bilardi. Husayn Boyqaroning Astrobod-

ni shunday kuchli dushmanidan tortib olganligi qora qo‘yunlilar oldida Abusayidning ham mushkulini oson qila boshladi.

Jahonshoh Jurjondan Hirotga elchi yuborib, sulk tuzishni taklif qildi. Bu sulhning shartlaridan biri— Jahonshohning Hirotga kelib qadamjolarni, jumladan, Shohrux Mirzo birinchi marta dafn etilgan, keyin Gavharshod beginning qabri qo‘yilgan maqbarani ziyyarat qilishiga sharoit yaratish haqida edi.

Abusayid bu shartga ich-ichidan qarshi bo‘lsa ham, lekin Turonda, Toshkent va Shohruxiyada isyonlar bo‘layotgani, is-yonchilarga Sig‘noq tomondan Abulxayrxon ko‘mak berayotgani uni qattiq xavotirga solmoqda edi. Jahonshoh bilan sulk tuzib, g‘arbiy chegaralarni tinchitgandan so‘ng Abusayid Sir-daryo bo‘ylariga ot surmoqchi va u yerdagi xavf-xatarni tezroq bartaraf etmoqchi edi. Shu vaziyatda Husayn Boyqaroning Astrobodda erishgan g‘alabasidan Jahonshoh bilan sulk tuzishda foydalanish Abusayidning manfaatiga mos kelib qoldi. Husayn Boyqaroga dushmanlik kayfiyatida yurgan bu ayyor odam birdan saroya Abdurazzoq Samarcandiyni chaqirtirdi.

— Astrobodga, Husayn Boyqaroga bizdan elchi bo‘lib borsangiz, — degan taklifni qildi.

Mavlono bilan Abusayid bundan to‘rt yil avval Abulqosim Bobur Samarcandga qo‘sish tortib borganda tanishgan edi. Mavlonoming elchilik qobiliyati borligini, Shohrux Mirzo uni bir vaqtlar Hindistonga elchi qilib yuborgani bejiz bo‘lmaganini Abusayid o‘shanda sezgan edi.

Mavlono Abdurazzoq bahaybat hukmdorning bu taklifini o‘rnidan turib, ta’zim bilan qabul qildi.

— Olampanoh, sizdek podshohi a’zamning ishonch-u inoyati faqirga toji sar bo‘lsin!

— Shart shuki, — dedi Abusayid, — Siz Astrobodga borgan kundan boshlab Husayn Boyqaro bizni Astrobodning oliy hukmdori deb tan olmog‘i kerak. Nomimizni xutbaga qo‘shib o‘qitsin! Toki bu yangilik Jurjondagi Jahonshohning qulog‘iga ham yetib borsin!

— Bu farmoningiz, inshoolloh, so‘zsiz ado etilur.

— Boyqaroga yaxshi sovg‘alar elting. Devonxonaga buyurgaymen, ot-ulov, sarupo, ulufa¹ — hammasini sizga tayyorlab berurlar. Qo‘riqchi navkarlar ham bo‘lur.

— Hamrohlikka yana bir yordamchi olsam... Husayn Boyqaroning bahodirligi bilan birga shoirligi ham bor. Alisher Navoiy degan shoir do‘sti hozir Hirotda. Birga borsa, farmoni oliyni tezroq amalgalashishga yordam bergay.

Abusayid xufiyalar ma‘lumotida Alisher Navoiy nomi bir necha marta uchraganini esladи. Qovog‘ini solib:

— Bu shoiringiz Gavharshod begin madrasasiga ko‘p borar emish. Bizni g‘iybat qiladigan mudarris-u tolibi ilmlar orasida yurarmish.

— Olampanoh, o‘n yetti yashar bu yigitning nufuzi baland. Uni yomon ta’sirlardan uzoqroqqa olib ketganimiz ma’qul emasmi? Ehtimol, u ham Boyqaro kabi kelgusida sizga naf keltirgay!

— Men shoirlardan naf kutmagaymen! Lekin birga olib borsangiz, ishimizga zarari tegmaydirgan bo‘lsin!

— Bunisiga faqir kafilmen!

Abusayid avvalgi podsholar xizmatida bo‘lgan badavlat odamlarning uyidan oltin-u javohir qidirib, tintuvar o‘tkazmoqda edi. Alisherbekning homiysi Hasan Ardasher bir vaqtlar Ulug‘bekning inisi Boysunqur Mirzo xizmatida bo‘lganda kattagina mulk, yer-suv va boylik orttirgan kishilardan edi. Abusayidning odamlari uning uyini tintib, bor boyligi — hovlijoyini tortib olganlaridan keyin mavlono uzoq qishloqdagi qarindoshlarinikiga ketib qolgan edi.

Alisherbek homiysi Hasan Ardasherni topolmay Hirotda juda qiynalib qolgan, so‘ng Mashhadga ketgan, Gavharshod begin qurdirgan madrasaning bir hujrasida juda og‘ir hayat kechirib, kasal bo‘lib qolgan edi. Uning toleyiga mashhur Pahlavon Muhammad ham shu paytda Mashhadda ekan.

Alisher Navoiyni yoshlikdan biladigan, uning she’rlarini suyib yod aytib yuradigan Pahlavon Muhammad sherozlik bir hakimni chaqirib kelib, Alisherbekni davolatdi. O‘n sakkiz

¹ *Ulufa* — maosh va yo‘l xarajatlarining mablag‘i.

yashar yigit muolaja va do'stining g'amxo'rliqi bilan tez oyoqqa turdi. Uning Mashhadda yozgan yangi g'azallariga Pahlavon Muhammad kuy bastalab, zo'r iste'dod bilan ijro eta boshladi. Dugoh, Segoh, Chorgoh kabi mashhur kuylarni kashf etgan Pahlavon Muhammad Navoiy g'azallarini o'z kuylari va ijrosi orqali Mashhadda ham targ'ib qilmoqda edi. Sog'ayib ketgan Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning Astrobodda katta g'alabaga erishganini eshitib, behad suyundi. Madrasada tahsil olayotgani uchun qizg'in o'tayotgan dars mashg'ulotlarini tashlab ketl-madi, do'stini maktub orqali tabrikadi. So'nggi yozgan g'azallaridan bir nechtasini maktubga qo'shib yubordi.

Madrasa mashg'ulotlari tugab, ta'til boshlanganda Alisher Navoiy Hirotg'a qaytgan edi. Ana shu paytda mavlono Abdurazzoq Samarcandiy uni Astrobodga birga borishga taklif qildi. Bu taklif Alisherbekni taqdirning kutilmagan in'omidek quvontirdi.

Lekin yo'lida borayotganlarida Sulton Abusayidning Husayn Boyqaroga qo'ygan qattiq talabini eshitib, Alisherbek xavotirga tushdi:

— Astrobodda ham Abusayid nomiga xutba o'qilsa, Husayn Boyqaro uning qaramog'iga o'tib, tuzog'iga tushib qolmas-mikin, mavlono? Bu odam hiyla-yu nayrangga qanchalik usta ekanini amalda ko'rdik-ku. Rahmatli Sulton Ibrohim Jahonshohga qarshi kurashda Abusayid bilan ittifoq tuzib qanday aldangani yodingizdam?

— Lekin bu gal vaziyat boshqacha, Alisherbek. Agar Husayn Boyqaro Sulton Abusayid qalamraviga o'tmasa, ikkiyoqlama xatar orasida qolgay, Jurjonda Jahonshoh payt poylab turibdir. Husayn Boyqaro uning Astrobodda hokim bo'lgan tog'asini dorga osdirmishdir. Agar Husayn Boyqaro bilan Abusayidning orasi buzilsa, Jahonshoh katta qo'shin bilan Astrobodga hujum qilishi aniq. Undan ko'ra vaqtincha bo'lsa ham Abusayid qalamraviga o'tib, Jahonshoh tajovuzidan saqlanish maqsadga mu-vofiqroq emasmi, Alisherbek?

— «Vaqtincha» degan so'zingiz menga asosli tuyuldi, mavlono!

Astrobodda Husayn Boyqaro do'sti Alisherbek bilan mavlono Abdurazzoqni quchoq ochib kutib oldi. Ammo xutbani Abusayid

nomiga o'qitishdan oldin u ham ko'p ikkilandi. Alisherbek do'stining kayfiyatiga mos keladigan bir qit'a o'qib berdi:

*Jahon ganjiga shoh erur ajdaho
Ki o'tlar sochar qahri hangomida.
Aning komi¹ bilan tirilmoq erur
Maosh aylamoq ajdaho komida.*

Husayn Boyqaro do'stining nafis o'xshatishlaridan zavqi kelib:

— Lutf qildingiz, Alisherbek! — dedi. — Chindan ham, Abusayid jahon ganjlariga ajdaho kabi og'iz ochib, o'tlar sochib turibdir. Uning qalamraviga o'tmoq — ajdaho sochgan o't bilan o'ynashib, uning og'zidan maosh olmoq kabi xatarlidir!

— Ammo Alisherbek boshqa bir ma'noni ham chiroyi qilib ifoda etmishlar! — deb e'tiroz qildi mavlono Abdurazzoq.

— Ya'ni? — so'radi Husayn Boyqaro.

— Kom, ya'ni maqsad omon qolmoqdir. Buning uchun agar zarur bo'lsa ajdaho og'zida maosh aylamoqqa ham jur'at eta bilmoq kerak! Hozir vaziyat bizdan ana shunday jasorat talab qilmoqda.

Mavlono Abdurazzoq Abusayid nomidan elchilik qilish bilan o'zi ham ajdaho og'zidan maosh olishga majbur bo'layotganini «bizdan» degan so'z orqali bildirdi va ikki do'st bilan yakdil ekaniga ishora qildi.

— Siz haqsiz, mavlono! — dedi Husayn Boyqaro.— Tavakkal qilmoqdan o'zga chora yo'q.

Shundan keyin juma kuni Astrobodning katta masjidida Sultan Abusayidning nomi xutbaga qo'shib o'qildi. Jurjondagi Jahanshohning hujumidan saqlanish uchun Astrobodni Abusayid qalamraviga o'tkazish zarur bo'ilganini, shahar ixtiyori Husayn Boyqaroga berilganini xatib masjidga yig'ilgan namozxonlarga e'lon qildi.

¹ «Kom» so'zi ikki ma'noda so'z o'yini tarzida ishlataladi. Birinchi-sida «kom» — maqsad, niyat. «Komonlik» ham shu ma'nodan olingan. «Kom»ning ikkinchi ma'nosi — og'iz bo'shlig'i. Bu yerda ajdaho og'zi, halqumi nazarda tutilidi.

Qoidaga binoan, Husayn Boyqaro Abusayid elchisiga sarupo kiydirib, podshohning o‘ziga qimmatbaho sovg‘alar va «sochqi» deb ataladigan oltin pullar jo‘natishi zarur edi. Bu sovg‘alar va oltinlarni Husayn Boyqaro tomonidan Hirotga elchi qilib jo‘natilgan nufuzli bir mo‘ysafid olib ketdi.

Abdurazzoq Samarqandiy o‘z elchilik vazifasini bajarib qaytgani Abusayidni mamnun qildi. U Husayn Boyqaro yuborgan elchini sovg‘a-salomlari bilan xush qabul qilganday bo‘ldi.

Lekin Abusayidning diliida Husayn Boyqaroga nisbatan qandaydir bir ishonchsizlikmi, kekmi hamon saqlanib turganini mavlono Abdurazzoq uning gap-so‘zlaridan va keyingi muomasidan sezdi.

Sulton Abusayid Jahonshoh bilan suluhi tuzib, g‘arbiy chegaralarni tinchitgandan keyin Astrobojni Husayn Boyqarodan tortib olish harakatiga tushdi.

Abusayidning Muhammad Mushtoq degan amiri Astrobojd viloyatining qulf-kaliti hisoblangan eng muhim tumanlardan biriga — Biyorjumand shahriga tajovuz qildi. Shahar himoyachilari Muhammad Mushtoq qo‘sishinini tor-mor qilib, o‘zini asir oladilar va Husayn Boyqaro huzuriga jo‘natadilar.

Husayn Boyqaro Abusayid bilan orani buzmaslik uchun Muhammad Mushtoqning qonidan kechdi. Mushtoqning yoniga o‘zining eng ishongan odamlaridan biri — Sayidbek Ko‘kaldoshni qo‘shti. Uni qimmatbaho sovg‘a-salomlar bilan Hirotga, Abusayid saroyiga elchi qilib jo‘natdi.

Biroq Muhammad Mushtoqning sharmandalarcha mag‘lub bo‘lgani va Husayn Boyqaroga asir tushgani Sulton Abusayidning alamini keltirdi. U alamini o‘z mulozimididan olish o‘rniga, Husayn Boyqaro yuborgan elchidan oldi. Begunoh Sayidbek Ko‘kaldoshga zahrini sochdi:

— Husayn Boyqaro podshoh bo‘lmoqchimi, seni menga elchi qilib yuboribdi?!

— A’lohzarat, Husayn Boyqaro sizni podshoh deb tan olganlar, nomingizni xutbaga qo‘shib o‘qitmoqdalar. Sizga atab sovg‘a-salom, sochqi yubordilar!

— Kerak emas sovg‘asi! Jallod!

— Hazratim, elchiga o‘lim yo‘q deydilar-ku!

— Sen elchi emassen, dushmanimning josusisen! Mendan sir olgani kelgansen! Jallod, buni olib borib boshini kes!

Husayn Boyqaroning eng sodiq amirlaridan biri — Sayidbek Ko‘kaldoshning o‘ldirilishi ikki orada urush chiqishiga sabab bo‘ldi. Husayn Boyqaroning botir yigitlari Abusayidning Sabzavor va Nishopurdagi qo‘sishlariga qattiq zARBalar berdi. Bundan g‘azablangan Abusayid o‘n besh ming kishilik ulkan lashkar to‘plab, Astrobodga hujum qildi.

Husayn Boyqaroning qo‘sini uch mingdan oshmas edi. Uning bir qism amirlari Sulton Abusayidga bas kelolmasliklarini sezib, kechasi jang arafasida o‘rdagohni tashlab qochdilar.

Husayn Boyqaro siyraklashib qolgan qo‘sishini halokatdan saqlab qolish uchun Astrobodni tashlab chiqdi va Amudaryo bo‘ylariga chekindi.

Sulton Abusayid Astrobodni jangsiz egallagach, ikkinchi o‘g‘li, sakkiz yoshli Mahmud Mirzoni bek attasi Xusravshoh bilan bu muhim shaharga hokim qilib tayinladi.

Oradan ko‘p o‘tmay, Turonda Abusayid qo‘yib ketgan amirlar zulmiga qarshi isyonlar boshlandi. Binokent, Toshkent va Sayram shaharlari ilgari Ulug‘bekning nevarasi Muhammad Jo‘giy Mirzo hokim bo‘lgan paytda osuda va barqaror hayot kechirardi. Abusayid bu shaharlarni Jo‘giy Mirzodan tortib olib, o‘ziga o‘xshagan zolim amirlarni hokim qilib qo‘ygandan keyin aholi ularning jabr-u jafolariga bardosh berolmay, isyon ko‘tardi. Bu isyonga o‘n sakkiz yoshli Muhammad Jo‘giy boshchilik qildi. U isyonchilar nomidan yordam so‘rab, Turkistonda yashab turgan ammasi Robiya Sulton beginning huzuriga boradi.

O‘tgan davr ichida Robiya Sulton begin Abulxayrxon saroyida eng nufuzli malikaga aylangan edi. Robiya Sultondan tug‘ilgan ikki o‘g‘il, ayniqsa, ularning to‘ng‘ichi Ko‘chkinchixon o‘zining iqtidori, bilimi va odobi bilan xonning boshqa o‘g‘illaridan ustun turar va suyukli farzand hisoblanardi.

Oldinroqqa ketib aytish joizki, keyinchalik Ko‘chkinchixon Abulxayrxon nasliga obro‘ keltiradi, Shayboniyxon o‘lganidan keyin yigirma yilga yaqin taxtda o‘ltirib, davlatni boshqaradi.

Robiya Sulton beginm o‘g‘lining diliida ona tomondan bobokaloni Amir Temurga nisbatan teran hurmat uyg‘otgan bo‘ladi. Ko‘chkinchixon xonlik qilgan yillarida Yazdiy «Zafarnoma»sini birinchi bo‘lib o‘zbek tiliga tarjima qildiradi¹.

Yassi shahrida turib, suyukli momosi Gavharshod beginning Abusayid tomonidan qatl etilganini eshitgan Robiya begin bu zolimga qarshi isyon ko‘targan turonliklarni qo‘llab-quvvatladi. Beginning vositachiligidagi Abulkayrxon Jo‘giy Mirzoga Bo‘rka Sulton boshchiligidagi katta bir qo‘sinni yordamga yubordi. Bu qo‘sish Karmana yaqinida Abusayidning askarlari bilan jangga kirib, ularni tor-mor qildi. Shundan keyin Bo‘rka Sulton Shohruxiya, Toshkent va Sayramga Abusayid tomonidan qo‘yilgan hokimlarni quvib yuborishda Muhammad Jo‘giy Mirzoga yordam beradi. Shu ketishda Jo‘giy Mirzo Samarqandni ham Abusayiddan tortib olishi mumkin edi. Chunki Abulkayrxon endi Abusayidga emas, Jo‘giy Mirzoga yordam berayotgani bejiz emas edi.

Uzoqni ko‘zlab ish olib borayotgan Abulkayrxon temuriylarni muttasil bir-birlari bilan urushtirib, butunlay zaiflashtirishni istar, shundan keyin Turon va Xurosonda chingiziyalar hokimiyatini qayta tiklash xonning o‘ziga bo‘lmasa, kelajak avlodlariga nasib etishini o‘ylardi.

Biroq hozirgi fursatda Abusayidning Hirotni ham qo‘lga kiritib, tobora kuchayib borayotgani Abulkayrxonning manfaatiga zid edi. Bu temuriyzodaning kuchini sindirish uchun ham Abulkayrxonning odamlari Turonning o‘zlariga yaqin viloyatlarida ko‘tarilayotgan isyon olovlarini tobora alangalantirishdan manfaatdor edilar.

Hirotdan shosha-pisha Sirdaryo bo‘ylariga yetib kelgan Abusayid Shohruxiyada ko‘tarilgan isyonni bir yilgacha bostirolmadi. Shahar qamalda qolib, odamlar ochdan o‘la boshladi.

Shundan keyin ular Abusayidning piri komili Xo‘ja Ahrorga murojaat qildilar.

¹ Iste’dodli adib Muhammad Ali qalamiga mansub bo‘lgan bu tarjima hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay keladi, hamon maroq bilan o‘qiladi.

— Agar Sulton Abusayid Qur’oni karimni o’rtaga qo‘yib, barcha isyonchilarning gunohidan kechishga qasamyod qilsalar, biz isyonni to‘xtatib, darvozalarni podshohga ochib bergaymiz! — dedilar.

Oq xachir minib yuradigan Xo‘ja Ahror Abusayid huzuriga bordi. Abusayid o‘zini shuncha qiyagan isyonchilarning gunohidan kechishni istamas edi.

Lekin Xurosandan kelgan chopar Husayn Boyqaro Astro-bodni qaytadan bosib olgani, Shahzoda Mahmud Hirotgachekingani, bu shahar ham qamalda qolayotgani to‘g‘risida tahlilikali xabar keltirdi. Ikki tomonlama isyon olovi orasida qolgan Abusayid endi Xo‘ja Ahror valiy orqali qo‘yilgan shartni qabul qilishga majbur bo‘ldi.

Shohruxiya, Toshkent va Sayramlar qaytadan Abusayid qalamraviga o‘tgandan keyin, bu odam baribir qasamyodini buzdi. Isyonchilarga bosh bo‘lgan Jo‘giy Mirzoga Hirotda katta lavozim berishni va’da qilib olib keldi-yu, Ixtiyoriddin qal‘asiga qamattdi. Boshqa tashvishlardan bo‘sagandan keyin Abusayid uni qamoqda qatl ettirdi.

Alisher Navoiy o‘z she’rida ajdahoga o‘xhatgan Abusayid bilan olishish naqadar xatarli ekanini Husayn Boyqaro ham bilib qolgan edi. Lekin el-yurt bu hukmdorning shafqatsizliklaridan nihoyatda to‘yib ketgan edi. Badnafs amaldorlardan ba‘zilari musodara qilingan oltin-u javohirlarning bir qismini xazinaga topshirmay, o‘z uylariga olib borib yashirgan ekanlar. Abusayidning tintuvchilari xufiyalar yordamida bu yashirilgan boyliklarni ham topib oladilar. Shundan so‘ng Abusayid o‘z amaldorlaridan Shayx Ahmad deganning terisini tiriklay shildirdi. Xo‘ja Muziddin degan amirni qaynab turgan doshqozonga tiriklay tashlab o‘ldirtirdi.

Bu amaldorlarning qarindosh-urug‘lari ham Abusayidning xundor dushmaniga aylandilar va Astrobodga qaytib kelgan Sulton Husayn Boyqaro askarlari safiga qo‘shildilar.

Abusayidning yosh o‘g‘li Mahmud Mirzo va uning otalig‘i Xusravshoh Hirotgachekingani qochib borib, qo‘rg‘onni ichkaridan berkitib olgan edilar. Husayn Boyqaro tavakkal qilib, Hirotgachekinganib borayotganda Nishopur, Sabzavor va Mashhad shaharlari ham uning tomoniga o‘tdi.

Mashhadda Gavharshod begin madrasasida tahlil olayotgan Alisher Navoiy do'stining yangi g'alabasidan ruhlanib, uning qo'shini bilan birga Hirotg'a bormoqchi bo'ldi.

— Lekin Turondan biz uchun noxush xabarlar keldi, Alisherbek, — dedi Husayn Boyqaro. — Sulton Abusayid Jo'giy Mirzo isyonini bostirib, Xurosonga ot choptirib kelayotgan emish. Sizni bu xatarli yog'iyya ro'baro' qilgim kelmaydir.

— Ammo o'zingiz uning behisob lashkari bilan qanday olishgaysiz? Balki yana kuch yig'mog'ingiz lozimdir, amirzodam?

— Men uchun xavotir bo'lman. Men tavakkal qilishga o'rganganmen. Chunki ilohiy qudratga ishonurmen. Bir g'azal bitdim. Shundan ikki baytini sizga aytay:

*Gal o 'lmasa aning¹ amri
 falak bu sur'at ila
O 'z-o 'zidan harakat
 ayla olmagay aslo.
Husayniy, o 'lsa sarosar
 gunoh-u jurm² ne g'am
Chunki do 'st lutfining
 umidi bor, basdur ango.*

Alisherbek vazn va qofiya andak sayqalga muhtojligini sezdi, ammo mazmundagi mardona ruh va do'stiga ishonch unga zavq berdi. Qilich chopib, o'lim bilan olishib yurgan yigitning shunday shoirona kayfiyat bilan osmondag'i ilohiy qudratga va yerdagi do'stiga suyanib qalam tebratgani uning qalbini iliq bir mehrga to'ldirdi:

— Amirzodam, shunday ajoyib satrlarni bitganingiz uchun ham men sizning shoh Sultoni G'oziy, saodat axtari³, el-yurt najotkori bo'lishingizni parvardigordan iltijo qilurmen!

— Tashakkur do'stim! Madrasada men uchun ham tahlil oling. Bor ilmingizni kelgusida birga baham ko'rgaymiz.

¹ «Aning» — bu yerda ilohiy qudratni bildiradi.

² *Jurm* — jazo, xatar.

³ *Axtar* — yulduz.

— Ilohim o‘sha kunlarga xudo bizni yetkazsin! Ular quchoqlashib xayrlashdilar.

Yigirma yoshli Husayn Boyqaro Abusayidning Xuroson shaharlariga hokim qilib ketgan Sayid Murod va Asil Arg‘un degan amirlarini ta’qib etib, Hirotning Bog‘i Zog‘oniga yetib bordi.

Bir vaqtlar Shohrux Mirzoning taxti turgan bu bog‘da bir oy turdi. Hirot qal’asini egallash uchun qayta-qayta jang qildi. Ichkarida uning g‘olib chiqishini kutib yotganlar ko‘p edi.

Ammo qo‘rg‘onning har to‘rtala darvozasini Abusayidning ikki mingdan ortiq bek-u navkarlari qo‘riqlab turar, mustahkam qal’aga kirib borishning boshqa hech yo‘li yo‘q edi.

Asad oyi o‘tib, sunbula kirdi. Qamal davom etmoqda edi. Mezon oyi boshlanganda Amudaryo tomondan Abusayid o‘ttiz ming qo‘shin bilan balo-qazoday Hirotga yaqinlashib kelayotgani ma’lum bo‘ldi.

Husayn Boyqaroning to‘rt ming askarini Abusayidday tajribali sarkardaning o‘ttiz ming kishilik ulkan qo‘shini yo‘q qilib yuborishi mumkin edi.

Shuni sezgan Husayn Boyqaro Bog‘i Zog‘onni jangsiz tashlab chiqdi va Astrobodga chekindi.

G‘azab otiga mingan Abusayid Hirotda ko‘p to‘xtamay, Husayn Boyqaroni ta’qib etib, Astrobodga hujum qildi.

Husayn Boyqaro qo‘rg‘onda qolgan qo‘shinlarini ham yoniga olib, Amudaryo tomonga chekindi. Abusayid Astrobodni egallagach, amir Sherhoji bilan Ahmadyor degan bekning ixtiyoriga o‘n ming qo‘shin berdi:

— Boyqaroni osmonga chiqsa oyog‘idan tortib olib kelingsular! — deb buyurdi. — Men bu jo‘jaxo‘rozni Samarqandda bir marta hibsdan bo‘shatib xato qilgan ekanmen. Endi uni yaganalab yulib tashlamaguncha tinchimaydiganga o‘xshaymen! Yo tirigi, yo o‘ligi topilmaguncha qaytib kelmanglar!

Qoraqum sahrosida, Amudaryo bo‘ylarida Sherhoji va Ahmadyorning qo‘shini Husayn Boyqaroni quvib yetib, bir necha marta qurshovga oldi. Boyqaroning askarlaridan anchasi halok bo‘ldi, katta bir qismi ta’qib etuvchilardan qochib, turli tomonga tarqab ketdi. Uning yonida qolgan uch yuztacha botir

yigitlari Husayn Boyqaroni o'rtaga olib, yov qurshovini qo'lda qurol bilan yorib o'tdilar.

Zirhli kiyim kiygan Boyqaroning o'zi yov halqasini yorib o'tishda eng ko'p qilich chopgan bahodirlarning birinchisi bo'ldi.

Abusayid Xorazmga hokim qilib tayinlagan amaldor o'zining zolimligi bilan xalqni bezor qilgan edi. Husayn Boyqaro xivaliklarning yordamida bu hokimni daf qilib, bir qancha vaqt Xorazmda elboshi bo'lib turdi.

Ammo qo'li uzun Abusayid Xorazmga ham o'z qo'shinlarini yuborib, Husayn Boyqaroni ta'qib qilishni davom ettirdi.

Bir necha yil cho'li biyobonlarda lomakon bo'lib quvg'inda yurgan Husayn Boyqaro milodiy 1468-yilda Turkistonga, Ulug'bek Mirzoning qizi Robiya Sulton begin huzuriga bordi.

Abusayid bilan mardona olishib yurgan o'ttiz yoshli alpqomat Husayn Boyqaroni Robiya Sulton begin e'zoz bilan qarshi oldi. Abulxayrxon o'rnidan turolmay kasal bo'lib yotgan ekan. Xon sal o'ziga kelganda Robiya beginning tavsiyasi bilan Husayn Boyqaroni qabul qildi va uning Abusayidga qarshi kurashiga yordam berishini aytdi. Lekin uning va'dasi amalga oshguncha bo'lmay, Abulxayrxon vafot etdi.

Xonning o'limidan keyin uning saroyida ham taxt talashishlar boshlandi. Robiya Sulton begin o'z tashvishidan ortmay qoldi. Begin Husayn Boyqaro bilan xayrlashar ekan:

— Endi sizga parvardigorning o'zi yordam bermasa, bandalarining ilkidan hech narsa kelmay qoldi, — dedi.

Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro Mashhadda xayrlashganlaridan keyin yetti-sakkiz yilgacha bir-birlarini ko'rishga mu'yassar bo'lmadilar. Yigirma bilan o'ttiz yosh oralig'ida, yigitlikning avji gullagan bahor paytida ikkovi ham quvg'inda, sarslon-sargardonlikda qish qahratonini eslatadigan eng og'ir kunlarni boshdan kechirdilar.

Turonda isyonlar bostirilgandan keyin ko'ngli bir qadar tinchigan Sulton Abusayid Samarqand ixtiyorini katta o'g'li Ahmad Mirzoga va murshidi Xo'ja Ahrorga berib, poytaxtni Hirotg'a ko'chirdi. Uning Xurosondagi eng ashaddiy raqibi Husayn Boyqaro bo'lib qolgan edi. Milodiy 1464-yilda Husayn

Boyqaro Xorazm tomonlardan qo'shin tortib kelib, Abusayidning Niso, Mashhad, Obivard viloyatlaridagi qo'riqchi askarlarini mag'lub qilgan, Turshiz viloyatida o'ziga tarafedorlar topib, bir qancha vaqt hukmron bo'lib turgan edi. Abusayid yana katta qo'shin to'plab borib, uni Amudaryodan nariga — Qizilqum sahrosiga o'tib ketguncha ta'qib etdi.

Husayn Boyqaroning qaytib kelishini kutib yurgan tarafдорлари Hirotda ham oz emas edi. Ayniqsa, Feruza beginim Hirotda erta-yu kech o'g'lining yo'liga ko'z tikib yashayotgani Abusayidga xufiyalar axborotidan ma'lum bo'ldi. Shundan keyin Feruza beginning temuriy ota-bobolaridan meros olgan kattagina hovli-joyi, mol-mulki Abusayid tomonidan musodara qilindi. Hatto beginning sandiqlarida bor bisoti va taqinchoqlari ham tortib olinib, Abusayid xazinasiga eltib topshirildi.

Feruza beginim yig'lay-yig'lay Marvdagi kelini Beka beginning oldiga ketdi. Beka beginim Husayn Boyqaroden bir o'g'il ko'rgan, otini Badiuzzamon Mirzo qo'yishgan edi. Mashhur Sulton Sanjariylar avlodidan bo'lgan Beka beginningni otasining ixlosmandlari Marv yaqinidagi bir qishloqda Abusayid qataq'onlaridan yashirib saqlamoqda edilar. Endi ularning yoniga quvg'inda yurgan Feruza beginim ham kelib qo'shildi.

HIROTGA SIG'MAGAN DAHO

Alisher Navoiy Mashhadda Gavharshod beginim nomidagi madrasani tugatgach, Hirotda onasini va Feruza beginmi ko'rgani keldi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, Feruza beginning hovli-joyini ham Abusayidning amirlaridan biri tortib olgan edi.

Shahar alg'ov-dalg'ov, madrasalar bekilgan. Alisherbek tanish-bilishlardan so'rab-surishtirib, onasining daragini hech qayerdan topolmadi. Faqat mudarrislardan biri:

— Muhtaram onangiz tog'alaringizning vafot etganini eshitib, ko'k kiyib yurganlarini ko'rdim, — dedi.

Alisherbek iztirobga tushib:

— Qaysi tog'alarim? — deb so'radi.

— Nahotki eshitmagan bo‘lsangiz? Tog‘alaringiz Mirsaid Kobuliy bilan Muhammad Ali G‘aribiylar Husayn Boyqaroring yaqin maslahatchilari emasmidilar?

— Ha, doim birga, musohib do‘sit edilar.

— Shuni Sulton Abusayid ham bilar ekan. Yollangan qotilarni yuborib, tog‘alaringizni Saraxs yaqinida o‘ldiribdirlar.

— Evoh! Bu ne bedodlik!

— Muhtarama onangiz ham ana shu bedodlikka chiday olmay Hirotdan Kobulga, uzoq qarindoshlarinikiga ketgan bo‘lishlari mumkin.

Xonumonidan ayrilgan, yaqin kishilaridan judo bo‘lgan yigirma uch yoshli Alisherbek Hirotda o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi. Musibat ustiga qo‘shilgan dilsiyohliklarni kimgadir aytib ko‘nglini bo‘shatgisi, dardlashgisi keldi. Eng yaqin homiysi Hasan Ardasher Hirotni butunlay tark etib, uzoq qishloqda yashamoqda edi. Mavlono Lutfiy to‘qson yoshdan oshib vafot etgan, faqat Abdurazzoq Samarcandiy hali Hirotda deyishdi. U ham davlat ishlaridan chetlatilgan, ro‘zg‘or tebratishda qiyalgandan keyin Hirotdagi Shohrux Mirzo xonaqosiga shayx bo‘lib ishga kirgan ekan.

Alisherbek Shohrux Mirzoni bolaligida ko‘rgan, uni eslasa qalbi ravshan tortar edi. Shuning uchun Shohrux xonaqosiga borib, mavlono Abdurazzoqni qidirib topdi.

U ham ozib ketgan, kiyimlari eskirgan, ko‘rinishi ma’yus.

Alisherbekni bag‘riga bosib ko‘rishdi-yu:

— Tog‘alaringiz shahid bo‘libdir, xudo rahmat qilsin, — deb ko‘ngil so‘radi.

— Mavlono, men Hirotni taniyolmay qoldim. Shu darajada shahardan fayz ketgan! Ariqlar suvsiz. Daraxtlar qurigan. Yangi podshohning taxtga chiqqaniga ham o‘n yildan oshdi. Bironta bog‘, bironta imorat bunyod etdimi?

— Yo‘q, barcha mablag‘lar urush-yurishga, harbiy xara-jatlarga sarflanmoqda. Madaniyat ham, ma’rifat ham tashlandiq ahvolga tushdi. Shohning o‘zi ham ilm-u ma’rifatdan yiroq. Shuning uchun qadrdon shahrimizda siz-u bizga munosib ish topilmaydir.

— Odamlarning o‘zgarib qolganiga hayronmen. Vafo o‘rnini nizo, saxiylik o‘rnini baxillik, oqibat o‘rnini dushmanlik egal-

lab olmishdir. Bir vaqtlar men bilan qadrdon bo‘lgan saroy mulozimlari hozir salomlashgilari kelmaydir. O‘zlarini mendan olib qochganlariga taajjubdamen.

— Taajjublanmang, Alisherbek. Hamma odamlar vahm ichida yashamoqda. Tog‘alaringiz Husayn Boyqaroga yaqin maslahatgo‘y bo‘lganligi uchun qatl etilmishdir. Siz Husayn Boyqaroga ulardan ham yaqinroq sirdosh do‘sit ekanligingizni biladiganlar bor. Ular o‘zlarini sizdan olib qochsa, siz ham ulardan uzoqroq yurganingiz ma’qul.

— Nafaqat ulardan, balki shoh saroyidan ham butunlay ixlosim qaytgan. Bu haqda faqir bir bayt o‘qib beray:

*Navoiy, bilki, shoh ko‘ngli
Manga qayd o‘lmasa, billah
Agar kavnayiga¹ xoshok
chog‘lik iltifotim bor.*

Alisherbek Abusayidning u dunyo-yu bu dunyosini, butun dabdabasini mol yeydigan xashakka o‘xshatganidan mavlono Abdurazzoq beixtiyor zavqlanib kului. Lekin shu zahoti «bu hajvni boshqa birov eshitmadimikin?» deb, atrofiga xavotirlanib qarab qo‘ydi.

Xonaqohda hozir ikkovlaridan boshqa hech kim yo‘q edi. Shunday bo‘lsa ham Abdurazzoq Samarqandiy ovozini pasaytirib gapirdi:

— Alisherbek, siz ham do‘stingiz Boyqaro kabi mard, dov-yurak yigitsiz. Sizning butun botirligingiz ruhingizda, she’riyatingizda. Shohni og‘zidan o‘t sochadigan ajdahoga o‘xshatib hajv qilgan satrlaringiz ham yodimda bor. Ammo bu satrlar shohning qulog‘iga yetib bormaydi deb kim kafolat bergay? Hozir Hirotda ayg‘oqchilar-u chaqimchilar ko‘paygan. Siz bu xavf-u xatardan uzoqroq keting, buyuk iste’dodingizni asrang!

— Qayoqqa ketay, mavlono?

— Men sizga faqat o‘zim tug‘ilib o‘sgan shaharni munosib ko‘rmen.

— Samarqandnimi?

¹ *Kavnayi* — bor dunyosi, shon-u shavkati, hatto narigi dunyosi.

— Ha, yana o‘ylab ko‘ring. Shoh saroyi Hirotga ko‘chib kelgandan buyon Samarqand bir qadar tinchib qolgan deb eshitdim. Mavlono Abdurahmon Jomiy ham hozir Samarqandda emishlar.

— Men ham ko‘pdan buyon Samarqand sayqalini ko‘rish orzusidamen. Lekin kim u yerda menga boshpana berur?

— Men so‘nggi daf‘a Samarqandga borganimda janobi Fazlulloh Abulays bilan uchrashgan edim. Behad olivjanob siymo. Madrasalari bor.

— Otalari faqih Abulays mening rahmatli otamga qadrdon edilar.

— Ana shuni Fazlulloh Abulaysga aytsangiz kifoya. Sizga bir hujra berurlar. Samarqand hokimi Ahmad Hojibek ham ma’rifatli siymo, shoirlarni yaxshi ko‘rurlar.

— Yaxshi maslahatlaringiz uchun tashakkur, mavlono! Lekin men avval Kobulga borib onamni ko‘rmog‘im shart.

— Balki shunday qilsangiz to‘g‘ri bo‘lar, Alisherbek. Onaizor-a!..

O‘sha kuni kechasi Alisherbek Hirotda Shohrux Mirzo xona-qosida yotib qoldi. Abdurazzoq Samarqandiy o‘zi yotadigan ozoda bir xonani unga ko‘rpa-to‘shagi bilan berdi-da, uyiga ketdi.

Yarim kechagacha u xlabel olmay o‘y-xayolga cho‘mgan Alisherbek saharga yaqin uyquga ketdi-yu, g‘alati bir tush ko‘rdi. Baland tepalik ustiga chiqqanda samoviy kiyim kiygan, yuzidan nur yog‘ilgan, oq soqoli kalta qirqilgan bir mo‘ysafid uchradi. Alisherbek unga egilib ta‘zim qilar ekan, birdan Shohrux Mir-zoning keksalik paytini esladi:

— Assalomu alaykum, Xoqoni Sa‘id! — deb tizzasini yerga tirab, sajdaga bosh qo‘ydi.

Mo‘ysafid uni yerdan turg‘izib, yuziga tikildi-da:

— Men sizni olti yoshingizda ko‘rganman, — dedi. — Shoirlar majlisida she‘r o‘qib, hammani lol qoldirgan bola siz emas-midingiz? Ismingiz nima edi?

— Ismim Alisher, Xoqoni Sa‘id.

— Hozir ham she‘r yozasizmi?

— Goho mashq qilurmen.

- Qani bir bayt aytinq!
- Meni ma'zur tuting, hazratim. Yomonlardan juda bez-ganman. Bayt shu haqda...
- Mayli, aytinq-chi.

Parim bo'lsa, uchib qochsam, ulusdan to qanotim bor.

Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to hayotim bor.

- Ob-bo!.. Yomonlardin shunchalik bezorsiz... Ammo yax-shi odamlar ham bor-ku.
- Bor, hazratim...
- Ularga atagan baytingiz yo'qmi?
- Nechun bo'lmasun! Mana, hozir...

Odamiy ersang demagil odamiy

Oni kim yo'q xalq g'amidin g'ami.

- Ha, borakallo! Xalq sizni qutqargay! Xalqqa fido bo'lsan-giz, sizni boshiga ko'targay!

Bir vaqt Shohrux Mirzoning qo'lida oltin sopli durbin pay-do bo'ldi. Durbinni Alisherga berib:

- Samarqand tomonga bir qarang! — dedi.

Alisher durbinni shimoli sharq tomonga to'g'rilab qaray boshladи.

Shohrux Mirzo kuldı:

- Siz Kobul tomonga qarayapsiz-ku.
- Kechirasiz, hazratim, men o'zim Kobulga onamni izlab bormoqchi edim.
- Balki onangiz Samarqanddadirlar?
- Bilmadim.
- Siz avval Samarqand tomonga bir qarang. Ha, ana, durbinda Samarqand minoralari ko'rindimi?
- O! Ulug' gumbazni ko'ryapman. Amir Temur maqba-rasining gumbazi!
- Ha, topdingiz! Istiqbolingiz ana o'sha yerdan boshlangay. Avval shu gumbazni topib boring. Keyin onaizoringizni top-gaysiz. Husayn Boyqaro bilan birga bo'lling.

Bu gaplardan Alisherbek qattiq hayajonlanib, uyg'onib ketdi. Qarasa, tong yorishgan. Xonaqodan chiqib taharat qildi, namoz

o‘qidi. Ko‘rgan tushi oddiy tush emasligini xayolida Shohrux podshoh aytib turganday bo‘ldi.

«Mening istiqbolim Samarqanddan boshlansa koshki! O‘shal ulug‘vor moviy gumbaz poyiga borganim bo‘lsin!» degan qat’iy qarorga kelib, joynamoz ustidan ko‘tarildi.

Lekin Alisherbekning Samarqandga yetib borishi ham oson bo‘lmadi. U o‘zining boshpanasiz azob tortganlarini, yo‘llarda chekkan mashaqqatlarini Hasan Ardasherga yozgan she’riy mak-tubida shunday ifodalaydi:

*Ne bir hujraki, kom topqay ko‘ngil,
Dame anda orom topqay ko‘ngil.
Ayni falokatdin oyog‘i yalang
To‘ni yo‘qidan tani dag‘ yalang
Tevrab oyog‘ini aning har tikan.
Har tikan ustida muqarrar tikan.*

Alisherbek shuncha azob-u uqubatlarga bardosh bergani uning ulug‘ maqsadlarga intilgani sababli edi. Buni maktub so‘ngida shunday bayon qiladi:

*Urarmen qadam, toki borguncha gom¹
Ki bo‘lgay tuyassar menga ushbu kom
Agar bo‘lsa bu yo‘lda umrim talaf
Chu bu yo‘ldadur ul ham erur sharaf.*

Bu masnaviy Hasan Ardasheg orqali Hirotning fozil kishi-lariga yetib borganda, ular Alisherbekning she’riy iste’dodiga va haqiqatni ro‘y-rost ko‘rsatishdagi jasoratiga qoyil bo‘lishar, bu she’rning eng yaxshi satrlarini yod olishib, bir-birlariga aytib yurishar edi.

HAYOTDAN QAYTGAN QASOS

Sulton Abusayidning avji yuksalgan paytlarida unga ham qasos qaytishi mumkinligini hech kim xayoliga keltirmas edi.

Mana, u Amudaryoning chap qirg‘og‘idagi baland bir tepalikka ot choptirib chiqib bormoqda. Ilk bahor pallasi edi.

¹ *Gom* — bu yerda oyoq yetguncha, kuch boricha olg‘a yurmoq.

Uning ostidagi qora qashqa bedov tepalikdan bo'y cho'zib, endi ochilgan oltinrang boychechaklarni tuyog'i bilan majaqlab o'tdi.

Abusayid Mirzo tepalikning eng baland nuqtasida otini to'xtatib, atrofga burgutqarash qilib nazar tashladi. Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Bobotog' va Ko'hitang. Ulardan narida qorli Turkiston tizmasi Pomir va Oloy. Daryoning chap qirg'og'ida Kobul tomonidan boshlangan va Hirotga qarab pastlab boradigan bahaybat Hindikush tog'lari... Bu tog'lar orasida qancha-qancha vodiylar, soylar, daryolar, shahar-u qishloqlar bor. Turon-u Xuroson deb atalmish shunday ulkan mintaqalar barcha tog'-u daryolari, vodiy va cho'llari, shahar-u qishloqlari bilan Sulton Abusayidning mulkiga aylangan. Shunday katta hududdagi barcha aholi endi uning hukmiga bo'ysunishi Sulton Abusayidning dilidagi iftixor tuyg'usini to'ldirib toshiradi.

Bir vaqlar u Samarqand taxi uchun Abdulla Mirzo bilan olishib yurgan paytlarida bunchalik katta sultanatga ega bo'lishini xayoliga ham keltirmagan edi.

Shohrux Mirzoning o'limidan keyin tirik qolgan temuriylar orasida Sulton Abusayid eng shijoatli va ishning ko'zini biladigan uddaburon taxt da'vogari bo'lib chiqqanini hozir ko'pchilik biladi. Ba'zi bir temuriylar: «Anushervoni odildek adolatli podsho bo'lamen» deb, ko'p umrini maktab-madrasalarda o'tkazgan, ilm-u ma'rifatga haddan ortiq berilib, harb ishida zaif, yov bilan olishganda tor-mor bo'lganini Abusayid Mirzo o'z tajribasida ko'rdi. Shuning uchun u maktab va madrasalarda o'qib yurmadi. Zehni o'tkir, xotirasi yaxshi bo'lgani uchun xonaki muallim yordamida xat-savod chiqardi-yu, qolgan butun vaqtini harbiy san'atni egallashga va toj-u taxt sohibi bo'lishga sarfladi.

Xudoga shukur, taqdir unga qo'sha-qo'sha o'g'illar berdi. Sulton Abusayid ularni ham o'ziga o'xshagan harbiy kishilar qilib tarbiyalamoqda. Chunki uning e'tiqodi bo'yicha o'qish-yozishlarga ortiqcha berilgan odam gulday nozik bo'lib qoladi. Davlatni boshqaradigan hukmdor esa toshday qattiq, qilichday keskir bo'lmog'i kerak.

Katta o'g'li Ahmad Mirzo qilichni yaxshi chopadi, ammo kitob o'qishni ham, xat yozishni ham bilmaydi. Savodsiz bo'lsa

ham, yonida har qanday kitob va yozuvni o‘qib beradigan qissaxonlari, munshiylari bor. Farmonmi, maktubmi, boshqa har qanday yozuv ishini kelishtirib beradigan kotiblar uning xizmatiga tayyor. Din-u imon ishlarida va Samarqanddagi davlat idoralarini boshqarishda yosh Ahmad Mirzoga Abusayidning murshidi Xo‘ja Ahror rahnamolik qiladi.

Abusayid Xo‘ja Ahrorning maslahatini va duo-yu fotihasini olib qilgan barcha ishlari o‘ngidan kelmoqda. Shuning uchun bu piri komilga Abusayidning e’tiqodi baland, hurmati cheksiz.

Maxsus farmon bilan Xo‘ja Ahror egalik qiladigan barcha hovli-joy, yer-suвлар soliqdan ozod qilingan. Shuni bilgan butun-butun qishloqlarning dehqonlari, suruv-suruv qo‘ylarning egalari o‘z yer-suвлари, mol-hollarini Xo‘ja Ahror valiy nomiga o‘tkazib, og‘ir soliqlardan ozod bo‘lmoqdalar. Ulardan faqat eng yengil soliq hisoblangan va daromadning o‘ndan bir qismiga to‘g‘ri keladigan ushr solig‘i olinadi, xolos. Bundan dehqon-u chorvadorlar ham manfaat ko‘rmoqda, har tarafdan irmoqlarday oqib kelayotgan nazr-u niyoz shaklidagi daromadlardan eshon hazratlarining boyligi ham daryoday to‘lib oqmoqda.

«Mayli, piri komil boy bo‘lsa, mendan mablag‘ olmaslar, balki kerak bo‘lganda yordam bergaylar!» — deb, Sulton Abusayid Xo‘ja Ahrorga to‘liq erk berib qo‘ygan.

Amudaryo bo‘yidagi tepalikda ot o‘ynatib turgan Sulton Abusayid xayol ko‘zi bilan Toshkent-u Sayramlarda, Farg‘ona-yu Hisorlarda hukmronlik qilayotgan o‘z farzandlarini ko‘rib turganday bo‘ladi.

Xudo uni oila bobida ham kam qilmadi, mashhur xonlar va beklarning eng ko‘hlik qizlariga uylanib, ulardan o‘n bir o‘g‘il va o‘n to‘rt qiz ko‘rdi. O‘g‘illarining ikkinchisi Mahmud Mirzoga Hisorni, to‘rtinchisi Umarshayx Mirzoga Farg‘ona vodiysini, beshinchisi Ulug‘bek Kobuliya Kobul va Badaxshonni berdi. Ularga eng ishongan tajribali amirlarini otaliq qilib tayinladi.

Hozir Abusayidning o‘g‘illari hukmronlik qilayotgan hamma viloyatlar tinchigan. Ularni tashqaridan notinch qilib turadigan Dashti Qipchoq sultonlari Abulxayrxon o‘lgandan beri o‘zlarining ichki nizolaridan ortmay qolgan. Mo‘g‘uliston

xonlaridan Eson Bug'axon bir marta Farg'ona vodiysiga bostirib kelib, talonchilik qilgan edi. Abusayid uni vodiyidan haydab chiqarib, Sayramdan naridagi Ashparagacha¹ quvib bordi. O'sha yerda Eson Bug'axonni yengib, uning o'rniqa akasi Yunusxonni Mo'g'ulistonga xon qilib jo'natdi. O'zi Yunusxonning singlisiga uylanib, «Ko'ragon» unvonini oldi. Keyinchalik Yunusxon bilan aloqalari yaxshilanib, uning uch qiziga o'zining uch o'g'li — Ahmad, Mahmud va Umarshayx Mirzolarni uylantirdi. Shu tarzda uning o'g'illari ham «Ko'ragon» unvoniga sazovor bo'ldilar.

Abusayid Mirzoning ko'ngli Turon-u Xurosonlardan xiyla tinchigan shu farahli kunlarda uning xayolini ko'proq g'arbiy o'lklalar — bir vaqtlar bobokaloni Amir Temurga tobe bo'lgan, Shohrux davrida ham temuriylar qalamraviga kirgan Isfahon-u Tabriz, Sheruz-u Raylar band qilmoqda.

Insondagi istak va orzularning cheki bo'lmas ekan. Bir vaqtlar Samarcand taxtiga ham qanoat qilib yurgan Sulton Abusayid shu kunlarda Tabriz va Sheruzlarga ham hukmronlik qilish ishtiyogi bilan yonmoqda.

Hozir u Amudaryo bo'yidagi tepalikda ot ustida turgan paytda tepalik pastidagi sayhonlikda uning ellik ming kishilik otlig'-u piyoda qo'shirlari harbiy ko'rikka yig'ilmoqdalar.

Daryoday to'lqinlangan saflarda behisob dubulg'alar va nayzalarning quyosh nurida tovlanishi Abusayidga ulkan bir daryo mavjlarining jilolanishini eslatadi.

Hayqirib oqqan daryoday qudratli lashkar Abusayidning irodasiga so'zsiz bo'y sunadi, uning bir og'iz farmoni bilan u istagan tomonga qarab selday oqadi, yo'lida uchragan har qanday to'siqni urib, yiqitib, yanchib o'tadi.

Shunday lashkari bor podsho jahongir bo'lmasa kim bo'ladi? So'zga usta saroy ahli Sulton Abusayidni «hazrati xilofat pano-hi», ya'ni ichki ixtiloflar va o'zaro urushlardan xalqni xalos qiluvchi najotkor, deb ulug'laydilar. Turon-u Xuroson hozir chindan ham ichki urushlardan qutuldi. Dashti Qi pchoqdan

¹ *Ashpara* — ilgari Toroz deb atalgan. Keyin Avliyo ota, Jambul bo'lgan. Hozir yana Toroz deyiladi.

Kaspiy dengizi bo'yigacha, Sayramdan Kobulgacha hamma o'lkalar birlashib, Sulton Abusayid tuzgan markaziy davlat ixtiyoriga o'tdi.

Bunga qo'shni mamlakatlarning havasi kelayotgani shundan bilindiki, Eron tomonlardagi taxt talashishlar, ichki urushlardan bezor bo'lgan o'n besh ming uylik turkiylashgan mo'g'ul qavmi Sulton Abusayiddan panoh istab, Xuroson va Turonga ko'chib keldi. Abusayid ularni yaxshi qabul qildi, katta bir qismini Mo'g'ulistoniga — Yunusxon ixtiyoriga o'tkazib yubordi. Qolganlariga Xurosandan joy topib berdi. Yigitlarini o'z qo'shini safiga qabul qildi.

Mana shu ko'chib kelganlarning arz-u dodlaridan ma'lum bo'ldiki, Sheroz-u Tabriz, Isfahon-u Ray aholisi qora qo'yunli amirlarning taxt talashishlaridan nihoyatda bezor bo'lganlar. Ular Sulton Abusayid kabi ichki parokandalikni bartaraf qiladigan kuchli bir hukmdorga katta ehtiyoj sezmoqdalar.

G'arbda ish olib borayotgan xufiyalarning axboroti ham qora qo'yunlilar davlatida ichki nizolar avjiga chiqqanidan dalolat bermoqda. Bir vaqtlar Xurosonga qo'shin tortib kelgan Jahonshoh Bag'doddagi o'z o'g'li Pirbudoq bilan taxt talashib urishadi. Ota-bola jangida Pirbudoq mag'lub bo'ladi. Badjahl Jahonshoh o'z o'g'li Pirbudoqni ayovsiz qatl ettiradi.

Bu hodisa unga qarshi norozilikni kuchaytiradi. Ichki nizolardan Jahonshohning Kavkazdag'i raqibi Amir Hasanbek ustalik bilan foydalanadi. Arzirum shahri yaqinida Amir Hasanbek Jahonshohni tor-mor qiladi. Jahonshoh jang maydonidan bir xachirga minib qochadi, lekin uni quvib yetadilar. Uning o'ligini tog'da bir archaning tagidan topadilar.

Jahonshohning katta o'g'li Husayn Ali Amir Hasanbekdan qasos olishga intiladi, otasidan qolgan qo'shinni o'z atrofiga to'playdi. Lekin Amir Hasanbekni yengishga kuchi yetmaydi. Shundan keyin Husayn Ali Xurosonga elchi yuborib, Sulton Abusayidni yordamga chaqiradi.

Sulton Abusayidga keyingi paytda Marv shahrida qishlash ma'qul tushib qolgan edi. Atrofi keng va tekis cho'l. Ellik ming kishilik katta qo'shining chodir tikib yashashi va harbiy mashqlar o'tkazishi uchun qulay.

Harbiy vazir Asliddin Arg‘univ Tabrizdan kelgan elchini ataylab ulkan qo‘sishin qarorgohi orqali olib o‘tdi. Abusayidning naqadar qudratli lashkari borligini ko‘rgan elchi uning saroyiga kirganda, paypaslanib, xushomad yo‘liga o‘tdi. Taxtda savlat to‘kib o‘ltirgan Abusayidga yaqinlashishdan oldin uning amirlariga bir-bir ta’zim qilib chiqdi. Bu ta’zimlardan terga botib, taxt qarshisiga borganda tiz cho‘kdi-da, Abusayidning qo‘lini o‘pish sharafiga muyassar bo‘ldi.

Muzokalar paytida Abusayid elchi orqali Husayn Aliga bir qancha qattiq shartlar qo‘ydi:

— Isfahon, Qazvin, Sheroz, Qum, Shirvon — bu viloyatlar hammasi hozir qora qo‘yunlilar itoatidan chiqmishdir. Shundoqmi?

— Shundoq, a’lohzarat!

— Biz shuncha uzoq joydan qo‘sishin tortib borsak, jon berib, jon olib bu viloyatlarni egallasak, ularni yana qora qo‘yunlilarga topshirib qaytgaymizmi?

— Mutlaqo undoq emas, a’lohzarat! Amir Temur va Shohrux Mirzo davrida biz ichki urushlardan xalos bo‘lib, tinch yashagan edik. Agar o’sha zamonlar qaytib kelsa, siz nomlarini aytgan barcha viloyatlarning bosh hukmdori o‘zingiz bo‘lgaysiz. Sizning nomingiz hamma joyda xutbaga qo‘sib o‘qitilgay. Bu ishga Qora Usmon avlodidan bo‘lgan Amir Hasan to‘sinq bo‘lib turibdir. Shu to‘sinqi bartaraf etishga yordam bersangiz, keyin toabad sizga sadoqat saqlagaymiz!

— Xullas, Husayn Ali janoblari bilan tuzadigan bitimimizga mana shu shartlar asos qilib olinsin! — deb Sulton Abusayid vaziri a’zamga buyurdi.

Husayn Alining elchisi Sulton Abusayidga atab bir nortuya zo‘rg‘a ko‘taradigan qimmatbaho sovg‘alar olib kelgan edi. Yana bir tuyaning zarrin popuklar bilan bezatilgan kajavasida go‘zal cherkes qizi Abusayidga in’om tarzida olib kelingan ekan.

Qirq besh yoshli Sulton Abusayidning haramida qo‘sha-qo‘sha xotinlari bo‘lsa ham, sutga chaylganday yuzi toza tog‘lik qiz unga juda yoqib qoldi. Darhol mullalarni chaqirtirib, cherkes qizni vaqtinchalik xotin-joriya tarzida nikohiga oldi-da, Kavkazga yurishi arafasida u bilan bir hafta aysh-u ishrat qildi.

Bu yurishga juda katta tayyorgarlik ko‘rildi. Samarqanddan oltmis besh yoshli Xo‘ja Ahror Sulton Abusayid taklifi bilan Marvga keldi. Uni Amudaryodan maxsus kemalarda ehtiyot qilib olib o‘tdilar.

Marv shahrida Xo‘ja Ahror uchun eng ko‘rkam bog‘lardan biri ichidagi ikki oshiyonlik naqshinkor koshonasi bilan tayyorlab qo‘yilgan edi. Eshon hazratlari o‘z shogird va muridlari bilan shu yerga tushib dam olganlaridan keyin uni shahar tashqarisidagi qo‘sish qarorgohiga taxtiravonda sakkiz yigit ko‘tarib olib bordi.

Sulton Abusayid bosh sarkarda sifatida qo‘sish qarorgohida ulkan saroparda bilan o‘rab olingen borgoh¹ va xirgohni² egal-lagan edi. Saroparda ichi keng, uzunasiga ikki yuz qadam, eniga yetmish-sakson qadam maydonni o‘z ichiga olardi. Mana shu maydonda Xo‘ja Ahror uchun qimmatbaho yashil movut bilan yopilgan, ichi ipak matolar bilan sirilgan ulkan bir chodir tikilgan edi.

Bir kun Sulton Abusayid murshidi uchun o‘z shohona borgohida ziyofat bersa, ikkinchi kun Xo‘ja Ahror uni o‘z chodirida kutib olar, birga namoz o‘qiganlarida murshid oldinda turib imomlik qilardi.

Sulton Abusayidning atrofida Xo‘ja Ahrordan obro‘liroq va dadilroq odam yo‘q edi. Tinch va farovon hayotga tashna bo‘lgan fazil odamlar samarqandlik Fazlulloh Abulays orqali Xo‘ja Ahrorga arz qilishardi.

— Hazrat eshon podshohga aytsinlar, — deyishardi, — obodonchilik, bunyodkorik ishlari to‘xtab qoldi. Davlatning bor mablag‘i urush-yurishlarga, si pohilar yollashga ketmoqda. Shohrux bilan Ulug‘bek shu yoshda qancha imoratlar qurdirgan edilar. Sulton Abusayid hazratlari ul zotlarni tan olmasalar, Sohibqiron bobokalonlari Amur Temurning bunyodkorlik ishlaridan ibrat olsinlar.

Bu gaplar asosli ekanini eshon hazratlari ham dil-dilidan sezar edi. Shuning uchun peshin namozidan keyin borgohda

¹ *Borgoh* — podshoh qabulxonasi.

² *Xirgoh* — podshoh yashaydigan xos joy.

barra kabobdan yeb, qimiz ichib o'ltirgan paytlarida Iroq yurishidan gap ochildi-yu, Xo'ja Ahror Abusayidga murojaat qildi.

— Hazrati xilofat panohi, siz ichki ixtiloflarni bartaraf qilib, Turon-u Xurosonni tinchitdingiz. Bu ishingizga Ollohning marhamati yog'ildi. Sizga xudo shunday ulkan sultanatni inoyat qildi.

— Bu inoyatga sizning rahnamoligingizda erishdik, pirim!

— Tashakkur, olampanoh. Endi bobokalonizingiz Amir Temur kabi yangi bog'lar, masjid-u madrasalar buniyod etadigan paytingiz keldi. Fuqaro shunga mushtoq.

Dasturxon atrofida o'ltirgan jangovar beklar sergaklanib qoldilar. Nahotki Xo'ja Ahror valiy podshohni Iroq yurishidan qaytarmoqchi bo'lsa?

Podshohning ham qoshlari chimirildi:

— Fuqaro yana bir-ikki yil sabr qilsin. Iroq yurishidan keyin katta qurilishlarni boshlamoqchimiz.

Bu javobdan beklar mammun bo'lishdi. Xo'ja Ahror Iroq yurishini to'xtatib bo'lmasligini sezdi-da, bu to'g'rida boshqa gapirmadi.

— Iloyo yaxshi niyatlarga xudo sizni yetkazsin, hazratim, — deb qo'ya qoldi.

Piri komilning yon bergenidan dadillangan Sulton Abu-sayid unga xiyol erkalik ham qildi.

— Bobokalonimiz Amir Temur Iroq tomonlarga yurish qilganlarida hazrati pirlari Said Baraka ul zoti oliy bilan birga borgan ekanlar, Xizr kabi Sohibqironning jilovida yurgan ekanlar. Qani endi siz, hazrati eshonimiz, davlatimizning pushti panohi Iroq yurishida ham bizning yonimizda bo'lsangiz!..

— Pok e'tiqodingiz uchun Olloh sizga yor bo'lsin, Sulton hazratlari. Bizning Samarqanddan shuncha yo'l yurib huzuriningizga kelganimiz, jilovingizda yurganimiz emasmi?

— Shunday-ku, endi doim siz bilan birga bo'lsak, duoyingizni olsak deymiz-da. Axir oltin olma, duo ol deydilar-ku!

— Hazratim, bizning duolarimiz doim siz bilan birga bo'lur. Salomatlik imkon bersa siz bilan birga borur edim. Ammo shu yerga ham zo'rg'a yetib keldim.

Shayxulislom Xo'ja Qusuyi Xo'ja Ahrorga yon bosdi:

— Podshohimiz Iroq yurishiga ketganlarida Turon-u Xurosonda osoyishtalikni saqlab turish uchun hazrati eshonning bu yerlarda bo'lganlari yaxshiroqdir.

— Ha, piri komilimiz urush-yurishlarni emas, sulh tuzishlarni yaxshi ko'radirlar, — deb kulimsiradi Sulton Abusayid.

Shu bilan ikki oradagi iliqlik qayta tiklanganday bo'ldi.

— Bu gal ham ko'zlagan maqsadingizga yetib, ulkan zafarlarga erishganingizdan keyin g'oliblarcha sulh tuzish ishlaringizga iloyo biz ham ishtirok etaylik! — deb duo qildi Xo'ja Ahror.

— Omin!

— Ollohu akbar! — deb bu duoga hamma bir ovozdan qo'shildi.

Sulton Abusayidning Iroq¹ va Ozarbayjon tomonlarga yurishi milodiy 1468-yilning mart oyida boshlandi. Barcha mevali daraxtlar avji gullagan bahor paytalarida uning ulkan qo'shini Kaspiy dengizining janubidagi Jurjon va G'ilonlardan o'tib, Bistomga yaqinlashdi.

Ko'pdan beri bunchalik vahimali qo'shinni ko'rмаган, o'zaro urushlarda parchalanib, mayda bo'laklarga bo'linib ketgan o'lkalarning hukmdorlari Sulton Abusayid qarshisida saro simaga tushib, jangsiz taslim bo'la boshladilar.

Abusayid Bistomda ekanida Soriy viloyatining hokimi unga sadoqat izhor qilib, o'g'li va onasini qimmatbaho sovg'alar bilan elchi qilib yubordi. Shirvondan, RustAMDordan, Feruzshohdan kelgan elchilar ham biri biridan ulkan peshkashlar in'om qilishib, o'z hokimlari nomidan Sulton Abusayidni podsho deb tan olishdi va nomini xutbaga qo'shib o'qita boshlashdi.

Sulton Abusayid va uning bek-u a'yonlari yangi viloyatlarni qarshiliksiz, kutganlaridan ham oson qo'lga kiritayotganlardan esankiray boshladilar.

Hali eng zo'r g'animlar oldinda turgan bo'lsa ham, ular Ray shahrida bir oydan ortiq to'xtab, kayf-u safoga berildilar.

Sulton Abusayid haramiga yangi go'zallar keltirildi. Ular og'ushida vaqt qanday o'tgani sezilmas edi.

¹ Hozirgi Eron hududi u zamonlarda Iroq deb atalgan.

Bahor o'tib, yoz issiqlari boshlandi. Sulton Abusayidning o'zi salqin bog'larda maishat qilar, ishongan amirlaridan biriga Isfahonni, ikkinchisiga Kirmonni, uchinchisiga Sherozni, to'rtinchisiga Hamadonni, beshinchisiga Qumni «inoyat» qilardi. Bu mashhur viloyatlarda Qora Yusuf avlodlariga bo'ysunadigan amirlar hukmronlik qilmoqda edi. Sulton Abusayidning «inoyat qilishi» — yuqorida aytilgan viloyatlarga qo'shin tortib borish va u yerlarni qora qo'yunli turkman sardorlaridan tortib olib, Sulton Abusayid hukmi ostiga o'tkazish degan ma'noni bildirar edi.

Albatta, yangi egallanayotgan viloyatlardan juda katta o'ljalar olinar, oltin-u javohirlar tuya karvonlariga va usti yopiq aravalarga yuklanib, Sulton Abusayid huzuriga olib kelinar edi. Bu katta boyliklardan o'zini yanada qudratliroq his qilayotgan Sulton Abusayidga oldinda uni kutib turgan eng katta g'animplari ham kichik ko'rinar, ularni yengish oson tuyulardi.

Sherozdan tortib Yazd va Qumgacha cho'zilgan katta viloyatlarni egallah va ulardan boylik to'plash yana juda ko'p vaqt ni oldi.

Udumga binoan, o'lja tushgan boyliklarning beshdan biri ularni olib kelgan bek-u amirlarga berilishi kerak edi. Lekin bu boyliklar shunchalik ko'p ediki, ularning beshdan birini Sulton Abusayid si pohilarga ulashsa, bek-u navkarlari boyib ketib, bo'lajak janglarga va ulardan tushadigan o'ljalarga uncha qiziqmay qolishi mumkin edi. «Boy bo'ldim» deb, jonini ayab, durust jang qilmaydiganlar ko'payar edi.

Shuning uchun Sulton Abusayid viloyatlardan oqib kelayotgan boyliklarning faqat yuzdan birini bek-u navkarlarga mukofot tarzida tarqatar, qolganlarini o'z xazinasida qattiq nazorat ostida saqlar edi.

Abusayidning bu odati si pohilarni zimdan norozi qilardi. Ular podshohlarining ziqlaligini bir-birlariga shivirlab aytib, hasrat qiladigan hollari ko'payib borardi.

Oldinda turgan hayot-mamot olishuvlariga nisbatan ikkinchi, uchinchi darajali bo'lgan bu ishlar — viloyatlarni amirlarga bo'lib berish va boylik to'plash jarayoni juda cho'zilib ketdi. Bu orada kuz kelib qoldi.

Xuroson bilan Turonning osmoni ochiq yozlariga, quyoshli kuzlariga o'rgangan Sulton Abusayid Qora dengiz va Kaspiy den-gizi oralig'idagi o'lkalarda yoz va kuz juda seryog'in bo'lishini endi bildi.

Marvda tuzilgan bitimga binoan, Sulton Abusayid Tabriz atroflarida Jahonshohning o'g'li Husayn Ali bilan uchrashib, kuchlarini birlashtirishi, so'ng shimoldagi Arzirum va Marandni egallab olgan Amir Hasanbekka qarshi birgalashib jangga kiriishishlari kerak edi.

Tinmay yomg'ir yog'ayotgan va yo'llar balchiqqa aylanib ketgan kunlarda Sulton Abusayid havosi sal quruqroq Kalpush degan joyda to'xtadi. Uning ishongan amirlaridan Asliddin Arg'uniy va Jaloliddin Majidlar o'n ming qo'shin bilan Tabrizga bostirib borib, uni egalladilar.

Husayn Ali bundan norozi bo'lib, Sulton Abusayidga elchi yubordi va Marvda tuzilgan bitimga binoan Tabriz qora qo'yunlilar poytaxti bo'lib qolishi kerakligini eslatdi. Sulton Ali Abu-sayid qo'shinlarining Tabrizdan chaqirib olinishini iltimos qildi.

Abusayid Husayn Ali elchisiga bu gal sovuqroq muomala qildi. Tabriz Shohrux Mirzo davrida ham temuriylar davlati tarkibida bo'lганини aytdi.

— Tabriz masjidlarida bizning nomimizga xutba o'qilsin, shundan keyin shaharga biz hokim tayinlagaymiz, — dedi. — Ana undan so'ng ortiqcha qo'shinni Tabrizdan chaqirib olgaymiz.

Bu javob Sulton Aliga yoqmadi. Ikki orada taranglik paydo bo'ldi. Arzirumda turib, barcha hodisalarni sergaklik bilan ku-zatayotgan Amir Hasanbek ittifoqdoshlar orasiga tushgan sovuq-chilikni yanada kuchaytirish harakatiga tushdi.

Sulton Abusayid hech kutmagan bir paytda uning qaror-gohiga eng xatarli g'anim hisoblangan Amir Hasanbekdan elchilar kelib qoldi. Bir necha tuyaga yuk bo'lган qimmatbaho sovg'alar Tabriz elchilarining meshkashlaridan ham ko'proq edi. Elchilarga bosh bo'lib Amir Hasanbekning ishongan inisi qirq yoshlardagi burgut burun, basavlat Yusufbek kelgan edi.

Vaziri a'zam uni Abusayid huzuriga olib kirishdan oldin o'zi qabul qildi va gapga solib ko'rди. Keyin podshohga axborot berdi:

— Nazarimda, Hasanbek bizning Husayn Ali bilan ittifoqdosh bo‘lganimizdan vahimaga tushgan. Endi bular ham bizni o‘z tomoniga og‘dirmoqchi.

— Biz qaysi tomonga yon bossak, o‘sha tomon g‘olib keli-shini sezgan-da, tulki.

— Lekin inisi juda takabbur ko‘rindi. Dimog‘i baland.

— Unday bo‘lsa kibr-u havosini pasaytirib qo‘ymoq kerak, — dedi Abusayid.

Sulton Abusayidning ko‘rsatmasi bilan Amir Hasanbekning inisi Yusufbek podsho qabuli paytida taxtning ikki tomonida tizilib o‘ltirgan amirlar va a‘yonlardan yigirma yettitasining oldida ta’zim qilib, bir tizzasini gilamga qo‘yib yukundi. Bechora, yukunaverib terlab ketdi, izzat-nafsi azoblanganidan yig‘laguday bo‘ldi. Lekin bu sinov azobiga oxirigacha bardosh berdi. Shundan keyingina u taxt oldida tiz cho‘kib, Abusayidning qo‘lini o‘pish «baxti»ga erishdi.

Elchi ko‘zlarida yongan adovat olovini Abusayidga quvonch olovi qilib ko‘rsatishga intildi. Butun nafratini mo‘ylovi ostiga yashirib, iljaydi, ovoziga tantanali tus berib, tilyog‘lamalik qildi:

— A’lohzrat, biz sizi Amir Temur kabi buyuk Sohibqiron deb bilyurmiz! Men siza chin so‘zni aytgani keldim. Jahonshohning o‘g‘li Husayn Ali sizi aldayur. Bular Qora Yusuf avlodidandir. Qora Yusuf esa Amir Temurga ashaddiy dushman o‘lmishdir. Uning nevarasi Jahonshoh siz bilan cho‘x yog‘iylashmishdir.

— Bunisi rost, — dedi Abusayid.

— Endi Husayn Ali nechuk do‘sit o‘lsin? U siza xiyonat qilyur. Biz ham qora qo‘yunli Amir Usmon avlodidanmiz. So‘nggi yuz yillik tarixni eslang. Amir Usmon avlodlari biror marta temuriylar bilan yog‘iyashgan emasdир. Biz hamisha temuriylarga cho‘x yaxshi munosabatda bo‘lyurmiz. Hozir ham biz sizi hazrati Sulton Abusayid Mirzo, o‘zimiz uchun eng oliy hukmdor deb bilyurmiz.

Shu payt Abusayidga tarixni yaxshi biladigan ma‘rifatli bir maslahatgo‘y kerak edi. Chunki Qora Usmon avlodlari ham paytini topganda temuriylarni bir-birlari bilan urishtirib, bundan o‘zlariga kerakli manfaat topishga intilar edilar.

Xuddi shunday hodisa Shohruxning o'limiga sabab bo'lgan harbiy yurishdan keyin Isfahon va Astrobod oralig'ida yuz ber-gan edi. Bobosining g'azabidan qo'rqib tog'larga qochgan Sulton Muhammadni Qora Usmon avlodlari o'z panohiga olgan edilar. Shohruxning o'limidan keyin Sulton Muhammadga askar berib, uni inisi Abulqosim Bobur bilan urushtirgan ham shular edi. Bu urushda Muhammad Sulton yengilgan va ukasi to-monidan qatl etilgan edi. Keyinchalik Amir Hasanbek Muhammad Sultonning kichik o'g'li Muhammad Yodgorni yoshligida o'z qarorgohiga olib ketgan, «bir kun kerak bo'lari!» deb uni o'zlariga sodiq odam qilib tarbiyalamoqda edi.

Hozir Abusayidning atrofida mana shu hodisalarni tahlil qiladigan va ulardan to'g'ri xulosa chiqara oladigan dono odam yo'q. Abusayidning o'zi bu hodisalardan bexabar bo'lgani uchun Hasanbek yuborgan elchi mug'ambirlik qilayotganini sezmas edi. Aksincha, o'z dushmani unga tan berib, «siz Amir Temur kabi buyuk sarkardasiz!» degani Abusayidga xush yoqmoqda va dilini yumshatmoqda edi.

Yusufbek bunday iliq gaplarni yana davom ettirdi:

— A'lohzrat, Amir Hasanbek sizning sodiq qulingiz bo'imoqchi. Siz bilan sulh tuzib, hukmingiz ostiga o'tmoq-chimiz! Chunki biz Qora Yusuf avlodlarining jabr-u zulmidan bezor bo'lganmiz. Siz rozi bo'lsangiz, sulh tuzib, nomingizni xutbaga qo'shib o'qitmoqchimiz!

«Ajabo! — taajjublandi o'zicha Sulton Abusayid. — Nahot-ki Amir Hasanbek ham jangsiz taslim bo'lsa? Yoki buning tagida boshqa narsa bormi? Rost, Hasanbek bilan sulh tuzish Husayn Ali bilan Marvda tuzilgan bitimni yo'qqa chiqargay. Har ikkovini ham biz orqali urush-janjalsiz murosaga kelishi mumkin emasmikin?!»

Sulton Abusayid jimb qolgan bek-u a'yonlariga bir-bir nazar tashlab so'radi:

— Xo'sh, sulh tuzishga rozilik beraylikmi?

— Unda ittifoqdoshimiz Husayn Ali ne bo'lg'ay? — dedi Mahmud barlos. — Husayn Ali Amir Hasanbek bilan xundor dushman-ku!

Elchi Yusufbek izoh berdi:

— Husayn Ali ham qora qo‘yunlidir. Siz bilan sulu tuzgach, agar ular ham Sulton Abusayidni podshoh deb tan olsalar, biz yarashurmiz. Behuda urushish, qon to‘kishga hojat qolmagay!

— Agar shu shart bilan bitim tuzilsa, rozi bo‘lmoq kerak! — dedi Amir Sherhoji.

Amir Hasanbekday kuchli yov bilan urushishni istamaydigan amirlar ko‘pchilik edi. Ular Sulton Abusayidga ta’zim qilib:

— Rozi bo‘ling, olampanoh!

— Bu yerda ham xalq sizni hazrati xi洛fat panohi deb ulug‘lagay! — deyishdi.

Axiyri Abusayid ham elchining taklifiga rozilik bildirdi va unga sarupo kiydirishni buyurdi.

Amir Hasanbekning o‘ziga oltin qilich, zardo‘zi dagala¹, la’llar qadalgan oltin kamar sovg‘a tarzida berib yuborildi.

Shu bilan juda qaltis bir harbiy o‘yin boshlandi. Sulton Abusayid Marvda tuzilgan bitimni buzib, Amir Hasanbek bilan sulu tuzgani Husayn Ali boshliq avvalgi ittifoqdoshlarni qattiq norozi qildi. Bu norozilik ikki orada urush chiqishiga sabab bo‘ldi.

Husayn Alining asosiy kuchlari Tabrizdan shimolroqda, Marand degan joyda Amir Hasanbek lashkari bilan jang qilishga tayyorlanmoqda edi. Tabriz himoyasiz qolganidan foydalangan Sulton Abusayid lashkari Husayn Ali qo‘shiniga orqadan kuchli zarba berdi. Old tomondan Amir Hasanbek hujumga o‘tdi. Ikki kuchli g‘anim zarbalariga bardosh bera olmagan Husayn Ali qo‘shinida buzilish boshlandi. Uning Shoh Ali, Ibrohimshoh degan amirlari besh-olti ming navkarlari bilan Amir Hasanbek tomonqa qochib o‘tib ketdi.

Shu tarzda Amir Hasanbek sobiq ittifoqdoshlarni bir-birlari bilan urushtirib qo‘yib, har ikki tomonni zaiflashtirdi. O‘zi esa Husayn Alining qochib kelayotgan bek-u navkarlarini lashkari safiga qo‘shib olib, kuch-qudratini yanada oshirdi.

Buning ustiga kuz oxirlab, qish kirdi. Qo‘shin qishlovi uchun bu atrofdagi eng qulay joy tog‘li Qorabog‘ edi. Buni yaxshi

¹ *Dagala* — shohlar kiyadigan ustki kiyim.

biladigan Amir Hasanbek Qorabog‘ni Sulton Abusayiddan oldinroq ishg‘ol qildi. Qorabog‘ga boradigan yo‘llarni ham to‘sib qo‘ydi.

Sultoniyaga borib to‘xtagan Abusayid Amir Hasanbek bilan tuzilgan bitim shartlarining bajarilishini, ya’ni o‘zining Tabriz-u Qorabog‘lar podshohi deb e’lon qilinishini kutmoqda edi. Lekin Amir Hasanbek bu ishni paysalga solib kelardi. U vaqtdan yutmoqchi va qish avjiga chiqqanda Sulton Abusayidni tog‘lar, o‘rmonlar va daryolardan iborat ulkan qopqonga ilintirmoqchi edi.

Qish sovuqlari boshlanganidan tashvishlangan Sulton Abusayid Amir Hasanbekning huzuriga o‘g‘li Mahmud Mirzo boshliq elchilar va sovg‘a-salomlar jo‘natishga majbur bo‘ldi. Shunda Amir Hasanbek bu elchi orqali Abusayiddan, avvalo, ukasining qasdini oldi.

Ya’ni, Abusayidning o‘g‘li Mahmud Mirzo Hasanbek atrofiga yig‘ilgan bek-u a’yonlarga yigirma yetti joyda yukunib, xuddi Yusufbek kabi ta’zim bajo keltirishga majbur qilindi.

Oltin taxtga Shohrux Mirzoning evarasi, o‘n sakkiz yashar ko‘hlik yigit Yodgor Mirzo chiqarilgan edi. Amir Hasanbek uning chap yonida otaliq o‘rnini egallagan. O‘ng tomondan Shayxulislom joy olgan. Mahmud Mirzo Amir Hasanbekka va Shayxulislomga ta’zim qilgandan so‘ng taxt qarshisida tiz cho‘kdi. Yodgor Mirzo endi unga qo‘l berdi. Mahmud Mirzo uning qo‘lini tavof qilib o‘pdi. Shundan so‘ng Amir Hasanbekning ishorasi bilan Yodgor Mirzoning boshidan oltin tangalar so‘childi.

— Biz Amir Temur avlodidan faqat Yodgor Muhammad Mirzoni taxtga munosib deb bilyurmiz! — dedi Hasanbek. — Sulton Abusayidga endigi javobimiz ana shu!

Bunday kamsitishlardan keyin sulh to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas edi. Sulton Abusayid Ardabil yo‘li bilan Qorabog‘ qishloviya yo‘l ochishga intilib ko‘rdi. Ammo Amir Hasanbek qo‘sishlari uni Miyona deb atalgan sersuv, loy va balchiq bir daraga chekinishga majbur qildi. Tog‘ yon bag‘irlarida qor qalin, izg‘irin shamollar esadi. Qo‘shtining oziq-ovqati tugab qoldi.

Sulton Abusayid Mahmudobod degan joyda to'xtab, Shervonshohga o'z odamlarini yubordi.

Ular suv yo'li bilan kemada oziq-ovqat olib kelishi kerak edi. Lekin endi Shervonshoh ham Amir Hasanbek tomonga og'di, Abusayidning puliga ham oziq-ovqat sotmadni.

Otlarga ham yem-xashak yo'q edi. Mo'g'on cho'lining bir chetidagi yalanglikda qor tagidan chiqib turgan quvragan o't-o'lanlar bor ekan. Otlar shu notanish o't-o'lanlardan yegan sari tap-tap yiqilib o'la boshladi.

Abusayidning yonida bu yerlarning iqlimini, o'simliklarini, tog'-u daryolarning xaritasini yaxshi biladigan olimlar yo'q edi. Holbuki, bobokaloni Amir Temur bu yerkarta yurish qilib kelganda uning qo'l ostida tarixni ham, jo'g'rofiyani ham, o'simlik dunyosini ham besh qo'lday biladigan fozil odamlar xizmat qilardi.

Abusayid Amir Temurning tajribasini durust o'rganmagani, o'z kuchiga ortiq darajada ishonib, juda katta ketgani endi bilindi.

Xurosondan oziq-ovqat olib kelayotgan karvonni Shervonshoh tutib olib, Hasanbekka topshirdi. Atrofdan hech qanday yordam kelmay qo'ygandan keyin yana Ardabil yo'li bilan orqaga chekina boshladilar.

Ammo qor-yomg'irlar yo'llarni o'tib bo'lmaydigan balchiqqa aylantirgan edi. Sulton Abusayidni ba'zi joylardan balchiq ustiga kigiz va paloslarni to'shab olib o'tdilar. Uch-to'rt ming ot va tuyalar balchiqqa yem bo'ldi.

Balchiqlardan endi qutuldik deganlarida, Hasanbek qo'shining ayovsiz zarbalariga uchradi. Hirotda Tarxon amirlarini ziyofat paytida chopib o'ldirgan Muboriziddin Pahlavon Devona yovga asir tushdi va boshi kesildi. Said Jaloliddin ham halok bo'ldi.

Amir Sherhoji va boshqalar o'z jonlarini qutqarish uchun barcha navkarlari bilan Amir Hasanbek tomoniga qochib o'tdilar.

Yakkalanib qolgan Sulton Abusayid milodiy 1469-yilning qish chillasida oxirgi kuchlarini yig'ib, Xuroson tomonga qocha boshladi.

Ammo Hasanbekning ikki o'g'li o'z navkarlari bilan uni quvib yetib, asir oldilar. Sulton Abusayid Hasanbek qarorgohida

ikki kun hibsda yotdi. Uchinchchi kuni uning qo‘lini orqasiga bog‘lab, Amir Hasanbekning muhtasham qabulxonasi olib kirdilar.

Yoshi ellikdan oshgan, soqoliga oq oralagan ulkan gavdali Hasanbek tojsiz podshoh hisoblanar, taxtda o‘ltirmas edi. To‘rda yal-yal yongan turkman gilami ustida chordana qurib olgan edi. Uning bir yonida o‘z amirlari, ikkinchi yonida Amir Sherhoji va boshqa qochib o‘tganlar bosh egib o‘ltirar edi.

Amir Hasanbek guldurak ovoz bilan savol berdi:

— Abusayid Mirzo, bu amirlaringizga boqing, bunlar nechun sizdan yuz o‘girmishlar?

Abusayid Mirzoning alami kelib:

— Bular xoinlar!.. — dedi.

— Ayb faqat bunlarda deyil¹. Siz xazina yig‘arga berilib, si pohlaringizga haq bermagansiz. Tanqislik bunlarni sizdan bezdirmishdir. Bunlar sizdan ozor tortmishdir². Siz bunlarni xoin dedingiz. Ammo bunlar xiyonatni ham sizdan o‘rganmishdir. Axir siz Mirzo Ulug‘bekdek buyuk podshoh xizmatida yurganda unga qarshi isyon ko‘tarib, Samarqandga tajovuz qilganmidingiz? Yana Ulug‘bekning neverasi Jo‘giy Mirzo bilan sulh tuzib, Xoja Ahror valiy guvohligida qasamyod qilib, keyin bu qasamni ham buzgan, Jo‘giy Mirzoni qatl ettirgan siz emasmidingiz?

— Siz ham biz bilan sulh tuzib, so‘zingizda turmadingiz-ku!

— Biz siz ishlatgan qopqonni o‘zingizga qo‘yib ko‘rdik. Siz Murg‘ob bo‘yida qarindoshingiz Ibrohim Mirzo bilan soxta sulh tuzib, unga qopqon qo‘yan edingiz. Ibrohim Mirzo shu qopqonga tushib, halok bo‘ldi. Jahonshohning o‘g‘li Husayn Ali bilan Marvda ittifoq tuzgan edingiz. Bu ham Husayn Aliga qo‘yilgan qopqon ekan. Siz yana so‘zingizdan qaytib, biz bilan sulh tuzdingiz. Lekin bu gal siz qo‘yan qopqonga biz o‘zingizni tushurdik! Xushomadgo‘ylar sizni Amir Temur bilan barobar qo‘yib maqtasalar, bunga ishondingiz. Ammo sizda Amir Te-

¹ Deyil — emas.

² Hazrat Alisher Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida Sulton Abusayidning mag‘lub bo‘lish sabablariga to‘xtalib, mana shu jihatlarga e’tiborni qaratadi.

murning dahosi ham, tajribasi ham, ilm-u ma'rifati ham yo'qligini hozirgi ahvolingiz isbot etiyur!

— Bu rost! — deb tan berdi Abusayid Mirzo. — Men hovliqqan ekanmen! Xushomadgo'y larga ishonib aldandim!!!

— Shunday o'lsa-da, bizning temuriylar sulolasiga ehtiromimiz buyukdir. Biz burada¹ toj-u taxtni Shohrux podshoh avlodidan o'lmissiz Yodgor Mirzaya munosib ko'rdik. Endi Abusayid Mirzo ustidan hukm chiqarishni ham Yodgor Mirzaya topshirgaymiz.

Sulton Abusayidni boshqa katta tanobiy uyda taxt ustida o'ltingan o'n sakkiz yoshli Yodgor Mirzo qarshisiga olib keldilar. Nima bo'lsa ham, bir shajara daraxtining ikki shohi uzoq yurtda shunday vaziyatda uchrashganlaridan Abusayid Mirzoning o'pkasi to'lib, ko'zlariga yosh keldi.

— Jigarimsiz, Yodgor Muhammad Mirzo! Men adashdim! Gunohlarimga iqrormen! Imkon bering, xatolarimni tuzatay!

Yodgor Mirzo bir lahma so'z topolmay jim qoldi. Qirq olti yoshli Abusayid Mirzo uning otasiga tengdosh edi. Amir Hasanbek Yodgor Mirzoga «qatl ettiring!» deb buyurgan edi. Lekin umrida birovni, ayniqsa, otasi tengi qarindoshini o'limga hukm qilmagan yigit uchun Hasanbekning buyrug'ini bajarish nechog'liq qiyin bo'lishini u endi sezdi. Terlab ketgan peshonasin qo'li bilan ishqab, xotirasidan bunday hukmga asos bo'ladigan dalillar izladi:

— Abusayid Mirzo, sizing tuzatib o'lmaydigan xatolarингиз cho'x ko'pdir! — yetti yasharligidan Hasanbek dargohida yashab kelayotgan Yodgor Mirzo ona tilini unutgan, otalig'i singari ozarbayjoncha talaffuz bilan so'zlar edi: — Dashti Qipchoqdan Abulkayrxonni boshlab kelib, mening kebi yosh yigit Abdulla Mirzoni juvonmarg qildingiz. Bu xatoni tuzatmoq uchun Abdulla Mirzoni qayta tiriltirish qo'lingizdan kelyurmi? Sohibqiron bobomiz Amir Temur ayollar, onalar ila muomala jo'mard o'lishni vasiyat etmishdir. Siz sakson yoshli kayvoni momomiz, begunoh Gavharshod beginni qatl ettirdingiz. Bunday qotillikni kechirib o'lurmu?!

¹ Burada — bu yerda.

Sulton Abusayid birdan ho‘ngrab yig‘lab yubordi:

— Xoin Sherhoji!.. Men shuning qutqusiga uchib xato qildim!.. Aybim bo‘ynimda!..

Boshqa gapga hojat qolmadi. Yodgor Muhammad Mirzoning hukmi bilan Sulton Abusayid o‘sha kuni qatl etildi.

Uning jasadini Hirotga olib keldilar. Sulton Abusayid o‘z oxiratiga yaraydigan biron ta muhtasham bino qurdirma-gan edi. Shunday bo‘lsa ham, o‘n yetti yil podshohlik qil-gan, Turon va Xurosonni yana birlashtirib, Hirotni o‘z salta-natining poytaxtiga aylantirgan edi. Uning begona yurtda fojiali halok bo‘lgani ham rahm-shafqatga munosib ko‘rildi. Sulton Abusayidni Gavharshod begim madrasasi yonida Shohrux Mirzo davrida qurilgan moviy gumbazli xonaqoh-ga dafn etdilar.

OLOY HALQASIDA

Yonib turgan urush olovi endi G‘arbdan Sharqqa, Tabrizdan Hirotga ajal urug‘ini sochib kela boshladi.

Amir Hasanbek Yodgor Mirzoni bekorga taxtga o‘tqazgan emas edi. Uni o‘ziga bo‘ysunadigan qo‘g‘irchoq podshoga aylantirib, Xurosonni, keyin yo‘li topilsa Turonni ham qo‘lga kiritmoqchi edi.

Abusayid Mirzoning omon qolgan sodiq bek-u navkarlari uning o‘g‘li Mahmud Mirzoni jang maydonidan tirik olib chiqishga va Hirotga yetkazib borishga muvaffaq bo‘ldilar. Lekin o‘n olti yoshli bu o‘siprin Xurosonda hukmron bo‘lishga kuchi yetmasligini Amir Hasanbek yaxshi bilardi. Shuning uchun Yodgor Mirzoga o‘n ming qora qo‘yunli askarlardan berib, ularning yoniga Abusayid Mirzodan yuz o‘girgan Sherhoji kabi Xuroson bek-u navkarlarini ham qo‘shdi-da, Hirot taxtini Mahmud Mirzodan tortib olish uchun jo‘natdi.

Lekin Amudaryo bo‘ylarida vaziyat yetilishini kutib yurgan Husayn Boyqaro otini ulardan oldinroq qamchiladi. U Sulton Abusayidning halokatga uchraganini eshitgan zahoti bor kuchlarini to‘plab, Hirotga yo‘l oldi. Ora uzoq emas, Hirotda Husayn Boyqaroning tarafдорлари ko‘p edi. Ular yosh Mahmud Mirzo

hukmronligiga qarshi isyon ko‘tarib, shahar ichidagi Ixtiyorid-din qal’asini egalladilar.

Mahmud Mirzo Samarqandga chopar yuborib, akasi Ahmad Mirzoni yordamga chaqirdi. Ahmad Mirzo Husayn Boyqaroga qarshi ellik ming qo‘shin to‘plab, Amudaryoga yaqinlashib kela boshladi.

Buni eshitgan ko‘pchilik hiroliklar Husayn Boyqaroga yon bosib, shahar darvozalarini egalladilar.

Mahmud Mirzo otasiga o‘xshab asir tushishi mumkinligini sezdi-yu, kechasi yaqin odamlari bilan Hirotni tashlab qochdi.

Uning akasi Ahmad Mirzo hali Amudaryodan o‘tib ulgur-magan edi. Og‘a-ini Termizda uchrashdilar.

Samarqanddan Xo‘ja Ahror ham Termizga yetib kelgan edi.

Aka-uka mirzolar Hirotni qayta bosib olish haqida Xo‘ja Ahrordan maslahat so‘radilar.

— Azizlarim Ahmad Mirzo, Mahmud Mirzo, — deb sehrli past tovush bilan so‘z boshladi Xo‘ja Ahror. — Tushimda... bir qush Mahmud Mirzoning ilkidan yulqinib chiqdi-yu, uchib ketdi. Ov qushi bo‘lsa qaytarmikin deb uzoq kutdim. Qaytmadi. Shu qush Hirot bo‘lsa kerak.

— Undan chiqdi, Hirotdan voz kechaylikmi? — alami ke-lib so‘radi Mahmud Mirzo.

— Nachora? Rahmatli Abusayid Mirzodan norozi bo‘lib yurganlar Samarqandda ham, Hisorda ham oz emas. Sizlar Hirot muhorabasi bilan band bo‘lib qolsalaringiz, orqadan o‘sha g‘animlar isyon olovini alanga oldirishlari muqarrar.

Xo‘ja Ahrorga e’tiqodi baland bo‘lgan Ahmad Mirzo so‘nggi so‘zlarni bashorat deb bildi.

— Hazrati piri komilimizga ayon bo‘libdir, bas, Samarqandga qaytmoq kerak!

— Men Samarqandda ne qilurmen? — deb sarosimaga tushib so‘radi Mahmud Mirzo. Chunki u ham qoidaga binoan qaysidir bir mintaqaga hukmron bo‘lishi kerak edi. Uning o‘rtancha inisi Umarshayx Mirzo Farg‘ona vodiysida hukmron, kichik ukasi Ulug‘bek Kobuliy Kobul taxtida o‘ltiribdi. Endi Mahmud Mirzo ham otasining mulkidan o‘ziga yarasha bir meros olmog‘i

kerakligini Xo‘ja Ahror ham tan olar va javobini oldindan o‘ylab turar edi.

— Farzandi arjumand, — deb piri komil Mahmud Mirzoga murojaat qildi. — Siz padari buzrukворингиз bilan harbiy yurish-larga borib chiniqdingiz. Endi har qanday mushkul ishni uddalay olursiz. Mana shu Termiz — qadimiy shahar sizniki bo‘lsin. Amudaryoning ikki qirg‘og‘ida Hisor, Qunduz, Chag‘oniyon... to Hindikush tog‘igacha bepoyon yerlar — hammasi kuchli bir hukmdorga muhtoj. Ana shu hukmdorlikka faqir sizni munosib deb bilurmen!

Mahmud Mirzo akasiga hasadi kelib so‘radi:

- Samarcand-u Toshkentlar hazrat akamizda qolurmu?
- Buni rahmatli otangiz vasiyat qilganlar.

— Bizning peshonamizga madaniy markazlardan yiroqdagi chet o‘lkalar bitilgan ekan-da, — deb Mahmud Mirzo Xo‘ja Ahrorning taklifini uncha xush ko‘rmadi. Lekin shundan boshqa meros yo‘qligini sezib, taklifni qabul qildi. Faqat umr bo‘yi Xo‘ja Ahrordan ranjib yurdi. Akasi bilan ham bir necha marta mulk talashib urushdi.

Milodiy 1469-yilning bahori va Navro‘z bayrami Hirotga Husayn Boyqaro bilan birga keldi. Mahmud Mirzo tunda Hirotni tashlab qochganini eshitgan hirotliklar qo‘rg‘onning har to‘rtala darvozasini Husayn Boyqaro va uning odamlari uchun lang ochdilar. Abusayid davridagi zolimliklardan sabr kosasi to‘lib-toshgan Xuroson xalqi Husayn Boyqaroning shunday kuchli raqibga o‘n yildan ortiq bo‘yin egmay jasorat bilan kurasib kelganini alohida e’zozga sazovor deb bilardi. Shuning uchun Husayn Boyqaro bir hafta davom etadigan Navro‘z bayramining uchinchini kunida Malik darvozasidan Hirotga kirib kelganda odamlar uni karnay-surnay ohanglari, nog‘oralarning quvonchli taka-tumlari bilan kutib oldilar.

O‘sha kuniyoq juma namozida uning nomi xutbaga qo‘shib o‘qildi.

Bir vaqtlar Hirotdan quvg‘in qilingan Feruza begin kelini Beka begin va to‘ng‘ich nevarasi o‘n bir yashar Badiuzzamon Mirzolar bilan birga shohlar turadigan muhtasham Bog‘i Zog‘on qasrini egalladilar.

Husayn Boyqaro Hirotga qaytganining birinchi kuniyoq do'sti Alisher Navoiyga maktub yozib, maxsus chopar bilan Samarqandga jo'natdi. Maktubda: «Men taxtga Sizning guvohligingizda chiqmoqchimen, tez yetib keling!» deyilgan joyi bor edi.

Mir Alisher Samarqanddagi ustozi Fazlulloh Abulaysdan oq fotiha olib, darhol yo'lga chiqdi. Amudaryodan kema bilan o'tib, Xurosonning Raboti Suxayl degan manziliga yetganda Husayn Boyqaro unga peshvoz chiqib kutib oldi.

Yetti yildan buyon ko'rishmagan do'stlar quchoqlashib ko'rishar ekanlar, Mir Alisher alpqomat Husayn Boyqaroning yelkalari yanada kengayib, bahodirona ko'kragi quchoqqa sig'maydigan darajaga yetganini sezdi. Husayn Boyqaro yuzini do'stining yuziga bosganda uning ipakday mayin soqol-mo'ylovi chiroyli qilib tarashlanganini ko'rdi.

Mulozimlar ikkovilarini keng tanobiy xonada yolg'iz qoldirdilar.

— Shuncha yil quvg'inda yashadik, Alisherbek! — dedi Husayn Boyqaro. — Sizni sog'inganimda she'rlaringizni yod aytib taskin topdim. Jabr-u zulmlardan to'yib ketganimda mana bu satrlaringiz ko'p yodimga tushdi:

*Ey, Navoiy, istasang davr ahli zulmidin xalos
Ur fano dashtiga gom-u¹, bora olg'uningcha bor!*

— Hazratim, dasht-u biyobonlarda siz gom urmagan yo'llar qolmagandir?

— Ha, yurgan yo'llarimda fig'onim ko'kka chirmashganlarini bilsangiz edi, Alisherbek! Shunda yana sizning mana bu satrlaringiz menga tasalli berardi:

*Agar yuz qatla bulbul cheksin afg'on
Bahor o'lmay gul ochilmoq na imkon!*

— Shukurki, bizning bahorimiz ham keldi, — dedi Alisherbek. — Orzu qilgan gullarimiz endi ochilmoqda. Ammo bu kunlarga yetguncha faqir ham juda ko'p azob-u uqubatlarni boshdan kechirdim.

¹ *Gom* — qadam.

— Xabarim bor. Hasan Ardasherga yozgan masnaviy she'ringizdan Hirotda bir nusxa ko'chirtirib olib o'qiganimda ko'zlarimga yosh keldi.

— Tashakkur, hazratim. Eng qora kunlarda hech kim bizning ko'nglimizga qaramay qo'ygan paytlar bo'ldi. Istak-intilishlarimiz zolimlaradolatsizligidan toptalganda, ko'nglimiz nihoyatda cho'kkani edi. Cho'kib g'arq bo'lgan ko'ngil kemasi nom-nishonsiz yo'qolgandek tuyulgan damlarda faqir ham sizning satrlaringizni yodga olib, taskin topardim.

— Qaysi satrlar, Alisherbek?

— Mana bu:

*Vahki, g'am dashtida yitgan¹
notavon ko'nglim qani?*

*Tarki jonim aylagan
bexonumon ko'nglim qani?*

*Ne nishonidin xabar topdim,
ne otidin asar.*

*Hajr vodiysinda benom-u
nishon ko'nglim qani?*

Shoir do'stining haroratlari tovushi bilan nihoyatda ta'sirli qilib aytildi bu she'r Husayn Boyqaroni hayajonga soldi. U Alisherbekni qaytadan bag'riga bosib dedi:

— Parvardigor bizning do'stligimizni panohida asrasin! G'am dashtida yitgan ko'ngillarimizni bugun qaytadan topdik. Ko'ngilga tukkan eng buyuk orzuyimiz — adolatli davlat tuzmoq, mamlakatni obod, el-yurtni farovon qilmoq edi.

— Endi ana shu orzuni ro'yobga chiqarib bo'larmikin?

— Qaydam! So'nggi kunlarda davlat tepasida o'ltirib, bu orzuni ro'yobga chiqarish naqadar mushkul ekaniga amin bo'lmoqdamen. Mamlakat vayron bo'lgan. Odamlar ham buzilgan. Poraxo'rlik, aldamchilik, makkorlik, insofsizlik... Qay birini aytay! Odil podshoh bo'lishim uchun atrofimda halol-u pok vazirlar, insofli amirlar, ma'rifatli maslahatgo'ylar bo'lmog'i kerak. Qani ularni qayerdan topay?

— Chindan ham bu eng mushkul muammodir, hazratim.

¹ *Yitgan* — yo'qolgan.

— Shu muammoni hal etishda men sizga suyanmoqchimen, Alisherbek! Saroyda istagan lavozimingizni beray. Doim yonimda bo‘ling.

— Men siz uchun jon fido qilishga tayyormen. Ammo saroy muhitidan qo‘rqamen. Yoshimiz o‘ttizga yaqinlashdi. Bolalikda birga o‘sdk, maktabdosh bo‘ldik. Do‘stligimiz hamon beg‘ubor, samimi. Saroy muhitida fisq-u fasod ko‘p. Men buni Samargandda ham ko‘rdim. Faqir Abulaysdek, Abdurahmon Jomiydek oriflar orasida bo‘lgim kelur. She’rlar yozsam, toat-ibodat qilsam, sizga omad-u baxt tilab duolar o‘qisam-u, do‘stligimizni umrim oxirigacha beg‘ubor saqlab qolsam.

— Alisherbek, niyattingiz oliyjanob! Ammo hadislarda aytilan hikmatni eslang. Mamlakat bo‘yicha bir soat adolat qilish oltmis yillik toat-ibodatning savobini berar ekan. Axir siz bilan va’damiz bor edi-ku. Men podshoh bo‘lsam, siz eng ishongan vazirim bo‘lgaysiz deb ahslashgan emasmidik?

— Yoshlikda vazir bo‘lish nimaligini bilmay ahd qilgan ekanmen. Men yaxshi vazir bo‘lganim bilan boshqa vazirlar meni sizga yomon ko‘rsatib qo‘yishlari mumkin ekan. Men ana shundan xavotirdamen.

— Xavotir bo‘lmang. Siz menga faqat haqiqatni aytib tur-sangiz bas, men doim sizga yon bosgaymen.

— Hazratim, haqiqat goho juda achchiq bo‘lur. Shohlar esa shirin maqtovlarni, chiroyli xushomadlarni yaxshi ko‘rurlar. Shu sababli achchiq haqiqatni aytamen deb baloga qolganlar ham ko‘p bo‘lgan.

— Ajabo, sizga eng mo‘tabar vaziri a’zamlik lavozimini taklif qilsam olmayotirsiz. Boshqalar bunday lavozim uchun o‘zlarini tomdan tashlaydirlar. Siz farishtaday pok, sofdil, beg‘araz do‘stimsiz. Siz har qanday achchiq haqiqatni ham jonkuyarlik mehrigiyosi bilan doruga aylantirib, samimiyat ipagiga o‘rab, mayin qilib aytta olursiz. Shuning uchun siz faqat vazir emas, musohibim¹ bo‘ling. O‘tgan aziz-u avliyolar ruhi bizga madad bersin. To‘qson yoshli malikul kalom Lutfiy yodingizdami?

¹ *Musohib* — sirdosh do‘st.

— Ha, xudo rahmat qilsin, biz quvg‘inda yurganimizda to‘qson besh yoshida vafot etibdirlar.

— O‘shal buyuk zot Gavharshod begin huzurida qilgan bashorat yodingizdam!

— Olovdan tirik chiqqan Qaqnus haqida aytganlarimi?

— Ha, ilm-u ma’rifat homisi bo‘lgan Mahdi Ulyoni Qaqnusga qiyos qilgan edilar. Siz bilan meni beginiga ko‘rsatib, «bular siz uchun Qaqnus qanotlariga aylangaylar» degan edilar. Afsuski, Gavharshod begin bugungi kunga yetib kelolmadilar. Lekin Ulug‘bek Mirzo bilan uning buyuk ota-onalari davridagi madaniy yuksalishlarni davom ettirish shoyad siz-u bizga nasib etsa!

— Iloyo aytganingiz kelsin, hazratim. Mening dilimdag‘ eng ulug‘ maqsad ham shudir.

— Alisherbek, ikkovimiz suhbatlashganda siz meni hazratim demang. Bir marta «do‘stim» desangiz, bu men uchun ming marta «hazratim» deganingizdan afzalroqdir!

— Xo‘p, do‘stim! Siz aytgan ulug‘ maqsadlar yo‘lida men doim yoningizda bo‘lay. Faqat vaziri a‘zamingiz emas, kichik-roq vaziringiz — muhrdoringiz bo‘lish men uchun kifoyadir.

— Buni yaxshi aytdingiz. Mening ol tamg‘alik ulkan muhrim doim sizda turgay. Bu muhr bosilmaguncha birorta farmon kuchga kirmagay.

— Mabodo boshqa vazirlar oliq-soliqlarni oshirish, kimlanidir jazolash, yana kimlarnidir mukofotlash haqida hiyla-yu nayrang ishlatishsa, tamagirlik bilan adolatsiz farmon loyihalari tayyorlatishsa, sizning saxovatingizni suiiste’mol qilib, bunday farmonlarga imzo qo‘ydirishsa men ne qilay? Faqir muhr bosishdan oldin sizga haqiqatni aytib, e’tiroz qilishim uchun vakolat berurmisiz?

— Tepamizda xudo turibdir. Vakolat berurmen!

— Ammo shohlar gap qaytargan vazirni bamisol tutun qaytargan mo‘ridek yomon ko‘rurlar. Mo‘ridan tutun qaytsa uyda o‘ltirish mushkul bo‘lg‘ay.

— O‘shal uyda siz ham mening yonimda o‘ltirurmisiz?

— Albatta-da! Har qanday e’tirozning mas’uliyatini men avval o‘zimga olurmen! Undan so‘ng faqat adolatli hukm chiq-

rishingizga imkon yaratish maqsadida sizga o‘z e’tirozimni arz qilgaymen.

— Undoq bo‘lsa bir marta emas, zarur bo‘lganda to‘qqiz martagacha menga haqqoniy e’tirozingizni aytish uchun va-kolat olg‘aysiz. Toki shu to‘qqiz bosqichda haqiqat oxirigacha ayon bo‘lsin-u, adolat bexato yuzaga chiqsin!

— Siz menga bergen bu cheksiz vakolat shohlar tarixida misli ko‘rilmagan mardona inoyatdir! — dedi Mir Alisher va qo‘ynidan oltin muqovali kaftday daftarcha oldi. — Rahmatli Gavharshod begin shu oltin daftarchani menga in’om qilgan edilar. Ruhlari shod bo‘lsin deb, buni barcha xavf-u xatarlardan saqlab olib o‘tdim. Shu tabarruk daftarchaga sizning nomingiz ham bitilmishdir. Taxtga chiqadigan kuningizga atab, «Hiloliya» nomli qasida boshladim. Do‘stim, siz musaffo osmondagи yangi oy — hilol kabi ko‘tarilmoqdasiz. Ilohim shu Hilol to‘la-to‘kis murodig‘a yetib, to‘lin oyga — Badrga aylansin!

— Ajoyib lutf qildingiz, Mir Alisher! Shu yaxshi niyat-laringizga siz bilan birga yetaylik!

Ikkovlari ham «Omin!» deb yuzlariga fotiha tortdilar va ot-lanib poytaxtga birga yo‘l oldilar.

* * *

Hirotni Husayn Boyqarodan tortib olib, qora qo‘yunlilar hukmi ostiga o‘tkazish uchun katta qo‘sish bilan kelayotgan Yodgor Mirzo hali uzoqda, Isfahondan narida edi. Ikki do‘sning bamaslahat qilgan birinchi ishlari — hamma rahbariy o‘rnirlarga insofli va ma‘rifatli odamlarni yig‘ish bo‘ldi. Shu jumladan, Hirotning eng diyonatli mashhur mavlonosi bo‘lmish Hasan Ardasher davlat mulkiga, obodonchilik va bunyodkorlik ishlariga rahbarlik qiluvchi amorat vaziri qilib tayinlandi.

U Alisher Navoiy bilan birgalikda Shohrux Mirzo va Gav-harshod begin nomidagi madrasalarni ta’mirlatib, qaytadan ishga tushirdi. Mudarrislar va ilm-u ma‘rifat ahlining oylik ma-oshlari Ulug‘bek Mirzo davridagi kabi baland ko‘tarildi. Turli tomonga tariqday sochilib ketgan ziyoli odamlar va tolibi ilm-lar yana Hirotna yig‘ilib kela boshladilar.

Alisher Navoiy bu ishlar bilan o'ta band bo'lgan kezlarda Xo'ja Tusiy va Hasan Tabriziy degan ulamolar shohni o'z ta'sirlariga olib, shia mazhabini qabul qilishga uni ko'ndiradilar.

Husayn Boyqaro navbatdagi juma namozida shia mazhabini Xurosonning davlat dini deb e'lon qilmoqchi bo'layotganidan xabar topgan Alisherbek iztirobga tushib, uning huzuriga bordi.

— Temuriylar sulolasida hali hech kim shia mazhabini davlat dini deb e'lon qilmagan edi-ku, hazratim! Siz bobokaloningiz Amir Temurning din bobida tutgan yo'llaridan voz kechmoqchimisiz?

— Yo'q. Nechun bunday savol berdingiz, Alisherbek?

— Amir Temur hazratlari Imomi A'zam ta'limotiga amal qilganlar. Choryorlardan Abubakr, Umar, Usmon, Ali — har to'rtalasini barobar ehtirom qilganlari bobokaloningizning xotirotlarida bitilgan.

— Alisherbek, yetti-sakkiz yil cho'l-u biyobonlarda jang-u jadal ichida yurganimda Hazrati Aliga e'tiqodim oshdi. Choryorlardan dilimga eng yaqini shul siymo.

— Chunki ul zoti oliv siz kabi juda ko'p qilich chogpanlar, tengsiz bahodir bo'lganlar.

— Bundan tashqari, Hazrati Ali payg'ambarimizning qizlari Bibi Fotimaga uylanganlar. Undan Hasan-Husan o'g'il ko'rghanlar. Adolat yuzasidan payg'ambarimizga Hazrati Ali voris bo'immoqlari kerak edi.

— Navbat kelganda Hazrati Ali ham voris bo'lganlar. Lekin Hazrati Ali o'zlaridan yoshi ham katta, tajribasi ham ko'proq bo'lgan Abubakr, Umar, Usmonni rahbar deb tan olganlar. Hazrati Alining o'zlarini sunniy mazhabida bo'lganini bilurmisiz?

— Buni menga aytmadilar-ku.

— Bo'limasa men sizga din tarixidan dalil keltiray. Hazrati Ali sunnaga sodiq bo'lgani diniy kitoblarda yozilgan. Shia mazhabi esa sunnani tan olmaydir, Abubakr, Umar, Usmonni qoralaydir, xutbada ularni tilga olmaydir.

— Hazrati Ali xalifa bo'lganlarida choryorlar xutbada tilga olinganmi, yo'qmi?

— Olingan! To‘rtovlari ham ehtirom bilan ulug‘langan. Shialar esa choryorlardan faqat Hazrati Alini tan oladilar-u, oldingi uch choryorni nohaq kamsitadilar.

— Buadolatdan emas, albatta.

— Hazratim, agar siz ham shu yo‘lga o‘tsangiz, Xuroson-u Turondagi ko‘p avliyolarning ruhiga xilof ish qilgan bo‘lursiz. Ulug‘ pir Ahmadi Jom — Imomi A’zam mazhabida bo‘lganlar. Buxorodagi Bahouddin Naqshband ham, Farg‘onadagi Marg‘inoniy ham, Samarqanddagi Moturidiy ham, Turkistondagi Ahmad Yassaviy ham...

— Men Turkistonda Yassaviy maqbarasini ziyorat qilganimen. Hikmatlarini yod olmishmen.

— Shunday ulug‘ pirlardan ajralib qolish — el-yurtdan ajralish bilan barobar emasmi?

— Men bu tomonlarini o‘ylamagan ekanmen...

Husayn Boyqaro din tarixini yaxshi bilmagani, yoshlidiga madrasalarda ta’lim ololmagani uchun sunna va shia orasidagi nozik farqlardan xabardor emas edi. Xo‘ja Tusiy kabi aqidaparast ulamolar shu bexabarlikdan foydalanib, uni shia mazhabiga o‘tkazishga intilmoqda edilar.

Alisherbek shia mazhabi ko‘proq Eronda tarqalganiga, lekin dunyoning aksariyat musulmon mamlakatlari Imomi A’zam ta’limotiga amal qilayotgani bejiz emasligiga juda ko‘p dalil-u isbotlar keltirdi.

Husayn Boyqaro Samarqanddan Hirotga qaytgan mashhur alloma Abdurahmon Jomiydan fikr so‘radi.

Naqshbandiya ta’riqatining yirik namoyandasini bo‘lgan Jomiy ham Mir Alisher haq ekanini aytib, Husayn Boyqaroni Imomi A’zam ta’limotiga sadoqat saqlashga undadi.

Shundan so‘ng Husayn Boyqaro Xo‘ja Tusiyni saroydan uzoqlashtirdi va Mir Alisherga tan berib dedi:

— Siz bir emas, ikki madrasada ilm olgansiz. Biz uchun tahsil oling degan edim-ku. Mana endi sizdag‘ ilm-u ma’rifatdan biz ham bahramand bo‘lib, bir xato yo‘ldan qaytdik. Tashakkur sizga, do‘stim!

Bu orada kuz kirdi va Tabrizdan qo‘sish tortib kelayotgan qora qo‘yunlilar Yodgor Mirzoni Hirot taxtiga chiqarish maqsasi

dida Xuroson sarhadiga bostirib kirdilar. Alisher Navoiyga amirlik rutbasi berilgan edi. U ham endi beliga qilich taqib, sodiq navkarlari bilan mamlakat himoyasiga otlandi.

Chinoron degan joyda Husayn Boyqaro qo'shini Yodgor Mirzoga va uni boshlab kelgan qora qo'yunlilarga qaqshatqich zarba berdi.

Jang maydonidan ot choptirib qochgan Yodgor Mirzo Xuroson hududini tashlab chiqdi va qora qo'yunlilarga qarashli Domg'on tomonlarga borib jon saqladi. Bu mag'lubiyatdan jahli chiqqan Amir Hasanbek inisi Zaynalbek boshchiligidagi yana to'rt ming sara qo'shinni Yodgor Mirzoga ko'mak qilib yubordi. Qandoq qilib bo'lsa ham Hirotni Husayn Boyqarodan tortib olish Yodgor Mirzo oldiga qat'iy vazifa qilib qo'yildi.

Bu vazifani amalga oshirish uchun qulay vaziyat ham vujudga keldi. 1470-yilning javzo oyida Hisor hokimi Mahmud Mirzo Amudaryodan o'tib, Husayn Boyqaro qalamravidagi Balx va Shibirg'on viloyatlariga tajovuz qildi.

Sulton Abusayidning bu o'rtancha o'g'li g'arb tomondan qora qo'yunlilar bostirib kelayotgan paytda Husayn Boyqarodan Xurosonni tortib olish umidida o'ttiz ming qo'shin bilan ot surib kela boshladi.

Ikki o't orasida qolgan Husayn Boyqaroni «endi mag'lub bo'lgay!» deb vahimaga tushgan bek-u navkarlarining kattagina qismi Yodgor Mirzo tomonga qochib o'tib ketdi. Husayn Boyqaro qolgan amirlarining maslahati bilan baland tog' ustidagi Nerotu qal'asiga kirib, vaziyat yetilguncha himoyada turmoqchi bo'ldi.

Soqisolmas dashtidan o'tib, Nerotuga borayotganlarida kechasi yana mingga yaqin bek-u navkarlar Husayn Boyqaroni tashlab qochdilar. Buning ustiga, Nerotu qal'asiga Boyqaro tomonidan tayin etilgan Ahmad tug'chi degan dorug'a ham xiyonat yo'liga o'tdi — qal'a darvozasini ichidan bekitib, Boyqaroni qal'aga kirgizmadи.

Husayn Boyqaro ustma-ust kelayotgan bu zARBALARDAN SAROSIMAGA TUSHIB, QAYOQQA YO'L OLSHINI BILMAY TURGANDA ALI-SHER NAVOIY UNING HUZURIGA YUSUF OTLIQ BIR CHOPARNI BOSHLAB KELDI:

— Qozoqliklarda siz bilan necha yil birga bo‘lgan sadoqatli amiringiz Muzaffar barlos zabardast o‘g‘illari bilan sizning yo‘lingizga muntazir! — degan xushxabarni chopardan eshitgan Husayn Boyqaro:

— Ollohga shukur! Olamda yaxshilar ham bor ekan! — deb suyundi.

Qaysar degan joyda Muzaffar barlos to‘rt o‘g‘li va besh yuzdan ortiq askarlari bilan Husayn Boyqaro qo‘smini safiga kirdi. Yana Pirmuhammad barlos arlot qavmiga mansub uch yuz navkari bilan Husayn Boyqaro tomoniga o‘tdi.

Bundan sal ko‘ngli ko‘tarilgan Husayn Boyqaro Maymana tumanidagi bir chorborg‘ni o‘ziga qarorgoh qildi. Buning ustiga Hirotda isyon olovi alanga olayotgani haqida iztirobli xabarlar kela boshladi.

Urush paytida harbiy xarajatlar ko‘paygani uchun aholiga qo‘sishimcha soliq solingan edi. Uni undirish paytida Qutbiddin Tovus Simnoniy degan devonbegi podshoh buyurganidan ikki-uch barobar ortiq soliq yig‘dirib, uning katta bir qismini o‘z jig‘ildoniga uradi. Bu hodisadan Abdulla Xatib degan ulamo xabardor ekan, Husayn Boyqaroga ma’lum qiladi. Abdulla Xatib boshliq taftishchilar Tovus Simnoniyning soliq pullaridan uch yuz ming dinorini o‘zlashtirganini aniqlaydilar. Husayn Boyqaroning farmoni bilan bu katta mablag‘ Tovus Simnoniydan undirib olinadi. Shundan keyin u devonbegilik lavozimidan bo‘shatiladi. O‘rniga Abdulla Xatib devonbegi bo‘ladi.

Abdulla Xatib podshohning Hirotdan yiroqda urush tashvishlari bilan bandligidan foydalanib, aholiga yana yangi soliqlar soladi. Zo‘ravonlik bilan undirilgan soliq pullaridan katta bir qismini u ham o‘zlashtirib, yashin tezligida boyib ketadi.

Oyni etak bilan yopib bo‘lmaganidek, Abdulla Xatibning badnafsligi ham ko‘pchilikka ayon bo‘ladi. Endi Qutbiddin Tovus Simnoniyning tarafдорлари soliqlardan bezor bo‘lgan aholini Abdulla Xatibga qarshi qo‘zg‘atadilar.

Abdulla Xatib devonxonada o‘ltirganda bir necha ming kishilik olomon uning ustiga bostirib keladi. Qasoskor Tovus Simnoniy tarafдорларining yoniga qora qo‘yunlilarning Hirotda yurgan xu-

fiyali qo'shiladilar. Ular ataylab Husayn Boyqaroga qarshi isyon olovini alanga oldiradilar.

Abdulla Xatib o'ltirgan devonxona toshbo'ron qilinadi. De razalar sinadi, eshiklar buziladi. Abdulla Xatibning o'zi orqa yo'laklardan qochib qutuladi.

Darg'azab olomon do'konlarni talyaydi. Shaharda betartibliklar boshlanadi.

Hirotdan Maymanaga kelgan chopar bu dahshatli voqealar xabarini Husayn Boyqaroga yetkazganda yosh podshoh qattiq xavotirga tushib, Alisher Navoiy uchun tikilgan chodirga kirdi.

— Alisherbek, do'stim, olov halqasida qoldik! Hirotda ham isyon yong'ini!

Alisher Navoiy voqeaneing tafsilotlarini eshitgach:

— Rost, Xoqoni Mansur, biz hozir olov ichiga tushgan qaqnus ahvolidamiz. Xudo xohlasa, olovni o'chirib, kul ichidan yana qad rostlagaymiz!

— Zora shunday bo'lsa! Hirotda sizmi, menmi, ikkimizdan birimiz bormasak bo'lmas.

— Siz qo'shin bilan qoling, do'stim. Bosh sarkardasiz. Fa-qirga vakolat bersangiz, Hirotda men boray.

— Sizga yorliq bergaymen! Xalqni tinchitish uchun qanday tadbir zarur bo'lsa, hammasini amalga oshirgaysiz!

— Mabodo, Abdulla Xatibning aybi tasdiqlansa, uning o'rniga boshqa devonboshi tayinlashim mumkinmi?

— Mumkin! Adolatsiz soliqlarni bekor qilishingiz uchun ham vakolat berilgay! Faqat o'zingizni ehtiyoq qiling, Alisherbek!

HAYOT-MAMOT OLISHUVI

Alisher Navoiy Gavharshod begin madrasasi oldidagi katta maydon va xiyobonga to'plangan izdihom oldida Husayn Boyqaroning yorlig'ini o'qib eshittirdi.

— Qo'shimcha soliq olish to'g'risida podshoh hazratlari hech qanday farmon bergen emaslar! — dedi. — Bu soxta farmonni Abdulla Xatib bilan uning hamtovog'i Nizomiddin Baxtiyor Simnoniy o'z manfaatlari uchun o'ylab chiqarmishlar!

— Abdulla Xatib bilan Xo'ja Nizomiddin osib o'ldirilsin! — deb talab qildi izdihom orasida turgan Qutbiddin Tovus Simnoniyning tarafдорлари.

Bu ikki Simnoniy bir-biriga ashaddiy dushman ekanini Mir Alisher yaxshi bilar edi. Husayn Boyqaroni shia mazhabiga o'tkazishga harakat qilgan buzg'unchi xo'jalardan biri ham mana shu Nizomiddin Baxtiyor Simnoniy edi.

— Osib o'ldirishga faqat podshoh hazratlari hukm etishlari mumkin, — deb javob berdi Alisher Navoiy, — ammo bizga hibs qilish vakolati berilgan.

Mir Alisherning buyrug'i bilan Nizomiddin Baxtiyor Simnoniy hibs qilindi, Abdulla Xatib allaqayoqlarga qochib ketgan edi. Izlab topilganda uni ham hibs qilish shahar dorug'asiga topshirildi.

Xiyobonga to'plangan xaloyiq orasida Qutbiddin Tovus Simnoniyning qarindosh-urug'lari va tarafдорлари ko'p edi. Xazina foydasiga uch yuz ming tilla jarima to'lash uchun Qutbiddin Tovus Simnoniy ko'pgina qarindoshlari va yaqinlaridan qarz olgan edi. Ana shu qarindoshlari va yaqinlari unga bergen qarzlarini undirib olish umidida Qutbiddin Simnoniyni devonbegilik lavozimiga qayta tiklashni talab qila boshladilar:

- Abdulla Xatib Qutbiddin Tovus janoblariga tuhmat qilgan!
- Jarima noto'g'ri undirilgan!
- Qutbiddin Tovus halol odam! Lavozimiga qayta tiklansin!
- Amir Alisher, adolat qiling!
- Tovus Simnoniy janoblarini tuhmat balosidan qutqaring!

Dengizday to'lqinlanayotgan bir necha ming kishilik olomon adolatga tashna edi. Mir Alisher Qutbiddin Tovusning musichai beozorlardan emasligini bilardi. Lekin uning ustidan shikoyat qilgan Abdulla Xatib ham badnafs g'arazgo'y ekanligi ma'lum bo'ldi. Ularning qaysisi qay darajada haq va nohaq ekanini aniqlash uchun katta tekshirish o'tkazish lozim. Bunga hozir fursat yo'q. Mir Alisher qanday qilib bo'lsa ham aholini tinchitishi kerak.

— Xaloyiq! Podshoh hazratlari Hirotg'a qaytganlaridan so'ng yana taftish o'tkazurlar. Ungacha biz podshoh bergen vakolatdan foydalaniib, janob Qutbiddin Tovus Simnoniyni vaqtincha yana devonbegi qilib tayin etgaymiz!

- O, rahmat sizga hazrat Alisher!
- Tashakkur!
- Jur'atingizga tasanno, Amir Alisher! — degan xitoblar ustma-ust yangradi.

Mir Alisher Hirotni tinchitib qaytar ekan, podshohning avvalgi farmoniga qarshi borgani, Boyqaro ishdan bo'shatgan Qutbiddin Tovusni yana devonboshi qilib tayinlagani do'stining iz-zat-nafsga tegmasmikin, deb xavotirlanardi.

Lekin Husayn Boyqaro mayda-chuyda izzat-nafsga berilmaydigan, so'zidan qaytmaydigan mard odam ekanligini yana bir marta isbot qildi.

— Eng muhimi, g'alayonni bartaraf qilibsiz! — dedi Mir Alisherga. — Simnoniy vaqtinchá devonboshi bo'lib tursa turar. O'zim borib yana taftish o'tkazdirgaymen. Do'stim Alisher, men sizga to'qqiz martagacha e'tiroz qilish huquqini bergen edim. Bu ikkinchisi bo'ldi.

— Ikkinchisi? — tushunolmay so'radi Mir Alisher. — Birinchisi qaysi edi, Xoqoni Mansur?¹

— Birinchisi — bizni shia mazhabidan qaytarganingiz emas-midi? Agar Imomi A'zam yo'lidan qaytsak, g'alayonlar bundan o'n hissa ortiq bo'lishiga endi ko'zim yetmoqda. Tashakkur sizga, Mir Alisher. Xudo sizni menga do'sti najotkor qilib yuborgani uchun shukrona ayturmen.

— Sizdek mard podshohga do'sti najotkor bo'lish — men uchun eng yuksak sharafdir!

Ammo bu ikki do'stga ko'z tikkan balolar kun sayin ko'payib bormoqda edi. Qora qo'yunlilar podshosi Amir Hasanbek Husayn Boyqaroning Balx tomonlarda Mahmud Mirzo tajovuzini bar-taraf qilish bilan band bo'lib qolganidan xabar topgach, Tusda qo'shin bilan turgan Yodgor Mirzoga o'z o'g'li Sulton Xalil va inisi Zaynalbek boshchiligidagi yana bir necha ming navkarni yordamga yubordi.

Buning xabari Hirotgaga ham yetib keldi-yu, Husayn Boyqaroning barcha g'animlarini qo'zg'atib yubordi.

¹ *Mansur* — g'olib.

Bu g‘animlarga endi Poyanda Sulton begin degan ayol kishi bosh bo‘ldi. Husayn Boyqaroning onasi podshohning taxti turgan muhtasham Bog‘i Zog‘on qasrida yashayotgani Poyanda Sulton beginning hasadini keltirmoqda edi. Qirq besh yosh-lardagi bu ayol juda ko‘p ichki nizolarga sabab bo‘lgan Alouddavla Mirzoning singlisi edi. Yodgor Muhammad Mirzo uni «amma» derdi. Bundan o‘n ikki yil burun mana shu ammasi yetti yoshli Yodgor Mirzoni qora qo‘yunlilarning o‘sha vaqt dagi podshosi Jahonshohga berib yuborgan edi.

Jahonshohning vafotidan so‘ng Yodgor Mirzo Amir Hasanbek saroyiga xizmatga o‘tgan, hozir uning farmonbardoriga aylangan edi.

Poyanda Sulton begin Yodgor Mirzoni bobosi Shohrux Mirzoning taxtiga chiqarishni va o‘zi uning homiysi bo‘lishini tun-u kun orzu qilardi. Shu orzuni ro‘yobga chiqarish yo‘lida nimaiki qo‘lidan kelsa qilar, Hirotdagi ichki ahvol haqida Amir Hasanbekning xufiyalariga aniq ma’lumotlar berib turardi.

Hirotda Husayn Boyqaro bilan chaplashib qolgan Faridun barlos va Ahmadbek degan amirlar bor edi. Poyanda Sulton begin ana shu amirlar yordamida devonboshi Qutbiddin Tovusni o‘z tomoniga og‘dirdi. Keyin hammalari birlashib, miliadiy 1470-yilning javzo oyi oxirlarida Husayn Boyqaroni o‘zlaricha taxtdan tushirgan bo‘ldilar. Uning o‘rniga Muhammad Yodgor Mirzoni Xuroson podshosi deb e’lon qildilar va juma namozida Abdulla Xatibni ishga solib, Yodgor Mirzoning nomini xutbaga qo‘shib o‘qitdilar.

Yodgor Mirzo yetti ming kishilik qora qo‘yunlilarni boshlab kelgan amir Hasanbekning o‘g‘li Sulton Xalil va inisi Zaynalbeklar bilan birga saraton oyi kirgan issiq kunlarda Hirotda ya-qinlasha boshladи. Poyanda Sulton begin otlanib o‘z tarafdorlari bilan Hirotdan chiqdi va yangi podshohni bir kunlik yo‘lda ta’zim-u tavozelar bilan kutib oldi.

Qora qo‘yunli amirlar Hirotning eng salqin bog‘larini avvalgi egalaridan tortib oldilar. Hirotda va uning atrofidagi viloyatlarda amaldorlar shitob bilan o‘zgartirildi. Viloyatlardagi birinchi darajali rahbarlik o‘rinlariga qora qo‘yunlilar o‘z odamlarini qo‘ydilar. Yangi amaldorlar talonchilik va jabr-zulmni

avj oldirdilar. Barcha jome masjidlarida Amir Hasanbek nomi «Abulmuzaffar» nisbasi bilan xutbaning bosh qismiga qo'shib o'qildi va u Xurosonning oliv hukmdori deb e'lon qilindi. Yodgor Mirzo esa uning itoatidagi noiblik unvoni bilan qanoatlandi.

Davlatni boshqarishdek murakkab ishdan bexabar Yodgor Mirzo Bog'i Zog'on qasriga joylashib, aysh-u ishratga berildi. Qutbiddin Tovus Simnoniy Husayn Boyqaroning yashirgan xazinalarini va barcha ichki sirlarini qora qo'yunlilarga sotdi va shuning evaziga bosh vazir lavozimini egalladi.

Qora qo'yunlilar oldida Poyanda Sulton beginning xizmati ham katta edi. Unga barcha mol-u mulk ishlarini boshqaradigan vazirlik lavozimi topshirildi.

Gavharshod beginidan ham nufuzliroq malika bo'lish orzusida yurgan Poyanda Sulton Bog'i Safed qasriga ko'chib o'tdi. Hirotning Bog'i Muxtor, Bog'i Zubayda, Bog'i Shahr kabi mashhur qasrlariga Poyanda Sulton begin qora qo'yunli amirlarni joylashtirib, ularning ko'nglini oldi.

Bugun qora qo'yunlilarning jousiga aylangan Amir Sherhoji ham Yodgor Mirzo qo'shini bilan Hirotg'a qaytib kelgan edi. Unga Husayn Boyqaroning xizmatida yurgan birinchi darajali amir Burunduq barlosning ulkan hovli-joylari va chorborg'i berildi. Amir Sherhoji Burunduq barlosning bolalari bilan xizmatkorlarini urib-so'kib hovlidan haydab chiqardi-yu, tayyor mol-mulk va uy-ro'zg'or jihozlariga ega bo'lib oldi.

Hirotdan qochib Maymanaga kelayotgan odamlar bu voqealar xabarini Husayn Boyqaroga yetkazib turardilar. Qora qo'yunlilar hatto tarixchi olim Mirxonning ham hovli-joyini tortib olibdilar, o'zini ahli ayoli bilan ko'chaga hayabdilar. Ellik besh yoshli nuroni olim o'smir o'g'li Xondamir bilan Maymanada Husayn Boyqaroning huzuriga kelib, ko'zda yosh bilan arz qildi:

— Xuroson xalqining butun umidi sizdan, Xoqoni Mansur! Yodgor Mirzo mag'rurlik bodasi kayfiyatidan goh mast, goh behush. Mamlakat xarob bo'lgani bilan ishi yo'q. O'zi bir befahm yigit ekan. Qora qo'yunlilarning zulmidan el-yurtning sabr kosasi to'lgan. Murg'ob bo'yiga hokim bo'lib turgan Shayx Hasan

Temur ham qora qo‘yunli Ali Jaloyir bilan yog‘iylashib qolmishdir. Erta-indin u ham sizga kelib qo‘shilmoqchi.

— Buni sizga kim aytdi, mavlono?

— O‘zi aytdi. Saraxs yo‘lida u bilan ko‘rishdik. Jurmkon orqali Maymanaga kelmoqchi ekan.

Husayn Boyqaro so‘nggi xushxabar uchun Mirxonida tashakkur aytdi. Yasovulni chaqirib, uni o‘g‘li bilan alohida chodirga joylashtirishni va barcha kerakli narsalar bilan ta’minalashni buyurdi.

Shundan so‘ng birpas o‘ylanib o‘ltirdi-da, keyin qo‘shti chodirda turadigan Mir Alisherni chaqirtirdi.

— Bir tavakkal qilsak ne deysiz, Alisherbek?

— Xoqoni Mansurning tabiatlarida tavakkalchilik bor.

— Ammo bu galgisi juda qaltis. O‘ylab ko‘ring. Hirot bilan uning atroflarida Yodgorning besh ming bek-u navkari bor. Yana to‘rt ming qora qo‘yunli unga yordamga kelgan. Bizning mingtagina odamimiz qolgan. Ochiqchasiga masof¹ urushda g‘alaba qilmog‘imiz amrimahol. Urushda yana qancha qon to‘kilgay, talafot bo‘lgay. Undan ko‘ra tunda Yodgor Mirzo g‘aflat uyqusida yotganda ozroq odamimiz bilan yashirinchcha borib bossak... qora qo‘yunli qopqoniga tushib qolmasmikanmiz?

Mir Alisher ovozini pasaytirib dedi:

— Qopqonni chetlab o‘tmoq mumkin.

— Demak, siz ham tavakkal qilishga tarafdorsiz?

Mir Alisher chodir tashqarisida turgan soqchilar eshitolmaydigan darajada ovozini pasaytirib, javob berdi:

— Ha, bunday tavakkalchilik Sohibqiron bobokalonin-gizning tajribasidan o‘tgandir.

— Qayerda?

— Qarshida. Rahmatli Gavharshod begim Bog‘i Safedda bizga Yazdiy «Zafarnoma»si bo‘yicha saboq berganda hikoya qilgan edilar, yodingizdam!

— Ha, ha, bobokalonimiz o‘shanda necha yoshda bo‘lgan ekanlar?

— Yigirma yettida. Siz bugun o‘ttiz ikkidasiz. Faqir yigirma to‘qqizdamen. Ayni tavakkal qiladigan yigit yoshidamiz. Faqat

¹ *Masof urush* — yasal tuzib, yuzma-yuz urushish.

yog‘iy tomondan aniq ma’lumotlar olmog‘imiz zarur. O’shanda Qarshi qal’asini chingiziylar o’n ikki ming askar bilan qo‘riqlab turgan ekan. Temurbek ikki yuz qirqta odami bilan tunda borganlar, avval til olib, ahvolni aniq bilibdirlar. Qarshidagi yog‘iyalar ham aysh-u ishratga berilib, tamom beparvo uxlab yotgan ekanlar. Qal’ani Temurbek egallagandan keyin uyg‘onib, hujum qilganlar. Ammo Qarshi aholisi Temurbekka ko‘mak bergen. Chingiziylar zulmidan bezgan butun xalq to‘rt tarafdan kurashga otlanur. Shu tarzda oz sonli qo‘sish tadbir-u tavakkal bilan ellik barobar ko‘p lashkar ustidan g‘alaba qozongan ekan.

— Shoyadki bizga ham shunday zafar nasib etsa! Eng yaqin amirlarni to‘plab mashvarat qilaylik!

— Xoqoni Mansur, mashvarat bobida shoshmaganimiz ma’qul. Chunki ikkilanib turgan bek-u navkarlar bor. Ulardan birortasi yog‘iy tomonga qochib borib sirni oshkor qilsa, qopqonga tushib qolishimiz mumkin. Xoin esa bu xizmati uchun istagan martabasiga erishgay.

— Yuzini teskari qilsin xoinning! Fikringiz ma’qul. Men avval Hirotdan aniq axborot olib keladigan odamlarni ishga solgaymen.

Axborot oluvchi yigitlar orasida eng botiri va mohiri Sherim qorovul¹ degan navkar edi. O’sha kecha podshoh uni aniq topsiriqlar bilan Hirotga jo‘natdi.

Ertasi kuni barcha bek-u navkarlar bilan Maymanadan ko‘chdilar. Bek-u amirlar orasida «Qayonga bormoqdamiz? Maqsad nedur?» degan shivir-shivir ko‘paydi. Tog‘kon degan joyga yetganlarida Hirotga ketgan Sherim qorovul Yodgor Mirzo qarorgohidan bir mulozimni «til» qilib, tutib keldi.

«Til»ning bergen aniq javoblaridan ma’lum bo‘ldi-ki, Yodgor Mirzo Bog‘i Zog‘on atrofiga soqchilar ham qo‘ymasdan butunlay beparvo ahvolda kayf-u safo qilib yotibdi. Shuni aniq bilganlaridan so‘ng podshoh barcha amirlarni maxfiy mashvaratga yig‘di va Alisherbek bilan birga tuzgan rejalarini aytib berdi.

Sherim qorovul keltirgan axborotni ham eshitgan amirlar tavakkal qilib borish haqidagi rejalarini ma’qulladilar.

¹ *Qorovul* — u zamonda aylag‘oqchi ma’nosini bildirgan.

Bog‘i Zog‘onda bir yildan ortiq yashagan Husayn Boyqaro uning qayerida nima borligini, darvozalari qaysi tomonga ochilishini yaxshi bilardi.

Eng ishongan amirlaridan Muzaffar barlosga bir yuz ellik navkar bilan bog‘ning markaziy darvozasini ochish topshirildi. Har ehtimolga qarshi Yodgor Mirzo bu kecha qayerda, qanday tunayotganini aniqlash uchun Xusrav Muhammad degan yana bir botir yigit Bog‘i Zog‘ondan til olib kelish uchun yuborildi. Bu yigit Yodgor Mirzo uxbab yotgan qasr soqchilaridan birini tutib keldi. Soqchi bergen ma’lumot ham avvalgidek edi. Yodgor Mirzo hech qanday xavf-xatardan ogoh emas, dong qotib uxlamoqda.

Bundan dadillangan Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni eng ishonchli sakson nafarsovut kiygan navkarlar bilan o‘z yoniga oldi. Xiyobon deb atalgan ko‘chadan Bog‘i Zog‘onga yo‘l oldi.

Saraton issig‘ida Yodgor Mirzoning shahar tashqarisidagi bog‘da salqinlab yotgani ishni bir qadar osonlashtirardi. Lekin Bog‘i Zog‘onning o‘zi juda katta maydonni egallagan, to‘rt tomonida to‘rtta mustahkam darvozasi bor, uch oshiyonlik qasri esa baland tepalik ustiga qurilgan edi. Muzaffar barlos o‘z yigitlari bilan markaziy darvozani jangsiz egalladilar. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy shu darvozadan kirib, tepalik ustidagi qasrga yaqinlashdilar.

Qasr sukutga cho‘mgan edi. Ehtimol, Yodgor Mirzo yovini poylab pusib turgandir? Uning juda botir qilichboz yigit ekani ko‘pchilik orasida ovoza bo‘lgan edi. Shuning uchunmi, sukutga cho‘mgan qasr tomonga birinchi bo‘lib otilib borishni istagan bek-u navkar bo‘lmadi. Shunda Alisher Navoiy otidan sakrab tushdi-yu, belidagi qilichining sopidan tutgan holda:

— Xoqoni Mansur, menga ijozat bering! — dedi.

Husayn Boyqaro do‘smini xatarli ishdan qaytarmoqchi bo‘ldi:

— Siz shoshmang, Mir Alisher. Balki boshqalar...

Ammo boshqalardan sado chiqmadi. Shundan so‘ng:

— Mir Alisherga ijozat berdik, faqat eng botir navkarlardan yoningizga oling! — dedi.

To‘rt navkar Alisher Navoiyni o‘rtaga olib, marmar zinalardan tepalikka ko‘tarila boshladilar.

Alisherbek qilichining tosh zinalarga noxosdan urilib jaranglab ketmasligi uchun uning dastasidan mahkam tutib, baquvvat yigitlarga xos yengil harakatlar bilan qasrga chiqib bordi.

Yodgor Mirzo par-u to'shakda mast uyquda yotgan edi. Ipak parda ortida bittagina sham lipillab yonib turardi.

Po'lat jarangidan uyg'onib ketgan Yodgor Mirzo cho'chib ko'zini ochdi-yu, xobgohga qilich yalang'ochlab kirgan notanish odamlarni ko'rdi. Oqshom ichgan mayining kayfi bir lahzada tarqab ketdi. Bosh tomonida turgan qilichini olmoqchi bo'lib qo'l cho'zganda, Mir Alisher navkarlarga buyurdi:

— Tuting buni! Ilkini bog'lang!

Qo'li orqasiga bog'langan Yodgor Mirzoni navkarlar ikki qo'ltig'idan tutib, pastda kutib turgan Husayn Boyqaroning oldiga olib tushdilar.

Bog'i Zog'on darvozalarini egallab, ichdan bekitgan Mu-zaffar barlos va boshqa bek-u navkarlar podshoh turgan joyga yig'ilib kelganda tong endi yorisha boshlagan edi.

Husayn Bayqaro do'sti Mir Alisherga yuzlandi:

— Amir Nizomiddin Alisher, siz bugun botirlik namunasini ko'rsatdingiz. Men siz bilan iftixor qilurmen. Amir Mu-zaffar barlos, sizdan va boshqa hamma bek-u navkarlardan minnatdormen!

Yodgor Mirzo ozariy tilda Husayn Boyqaroga arz qildi:

— Olampanoh, yetti yoshimda bani qora qo'yunlilar olib gittilar. Yana unlar buraga olib kildilar. Hansi¹ aybim uchun elimni bag'lamishlar?

— Nodon yigit, aybingizni bilmasangiz, men sizga buyuk momongiz Gavharshod begin aytil berган bir rivoyatni es-latay. Zaharli ilonlar ona lochinning uyasiga ilon tuxumlarini qo'yib ketgan ekan. Bu tuxumlardan lochin polaponlari o'rniغا ilonbachchalar chiqqanda, ona lochin dahshatga tushib, faryod chekkan ekan. Siz ham lochin uyasidan chiqqan ilonbachchaning ishini qildingiz. Xurosonni bosqinchilar oyog'i ostiga tashlab toptatdingiz. Amir Hasanbekning ilkida qo'g'irchoq

¹ *Hansi* — qaysi.

podshoh bo‘lib xizmat qildingiz. Janob amirlar, ayting, bunday og‘ir gunohlar uchun qanday jazo lozim?

— O‘lim! — dedi Muzaffar barlos.

— Balki Ixtiyoriddin qal‘asida hibsda saqlash kerakdir? — ikkilandi Husayn Boyqaro. — Har qalay, bu ham temuriyzo-dalardan...

— Xoqoni Mansur, siz buni «qo‘g‘irchoq podshoh» deb to‘g‘ri aytdingiz, — arz qildi Mir Alisher. — Qo‘g‘irchoqning ipi qora qo‘yunlilar ilkidadir. Agar buni hibsda saqlasak, Amir Hasanbek qo‘g‘irchog‘ini ozod qilish bahonasida yana qo‘sish tortib kelgay. Qaytadan urush bo‘lg‘ay, behuda qon to‘kilgay.

— Mir Alisherning uzoqni o‘ylab aytgan so‘zlari haq! — dedi Muzaffar barlos. — Yana urush olovida kuymaslik uchun qo‘g‘irchoq podshohning ipini bir yo‘la kesib tashlamoq darkor!

Ko‘pchilik amirlar shu fikrda bo‘lganliklari uchun Yodgor Mirzo o‘sha soatdayoq qatl etildi.

Tong otganda shahar ko‘chalariga chiqarilgan jarchilar Husayn Boyqaroning Hirotga qaytganini, Yodgor Mirzo Bog‘i Zog‘onda qatl etilganini e’lon qildilar. Ko‘pchilik hirotliklar bu xabarlardan ruhlanib, ko‘cha va maydonlarga yopirilib chiqdilarni. Husayn Boyqaroning askarlari tong saharlab shaharning eng muhim joylarini egallagan edilar.

Hirotni va butun Xurosonni qora qo‘yunlilar asoratidan ozod qilishda podshoh qo‘siginiga butun xalq dovyurak yoshlarni bera boshladilar.

Yodgor Mirzoning qatl etilganini eshitgan ammasi Poyanda Sulton beginmavima ichida Bog‘i Safeddan qochib qoldi. Ko‘chada uni tanigan yosh-yalanglar ketidan toshlar otib:

— Yo‘qol, yalmog‘iz, sharmanda, qora qo‘yunlilarning qo‘shmachisi! — deb quvdilar.

Poyanda beginmavim o‘zining avvalgi kichkina hovli-joyiga qaytib borib, darvozasini ichidan berkitib oldi. Shundan keyin u ko‘chaga chiqolmaydigan, mabodo chiqsa ta’na-yu dashnom eshitib, yana hovlisiga kirib bekinadigan bo‘lib qoldi.

Shu tarzda bu beginmavim o‘zini o‘zi xonaki hibsga mahkum qildi. Buni eshitgan Husayn Boyqaro: «Ayol kishiga shu jazoning o‘zi yetgay» deb, boshqa jazoga buyurmadi.

Devonbegi Qutbiddin Tovus Simmoniy shahardan qochib chiqib ketayotganda qo‘lga tushdi. So‘nggi xoinligi va avvalgi o‘g‘irliklari uchun maydonga to‘plangan xaloyiq oldiga chiqarilib, bo‘ynini kundaga qo‘ydilar va boshini oybolta bilan kesib tashladilar.

Burunduq barlosning hovli-joyini egallagan Sherhoji jazordan qo‘rqib, tog‘larga qarab qochdi. Burunduq barlos o‘z odamlari bilan uni o‘rmonzor bir darada quvib yetdi.

Burunduq barlosning yonida Gavharshod beginning jiyan NiZomiddin Ahmad Tarxon ham ot choptirib kelmoqda edi. Burunduq barlos Sherhojini kamondan nishonga olib ot-dan qulatmoqchi bo‘lganda Ahmad Tarxon uning qo‘lidan tutdi:

— Shoshmang, janob amir! Bu iblisga bir o‘q yetarli emas! Qancha begunoh Tarxon amirlarini ziyofat dasturxoni ustida o‘ldirdi. Gavharshod beginni tuhmat bilan qatl ettirdi. Abul-qosim Boburni ajalidan oldin o‘ldirgan ham shu. Butun umri qotillikdan iborat! Buning jinoyatlari tog‘day ulkan, o‘pqonday tubsiz! Endi buni tog‘larimiz bosib chilparchin qilsin, o‘pqonlar yamlab yutsin! Ho‘, ana o‘sha baland qoyatosh ustiga quvib chiqaraylik. Naryog‘i tosh jar. Qochib qutulolmagay!

Ahmad Tarxon ko‘rsatgan tik qoyatosh ustiga ot chiqolmas edi. Ot yurolmay qolgan joyda Sherhoji egardan tushib, piyoda qocha boshladi. Ahmad Tarxon va Burunduq barlos qiyofasida uni naqd o‘lim quvib kelmoqda edi. Buni sezgan Sherhoji jon-jahdi bilan qoyatosh ustiga qochib chiqdi.

Atrofini o‘rab kelayotgan menganlar yoy o‘qi bilan uni nishonga olayotganlariga ko‘zi tushib, vahimasi battar oshdi. Sarosima ichida qoyatoshning narigi pana tomoniga o‘zini otdi.

Biroq qoyaning narigi tomoni ikki yuz quloch balandlik-dagi tosh jarzov edi. Zov tagidan o‘tgan Hirot daryosi tog‘lar-dan kelgan sel bilan to‘lib-tushib oqmoqda.

Uzoqdagi qora bulut ichida chaqmoq yalt-yult qilar, shatir-shutur do‘l yog‘ar, jala va do‘ldan hosil bo‘lgan ulkan sel Hirot daryosiga tushib, shag‘irlab o‘tmoqda edi.

Menganlar o‘qidan qochib, tosh jar tomoniga o‘zini otgan Sherhoji ikki yuz qulochlik balandlikdan pastga qulab ketdi.

Qirrali xarsangtoshlar ustiga qulab tushayotganini ko'rib jon achchig'ida:

— A-a-a-a! — deb qichqirgani uzoqlargacha eshitildi.

Katta balandlikdan o'tkir qirrali xarsangtoshlar ustiga chalqancha tushgan Sherhojining boshi tanasidan uzilib ketdi. Uriish zarbidan bosh ham, tana ham qapchib borib, shag'irlab oqayotgan sel ichiga tushdi. Sel yumalatib o'tayotgan katta toshlar, ildizi bilan sug'urib olingan daraxtlar qop-qora vahshiy oqim ichida Sherhojining parchalangan tanasini loyqaga ko'mib, yo'q qilib yubordi.

Qoyatosh tepasida turib buni ko'rgan Burunduq barlos dahshat ichida yoqasini ushladi:

— Yo tavba! Qilmish-qidirmish deganlari shumikan?

— Ha, qasos qaytgani ham shu, — dedi Ahmad Tarxon. — Bir buzg'unchi mal'undan qutuldik. Yuring, endi yaxshi odamlarning oldiga qaytaylik.

* * *

Shundan keyingi uch kun davomida Hirot g'alaba shodiynasi va bayram tantanalari og'ushida bo'ldi. Shohrux Mirzo va Gavharshod begin madrasalarining oldidagi ulkan maydon barcha shodiyonalarning markaziga aylandi. Tagiga silliq toshlar to'shalgan ulkan maydonning chor atrofi bayramona bezaldi. Maydon markaziga maxsus shahnishin o'rnatildi, unga nodir gilamlar, zarbof ko'rpachalar to'shaldi. Xontaxtalarga nozune'matlar qo'yildi.

Oftob tog' ortidan endi ko'tarilayotganda podshoh Husayn Boyqaro va uning o'ng yonida Alisher Navoiy maydonda paydo bo'ldilar. Maydon atrofida yuzlab odamlar ularni olqishlar bilan kutib oldilar.

Shahar hokimi va shayxulislom podshohning ikki tomonidan borib, uni oltinlar bilan bezatilgan shahnishinga o'tqazdilar.

Alisher Navoiy boshliq bek-u a'yonlar shahnishin atrofiga to'shalgan zarbof ko'rpachalarga qo'r tortib o'ltirdilar. Shahnishing yaqinidagi baxmal o'rindiqlardan qorilar joy oldilar va podshohning ishorasi bilan Shohrux Mirzo hamda Gavharshod

begin ruhlariga bag‘ishlangan tilovatni baland ovoz bilan chiroyl qilib o‘qidilar. Hammalari yuzlariga fotiha tortganlari dan keyin shayxulislom podshohdan so‘zlashga ruxsat oldi-yu, balandparvoz so‘zlar aytib, podshohni qahramonona g‘alabasi bilan tabrikladi.

Shundan keyin Husayn Boyqaro yig‘ilganlarga qarata so‘z aytidi:

— Aziz va muhtaram hirotliklar! Mana shu biz turgan joy-larga Sohibqiron bobokalonimiz Amir Temurning ham unutil-mas mehnatlari singgan. Valine’matimizning ulug‘ ruhi umr bo‘yi bizga madad berib keladi. Hozirgi g‘alabamizga ham av-valo xudo, soniyan shu ulug‘ bobomizning ma’naviy madadi bilan erishdik. Sohibqironning suyukli farzandi, qirq yildan ortiq ulkan sultanatni otalari kabi donolik bilan boshqargan Xoqoni Sa‘id — Shohrux podshohning buyuk sa’y-harakatlari bilan Samarcand shahrining markazida Sohibqironga atalgan olamshumul maqbara bunyod etildi. Ikki kun burun biz Hirot-dan borib, shu ulug‘vor maqbarani ziyorat qildik. Sohibqiron maqbarasining ziyoratiga kelgan Hindiston, Xitoy, Farangiston, Olmoniya va boshqa davlatlarning elchilarini kutib oldik, hurmatlari uchun shohona dasturxonlar yozdik. Ular tinchlik va barqarorlik tarafdiridirlar. Buyuk Ipak yo‘li yana ishga tushgani-dan juda mammunlar. Biz bugun ham Buyuk Ipak yo‘llaridan o‘tayotgan karvonlarni ko‘rdik. Tinch, barqaror davlatda yasha-yotganimiz uchun parvardigorga shukronalar aytamiz. Tinchlik va barqarorlik uchun jonini fido qilgan buyuk siymolardan biri Mahdi Ulyo Gavharshod begin edilar. Bu ulug‘ malika bizni mana shu madrasalarda o‘qitgan edilar. Bizni o‘z farzandlariday mehr bilan tarbiya etgan edilar. Iloyo joylari jannatda bo‘lsin. Shunday shodiyona kunda biz eng oliy ehtiromimizni, avvalo, Sohibqiron bobokalonimizga bag‘ishlaymiz. Sohibqironning o‘g‘li va kelinlari biz uchun qurib ketgan madrasalar oldidagi may-donga ziyoratga keldik! Xudo xohlasa, Hirot tez kunda Shohrux podshoh davridagidek obod va go‘zal bo‘lg‘usidir. Biz bu oliyanob ish uchun barcha kuch-quvvatimizni sarf etgaymiz!

Husayn Boyqaro maydon atrofida turgan yuzlab odamlarga bir ko‘z yogurtirib chiqdi-da:

— Sizlarga bir yangilikni aytmoqchimen. Hirot aholisi og‘ir soliqlardan azob tortmoqda ekan. Xususan, lashkar zari va xorijiy degan soliqlar... Bormi shunday soliqlar?

— Bor!

— Jonga tekkan! Bor! — degan tovushlar eshitildi.

— Bo‘lmasa, mana qaranglar! — Boyqaro farmon yozilgan bir varaq qog‘ozni boshiga ko‘tarib ko‘rsatdi-da:

— Mana, yangi farmonimizga binoan bu soliqlar ertadan boshlab uch yilgacha to‘xtatilg‘aydir!

— O, rahmat!!!

— Tashakkur, shahanshoh! — degan xitoblar to‘rt tarafdan yog‘ildi. Hamma duoga qo‘l ochib, podshohga uzoq umr tilaganda:

— Ollohu akbar! — degan takbir yangradi.

Bu tadbirning ziyofti ham katta bo‘ldi. Podshohning in’omi tarzida Hirotning butun aholisiga hamma mahallalarda to‘y oshi berildi. Buning uchun uch yuz qo‘y, oltmisht bosh yirik qoramol¹ so‘yildi. Oshga kerakli boshqa hamma masalliqlar davlat hisobidan olindi va butun shaharda uch kun to‘y bo‘ldi!

(Tamom)

¹ Ushbu raqamlar A. Samarqandiyning «Matlai sa’dayn va Majmai bahrayn» kitobida keltirilgan.

MUNDARIJA

Tog‘larga tarmashgan bulutlar	3
Taqdir taqozosi	16
Intihosiz olishuvlar	23
Abdullatifning ilk isyoni	28
Shohlarga fido malika	42
Daryoga qulagan tog‘	55
Momosiga qasd qilgan nevara	59
Ona va o‘g‘il iztiroblari	64
Uyasidan ilon chiqqan lochin	72
Tahlikali zamon	78
Dahoga ko‘z tikkan balolar	90
Suiqasd	99
Qonli qilich va haq so‘z	112
Ruhiy qiynoqlar	118
Chaqmoqday yaltillab so‘ngan umr	126
Kuygan qanotlar	140
Noqobil chevaralar kasofati	156
Uyat o‘limdan yomon	165

So'nggi tasalli	173
Qatag'on	180
Shahid momo yodi	187
Quvg'in qilingan iste'dodlar	191
Hirotg'a sig'magan daho	204
Hayotdan qaytgan qasos	209
Olov halqasida	227
Hayot-mamot olishuvi	239

Adabiy-badiiy nashr

Pirimqul Qodirov

SHOHRUX VA GAVHARSHOD

Tarixiy roman

Muharrir *L. Igamova*

Rassom va dizayner *I. Yuldashev*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrir *D. Xolmatova*

Musahhih *S. Salohutdinova*

Kompyuterda tayyorlovchi *L. Abkerimova*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.09.

Bosishga 2014-yil 8-iyulda ruxsat etildi. Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi
84×108¹/₃₂. «Tayms» garniturada ofset usulida bosildi. Shartli bosma
tabog‘i 13,44.

Nashr tabog‘i 14,15. Adadi 3000 nusxa.

Bahosi shartnoma asosida. Buyurtma № 14-78.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Телефон: (371) 244-87-55, 244-87-20

Факс: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: iptduzbekistan@mail.ru

www.ipptd-uzbekistan.uz

Qodirov, Pirimqul

Q53

Shohrux va Gavharshod [Text]: «Ona lochin vidosi» romanining to‘ldirilgan yangi nashri «Tog‘larga tarmashgan»: tarixiy roman / P. Qodirov. — Toshkent: «O‘zbekiston», 2014. — 256 b.

ISBN 978-9943-28-012-0

Temuriylar sulolasini yuksaltirishda Sohibqironning sadoqatli o‘g‘li Shohrux Mirzo qanday fidoyilik va donolik bilan faoliyat ko‘rsatgani ushbu romanning markaziy mavzularidandir. Ulkan sultanatni parchalanib ketish xatarlaridan saqlab qolishda Shohrux Mirzoga suyukli umr yo‘ldoshi Gavharshod begin va buyuk olim o‘g‘li Ulug‘bek Mirzo yaqindan yordam bergenliklari romanda aniq tarixiy faktlar asosida tasvirlanadi. Dramatik voqealarga boy bu asarda ulug‘ shoir Alisher Navoiy va uning do‘siti Husayn Boyqaroning yoshlilik davrlariga va tarixda yorqin iz qoldirgan olivjanob ishlariga ham alohida o‘rin beriladi.

Asarning ilk varianti «Ona lochin vidosi» nomi bilan chop etilgan va kitobxonlar tomonidan yaxshi kutub olingan edi. Romanning ushbu to‘ldirilgan nashrida Xoqoni Sa’id nomini olgan Shohrux Mirzoning buyuk o‘g‘li Ulug‘bek va donishmand umr yo‘ldoshi Gavharshod begin ibratlari bir oila sifatida Sohibqiron yaratgan ulug‘ sultanatni qirq yildan ortiq adolat bilan boshqarib, temuriylar sulolasining rivojiga ulkan hissa qo‘shganliklari muhtaram kitobxonlarda yorqin taassurot qoldiradi, degan umiddamiz.

**UO‘K: 821.512.133-1
KBK 84(5Ў)6**



«O'ZBEKİSTON»

ISBN 978-9943-28-012-0

9 789943 280120